



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

G'AFUR
G'ULOM

14

821.512.133.3

G 79



G'AFUR G'ULOM



“O’ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'ribo耶ev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Rustam Musurmon

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamlı, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

**Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2026126-54**

O'ZBEKNING O'Z SHOIRI

Xalqimiz o'zining ardoqli farzandi, XX asrning zabardast shoirlaridan biri G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligini¹ keng nishonlamoqda. G'afur G'ulomning nomi, bosib o'tgan hayot yo'li, serqirra ijodi barchamizga yaxshi ma'lum. Shoир o'zining bir she'rida faxr-u g'urur, erklik bilan aytgani singari:

*G'afur G'ulom kimligini bilasiz,
Adresimdir O'zbekiston, shubhasiz.*

G'afur G'ulom o'z safdoshlari qatorida g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Sobiq imperiya hududida, qolaversa, jahon miqqosida nom qozongan shoир zamonning barcha voqeа va hodisalariga guvoh bo'ldi, uning bir qism ijodi esa hukmron mafkuraning talablari ta'siridan chetda tura olgan emas. Tarixning mantiqiy hukmiga ko'ra, mustabid imperiya tarqab ketdi, tabiiyki, uning beomon mafkurasi ham barham topdi. Biroq bu mustamlakachilik siyosati minglab haqgo'ylarning boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yinturuq solishga erisha oldi. Ha, qozidan gina qilsang, dodingni kimga aytasan qabilidagi yillar edi u paytlar. Tag'in shu holatni afsus bilan qayd etamizki, madhiyabozlik ko'p millatli ulkan adabiyotning ommaviy taomiliga aylangan edi. Ne-ne go'zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi kahrabo bug'doy donalaridek nazardan qolib ketar edi.

Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlari kerak. Buning ustiga, aksar ijod ahli tabiatan haddan ortiq ishonuvchan xalq bo'ladi. Bir misol keltirib o'tay. G'afur G'ulomning safdoshlaridan biri, mashhur rus shoирi Vladimir Lugovskoy umrining oxirigacha dengizlarda suv parilari yashashligiga chin dildan ishonib o'tgan. Qiyosan aytganda, xalqqa va'da qilingan kommunizm ham, ko'klarga ko'tarilib maqtalganadolat, tenglik ham o'sha suv parisi

¹ Maqola G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi munosabati bilan 2003-yilda yozilgan va nashr etilgan edi (*Muharrir izohi*).

yanglig' mavhum bir xayolot, mubham bir sarob bo'lib chiqdi. Bu siyosatning yana bir dahshatl tomoni shunda ediki, u butun-butun xalqlarni temir qafas ichida saqlab, shodiyona qo'shiqlar aytishga majbur qildi. To'g'tirog'i, uni o'rgatib ham qo'ydi. O'zining nog'orasiga o'ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg'in ostiga oldi. Insonlar fe'lidagi mash'um ojizlik, hasad, ko'rolmaslik illatlaridan ustalik bilan foydalaniib, bir millat ichida otani bolaga, akani ukaga dushmanga aylantirdi. Shu tariqa o'zbek xalqi ham o'zining o'nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrib qoldi.

Biz bugun Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Fitrat, Usmon Nosir taqdirlarini iztirob bilan eslaymiz. O'zbekiston adiblarining bir guruhi bilan uchrashuvda Islom Karimov yuqorida nomlari zikr etilgan siymolar haqida gapirib, ular nafaqat adabiyot sohasida, balki xalqimiz ozodligi yo'lida to'la ma'noda siyosiy kurash olib borgan izchil va sobitqadam, erkparvar zotlar ekanligini ta'kidladilar.

Shukrkim, alal-oqibat tarix bizga ham ters qaramadi. O'sha kurashlar, to'kilgan qonlar va, nihoyat, jasur o'g'lolnlarimizning keyingi davridagi sa'y-harakatlari bekorga ketmadi. O'zbek xalqi istiqolga erishib, o'z mustaqil davlatiga ega bo'la oldi. Endi uning haqiqiy Mustaqil Konstitutsiyasi, daxlsiz bayrog'i, tug'ro-yu madhiyasi bor. Tilimiz kam-sitilish botqog'idan chiqib Davlat maqomini oldi. O'zbekiston dunyoga tanildi, aytish mumkinki, jahonshumul davlatlarning biriga aylandi. Muttasil ravishda xalqimizning ko'hna qadriyatlari tiklanmoqsa, nomlari hatto tilga olinishi mumkin bo'lmaning zotlarning shon-shavkatlari qaytib kelmoqda, din olamining muqaddas kalomlari baralla jaranglamoqda.

Bularning barchasi g'oyat qutlug' saodatdir. Biz qadimiy orzularamizga erishmoq uchun og'ir yo'llarni bosib o'tdik, dedik. Biroq yaqin o'tmishimizga nazar tashlaganimizda ham, afsuski, chigal muammolarga, ziddiyatli manzaralarga duch kelamiz. Bu muammolarni esa nihoyatda donolik, uzoqni ko'ra bilishlik bilan yechish kerak bo'lur edi. Prezidentimiz: "Biz yaqin o'tmishimizni taftish qilmasdan, xalqimizni parokandalikdan saqlab qola oldik", — deganlarida ming marotaba haqlidirlar. Prezident o'z fikrlarini davom ettirib, "Men o'tmishda kimning kimga yomonlik qilganini qo'zg'ab, hozirgi yaxshi munosabatlarni buzishga qarshiman", — dedilar. Bu chindan ham oqilona siyosatdir. Albatta, ro'y bergen xatoliklar, gunoh-u kufriyatlar biz uchun saboq

bo'Imog'i shart. Biroq, eng muhimi, olg'a ketayotgan ozod O'zbekistonimiz ko'rgan-kechirganlaridan foydali jihatlarnigina qabul qilib olib, ginaxonlik va malomatbozlikka o'ralashib qolmasdan, taraqqiyotning katta yo'liga chiqib olmoqda. Xullas, mana shunday mas'uliyatli dovondan turib, xalqimizning ko'pdan-ko'p dongdor vakillariga, ularning faoliyatlariga nazar tashlay boshladik. Chunonchi, Sharof Rashidovning O'zbekiston uchun necha o'n yillar mobaynida qilgan xizmatlari munosib ravishda baholandi va bu baho el-u yurt tomonidan mammuniyat bilan kutib olindi.

O'tganlarning barchasi ham davr farzandlari edilar, lekin ularning xalq oldidagi xizmatlari ham unutilmasdir. Biz yaqin o'tmishta yashab o'tgan allomalarimiz, adiblarimiz ijodidagi muvaqqat g'uborlami yuvib tashlab, yombi oltinlarimizning asl jamoliga to'yib-to'yib boqishimiz, ularni kelajak avlodlar hukmiga, muhimi, vaqt hukmiga avaylab uzatmog'imiz shart. Aslida, har qanday tarixiy shaxsga baho berish, avvalo, unga qaysi nuqtadan turib, qanday maqsadda yondoshishga bog'liq. Axir Amir Temur va Bobur singari zotlarning nomlari ularga maxsus "ko'zoynak" orqali qarash oqibatida qatag'on etilmaganmidi?! Adabiyot hukmron mafkuraning xizmatiga majburan bo'ysundirilgan davrlarga baho berganda ham o'sha shart-sharoitlarni hisobga olish joizdir.

Albatta, biror ijodkor biror tuzumni yoxud biror firqani muttasil maqtayvergani yoki qoralayvergani bilan iste'dodi yuksalib qolmaydi. Iste'dod, eng avvalo, tabiat ehsoni, Olloh tuhfasisidir. Shu ma'noda Yaratganning o'zi G'afur G'ulomdan marhamatini sira-sira ayamagan edi. G'afur G'ulom chindan ham ulug' zakovat egasi edi. Buning isboti shoirming jo'shqin va dono she'riyati, buning isboti — G'afur G'ulomning tug'ma tafakkur sohibi ekanligi, buning isboti — yozuvchi G'afur G'ulomning hech bir adibnikiga o'xshamaydigan chinakam milliy xalqchil prozasi — nasriy asarlaridir. Zamonning nazari nechog'lik sinchkov va yovuz bo'Imasin, G'afur G'ulom deyarli har bir she'rida o'zbek xalqining manfaatiyu obro'sini o'rtaqa qo'yib gapirar edi. U zot xalqlar o'rtasidagi beg'araz do'stlikni kuylaganda ham, "men uzbek shoiriman", "o'z xalqimning tiliman", degan o'tli iqroriga sodiq qoldi. Shoirning faxr-u g'ururi xalqning milliy iftixori bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi.

"Sharaf qo'lyozmasi" she'ridan bir parchani eslaylik:

*Qadim o'zbek xalqisan,
Asl odam avlodni,
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir.
Xorazmning har g'ishtida
Bobolarning ijodi
Anglo-saksonlardan
Ancha yuqoriroqdir.*

*Bizda logarifmaning
Mushkul muammolari
Qo'lдagi barmoqlarday
Oddiy qilinganda hal*

*Oliy irq da'vogari
Cherchillning bobolari
Hatto sanay olmasdi
O'n barmoqni mukammal.
Biz ekkan paxtalardan
Yer yuzida bor kishi
Uyatini yopganda
Ustma-ust, qavat-qavat,*

*Hozirgi janoblarning
Ma'rifat va donishi
Paxta — daraxt qo'zisin
Juni deb bilgan faqat.*

Garchand she'rning ikkinchi yarmi boshqa o'zanga qarab ketgan bo'lsa-da, shoirning kimlarga qanday ishoralar qilayotgani shundoqqina sezilib turibdi. Chorasiz shoir millatiga qalqon bo'lgisi keladi. O'zbekistonning sha'niga hanuz katta-kichik toshlar otilib turibdi. Ular endilikda nafaqat shonli o'tmishimiz, balki mustaqillikka erishgan bugungi kuminizni ham ko'rolmayaptilar. Odam bolasi bunchalar ochofat, bunchalar ichi qora bo'lmasa! Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, endi ortga qaytish yo'q, orqadagi ko'priklarni allaqachon yoqib yuborganmiz.

Millat g'ururi to'la shakllanadigan paytlar keldi. Ko'rinib turibdiki, barcha ijodkorlarning vazifalari g'isht singari bir xil qoliplarga solingan sharoitda qalam egalari o'zlarining qalb so'zlarini, orzuyu armonlarini bayon qilishlari sira ham oson kechmagan, hatto mumkin bo'limgan edi.

Shu o'rinda aytish kerakki, nihoyatda bolajon inson G'afur G'ulom kichkintoylarga atab talay ibratli she'rlar yozib qoldirdi.

Asrlar mobaynida ijod ahli turli hukmron doiralarning ta'siri-yu tazyiqidan qutulolgan emas. Bu tazyiq-u ta'sir asarlarning mazmunida goho dunyoviy, goho xurofiy tarzda zohir bo'lar edi. Ba'zi shoirlar esa bu g'alvalarning barchasidan bezib, faqat yor jamoli-yu tabiat manzaralarini kuylab o'tganlar. Jahan adapbiyotidan bunga ko'plab misollar keltirsa bo'ladi. Biroq, dunyoda shunday tabarruk mavzular ham borki, ularni hech bir tuzum, hech bir siyosat daf'atan qatag'on qilolgan emas, bunday mavzular kimning lafzidan chiqmasin, tarixda sira ham salbiy ma'no kasb etgan emas. Bular Vatan, do'stlik va birodarlik, tinchlik va muruvvat kabi mavzulardir. Ayni shu ma'noda G'afur G'ulomni Vatan, tinchlik hamda mehr-u muruvvatning otashin kuychisi deb atash mumkin. Shoirning birkina "Sen yetim emassan" she'ri ni eslangu. Aslida xalqimizning o'zi haqiqiy muruvvatlik xalqdir, xalqimizning o'zi mehr-u saxovatda yaktodir, yurtimiz bebahodir.

*Hamma o'rganganimdan yaxlit xulosa:
O'z yurtim yerida ungan har maysa
Begona yurtlarning gulidan afzal.*

Shoir milliy g'ururini xalq fazilatlarini kuylash vositasida ko'proq namoyish etdi.

Shundoq yurtda, xalqning asl shoirida ham yuqoridagidek fazilatlar jamuljam bo'limg'i, albatta, tabiiy. Ayni vaqtida G'afur G'ulom "bir og'iz shirin so'z nondek arzanda"ligini boshidan kechirgan, yetimlikning barcha g'urbatlarini ko'rib, his etib ulg'aygan zot edilar. Zero, armonli odamning dil izhori ham doimo samimi, ko'z yoshlari ham buloq suvidek toza-yu pokiza, mehr-u muruvvatni ham yurak qonidek qaynoq bo'ladi.

G'afur G'ulom ijodining yana bir xususiyatini ta'kidlab o'tmoq-chiman. U qaysi mavzuga qo'l urmasin, katta miqyoslarda fikr yuritardi, ruhiy poyoni cheksiz edi, bachkana, chuchmal his-tuyg'ularni hech qa-

chon yaqiniga yo'latmasdi. Bu fazilat, bu mahorat, bu donolik shoirning Xudo bergan tabiatiga xosdir; ikkinchidan, ul zot chuqur bilim egasi, qamrovi jahonshumul mutafakkir edilar. Uchinchi, va balki G'afur G'ulom iste'dodining yuksak parvoziga tolmas qanot bergan zo'r kuch qadim Sharq she'riyatining muborak nafasidir. Buni shoirning o'zi tarji-mayi holida ham katga qoniqish bilan e'tirof etgan edi. Sa'diy va Hofiz, Navoiy va Bedil devonlarini bir umr qo'lidan qo'yagan, o'tmish daho-larining minglab baytalarini yod bilgan shoirning o'zi ham ularga hamo-hang bo'ladigan o'lmas satrlar yaratib keldi.

G'afur G'ulom ijodi haqida so'z yuritganda adibning nasriy asarlari to'g'risida gapirmsadan bo'lmaydi. G'afur G'ulom nasrini men haqiqiy milliy nasr deb bilaman. Fikrimizcha, har qanday xalqchil asar milliy bo'la olmaydi, har qanday milliy asar esa doimo xalqchildir. "Shum bola", "Netay", "Yodgor", "Mening o'g'rigina bolam" kabi qissa-yu hangornalarmi hech ikkilanmasdan adabiyotimizning durdonalari deb atasa bo'ladi. Hikoyanavislikning g'oyat tabiiy yo'suni, til ifodasining beqiyos xalqchilligi, tengi yo'q ajoyib hajviyot G'afur G'ulom nasriga xos bo'lgan eng muhim fazilatlardir. Darvoqe, satira va hajviyot haqida gap ketganda G'afur G'ulomni bu sohalarning eng nodir ustasi, deyish mumkin. Ke-yingi paytlarda erkinlikni oshkora suiste'mol qilayotgan lo'ttibozlar, olg'irlar, ig'vogarlar, mahalliychi ayirmachilar bolalab ketdilar.

Ular G'afur G'ulomning shafqatsiz satira qamchisini intizorlik bilan kutib turganda o'xshaydilar...

Ajab hol: goho yozuvchining kichik bir hajviyasini o'qib ham muallifning dunyoqarashi, e'tiqodini adashmay aniqlab olsa bo'ladi. Halollik, to'g'rilik, insof, diyonat oyoq osti bo'lgan sharoitlarda G'afur G'ulom sukut saqlagan emas. U kishi hatto, kutubxonalarda o'tmish qo'lyozmalarini varaqlarini yirtib qochganlarning ham boplab ta'zirini bergandilar. Masalan, G'afur akaning kitob yirtar haqidagi feletonini eslang. G'afur G'ulom o'zi mansub bo'lgan jahon adabiyotidan juda ham yaxshi xabardor edi, tarjimonlik ishining nechog'lik beqadrligini bilsalar ham bu mehnatning savobini chetlab o'tmaganlar. Shekspir fojialarini ona tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan shoir hayotining so'nggi yillarida buyuk Dantening "Ilohiy komediya"sinı o'zbekchaga o'girishni orzu et-gandilar. G'afur G'ulom, shubhasiz, ulkan olim ham edi. U zot O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganida, birinchilardan bo'lib akademik-

likka saylandilar. G'afur G'ulom Sharq adabiyoti va falsafasi tarixini teran idrok etar, Navoiy, Jomiy, Mashrab, Muqimiy kabi mumtoz zotlar haqida chuqr taddiqotlar olib borgandi. Albatta, allomaning ayrim maqolalarida davr mafkurasining shabadalariga duch kelamiz. Lekin G'afur G'ulom ilmining asosiy mag'zi tafakkur xazinamizning mulki bo'lib qoldi, bu xazina hanuzgacha adabiyotshunoslar uchun mo''tabar manbadir.

Hozir biz Markaziy Osiyo deb atayotgan mintaqaga xalqlari G'afur G'ulomni ayniqa ardoqlar, turkiyzabon qardoshlarimiz shoirni boshlariiga ko'tarar edilar. Qaysi bir yili Abdulla To'qay to'yi munosabati bilan Qozon shahriga borganimda tatar qardoshlarimiz G'afur akaning u yurtga kelganlarida sof tatar tilida ajoyib ma'ruza qilganini zur mammuniyat bilan eslagandilar. G'afur G'ulom, shuningdek, fors-tojik tilini ham puxta bilardi.

O'tgan asrning deyarli barcha yetakchi ijodkorlari G'afur G'ulom bilan do'st va kamarkasta edilar. Bular — Pablo Neruda, Fayz Ahmad Fayz, Samad Vurg'un, Mirzo Tursunzoda, Sobit Muqonov, Berdi Kerboboyev, Konstantin Simonov va boshqalardir. Ba'zan o'ylab qolaman. Agar, falon yillarda yashagansan, tirik yurgansan, deb yuqoridagi siymlarni ham birvarakayiga rad qila boshlasak, umuman, adabiyotga hojat qolarmikan? Taqqos, albatta, nisbiy bo'ladi, lekin ko'philigidimiz o'sha yillarni ko'rdik-ku. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, "tavbanning eshigi hamisha ochiq", deganlar.

G'afur G'ulom doimo xalq orasida yashadi, o'zbekning yettidan yemish yasharigacha G'afur akaga cheksiz hurmat bilan qarardi.

U kishini yuraqdan sevardi. Dunyoning tomir urishini sezgirlik bilan ilg'ay oladigan adibimiz ko'plab publisistik maqolalar yaratdi. Bugun Istiqlolimizni G'afur G'ulom nechog'lik iftixon bilan, nechog'lik zo'r ko'tarinkilik bilan madh etishi mumkinligini tasavvur qilsa bo'ladi.

Ehtiyoj hamda vaziyat odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Jahonda zulmkashlik ovozlari o'qtin-o'qtin eshitilib turgan paytlarda davlatimiz mustaqilligini ko'z qorachig'idek avaylab saqlash, bu yo'lida hamjihat bo'lish bizga suv bilan havodek zarurdir. Hayot muammolarini oydinlashtirishda, raqiblarimizga javob berishda adabiyotning ahamiyati juda katta. Demoqchimanki, ustoz G'afur G'ulomning mislsiz g'ayrati, faoliigi biz uchun ibrat bo'lmoq'i kerak. Buning uchun ham ahillik lozim. Buning uchun ham yagona Vatan, yagona millat tushunchasi zarurligini

zamon talab qilayotir. Bir-ikkita shaxsnинг diydori allergiya qo'zg'aydi, deb qozon-tovoqni bo'lak qilib olish to'g'ri bo'lmaydi-ku! Qariyalar davralarga fotiha bergenlarida, jamoaga xotirjamlik qatorida ko'pincha, keng fe'l, ketmas davlat tilaydilar. Ana shularni biz abadiy shiorlar, desak bo'ladi. Modomiki, Vatan hamda millat manfaatlari bizni har qachongidan ham ko'ra mustahkamroq jipslashtirishi kerak ekan, biz ko'proq kelajakni ko'zlab, yosh avlodlarga ibrat bo'lmoqni o'ylab asarlar yozishimiz, shunga qarab ish tutmoqligimiz lozim. Unutilmas ustozlarimizning ruhlari ham bizdan shularni so'rab turibdi, deb o'ylayman.

Ulug' odamlar dunyodan o'tganlardan keyin ham ular haqidagi turli maqomdagи xotiralar mavjlanib turaveradi. Chunonchi, ba'zi birovlar bu ezgu ishga g'oyatda mas'uliyat bilan yondashadilar, ba'zi birovlar esa marhumlarni o'zlarining torgina dunyoqarashlariga moslashtirib olmoqchi bo'ladi. Ba'zan esa oddiygina lo'ttibozliklar ham uchrab qoladi. Ulug' shoirimizning ayrim mashhur she'rлarini tepasida turib "yozdirib" olgan, ya'ni "doya"lik qilganlarning soni ham o'n-o'n beshtaga yetgadir-ov... Nima bo'lgan taqdirda ham odamlar kimgadir talpinishlari, un-dan hazar qilgandan ko'ra ming bora afzal-ku!

G'afur G'ulom nomi haqiqatan ham xalqimiz orasida ertak qahramoni yanglig' yashab qoldi. Biz G'afur G'ulomning nomini kimlar-dandir himoya qilmoqchi emasmiz. Biz G'afur G'ulom sha'niga soxta maqtovlar yog'dirish niyatidan ham yiroqmiz. Ha, G'afur G'ulom o'z zamonasining farzandi edi. Shoир bir she'rida: "Kreml saroyida minbardagi o'zbekman", — degan ekan, biz uchun hozirgi kunda "o'zbek" iborasi azizdir! Vaqt ko'rsatdiki, haqiqiy ijodkorning o'mini, xotirasini turli minbarlardangina emas, xalq qalbidan axtarmoq kerak ekan. Zero, har qandayin sofdir ijodkor o'z xalqiga, albatta, baxt-u saodat, tinchlig-u xotirjamlik tilaydi. Xalqimizning turfa fazilatlari, uning mehnatsevarligi, tantiligi, bag'rikengligi, O'zbekiston gulzorlarining tarovati ulug' shoirimizga tiganmas ilhom, yuksak surur baxsh etdi, turli zilzila-yu ofatlar, yo'qotishlar esa uni behad iztirobga soldi. Biz ana shu jihatlarni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak, G'afur G'ulom o'zbek xalqining milliy o'z shoiri edi va shunday bulib qoldi.

Abdulla Oripov,
O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri



SHE'RLAR



GO'ZALLIK NIMADA

"Go'zallik qizlarda,
u qora ko'zlarda,
soz kabi so'zlarda",
deganlar yanglishar.

Go'zallik bir guldir,
muddati fasldir,
yashamoq asldir,
siz, biz bor, u yashar.

Go'zallik — ishlayish,
manglayin terlatish,
go'zaldır ungan ish,
maqtansa yarashar!

1923

RASM EGASIGA

Shu qoshlar o'ynoqlab ketsalar,
Yana ko'p termulish gunohi
qoplaydi yigitni.
Shu ko'zlar javdirab qo'zg'ala ketsalar,
Telbalik chulg'aydi sukutni.

Qora soch yellarda parishon
Hilpirab to'lg'ansa,
Ko'ngilni ko'ksiga chirmashish
Nash'asi egallar.

Tegishib otishga loladan laparlar,
Tabiat san'atin ramzimi, aytингиз?
Shu nozik nigohning egasi, chevar qiz.

TURKSIB YO'LLARIDA

Bu yo'llar
Ko'p qadim yo'llardir...
Jahonning fotihi Iskandar,
Rum qaysari,
qotil Chingiz,
Botu, Jo'ji,
Temurlang qoldirib kimsasiz iz.
Chindan mo'g'ul o'chi borliqni jonliga qilib tang,
— Qon! — deya,
— Qon! — deya, bosaroq kechmishdir.

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llar,
Besh million, o'n million,
yuz million nafar qullar va tullar,

Gardanda cho'yandan quylgan zanjir,
yerlarda hasharot kabi

Ochlikdan, zorlikdan gezarib labi,
Ojiz, mahkum, xor va betadbir:
— Non! — deya,
— Non! — deya surinib kechmishdir.
Bu yo'llar ko'p qadim yo'llardir,
Konfutsiy, shomoniy, islom va budda,
But va tasbeh yuklagan
Xuddi shu yo'ldan zang urib,
Childirma qoqaroq,
Takbirlar hayqirib,
— Qurbon! — deb,
— Qurbon! — deb kechmishdir.

Biridan xotira: ko'hna bir devor-kim zanjir.

Biridan: boshlardan qurilgan ravoq.

Biridan:

Balchig'i qon-la iylangan ko'k o'pguvchi toq,

Biridan:

O'z asrin kechmish tumtaroq...

Nom uchun, shon uchun savlat sotaroq,

Ham-ma-si,

Ham-ma-si

Shu yo'ldan kechmishdir.

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llardir,

Bu yo'ldan ezilgan yuz million nafar,

Boshda eng boshda bitta muzaffar — kirli toj,

Barmog'in ishorati-la, bir butun o'lka dov uchun xiroj

Pekindan Rumgacha,

Bo'mbaydan to Maskov,

Qon, suyak ustiga tikilgan yalov:

yengish dovulin chalaroq

G'urur-la kechmishdir.

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llar —

Qani, ey tarix!

Shunchakim, bu yo'ldan zafar qozongan fotihlar,

qaysarlar,

Muzaffar zilli sultonlar ustidan siynangda biror

esdalik yo iz xabar qolganmi? —

Qahrabo tugmaday, bag'ri dog' loladay.

Aytganlariday —

Kim,

Bir lavhang qon esa,

Bir lavhangmish zar...

Yo'q, albat, bilaman, faqat bir tushday

Yo tutun — xayol kelarkan kechmishdir.

Bu yo'llar ko'p qadam yo'llardir...

Uzala tushgan cho'l kabi sokit

Ustidan, shabada esmagan tiniq ko'l kabi,

Og'zi qon bir bo'ri yo oqsoq bir it:

Hayqirsa, uvlasa,
Har tongda bir dong deb bong ursa, dovullar...
Ko'lga otilgan
Bir kesak parchasi singari
Ufqlar bir karra —
Lipillab qolar,
Yanadan bir sokitlik cho'kar, chizaroq doira —
Shivirlab jimganday
U ko'lning labi.
Bu yo'llar ko'p qadim yo'llar...
Bu yo'ldan tarixda birinchi daf'a,
Tarixda eng porloq —
O'laroq bir safha qoldirib bir botir:
Faqat ezguvchi emas,
Bir fotih,
O'lkalalar buzg'uvchi, ellar qirg'uvchi,
o'ch olg'uvchi emas.

Quillardan, tullardan,
O'n million,
Yuz million va milliard nafar,
yer kurrasida ... birlashgan muskul,
muskulli qo'l,
Tarixning chirkin lavhasin yoraroq

.....
.....

Qonli varaqlar ustiga surg'uch urib
Bu yo'ldan birinchi va eng so'ng daf'a
Shukuh-la
Hayqirib kechmishdir.
Bu yo'lda, shu qadim yo'lda
U faqat hukmron,
Pekindan Rumgacha,
Bo'mbaydan to Maskov,
Sibirdan Turkiston — hammasi bir yaylov — kim,
haligacha

Bu yo'llar bo'yicha cho'zilgan haykallar,
Obida va xotiralar, yosh va qon
Nomiga qurilgan ekan.
Biz shu yo'llar tizginin qo'lga olaroq,
Aqlimiz va shuurimiz —
Gosplan
Miyamiz — globus,
Millimetrsi — ming kilometr.
Har chizgi
Qurilishdan bir helgi —
Yutuqlardan plyus
Biz,
yer kurrasin boshini tang'idik
Va tarixning tomirlariga quydik erigan temir.
Bu yo'llar,
 shu qadim yo'llar ustidan endi parovoz

O'z
Ufqining ko'ksiga xanjar solaroq
G'alaba na'rasin qichqirib
Donglar, shonlar, shuhratlar ustidan,
Shpallar o'rniga — xurofiy bir qonun bosib,

Ko'krakda bronza —
Yulduz,
Faxr ila
Kelajak,
Bu yo'llar, shu qadim yo'llar ustidan
Chin — Eron,
Rus — Afg'on,
Hind — Turkiston va jumla jahon,
O'n million, yuz million va milliard nafar.

.....

Salomi, do'stlik ilhomni po'lat karvonlarda
Xayqirib kezajak.
Bu yo'llar, bu qadim yo'llar

Ustiga bu bizdan obida,
abadiy xotiraki,
bundan to'xtamay bir nafas,
Qon —
Qatron hidimas,
Ozodlik shamoli esajak.
So'nggi so'z
O'rtoq Shatovga,
— Bu yo'llar, bu qadim yo'llar
Ustiga
Dayosh
Krasnoputilovskiy paro-voz!

KICHIK BIR MUSHOIRA

G'ofur:

Hayot yo'lini topmak-chun boribsan katta Selmarshga,
Qolib ish, bermagil ko'ngil tag'in bir ishchi mahvashga.

G'ayratiy:

Ko'ngil bermoq yigitga ayb emas, do'stim G'afur, bilsang,
Ilinsam koshki erdi dil-jigardardan bir parivashga.

G'afur:

"Oningga xat" yozay deb holi ahvolini bilmak-chun,
Topib joy suhbat aylab uchrashibsan o'g'li To'xtashga.

G'ayratiy:

Gaping to'g'ri, o'shal suhbat chog'ida ul "Ko'kan batrak"
Kelib qoldi traktor olmak uchun yermi haydashga.

G'afur, G'ayratiy:

Ko'kan, To'xtash hayotidan yozaylik bir necha doston,
Ikki shoir bo'lib ulkan ikki do'st, ikki dilkashga.

TOSHKENT

1

Toshkent Osiyoning ko'rkli o'rnida,
Maqtalsa arziydi, oz emas — ancha.
Toshkentning lojuvard toza ko'kida
Shabboda tinmaydi tongdan kechgacha.

Uzoq Hind, Xitoyda yurt kechgan quyosh
Toshkent osmonida hordiq oladi.
Ozod o'lka ustiga nur to'kib yovvosh,
Ulug' qurilishlarga ko'zin soladi.

Toshkentning suvlari shunchalar toza:
Chirchiq, Ohangaron, Bo'z, Anhor, Solor.
Beqasam jiloli shu buyuk fazo
Rangini, to'g'risi, Toshkentdan olar.

Bu yerning mevasi shunchalik asl,
Kumush butoqlarda yoqutday ko'rakam.
Bu yerda uzun yil bilmaydi fasl,
Toshkentni vatan deb biladi ko'klam...

2

Toshkent qo'shni arkning ko'rkli o'rnida,
Maqtalsa arziydi qanchadan — qancha.
Muqaddas Vatanning yurak to'rida
Mazlum Osiyoga porloq daricha.

Uzoq Hind, Xitoyda yurt kechgan quyosh
Toshkent osmonida hordiq oladi.
Ozod o'lka ustiga nur to'kib yovvosh
Ulug' qurilishlarga ko'zin soladi.

Toshkent o'zbeklarning go'zal markazi,
Katta oilada teng huquq a'zo.

Bunda mehnatkashning erkin nafasi,
Havo milliy, irqiy g'ubordan toza.

Shoir yo san'atkor bo'lmaslik mumkin,
Biroq bo'lmoq grajdani shunday o'lkaning,
Unda fikr, mehnat, hayotdir erkin,
Qanday g'urur, maqtanish bu sifatga teng.

BOG'

Bir vatanning o'g'li men kim, har taraf gul, lola, bog',
Qalb ko'ziday eng qorong'i kechada porlar charog',
Har yigit mag'rur-u har qiz ko'kragi qo'sh cho'qqi tog',
Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog'-u yog',
O'z-o'zini maqtaganda, maqtamay qolq'aymi men?

Lola jomi to'lsa ko'klam shabnamidan ertalab,
Yozgi chilla sho'x xayolday o'tsa kurtakni yalab,
Er quyosh qandli qozon ostiga qo'ysa o't qalab,
Bilmadim, chillik, daroyi qig'usi qanday talab,
Lablaridan qand tomarsa — so'rmayin qolq'aymi men?

Ko'z suzilgan, lab cho'zilgan, sevgi uyg'ongan chog'i,
Bilmadim do'ndiq bu qizning qancha ermish barmog'i,
Yutqinib olgan o'pishlarning yo'qotdim salmog'in,
Har butoq zumrad kabi ko'k, osmon rang yaprog'i,
Qistasa "sev!" deb husayni, sevmayin qolq'aymi men?

Ko'z qarosiday ko'chirding yuzga bog'ning aksini,
Xol kabi ishkom qoshin, bu husnini — bu ko'rkini,
Bir umr xummorda o'lsin sevmasa har kim seni,
Tarqatar shingillaring rayhon, iforming bo'yini,
Chorlasa shirin charoslar — bormayin qolq'aymi men?

Sog' quyosh, muzday havo, top-toza suvlarning qizi,
Kim tegishdi, yuzlaringiz qon talashgan qirmizi,

Siz yarashgan bu chamanning bo'lmagay hech bir kuzi,
Yaxshi o'rtoqlar bilan ulfatchilik bo'lgan kezi,
Kelsangiz quvnoq kulish-la — quvnamay qolg'aymi men?

Yaxshi qizlar, o'rtangizda kim yo'qotdi labda rang?
Bir kelib bu bog'dagi "o'g'ri" shivirg'onidan so'rang,
Donalar bo'lg'in, to'lalikdan tiqindir, po'sti tang,
Uchraganda har kishi ham istagin bosgay arang,
Ul meni "yorim" deganda — "yo'q" deva qolg'aymi men?

Dil xush-chun bir totay deb bog' aro kirsang atay,
Yaltirar, sapchib tepar, hurkar kabutar qalbiday,
Sohibi sen bu chamanning, yashna qurbaning ketay.
Kuz kezi eng yaxshi do'starga savatlab tarqatay.
Sen saxovat qo'lin ochsang — qimtimab qolg'aymi men?

Biz ko'kartirgan bu bog'ning ismi bo'lsin gul-asal,
Shunni-sharbardan sog'aygay har nuchuk eski kasal.
Ter to'lib, hordiq oluvchilar gurung qurgan mahal,
Navbat jomim to'la tut, bog'bon, o'tkazma gal,
Qo'ng'iroq qah-qahili do'star baznidan qolaymi men?

Kimda bordir bu chamanidan gul uzishning niyati.
Qaysi lablarga tomar bu sevgili bog' sharbati.
Bu to'liq jom bir umrga ishchilarning navbat,
"Boda bar bar tab' mebaxshad judo xosiyate"!
Bog'chaning bir kimsaga bor o'zga bir xosiyati,
— Ishlading, kel. tot, —
deganda, totmayin qolg'aymi men?

O'RDAK VA TURG'UN

Bir bor ekan, bir yovvoyi o'rdak bor ekan,
Ko'm-ko'k quyuq o'rmonchada yakka-yu yolg'iz.
Shu yaqinda bir anhorcha, qirg'og'i ko'r kam,
O'rdak shunda cho'milarkan kecha-yu kunduz.

Mirzo Abdulqodir Bediliddan (*Muallif izohi*).

Oppoq gajak qanotlari yelkanli kema,
Shabboda-da o'ynoqlagan sho'x pirpirakday.
Unga o'yin — mazax ekan bunda har nima,
Bilmas ekan qayg'u nima, muhtojlik qanday.

Anhorchada kichik murg'ak baliqlar to'la,
Ochiqqanda tumshuq bilan tuta oladi.
Parvo qilmay qiltanoqdan yutib bir yo'la,
Yana qo'shiq — "g'aq-g'aq"larin kuyga soladi.

To'lin oyli kecha ekan, hammayoq oydin,
Tevarakda esar ekan sovuq shabboda.
Qo'zichoqning barrasiday suvdagi to'lqin
Oy nurida ermak ekan ikki qirg'oqda.

Anhorchada yana bir oz suzmoqchi bo'ldi,
Go'zal oqshom, o'rdak ko'zi sevinch-la porlar.
Keza-keza ochiqqanan xo'p yaxshi bildi:
"Nima qayg'u, anhorchada ko'p-ku baliqlar".

Havo sovuq bo'lgani-chun hamma baliqlar
Issiq buloq tomoniga jo'nagan ekan.
Oy nurida mayda-mayda uzun to'lqinlar
O'rdakchaga baliq bo'lib ko'ringan ekan.

Tutmoq bo'lib, har to'lqinga bo'yin cho'zarkan,
Tumshug'iga ilinmasdan qola beribdi,
Baliqlarday yaltiragan to'lqinlar titrak
O'rdak ko'zin joydiratib qocha beribdi.

Bu oqshomda o'rdak sho'rlik hech qanday ovsiz
Qaytibdi ochligicha o'z katagiga.
Tashqarida shamol yurar, sovuq ayovsiz,
Horg'in boshin qayribdi qanot tagiga.

Ertasiga havo ham tinch, kun issiq ekan,
Baliqchilar o'ynoqlarkan eski o'rinda.

O'rdak sho'rlik baliqlarni oydin deb bilgan,
Ov qilmagan, oyoqlarin saqlab qo'ynida.

Bizning Turg'un o'rdak kabi umidsiz emas,
Qiyinlikni yengoluvchi yaxshi fe'li bor.
Bir umtilish yanglishtirsa tinmay har nafas
Qayta-qayta g'ayrat bilan yana umtilar.

O'tgan yili bir sinfdan o'tolmay qoldi,
Simobday sho'x o'yinqaroq edi o'zi ham.
Bu mavsumda butun kuchin o'qishga soldi,
Do'stlaridan qoloq ekan, yetoldi kam-kam.

Shunday ulug', zo'r bayramda o'quvchi Turg'un
Bir sinfdan oshganligin raport beradi.
Boshqa yalqov, kamhafsala o'rtoqlarini
O'zi bilan tenglashuvga shaxt chaqiradi:

— O'rdak kabi bo'l mang, — deydi, —
 hay, yosh o'rtoqlar,
Bir zo'r bersak har qoloqlik orqada qolar!

BOG'DA

(A.S. Pushkin nomidagi istirohat parkida)

Yam-yashil sahni bilan osmon kabi kengdir bu bog',
Yerga ko'k tushgan kabi yulduz qator minglab chirog',
O'n Qamar, yuz Zuhra, ming Hulkar yuzidin yorug'roq,
Hey, ko'zi chaqmoq yigit, qizlar, qilay sizdan so'roq,
Tog', quyosh, yoshlik bu yerni o'zga qilmishmi vatan?

Bunda sog'lom kulgilar tinmas butun tong otgucha,
Sevgilar zanjiriga bog'liq qolar har shom-kecha,
Hey, umr, to'xta garov bog'lay, qo'lingni ber picha,
Sen meni yoshlik bilan ta'min qilarsan o'lgucha,
Men senga sayqal berarman so'nmagan ishqim bilan...

...Ey shamol, qo'zg'ol, isingni tarqat, ey sen toza gul,
Ey buloq, tosh, ko'lka sol, ey sarv, sen bir oz egil,
Tarqasin uyqu — tumanday shuncha dillardan chigil,
Yayra, ey sen ish, muhabbat, erkka o'rgangan ko'ngil,
Chunki bu park o'z bilak, o'z kuch bilan bo'lgan chaman.

SADRIDDIN AYNIYGA

(*Ekspromt — majlis zalida*)

Bu oqsoqollik senga subhi sodiqday,
Shu yoshda boshlanadi tong kabi yigit bir umr.
Umrki, ishq ila, ijod ila, g'urur-la to'la,
Umrki, bunda yigit ehtirosi, zavq-u surur.

Zulm yo'lin osha kelmish bu yerga Doxunda,
Og'ir kishanli g'ulomlar olardi qonli nafas.
G'ulomlar alamin sezguvchi qolur zinda,
Bu qullar kuychisi hurmat bilan yashar — o'lmas.

O'sar sevimli va baxtli bizning shonli Vatan,
Hayotimiz hali ming "Shohnoma"lar bo'ladi.
Yozishda shoh asaringni sening bilan bir tan,
Qalam safi azamat novdalar bilan to'ladi.

KO'KLAM SHAMOLI

Chimyon tog'laridan qo'zg'algan shamol
Toshkent bog'laridan hilpillab o'tdi.
Shaftoli guliga qo'ngan arining
Qanot taglarini siypalab o'tdi.

Baqaterak tebranib, tashlar kuchala,
O'rik yerga gul to'kib, piston qadaydi.
To'rg'ay ko'kda ming maqom bilan mashq qilib,
Shamoldan taroq qilib, dumin taraydi.

Chuchmo'mali tepaning ko'm-ko'k boshida
Bir to'da sho'x bolalar — to'zimsiz yurak —
Kulgisidan osmonning jomi jaranglar,
Tentak shamol yo'lini poylar varvarak.

Kanikul payti o'tdi, qani, bolalar,
Poyondoz bo'lzin sizga binafsha, sunbul.
Varrakdan — planerga, kitob, qalamga,
Jiddiy darslarga boshlar ko'nikkan ko'ngil.

BARI SENIKI

Muncha ham chiroyliksan, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim,
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonim, yurak qonim, hatto shu tanim
bir butun holida bari seniki.

Loladan poyandoz har bir qadamda,
Uzluksiz kulgilar doim dahanda.
Oltin tuprog'ingni o'pganim damda
Nafasing sezilur edi badanda,
gul, sunbul chamanda bari seniki.

Baland-baland tog'laring ming pillapoya,
Archalar baxt boshiga tashlaydi soya,
She'r o'qiy, she'r to'qiy bilonihoya,
Sen minglab azamat, botirga doya,
arslon yigitlaring bari seniki.

Issiq quchog'ingda ungan paxtazor,
Eng baland hosil bilan topdi e'tibor,
Oltin tuprog'ingda jumla olam bor,
Dunyolar mazmuni, mazmuniga zor,
shu obro', shu viqor bari seniki.

Plan, cho't-hisobdan oshib o'tdik biz,
Ilm normasidan o'zib ketdik biz.
Kunda besh yuz kilo tergan erkin qiz,
Gektaridan o'n tonna bergen erlar biz,
barimiz, barimiz, bari seniki.

Issiq quyosh boshlardan silab buyutgan,
Bu yerda oyoqlarga kirmaydi tikan,
Kipriklarga qo'ngan zarrinkor changdan,
Alqissa, shabboda chalgan ohangdan, —
raqs etgan shu gulshan bari seniki.

Bir vaqt yov zabitidan ko'zlarine tindi,
Bag'rimiz qonidan lolalar undi,
Erkinlik shuuri har dilga singdi,
Qanday baxtiyorsan, Vatanim, endi,
yop-yorug' kelajak bari seniki.

Namangan, 1936, 28-iyun

NORTOJINING KURAK TISHI

Nortojining hozir yoshi oltida,
Biroq chollar kabi kemshik bechora;
Bir parcha go'sht yoki non yeb qo'ydimi,
Kechgacha tish kavlab bo'lar ovora.

Oldidagi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q — hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular — misoli tikan.

Bolalar tegishib, "so'yloq", deydilar,
Shishgan milklari juda ko'rimsiz.
Shuncha yosh Nortoji nimaga bunday,
Nega tishi tushgan sho'rlikning, esiz.

“S” bilan “Sh” harfin ayta olmaydi,
So’z o’miga tili hushtak chaladi,
“Sho’rva”, “Shamol” degin, desa bolalar,
Yaxshilab aytolmay, hayron qoladi.

Nortoji o’zi sho’x, erinchak bola —
Yuzini haftada arang yuvadi.
Ko’cha ham ko’ylarda chang-tuproq kechib,
“Olapar”, “To’rtko’z”ni doim quvadi.

Og’zidan uzilmas xo’rozqand, o’rik,
Danakni qo’rqmasdan tishda chaqadi.
— Tishingni yuvsang-chi, — desa onasi,
Iljayib, beparvo unga boqadi.

Bir kun Nortojining tishi og’ridi,
Lunjlari olmaday shishgan, osilgan.
— Voy tisim, voy tisim, voy tisginam-ey,
Aytingiz, o’rtoqlar, ne qilsam ekan?

Do’stlari, bolalar uni qurshashib,
Og’ziga qildilar ekskursiya:
— Qani och og’zingni, biz tekshiramiz,
Tishingning og’rishi nimaga? — deya.

Nortoji “shoshmangiz”, demoqchi edi,
So’z emas, hushtagi chalinib ketdi.
Karnayday og’zini ochishi bilan
Sassiq hid hammaga bilinib ketdi.

Bolalar birma-bir tekshiradilar,
— Voy bayov... bunisin qarang, o’rtoqlar!
Tishlarda istagan narsa topilar:
Jiydami, o’rikmi, pista po’choqlar.

Ayniqla oldingi kurak tishida
Bir hafta burungi ovqat qoldig’i.

Yonida, boshida, oralig'ida
Saqich bo'laklari, tuxum sarig'i.

Bir bola so'raydi: — O'rtoq Nortoji,
Umrinda tishingga cho'tka tekkanmi?
Nortoji aytadi: — Bet yuvolmayman,
Tishimni yuvismi, endi bir kami.

Do'stlari yetaklab, olib ketdilar,
Maktabga qatnovchi doktor yoniga.
Doktor tishni ko'rib, bir "dori" yozdi,
Juda forom keldi og'riq joniga.

Bilasizmi, o'rtoqlar, bu dori nima,
Bir quti poroshok, kichkina cho'tka.
Nortoji erinmay har kun tish yuvar,
Qizillik yugurgan kulcha yuziga.

Endi Nortojining tishlari durday,
Og'riqni, sasishni bilmaydi, toza.
Har kimki, tishini tozalab tursa,
Joni orom olur, o'zi pokiza!

MADRID QO'SHIQLARI

Kayxusrav o'Iganda uni odamlar:
— Umrinda qon ichib to'ymagan miya,
Mana endi abadul-abad to'y, — deya
Bosh kosasin qonga cho'mgan ekanlar.

Tarixiy bo'lsin deb qonga to'ldirmay,
Sotqin generallarning bosh kosasida
Madrid muxlislari qichqirib nido
Xalqning sog'lig'iga icha olur may.

Roviyalar so'zicha, chayon bolasi
O'z onasini tug'ilgan paytda osharmish.

Modomiki, Franko — irganch modarkush,
Qalbiga yo'l topolmas o'ksiz nolasi.

Hech qachon it boshi turmas tabaqda,
It xushnud ovchiga qilgan xizmatda.
Bir itga ikki it bergen madaddan
Na tabaqda iz qolur va na tarixda.

O'rta Dengiz kalidi Jabaltoiqidir,
Ochar ko'ksin Afriqo, Qibris, Misrlar.
O'tdi yillar, davrlar, uchdi asrlar...
Andalusning kunida yangi tarixdir.

Ochajak Ispaniyaning ibrat kalidi
Yevropaning tilsimli eshiklarini.
Zambaraklar uyg'otar beshiklarini,
Onalarning shavq bilan porlar umidi.

Ikki sevishganga o'qildi nikoh,
Bombalar gulxanday yongan choqda.
Alhumro saroyi yemirilgan choqda
Tarixiy obidalar tortdi qalbdan oh.

Oshiq ma'shuqdan beshta o'q oldi,
Bu nikohning umrli oltin uzugi.
Qon ufqiga termuldi ko'zning suzugi,
Hatto bo'sa qoldi, vasli yor qoldi.

Ey go'zal Ispaniyaning sho'x dilbarlari,
Qoningizga cho'kdirdi qazo alamni.
Baxmal ko'zingizdag'i o't — jahannamni
Uflagandir Frankoning nodon lablari.

Jallodlar qilichining kesolmas dami,
Naftardan qoya bo'lsa, g'azabdan qo'rg'on.
Ispan xaritasini o'chirolmas qon,
Yerning qalbiga botar mardning qadami.

“Qurtoba, G’arnotaning’
Kelib qoldi najoti.
Majolsiz qoldi dushman
Burgutining qanoti.

Boqib qoldi botirning
Orqasidan nigorlar.
Xayr, sizga alvido,
Qo’rquv bilmas shunqorlar.

Yo’lingiz qutli bo’lsin,
Sher qadamli qahramon.
Lekin aslo, ey arslon,
Qaytmagil bu yo’ldan...”

Samovot muttasil quzg’unday uchsa,
Agar qutblar ham chanbardan ko’chsa,
Agar bulut boshlarga qon — yosh tupursa,
Agar daryo to’fonday tinmay ko’pirsa.

Agar o’n-o’n besh it karvonga hursa,
Agar kimdir: Mussolini, Gitler qutursa,
Yuragimiz birga urgan vatanimiz bor,
Yuz yetmish million jonli bir tanimiz bor.

CHAMAN

(*Mashq she’rlaridan*)

Bu Vatan maqtovlarin har qancha yozsang oz ekan,
Dilga til, tilga ko’ngil, albatta jo’r ovoz ekan,
Bog’lar gulgun, chamanlar qo’yni bazmi noz ekan,
Keldi ko’klam, lola, nasrin bir-birovdan soz ekan,
Jo’r bilan soj, qarqunoq, qumri baland parvoz ekan,
Kuyla, shoir, ulfati chor birlashib hamroz ekan.

¹ Kardova va Grenada (*muallif izohi*).

Boychechak yuz sarg'ayib, qishdan qutulganda arang,
Yangidan tushsa nazardan, endi insofga qarang,
Chuchmoma, ra'no, binafsha ko'zni bog'lovchi farang,
Ko'zga oqqay bu chamanning gullaridan mingta rang,
G'unchalarning kulgisidan qalb qulog'ida jarang,
Yoz ekan, tannoz ekan, sernoz ekan, damsoz ekan.

Qatma-qat alvon kiyib maqtanganida arg'uvon,
Chirmovuq karnay cholib, tortmasmi kuygandan fig'on?
Pora-pora barg to'kib lola hasaddan bag'ri qon,
Tomda yolg'iz o'ksinur bechora qizg'aldoq hamon,
Yer chizib gulxayri motamlik to'nin kiygan zamon,
Shohigul atlas qanotli, gerdayishda g'oz ekan.

Yerda qolgan, parvarishsiz bunda gul beordir,
Bo'y cho'zib, hatto chechakka yetmayin ham zordir,
Tugmadek cho'pga chizilmak ishtiyogi bordir,
Bitta gultojixo'roz sho'rlikka jindak yordir,
Sadarayhon xush qiliq, bechoraga dildordir,
Bu chaman atrofida safbasta bir sarboz ekan.

Tilla qo'ng'iz hid o'g'irlab yashrinur barg ostiga,
Tushmasin hech gul mabodo sa'va, bulbul dastiga,
She'r o'qir timmay chamanning har baland-u pastiga,
Bu tomosha, aysh-u ishratdan kechib, chumchuq nega,
Cho'p ko'targancha yugurmakda terakning ustiga,
Ba'zilar aytar, duradgor, ba'zilar, dorboz ekan.

Keng Vatanning bog'-u bo'ston qissasi bo'lmas tamom,
Qayga borsang mingta quvnoq yuz kulib bergay salom,
Baxtli, erkin umrimiz millioncha yil qilsun davom,
Bu chechaklardan muhabbat ahliga guldasta — kom,
Endi yalqovlikni tashlab, mutlaqo G'afur G'ulom,
To'xtamay she'r yoz ekan, she'r yoz ekan, she'r yoz ekan.

SAN'ATIM

(*O'zbek san'atining nishonli o'g'il,
qizlariga*)

Ey asrlar asirasi, zulmat qurboni,
Tarixlarning gardanida yoqut marjoni,
Isyonlarning sut emizgan onasi — qoni,
Kishilikning teng yarimi, sherigi, joni,
Odamlilikning bir bo'lagi, mazmuni — joni,
Yuragimning "Gulsara"si bo'lgan san'atim.

Ichkarining soqovlangan tili so'ylarkan,
Qayg'u-alam ertaklarin mung-la kuylarkan,
Jon dimog'i zulmning zahar gulin bo'ylarkan,
Hasrat ko'zi chimmatlarda qonga to'larkan,
Cho'rilarining, kanizlarning yo'lin o'ylarkan,
Jigaramning bir porasi bo'lgan san'atim.

Ichkarining darichasi — porloq ko'zisan,
Sho'x qizlarning musiqaviy quvnoq so'zisan,
Ozod o'zbek-xotinligin kulgan yuzisan,
Ming Zebining, ming Qumrining xuddi o'zisan,
Halimasi ham Sorasi bo'lgan san'atim.

Olam tomi ustidagi cholingan bu soz,
Dunyolarning san'atiga bo'ldi jo'r ovoz,
O'zbek qizin ovozi bu — erkin sarvinoz.

TURSUNALI NEGA VARRAKDAN AYNIDI?

Ko'klam keldi, uchib o'tdi g'oz-u turnalar,
Jamilaning jamalagi singari qator.
G'uv-g'uvullab shamol kelib dilni timdalar,
Shunday kezda qaysi bola indamay yotar.

Ko'klam keldi, oq bulutlar o'tadi suzib,
Go'yo varrak dardaragi ko'k gumburlashi.
O'qishdan so'ng tomlar oshar maysada kezib,
Tursunali o'yamoqda,sovugan oshi.

Ayt-chi, nega osmonning shunday varragi?
Tursunali taibatga hasrat qiladi.
Chidarmidi yosh ustanning o'ynoq yuragi,
Qog'oz bo'yab, savog'ichni tinmay yo'nadi.

Tol chiviqlar yosh boshiga tashlar ko'lanka,
U qunt bilan bezamoqda qog'oz yaltiroq.
Tursunali yasab oldi o'ziga daka,
Katta, butun taxta qog'oz, rango-rang quroq.

Chillak to'la chiyratma ip, qo'ydi hammasin,
Quroq uchar osmonning qoq o'rtasida.
Kelib qoldi bu varrakka ko'kning g'avasi,
Uzib ketish, olib qochish bo'lar payida.

Yo'q, uzilmas, varrak uchar ko'kda hayqirib,
Go'yo olam bog'boniga to'lib tartarak.
Tursunali chiyratmaga qulog'in qo'yib,
Osmonning sirlaridan tinglaydi darak.

Varrak aytar: "Ko'rasanmi, men balanddaman,
Hatto qushlar tenglasholmas oq qanotimga.
Tursunali, sen ham yuksal, dunyo ko'p chaman,
Ko'p kuchsizman, tortar edim seni yonimga".

"Go'zal dunyo, baxmal bog'lar, ulug' shaharlar,
Zo'r gigantlar, shu kolxozlar, shu oliy bino,
Sho'x to'lqinli, tiniq suvli katta nahrlar,
Ulug' Vatan bori mening qanot ostimda.

Tezroq un, o's, tezroq yuksal, kelib menga min,
Men uchiray seni fanning eng cho'qqisiga..."

Tursunali bu so'zdan so'ng oldi bir oz tin,
Yosh yuragin timdalardi havas-dag'dag'a.

Ko'kka qarab salyut berdi xandon pioner:
"Tez fursatda mutlaq o'qib seni minaman".
Gir shox urdi arazlagan varragi dir-dir,
Yerga tushdi rangi ketgan, o'zi ternalgan.

Qayta boshdan qog'oz oldi, taxta, cho'p oldi,
Yasay ketdi aeroplanning kichik nusxasin.
Rezinkali parragini burab qo'yordi,
Model ketdi egallahsga ko'kning qopqasin.

YASHA, DEYMAN, O'G'LIM!

— Dada, men osmonga uchar bo'lsam,
Cheki yo'q ko'kni ham quchar bo'lsam,
Yulduzdan-yulduzga ko'char bo'lsam,
Sen tubanda qolib ne deysan?

— Yasha, deyman, o'g'lim!

— Dada men tankka otlansam-da,
Istagan o'lkaga yetsam damda,
Esizki hozircha yoshim kam-da,
Ko'zing yo'lda tolib ne deysan?

— Yasha, deyman o'g'lim!

— Dada, men jo'nadim Arktikaga,
Bitta ortiqcha putyovka sanga,
E'tibor bermay sovuq osmonga,
Sen tumanda qolib ne deysan?

— Yasha, deyman, o'g'lim!

— Dada, men so'rasam qalamingni,
To'ldirsam she'rda ko'p-kamingni,
Yuvolsam xijolat-u g'ammingni,
Yozganimni o'qib ne deysan?

— Yasha, deyman, o'g'lim!

SARHISOB

Gomerdan boshlanib tamom bo'Imagan
Odamzod aqlining durdonalari;
Milliard satrlarda zanjirband so'zlar,
O'zingiz shoirga yupanch beringiz
Va shoirligiga ishonch beringiz.

Navoiy baytiday to'lqinli yoshlik,
Bedilning she'riday falsafiy umr,
Vazn qofiyasi mustahkam hayot
Roman o'qilganday o'tib bormoqda,
Etagi qo'llardan ketib bormoqda.

Payti keldi endi qilsam sarhisob:
Nimalar yozibman, nima kuylabman,
Tonglar jilosiday ufqimga ziynat,
Jilg'alar rang oldi o'ynoq dilimdan,
Pokiza she'rkar oqmish tilimdan.

Andishaga javob yurak ovozi,
Aqlida butligi zo'r istirohat,
Tong otar paytida ichilgan qasam
Vatan xizmatidir, yurakka xitob,
Yengil tortib ketdim, mana sarhisob.

QASIDAYI SHAMSIYA

Sobir Abdulla g'azaliga muxammas

Falak yug'urdi aning nur ila zuvolasini,
Yer ahlidin yoritib ishqiboz-u volasini,
Tutib qo'limda sharobi hazorsolasini,
Kel, ey quyosh, urishtir jahon piyolasini,
Jahon piyolasi birlan bu jon piyolasini.

Yaqinda uchrashajakmiz fazo yo'laklarida,
Vatan yigitlarining shunqori bilaklarida,
Senga yetgaymi havas har yurakning raglarida,
Elim yo'lingga chechaklar sochish tilaklarida,
Bezatdi gulga ko'mib bog'i birla dolasini.

Quyosh kusufi bu quygan yurakka o'z emas,
Jahonda she'r o'qib o'tdim, bu so'z so'z emas,
Yurakning qadri baland, hamma so'z so'z emas,
Chamanda gul uza bulbul o'qurda yolg'iz emas,
Qo'shildi yallaga to'ti yozib gul kulolasini.

Hunarlaringga tasanno falak sadaf chekishib,
Zamonga nur-u zaminga ajab alaf chekishib,
Fazilating sening ey oftob daf chekishib,
Olov yuz ila yigit-qiz shaharda saf chekishib,
Xijolat etdi ko'k-u yer yulduz ila lolasini.

Senga to'yarmu nazar ko'zning yo'qlig'i birlan,
Ko'zing qarog'ida kiprik o'suqlig'i birlan,
Otildi zulmati shom nur o'qlig'i birlan,
Tun erdi qiz yuzi chimmat to'siqlig'i birlan,
Bu kun harir to'qur nur tola-tolasini.

O'zing bir ishni qilib, so'ngidin savol etma,
Bo'ying'a cho'lg'agali nur-u zar uvol etma,
Bu tanga — tangacha soya xol-u xol etma,
Ko'rishda ko'ksida ipni tumor xiyol etma,
Taqibdi hurlig-u tenglik huquq risolasini.

Oqardi musiqayi nur, yotar quruq tinglab,
Hamisha hajr maqomini labi quruq tinglab,
Bu tongda eng ulug' eldin yo'l-u yo'ruq tinglab,
Bu el eski qaqr cho'l aro qo'shiq tinglab,
Ajabga qolma, suvidir kanal shalolasini.

Yurakda zarrayi xumro bo'lib qon kezasen,
Bani basharga bo'lib ishq hamon-hamon kezasen,
Zaminga durbin-u avj osmon kezasen,
Ko'rurmisenki quyoshsen mudom jahon kezasen,
Hayoti biz kabi baxtli kishining bolasini.

Nechuk ajib tong otmishki, dilda shams erur zohir,
Havo, falak, butun olam yurakkacha tohir,
Quyosh-u oy hama o'z kasbida bo'lib mohir,
Jahon mash'ali sen, men Vatanga bir shoir,
Ikkovining ham o'z ishi bilgay o'z havolasini.

Quyoshni men qadah aylab ichaymi qon, Sobir,
G'azallaring o'lar o'lsam bo'larmi jon, Sobir,
G'ulomiymen to'la nur mayg'a mehribon, Sobir,
Qadahga nur bag'ishlab yuz arg'uvon Sobir,
Kel, ey quyosh, urishtir jahon piyolasini.

AHMAD YOMON BOLA EMAS-KU, AMMO...

Yaqinda bir qiziqqina ish bo'ldi,
Ko'klam emas, kecha o'tgan qish bo'ldi.

Ahmad yomon bola emas, bilasiz,
Yosh boshiga ish tushdi esiz-esiz.

U darslardan "a'lo", "yaxshi" bo'lsa ham,
Intizom-u tozalikdan yaxshi kam.

Yo'q-yo'q, u sho'x emas edi klassda,
Yovvosh edi ham balandda, ham pastda.

Intizomning boshqa bir ma'nosi bor.
Bizdagi qo'l, burun, qulog, oyoqlar.

O'pka, me'da — badandagi a'zoning
Intizomi, ishi bordir teppa-teng.

Ahmad buzgan intizom ham mana shu,
Unga bir oz yotroq edi sovun, suv.

A'zolarin tejab ishlatmaganday,
Yuvmas edi hafta o'tsa ham atay.

Ana shunday qilib bir kun, o'rtoqlar,
Ahmaddagi qo'l-u ko'z-u oyoqlar

Yig'ilishib bir-biriga hasratlashdi,
Hasrat ancha cho'zilib haddan oshdi.

So'z boshladi tikka turib oyog'i,
Qora charmday iflos edi har yog'i:

— Men nimaman, zanglagan boltamanmi,
Ahmadjonda bir emas, oltimanmi?

Birin qo'yib, yana birin ishlatsa,
Cho'loq ketmon emasmanki peshlatsa!

Olib bordim har istagan joyiga,
Kultepami, o'rmi, qirmi, soyiga.

"Sakra", desa sakradim, chopsa chopdim,
Loy tepdim, tezak tepdim, chalma yopdim.

Men sho'rlikni shisha tildi, mix kirdi,
Ins of bilan ko'ringlar hamma kirni.

Suv kelmaydi, axir, qurdim daryodan,
Sharaq-sharaq oqmoqda har bir yoqdan,

Qadrim yo'qmi bir obdasta suvcha ham,
Valijonning oyog'idan nimam kam?

Uyda oyoq kiyimi bir necha par,
Chuvak, mahsi, sandal, kalish, tuflilar,

Hammasi ham pervoy sort, "Skoroxod",
Birontasin kiysa bo'lmasmi yoxud?

Qoqilishdan yara-chaqa har yog'im... —
Shu gapdan so'ng yig'lavordi oyog'i...

Sekin turib so'z boshladi qo'l tikka:
— Menday qo'lni sotsa bo'lmas yuz mingga.

Hali yoshman, yurakda ko'p tilagim,
Men ulg'ayib, chiniqqanda bilagim,

Aeroplanning shturvalin ushlashga
Va dushmanning jig'-jig'iga mushtlashga,

Saflarini yirib-yorib, itarib,
G'alabaning shon bayrog'in ko'tarib,

Yerning baland o'miga o'tqazishga,
So'ng eng yaxshi poemalar yozishga,

Menday qo'lning sog'lig'i juda kerak,
Hozir esa qo'l emasman — belkurak.

Bilasizki, ayolmandman — o'n bola,
Har bir bolam qilar Ahmaddan nola.

Shunday ishlar buyuradi ularga,
Nomus emas, aytib beray sizlarga:

Bosh barmoqday o'g'lim burga ovlaydi,
Qoramaldoq doim burun kavlaydi,

Kichkina nozik qizim jimjiloq,
Tozalaydi erinmasdan kir quloq.

Qolganlarin ishin aytsam, ko'p uyat,
Oilamiz emas, axir, beniyat.

Mana ko'ring bolalarning o'zini,
O'siq tirnoq sirini, ich, yuzini.

Qo'l xo'rsinib barmoqlarin ko'tardi,
O'pka uning ahvoliga yo'taldi.

Me'da: — To'g'ri, — dedi qo'pol ham yirik,
— To'g'ri, — dedi, g'uldurladi kekirik. —

Bu hasratdan bizda ham yetarli bor,
Bo'lib qoldim so'nggi paytda men ombor.

Ahmad yegan ovqatlarda tartib yo'q,
Goh aralash, goh quralash och-u to'q.

Yer yong'og'-u qurt, xo'rozqand, semichka,
Xom suvlardan ichak bo'ldi ingichka.

Insof qiling, bu qanaqa ishtaha,
Ham kechgacha yo'talar "aha-aha".

Holvaytarni ulgurmaysan hazm etib,
Orqasidan kelar morojniy yetib.

Ustiga ustak tuxum yegan nimasi,
Tuxumdan so'ng yana bir kaft monpasi.

Bu ham kamday, selter suvi, marmelad,
Men nimaman, emasman-ku, iskalad.

Tasdiqladi yurak me'da so'zini,
Duk-duk urib bildirdi o'z-o'zini.

So'z qisqasi, shunday qilib, o'rtoqlar,
O'pka, jigar, til-u jag'-u quloqlar.

Uzoqqina bir-biri-la hasratlashdi,
Majlisdagi tanqidlar haddan oshdi.

Ko'z achishib shivirlaydi sirini,
Burun esa ko'rsatar o'z kirini.

Hamma a'zo aytadi: "Afsus-afsus",
Badan qizib bo'ldi qirq bir gradus.

Bu majlisda rais edi aql-u bosh,
Garangsimon o'midan turdi yovvosh:

— Majlisimiz ko'p uzoqqa cho'zildi,
Ko'p a'zoning bunda nervi buzildi.

O'zimni ham og'riganday sezaman,
Shuning uchun bir taklif kirgizaman:

Ahmadjondir xo'jayin hammamizga,
Intizomga, tozalikka va bizga,

Bundan keyin bermas ekan e'tibor,
Ishlamaymiz, mana ko'ndalang qaror.

Bosh so'ziga qo'shildi barcha a'zo,
Bu ish edi Ahmadga yaxshi jazo.

Yuray desa oyoqlari bemador,
Qo'li buyrug'iga bermas e'tibor.

O'qiy desa ko'zi tinib ketadi,
Til bosrinqi aljishlarni aytadi.

Hech qanday ovqatga ishtahasi yo'q,
Muttasil o'qchiydi quruqdan-quruq.

Xuddi misday qizigan peshonasi,
O'miga yotqizdi suyab onasi.

Doktorga yugurdi rabochiy ota,
Ahmadjon yotadi bo'shashgan latta.

Ikki soat o'tgandan so'ng otasi
Kirib keldi, orqasida bittasi.

A'zolari shivirlashib oldilar,
Keluvchiga sekin nazar soldilar,

Ko'z — lampochka, quloq — reproduktor,
Bildilarki, kelayotibdi doktor.

Doktor qo'ydi qo'ltiqqa termometr,
Har a'zoni tekshirdi u birma-bir.

— Aha! — dedi, oxirda o'z-o'ziga,
Ters yotqizib yag'riniga qo'ydi banka:

— Kasal uncha qo'rjincli ham emas,
Buzuq me'da, issiq-sovuq, kirlik, bas.

O'zin tejab manov dori ichilsa,
Ajab emas, kasal badandan jilsa.

Yana o'zim xabar olib turaman,
Tekshiraman, nazar solib turaman.

Doktor ketdi, sho'rlik Ahmad o'n besh kun
Kasallikning alamin chekdi butun.

Erinmasdan dori ichib, parhezdor,
Doktor undan bo'lib turdi xabardor.

Bosh og'rig'i o'zga kela boshladi,
Til ham endi so'zga kela boshladi.

Ishtahasi kirgan, ovqat so'raydi,
Ko'z ochilib, badanga mo'ralaydi.

Qo'l oyoq kuchga kirib g'ivirlashar,
Butun a'zo o'zaro shivirlashar:

— Ahmadjonga shu jazoning o'zi bas,
Esli bola qadrimizni unutmas,

Ish boshlaylik, yetar endi o'rtoqlar,
— Ma'qul, — dedi yurak, jigar, taloqlar.

So'nggi marta doktor keldi ko'rgali:
— Tuzalibsan, o'g'ilim Ahmadjon, balli.

Men yozaman senga yana bir doru —
Hammom,sovun, mochalka-yu issiq suv.

Bu gaplardan Ahmad juda uyaldi,
Otasining yelkasiga suyaldi.

Ota-bola jo'nadilar hammomga,
Suv yugurdi murg'akkina yosh jonga.

Ahmad xursand, boshdan oyog'i xursand,
Yuzi toza, burni xuddi xo'rozqand.

Yurak tekis duk-duk etib uradi,
Oyoqlari qayga desa yuradi.

Qo'llari ham sevinchidan chapakda,
Butun a'zo bir-biriga ko'makda.

Endi Ahmad sog'lom, toza, a'lochi,
Me'da kuchli, tishlari misli inju.

Chunki uning har ishida intizom,
Hikoyasin tugatdi G'afur G'ulom.

* * *

Miltillar ko'r qolipday hujrangda nobino charog',
Gung kishini ham qilur g'ashlik ila dono charog'.

Qolgusi ko'hsol charog'i zulmati yaldogakim,
Yonsa mahdum hujrasida ship-shivir barno charog'.

Ko'z qisar har tang minutda bevayi bokir kabi,
Shuncha shilqim ishqidan angolmadim ma'no charog'.

Ko'r qori bo'lsa badtar ko'r qilg'ay shu'lasi,
Bo'lmasa ko'zida yo oyina, yo latto charog'

Nur bar har tab' mebaxshad judo xosiyate,
Bilmadim bu nurdan ko'ngildadir sarmo charog'.

Bo'lsangiz gar bu charog' ostida siz bir-ikki kun,
Bergusi ko'z doktoriga "ko'r" deb patto charog'.

Bilmadim, a'rob qo'ndi surayi nur ustiga,
Men G'ulomiy chin charog'dan, jin charog' a'lo charog'.

Maqtag'ay mahdum charog'in: "Ey sayd bu barq" deb,
Or keltirdi elektrga, bu rang ixfo charog'.

* * *

Hasan ko'li-ku juda kichik ko'l edi,
Lekin unda botir o'g'lon mo'l edi,
Samuraylar oqibati shul edi,
Ayrildi ko'p beboshlar o'z boshidan.

Shogird degan bir oz o'rgangani xo'b,
Endi bilsak samurayda ahmoq ko'p,
Aeroplandan tushgan bomba, otgan to'p
Ko'prak edi soldatlarin yoshidan.

* * *

Assalom, e shahri Sim, bahri muhabbat Marg'ilon,
Shoshdin bir o'q otildi, kaj falak tortib kamon.

Hovliqish, zo'r intilish, ko'p ishtiyoq saqlab bu kun,
Qalb qushiga bol-u par toqib uchirdim sen tomon.

Ufqı xandoningda kulsin har zamon xurshid baxt.
Har taraf taxi ravoning topmasin chug'z oshvon.

Sarbalanding uzra fayzi quds birla hilpirab.
Valvala solsin jahonga shonli bayroq, rangi qoya.

Hindikush tog'larining zanjirsiz arsloni kabi
Mardlikning na'rasin tortsin tumancha fabrikang.

O'zbekiston shabcharog'i, olmosi Farg'onadir,
Yerda yulduzlar kabi har yerda gavhar yonadir,
Har taraf bog'i Eram, har manzili koshonadir,
Quvnagan xalqning labida xanda bo'lmay yonadir,
Chunki unga baxt-u iqbol har zamon dildor-u yor.

Vodiyimiz tanburki, har bir vaqt ovozi soz, jarang,
Bir kanal ochding kumush tordek unga monand tarang,
Xalqi jo'r bo'lsa bu tanburga bo'lur olam garang,
Yer zumurrad, ko'k zabarjad, har tarafda mingta rang,
Yashna xalqim, yashna vodiy, yashna ey setor, tor.

Biz kanal ochmoqqa chiqdik bir sevimli tong chog'i,
Bizni olqishlardi vodiyning quyoshli yer, tog'i,
Bu kanaldan gullagay o'lkamning bo'ston-u bog'i,
Suv quyilgan chog' ko'rindi mehnatimiz salmog'i,
She'r o'qiymen shoirning G'afur G'ulom, men bor, bor.

MUSHOIRA

Zumurrad chambar ichra qatra olmoslar qulog'ida,
Suman bargida shabnam aksidir, yo ko'z bulog'ida.

Demam shabnam, qamar atrofida ziynatda kavkablar,
Iqomat tuz mish ul yulduz ikki abr-u qirog'ida.

Shivirlab so'y lamakka dildagi hasratlarin go'yo,
Rihi ishq zargari solmish kamandin shom chog'ida.

Kamand ermaski, band o'l mish o'zi dori muhabbatga,
Osilmish halqa-halqa sevgining zartin tuzog'ida.

Go'zallik Zuhrasidek ko'kka uchsa o'midir ammo,
Xaloyiq oshig'idir, sirg'asi yuk yer oyog'ida.

Sharafli baxt erurkim, har nafasda yor yuzin o'pgay,
Agar tun bo'lqa nozik halqalar ikki yanog'ida.

Hamisha men G'ulomiy sirg'aga sohib u dilbarning,
Necha kundirki Chustiy ikki baldoqning so'rog'ida.

* * *

Bo'lzin muborak senga sharaf ila shon do'st,
Hammisrau ham kasbi bir hamzabon do'st.

Ko'ksim ko'tardi ko'kka meni yodlagan chog'i,
Ko'ksingda barq ursa o'shal Zarafshon do'st.

Jonga vujud singari darkor do'stga do'st,
Yoki vatanni jismiga darkor bu jon do'st.

Do'stlikda shart shulki, ekan har qayerda u,
Ajralmagay yiroqdagi har mehribon do'st.

Garchi yiroq gar yaqinmu xuddi jon-u dil,
Chunkim vujudi keng erur to omon do'st.

Tinmay tashakkur aylasak albatta oz erur,
Bo'lqi sharofat ilan chin mehmon do'st.

Har dam hamisha qalbi muborak jon senga,
Bulbulga burgut o'rni kabi oshyon do'st.

Garchand bir jahonda yashab o'lg'imiz, axir,
Kim do'st sanar seni bir jahon do'st.

* * *

Oshiqi mast hushga kelmas umrlar o'tmak bilan,
Qatra kam kelmas bu taqdir kosasi to'kmak bilan.

Qancha xatlardan muammo bitta chanbardir bu yo‘l,
Xuddi pargor aylanursan muttasil ketmak bilan.

Sevgi shunday zo‘r erurki, xuddi dengiz to‘lqini,
Kam bo‘lurmi mehr-u sevgi g‘ariq bo‘lib cho‘kmak bilan?

Sevgi o‘chmas shu'lakim, yo‘q boshqa o‘tga ehtiyoj,
Oftob manglayda porlar mohtob o‘chmak bilan.

Ishq birlan bu qalamning qalbi payvanddir azal,
Aryu solmas kimsa anga qancha qo‘rqitmak bilan.

Oq qo‘ling menga uzandi sevgiga mazhar kabi,
Muhr bosdi unga oshiqning labi o‘pmak bilan.

* * *

Mayiz-u turshakkina,
Folbin, qo‘snoch ip-nina,
Qoqindiq qilmang gina —
Xalcha buvidan tavan.

Bir laganda Halvoystar,
Barkash qilmay ul mehtar,
Rusmi, o‘zbekmi, tatar? —
Serovno Xitdan tavan.

Kalondimog‘, lab cho‘qqi,
To‘raga tayyor o‘qi,
Vistavkaning laq-luqi —
Suboy ibdashdan tavan.

Achchiq ichakday nazm,
“Ravnaqi, arshi azim”,
Gubchak qorin, badhazm,
Mag‘zavadan bir tavan.

Goh jirtag-u, goh hazil,
Ba'zida ketkazib zil,
Tish ostidan chiqib til —
Iljayish bizdan tavan.

CHO*PON

Yana men bo'rilarni hoy-hoylab,
Chorvangizda churuk chopon cho'pon.
Yotamen kechalar tongotar poylab,
Ko'kda hulkarga telmurib qoldim.

Tag'i men qirda qirg'ovul ovlab,
Cho'lda tun qotgan qarchig'ay qo'shig'in.
Yoppa yolg'izliginda yov chog'lab,
Uvolimdan ko'mak so'rab qoldim.

Endi men asta-asta kun, oylab,
Izingizni Somonchining yo'lidan
Qidirib, ishlarim-la soy-soylab,
Qo'ychivonlikka o'rganib qoldim.

* * *

Bu kun men, do'stlar, dil malhami dilbarni izlarman,
Yuzi gul, qomati sarv, sochlari anbarni izlarman.

Chaman bulbullari sha'niga yuz ohang bilan sayrar,
Muhabbat boshiga men loladin chanbarni izlarman.

Aning baxti uchun tong chog'ida shabbodalar o'ynab,
Quyosh nuri yuziga sochmog'i-chun zarni izlarman.

Qadam qo'ygan yeri gulzor ila bo'stoni jannatdir,
Bo'yiga teng bo'lolmas bog' aro ar-arni izlarman.

Aning vasliga bir savg'o bilan bormakni chog'lab men,
Ajab guldaста terdim endi nilufarni izlarman.

Anga men soyadek yo'ldosh bo'lmakni qilib orzu,
Yengiltak bir vujudi zarralar parvarni izlarman.

Yurak to'lqinlaridan sha'nida bir she'r yozmakka,
Siyohiga ezishga ud ila za'farni izlarman.

G'ulomingman ko'zing haqqi, desam ham qilmayin parvo,
Demaskim ko'p zamondan berli bu beparni izlarman.

* * *

O'n bir, o'n uch hijoli keng qofiyali
Jo'n masnaviy she'rdan ko'plar zerikdi,
Sozga tushaturgan "faulotun"li
Qiyinroq yo'llarni boshlayman endi:

Shoirlik nima-yu zargarlik nima,
Olmos o'tkazishga kvartir emas,
Bir uzuk qoshi ham qilur kifoya.
G'afurni o'quvchi bilonihoya
Xalqimning hurmati — shuning o'zi bas.

* * *

Avval bahor edi, o'zi tuymas edi nazar,
Gullar ari oyog'iga to'kmakda edi zar.
Osmon tiniq, bamisoli do'kon shisha gar,
Guldastalar qiyoq o'tdan bog'lagan guhar.
Dil toza, asab sho'x-u musaffo yurak, jiigar,
Kim tinglamaydi shuncha shirin pok xush xabar,
O'zbek qizi ozod, faryod ko'mildi,
Faryod ila dod umrbod ko'mildi.

O'PAY

Men g'aribon muncha band etgan xayolingdan o'pay,
Tong yeli o'pgan kabi sarvi niholingdan o'pay.
Istadim ozg'in chibinning toleyin afsuskim,
O'ylagandim lablaring mazmuni bolingdan o'pay.
Har nafas ko'zgudagiday gul yuzing qalbimda jo
Mayli aksing bo'lsa ha ruxsori olingdan o'pay.
Rangchi tussiz, gavdachi yengil havoyi tush kabi,
Zavqli xummor ko'zlariningda baxtli folingdan o'pay.

KUZATISH

(*O'g'lim Jo'raxonning harbiy xizmatga
chaqirilishi munosabati bilan*)

Umrim, ey sen bo'lib shuncha beg'ubor,
To abad aylading meni baxtiyor.
Umrim, ey sen bilan qilib iftixor,
Bo'layin o'lguncha men ham minnatdor!

Tug'ilgan kunimoq keng peshonamni
Tole yulduziga barobar etding.
Beshinchı yillarning to'lqinlarida
Beshigimni o'z qo'ling bilan tebratding.

Lenada ishchilar otilgan kuni
Abjad o'qish uchun mакtabga bordim.
Bobomga shul kuni yuz yosh to'lmishdi,
Taajjub qilamen toleyimgakim:

Napoleon Moskvada etik yo'qotib,
Ishtonsiz Parijiga qochgan chog'ida,
Kelajak kуллarning sутин asqatib,
Bobom uxlар Vatanim erk quchog'ida.

(Jo'ra, shu chistonni do'stlaringga ayt:
"Bobosi tug'ilgan kun, nabirasi
Alifbe o'qishga kiribdi" — faqat
Aytmagil, yuz yildir buning orasi.)

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga.
Tasodif emasdир, balkи sen-bizni
Kurashlar taqmishdir baxtning ipiga.

Yigirma uchinchi yilning tongida
She'rim bilan egizak bo'lib tug'ilding.
Yillar o'tib har ikkov o'g'il ongida
Ufqlar ochildi, fazolarga teng.

She'r o'sdi, sen o'sding soatma-soat,
Mana endi ulg'ayib, harbiy yoshing bor.
Do'stlar bilan bir safda o'qishga albat
Men yozgan egizak marsh — yo'ldoshing bor.

Ulug' g'alabalar arafasida
Qabul qildi seni pedinstitut,
Senga dars berguvchi muallimlarning
Hurmatin doimo sen yodingda tut.

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga.
Tasodif emasdир, balkи sen-bizni
Hayot o'zi taqmish baxtning ipiga.

Sening-chun she'rimni yozar ekanman,
Ukang O'sar yelkamda pichirlatib lab,
Harflarni bir-biriga qo'sholmasa ham,
O'qib bordi so'zlarni qiynab, hijjalab.

Fe'lini bilasan O'sar polvonning,
Hoziroq sendanam otashin — olov.

It ko'rsa, Gitler, der, mushuk — Mussolin
Manjalaqi har hayvon doim unga yov.

— Dada, — deydi, — Gitler qachon o'ladi?
Men deymanki: — Eng katta bayram kunida.
— Bayram o'zi qachon? — deydi, so'raydi.
— Bayram fashizmning o'lgan kuni-da...

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga.
Fashizm itlari quturgan damda
Kira olding kurashning keskin safiga.

Kulumsab turg'uvchi toleing porloq.
Xuddi shu yil tappa-taq o'n sakkiz yoshing.
Vatan qirg'og'iga yov qo'y mish oyoq!
Jangga yur, ..., xalqlar yo'ldoshing!

Men ham roppa-rosa Pushkin yoshida,
Faqat bu kurashdir, emasdir duel.
Duelda o'lurlar, kurashda — hayot,
Tarix talab qilgan ulug' qiron yil.

O'sar, mujda senga, ulug' bayram kun,
Bo'lar yov yerida xuddi ertaga,
O'lur Gitler, fashizm, o'lur dahshat — tun...
Xalq yurgach, bu bayram bo'lmasin nega.

Bobolar udumin tutib nazarda
Kurashda toleying bo'lur senga yor.
Chunki bu kurashda ulug' sarkarda
... bayrog'i bizga iftixor.

Saflar oldida bo'l, mard bo'l, botir bo'l,
Do'stlarga hamohang jo'ra bo'l, jo'r bo'l.
... hurmati, Vatan hurmati,
Xalqimning hurmati, g'olib bo'l, zo'r bo'l.

SEN YETIM EMASSAN

(*Ulug' Vatan urushining ota-onasiz
qolgan go'daklariga*)

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon
Vataning — onang,
Zaminday vazmin-u
Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor — otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan,
Bu yerda
na g'urbat,
na ofat,
na g'am.

Bunda bor:
harorat,
muhabbat,
shafqat
Va mehnat nonini ko'ramiz baham.

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Bu yerda muzlagan
Ajdar halqumli
Vahshat to'plarining
Qahqahasi yo'q.
Bu yerda —
odamzod shaklida yurgan
la'nat devlarning

Manfur, yuqumli,
maraz namoyishi
topolmas huquq.
Ulug' jang kundir,
Jangki, beomon.
Lashkar degan axir
Bexatar bo'lmas.
Otang o'lgan bo'lsa
Qayg'irma, qo'zim,
Ko'zim usti
Minnating boshimga durra,
Shu sog'lom havoda
Salomat-omon,
Xo'tsinmay, erkinlab
Ola ber nafas.
Ey ulug' naslimning
Yuragi, joni,
Kiprigingga ilinmas
Yig'idan zarra.

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Yetimlik nimadir —
Bizlardan so'ra.
O'ninchi yillarning
Sargardonligi;
Isitma aralash
Qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan
O'chmaydi sira.
Men yetim o'tganman,
Oh u yetimlik...
Voy bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga

Bir mehribon qo'l,
Bir og'iz shirin so'z
Nondek arzanda.
Men odam edim-ku...
Inson farzandi...

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Ko'zimga uyquning
Mudroq ovchisi
To'rin solmasdan,
(Birinchi gudokka
Ikki soat bor.)
Otaliq hissining
Bebaho, laziz
To'lqinlari ichra
G'arq bo'lib ketib,
Aziz boshing ustida
Termulmakdaman.

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Nega cho'chib tushding?
Murg'ak tasavvur,
Go'dak xayolingga
Nimalar keldi?
Balki Odess dahshati,
Kerch fojiasi,
Yovvoyi maxluqlar,
Qonxo'r vahshiylar...
Mammasi kesilgan
Sho'rlik onangning
Pajmurda gavdasi
Ko'zing o'ngida

Butun dahshati-la
Aks etar endi?
Onang xo‘rlandimi,
Otang o‘ldimi,
Sen yetim qoldingmi,
Qayg‘irma, qo‘zim,
Ko‘zim usti,
Minnating boshimga durra.
Ota-onasining
Tayini ham yo‘q,
Sut ko‘r qilgur, haromi
Gitler oqpadar —
Farzandning qadrini
Qayerdan bilsin?
Bir qo‘ng‘iz mo‘ylovli,
Baroq soch mal’un,
Jigar rang bir mundir
Istag'i uchun
Nahotki yerimiz
Chappa aylanib,
Nahotki daryolar
Oqar teskari,
Nahotki odamlar
Kezar darbadar?..
Axir, juda yaqin
Qonli intiqom,
Alhazar, alhazar,
Ko‘pirar tomirlarda qon
Va portlar hademay
Bu o‘qli vulqon.
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.
Sen kulayotibsang,
Balki bu kulgi
So‘nggi oylar ichra
Birinchi chechak.

La'lin labingdagi
G'uncha tabassum,
Albat toleyingga
Muhir bo'ladi
Va bunda aks etar
Porloq kelajak.
Tong yaqin,
tong yaqin,
oppoq tong yaqin.
Bir nafas orom ol,
Uxla, jigarim.
Oq oydin
tong oldi,
Uxlamoqdasen.
Lablaring shivirlar,
Izlamoqdalar...
Balki bir erkalash,
Bir ona bo'sa.
Ulug' oilaning
go'dak farzandi,
bilib qo'y endi:
Sen tezda ulg'ayib,
Olam kezasan,
Manglayda porlagan
Toleying — quyosh
Butun yer yuzini
Qilur munavvar.
Haqorat yemrilur,
Zulm yanchilur,
Jahonda bo'lurmiz
Ozod, muzaffar.
Sen yetim emassan,
Mening jigarim!

QISH

Nol minus qirq ikki gradus...faqat
Daryolar yaxbasta, billurin ko‘prik,
Izg‘irin bo‘ronlar nurday yugurik,
O‘rmonlar g‘uvillar, uvlar betoqat,
Dahshatli quyundan iborat bu g‘uv,
Ulug‘ Rossiyaga qadrdon qish bu.

Archa yaprog‘ida muzdan pardalar,
Pechkada qizarib gupirmoqda non,
Toshmoqda borshch bilan limmo-lim qozon.
Gitarada bir kuyni Vanya timdalar...
Kolxoz xonadoni hayot va g‘ulu —
Saodat yurtida qadrdon qish bu.

Mum shamli qandiday quduq lablari,
Bir qator qiz ketar, yelkada obkash.
Qulog‘ingni solsang: hayot aralash
Navbahor yoshlikdan doston gaplari.
Qishda ham ko‘klamday yurakda sevgu,
Chunki ishqparvarda qadrdon qish bu.

Qirq ikki gradus... Besh yashar Oleg
Oyoqda valenka, egnida tulup, —
Chana sudramoqda qahqaha urib,
Yoqut suvi bilan pardoz bergandek,
Qizil lablarida muttasil kulgu,
U rus o‘g‘li, unga qadrdon qish bu.

Rossiya qishining xislatlari bor,
U yov uchun qopqon, bizlarga qalqon,
Moskvadan qocharkan shumshuk Napoleon
Ming bir bahonani qilsa ham takror,
Bu bizningcha oddiy arpa uni-ku,
Ammo haqiqatan qadrdon qish bu.

Qirq ikki gradus..., Gitler akillar:
“Bizning chekinishga qish bo‘ldi sabab...”
Sababi — xalqdagi qudrat va sharaf,
Informbyuro ham shuni ta’kidlar,
Urush mashinangiz yo‘qotmishdir chuv,
O‘z vaqtida kelgan qadrdon qish bu.

Parij shantanida “g‘alabalar”dan
Badmast g‘ururlar-la topib osoyish,
Fahshlar qo‘ynida yirganch parvarish
Ko‘rgan soyaparvar ilmiliq badan
Shovutday qotadi xuddi sassiq suv,
Chunki ayov bilmas qadrdon qish bu.

Muzlagan barmoqlar, adres yo‘qotgan
Klizma trubka bo‘lib qoladi,
Hovurmi harorat qidirib endi,
To‘satdan og‘ziga borib qolarkan,
Holingizga boyqushlar kuladi: Ku-ku!
Chunki ruslarga xos qadrdon qish bu.

Maza bo‘lar edi sizga jobajo,
Istagan qishloqni buzish va talash,
Maza bo‘lar edi gulxan — o‘t qalash,
Burunga g‘oz yog‘i surtib beparvo,
Biroq juda ravshan misoli ko‘zgu,
Ruslarga bir umr qadrdon qish bu.

Bizda botir marshal, generallar bor,
O‘z qatori qish ham qohat general,
Xalqi va iqlimi birlashgan mahal
Fashizmga o‘lim hukmidir tumor.
Mozor bilan qonur yovdag‘i orzu,
Ko‘plarining go‘rkovi qadrdon qish bu.

Nuh to‘foni endi oddiy kulgudir
Xalqim bu boshlagan yurish oldida,

Yoki yalang sahroda tuyoq izida
To'plangan bir hovuch bemaza suvdir.
Yov uchun to'fondan battarin qayg'u,
Yovga qiron solgan qadrdon qish bu.

Nol minus qirq ikki gradus...faqat,
Tinchlikning qo'shini nurday yugurik,
Bo'ron armiyamiz boshladi ko'rrik,
Yov qochar, chekinar, uvlar, betoqat,
Tarixda yozilur bu katta g'ulu,
G'alaba yilida qadrdon qish bu.

MARD YIGITLAR QANOTI

Tabiatga qirq gradus hokimi mutlaq,
Budyonniycha suvorilar boshladilar jang.
Hatto kishnash qotar edi ko'kda muallaq,
O'sha kuni yovning holi juda edi tang.

Qiyqiriqdan ko'k gumbaz-da qulog berkitgan,
Yarqiragan qilichlardan chok erdi fazo.
Tulporlar ham yovni tishlab ko'kka irg'itgan,
Yovga ajal soqiy edi, bodasi — qazo.

Qamish qulog, o'mrovi keng, quyrug'i qalam,
Tikilganda otiladi o'tlar, chaqmoqlar.
Sakraganda yuzlab farsah — xuddi bir qadam,
Sayxasidan yer-u ko'kka tushar titroqlar.

Qora, o'siq kipriklari ostida suzgun,
Mash'al kabi porlar bir juft chag'ir surma ko'z,
Yel taragan yoli xuddi qop-qora tutun,
Manglayida oq qashqasi — Mushtariy yulduz.

Daryo kechsa tuyog'iga ilashmaydi nam,
Go'yo falak dengizida uch-to'rt kunlik oy.

Zabardastlar qilich chopur, ayil mustahkam,
Boshlariga soya solur baxt qushi — Humoy.

Yerni bosmas tuyoqlari dushman boshida,
Har tepkisi yov yuzida la'nat tamg'asi.
O'yib kirgan ko'kragida, ich-u toshida
Oltin taqa, olmos mixning o'tkir qirrasi.

Tog' ustiga tog' minganday hisobsiz ko'p mard
Qor ustida qonli palos bosib bormoqda.
Har zarbada minglab fashist gavdasi gard-gard,
Har arg'umoq mingan — yovning safin yormoqda.

Yer otashin, ko'k otashin, jahon otashin,
Otilgan o'q, otashpora kabi choper ot.
Minomyotlar nafas olur misoli yashin,
Dushman umri qil ustida, do'stlarda hayot.

Shul damda bir tulpor o'tdi bori sarsardek,
Bul ot bilan faxr etardi maydon mardlari.
Qadamlari sanchiladi toshga xanjardek,
Bir ko'rgandek bo'ldik qarab, bundan ilgari.

Uni mingan tog'dek yigit, ajoyib o'g'il,
Ko'rindi jabhasidan mardlik nishoni.
Ming ko'rsang ham hech to'yaydi ko'z bilan ko'ngil,
Kimki ko'rsa deyur buni — odamning joni.

Sovuq o'tmas, suv ham o'tmas kiygan egnidan,
Quyib qo'ygansovut yanglig' yo'lbars po'stini.
Qomatiga olmos qilich juda yarashgan,
Quloch yozib quchoqlaydi bizdek do'stini.

Muhabbatning ulug' baxti mavj urdi, toshdi,
Yuzimizda shodlik teri — gavhar donalar.
Shirin tilda zafarlardan bizga so'z ochdi:
"Salomatmi, — dedi, — bizning ota, onalar?"

Sog‘liqlarin bayon etdik mehribonlarning,
“Sizlar uchun ishlamoqda, — dedik, — keksa, yosh”.
So‘rab qoldi yayrab o‘sigan gulistonlarni,
Bizlar dedik: “Nur sochmoqda tobora quyosh”.

Biz ko‘rishgan bu azamat, lobar qahramon
Xalqi sevgan, vatanparvar ozod insondan;
Nomi ekan Bahrom polvon, yurti — Andijon,
Eng atoqli farzand nasli O‘zbekistondan.

Bu maydonda ish ko‘rsatgan filday arg‘umoq,
Zar quyoshli go‘zal yurtning tulporzodasi;
Uni boqqan o‘zbek elda serhosil tuproq,
Ot bolasi jang kunining shunqorzdasi.

“Yasha!”, dedik ot egasi Rustam nishonga,
“Boshing toshdan bo‘lsin”, dedik qashqa jiyrонни.
“Dushman boshin uzib olib, irg‘it osmonga,
Omon borib ko‘rgil yana ozod gulshanni”.

Tilagimiz qabul qildi, sakrab kishnadi,
Jilovini qo‘ygach uchdi shamoldan tezroq.
Tilla dasta, olmos damli qilich ushladi,
Ustidagi Algomishdan edi ko‘rkamroq.

“Yasha, — dedik, — o‘tdan qaytmas o‘zbekning oti,
Kishmish sening yemishingdir, kumush lajoming.
Bu maydonda mard yigitning sinmas qanoti,
Tarixlardan tarixlarga ko‘char bu noming!”

TALON-TAROI QILINGAN YERDA

Ufuqda quyulib va suzib asta
Yer yuzin qopladi shu qonli tuman.
Vahshat qo‘sining oyoq ostida
Yiringlar misoli yaralangan tan.

Shaharlar xaroba, bir uyum tuproq,
Qishloqlarning kuli ko'kka sovrulgan.
Bu yerlarda qayg'u muttasil kezar,
Bu yerda shamollar tortardi fig'on.
Bu yerning vodiysi, o'rmon, tepasi
Qonli shabnamlarga bo'kib yotadi,
Bu yerdan har damda cholg'i ko'tarib,
Mudhish sharpa — o'limning o'zi o'tadi.
Odamsiz yerlarda tentib yuradi
Ochlikdan "uv" tortib bir to'da ko'ppak.
Kim axir, bu mozor, vahshat, jimjitlik,
Yetimlar boshini quraydi jindak.
Har yerda sochilgan odam so'ngagi,
Qasrlarni muttasil quzg'un qoplagan.
Pushtirang ufqlar ko'zga aks etar.
Daryo bevalarday tortadi fig'on.
Ey ota-bobomning muqaddas yeri,
Qaysi qo'l boshingga balo keltirdi.
Qonu yosh ichida o'lja qidirgan
Tuban o'g'rirlarga la'nat abadiy.
Xo'rlikka chidama, titra, ey zamin,
Shu mal'un lashkarni o'z qa'ringga yut.
Fashistni qop-qora qonga belashtir,
To bo'lzin bu yerlar dushmanga tobut.
O'rmalab, hurpayib mudhish jonvorlar,
Dushman o'nguridan biz tomon keldi.
Kurashda madorsiz qolib oxiri
Og'zi ko'piklanib, uvlaydi endi.
Yo'q, hayvon, fashist deb nomlangan jonvor,
Taqdiring tamomdir, o'lasan iflos.
G'ijinib oldinga umtilgan bilan
Sharafsiz nest-nobud bo'lasan xolos.
Qazo hukmi shunday, senga, ey mal'un,
Qotilni avf etmas tarix mutlaqo.
Qaro buting bilan seni odamlar
Axlat kabi qilurlar qaro yerga jo.

SOG'INISH

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonayi xurshid,
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan,
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim,
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkabal o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi.

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta, yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon keladi, g'olib muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor,
Kutaman uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

Bahor novdasida bo'rtgan har kurtak
Sog'ingan ko'ngilga berar tasalli.
Ko'chatlar qomatini eslatganidak,
Nafasin ufurar tong otar yeli.

Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni — allakimimni,
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g'alat o'q, yo xavf-u xatar
Xazinayi umrimdan yo'qotdi olmos...
Yo'q, u o'lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O'rog'-u gulqaychi, istak ko'tarib,
Hovrimni bosishga bog'ga jo'nadim.
Hasharchi qo'shni qiz — uning sevgani,
Ma'yus bosar edi orqamdan odim.

Bog'da sarvinozim yo'q edi garchand,
Ko'makchim arg'uvon yoring Nafisa.
Seni sog'inganda qildim gul payvand,
Bu bahordan hayot olardi bo'sa.

Dur bo'lib taqilur yorning bo'yniga,
Sadafday ko'zimda behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo'yar. Vasvasamdan kuladi quyosh.

Asaldan ajragan mumday sarg'arib,
Ini yo'q aridek to'zg'iganim yo'q.
Ulug' e'tiqodda o'laman qarib...

Sizlarni, keldi, deb eshitgan kuni,
O'zing to'qib ketgan katta savatda

To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin albatta.

Yayov, ko'ksim ochiq, boshda shaftolu,
Xuddi mo'y labingdek mayin tuki bor.
Har bitta shaftolu misoli kulgu,
Shafaqday nimpushti, sarin, beg'ubor.

Suyganing labida reza ter kabi
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

E o'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang danagin saqla.
Shu meros bog'ingni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog'da tovus kabi xiromon bo'lib,
Umid danagini birga ekingiz.
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

XOTIN

Bizning xotinlarga hayo fazilat,
Mehnat bor, muhtojlik doim begona.
Onamsan,
yorimsan,
singlimsan faqat,
Dunyoda eng aziz do'stim, vagona.

Onam deganinda, oqsoch, iafokash,
Munis va mehribon chehrang namoyon.
Sen axir bog'ringda parvarish qilib,
Ko'zanga baxsh etding ko'zgudiek iahon.

Ulg'aydim, "Yor, senga mubtalo bo'ldim..."
Kuchini ko'rsatdi shunda g'azallar.
Hazil-hazil bilan muchallar o'tdi,
Kulmasin komsomol yoshli go'zallar.

Yashash orzusini sinashga atay,
O'rtoq tutundimu uylandim, ammo,
Badavlat cho'ntakdan so'm sanaganday,
Chug'urchiq: qiz, o'g'il tug'ding, tasanno...

Onam zotan xotin, yorim ham xotin,
Singlim ham, qizim ham ularga jinsdosh
Va bular hayotda, mehnatda butun,
Dubbi Akbar kabi bo'ldilar yo'ldosh.

Bazmimda shulardek shamim bo'lmasa,
Labimda ne lazzat berardi sharob?
Muttsil hamyoza, hayot bebo'sa —
Supurgi tegmagan xonumon xarob.

Muhabbat surmasin qo'shni qiziga
Olib berolmasdan umrda bir bor,
Yuzing hasratida hatto ko'ziga
O'rgumchak in qo'ygan yigitlar ham bor.

E'tirof ohangi yaxshi jaranglar
Mushtoq yurak bilan rostini aytsam;
Sensiz nash'a bermas gulshanda ranglar.
Vahmdir butun soz, butun zil-u bam.

Sevinch yo'q, qayg'u yo'q,
ko'klam yo'q, xazon,
Xuddi maqollarda aytilganidek,
Sensiz kelajak yo'q, bema'ni jahon,
Dardi yo'q kesakdir, ishqil yo'q — eshak.

Astoydil har erkak — yo'ldosh, demasa,
Insof mahkamasi sudga beradi,
Ikki do'st qiyinni yenga olmasa,
Hayotning chippakka chiqar omadi.

Qiyin kunga qoldi tog'day boshimiz —
Bu tuman, yolg'on vahm nihoyasida,
Chaqmoqday chimrildi birdan qoshimiz
Har ikki chehraning ifodasida.

Gavrizangir boshin chulg'agan tuman
To'kilishi mumkin yerga xuddi yosh,
Gitler qudrat narvonin ko'kka qo'yolmas,
Quduq chuquriga tushmagay quyosh.

Odam bolasiga qayta tug'ilish,
Koshki bo'lolsaydi yana tuyassar,
(Chaqmoq tosh va otash topgan aqlday.
Doro, Iskandardan eski naqlday);
Bizning bu kurashdan, og'irliliklardan
Kelajakka berar naslimiz xabar.

Ne-ne musibatda qolib boshimiz,
Ne kulfat tortmadik sen bilan bursa,
Halol, pokizadir yegan oshimiz,
Ming karra tashakkur peshona terga.

Hayotda, mehnatta, ishq-u alamda,
Butun mazmun bilan men bo'lgan o'zing,
Men Farhod aidar-la olishgan damda,
Qomating vanjardir, masn'aider ko'zing.

Rostin ayt, bu iangda men o'lar bo'ksam.
Bag'ni dog' loladek diling achişhar,
Modomuki, yashar haqiqy bashar,
Nashunnang homiyisi sen borsan — ne g'am!

Vatan ozod bo'lur, serharakat bo'l,
Arafa kunlari quvongan yoshdek.
Zulmatda mehnatdir ocholguvchi yo'l,
Kecha yoqasini yirtgan quyoshdek.

Bo'yiga gul o'lchab o'g'il o'stirdik,
O'g'illar qon kechib bugun kurashda,
Xayol parishonroq... aytilganidek
Yurak ham ozgina tashvishda, g'ashda.

Endi ko'ribmizmi bu og'ir kunni,
Yig'loqi o'z baxtin dushmani, axir,
Mehnat quyoshi-la yoritib tunni
Qilaylik iblisning nomin bir paqir.

Mehnatda tafovut bo'lmaydi, chalish!
Tramvay haydashdan ko'rma or.
Saodat garovi har qanday yumush,
Xonzoda qiziday o'ltirma bekor.

Dushman yanchildi, deb xabar bo'lgan chog'
Istig'no bazmiga mening ishim yo'q,
Bir-binga ochilur qadrdon quchoq,
Buguncha taltayish topolmas huquq.

Bizning xotinlarga hayo fazilat,
Vafo hunaridir, mehnat odati.
Ketadi boshlardan bu soya — g'urbat...

BIZ YENGAMIZ

Shoh asarin tamom qilgan rassomday,
Varaqlayman bu chamanlar daftarin.
Atlas kabi ulug' vodiy ustidan,
Uchiraman dilning ozod kaptarin...

...Baxtimizga bu yil hosil haddan ko'p,
Barchasi ham front uchun hadiya.
Ulug' Vatan jangi borgan bir choqda,
Botirlarga yozay chandon madhiya.

Suygan yigit olg'i safda snayper,
Raport berar komandirga yuzma-yuz,
Suyishgan qiz terimdag'i planin
Bu tomonda bajarmoqda yuzma-yuz.

"O'n fashistni yakka o'zim o'lídirdim", —
Shu mazmunda onaga xat tegadi.
Shturvalda botir ushumasin deb,
Ona unga issiq qo'lqop tikadi.

Bu bog'larda bitgan har bir qay-anor,
Yov bag'riga otilajak granat,
Uni tergan sakson yoshli mo'ysafid
Jasoratning shukuhin qilur parad.

Frontdag'i kabi jasur, mardona,
Yumushga band bizdagilar hammasi,
Vatanimiz ishq'i bilan yuraklar
Otashindir, ana so'zning xullasi.

Tez-u toza, harbiylarcha muntazam
Mo'l hosilni yig'ib olish vazifa.
Har bir gramm paxtamiz bu — bir varaq,
Yovga o'lim hukmin yozgan sahifa.

Biz yengamiz, do'stim, buni yaxshi bil,
Mal'un Gitler qabriga shu yozilur:
"Muchali it, o'zi to'ng'iz dushmanning
O'lgan yili bir ming to'qqiz yuz qirq bir".

BIZNING KO'CHADA HAM BAYRAM BO'LAJAK

Mahshar hayotning ham chegarasi bor,
Zulm zanjiridan so'kilar tugun.
Informbyuromiz bashorat berar:
Muqaddas arafa kunlari bukun,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Bog'imiz husnida xazon ofati
Ko'klam yeli bilan chechak otguvsi'.
Bu xo'rlik, haqorat, alam kulfati
Jahannam qa'riga borib botguvchi,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Butun savlati-la alvon yozilur
Katta oilaga loyiq dasturxon.
Qadrdon do'stlarga noma yozilur,
Chunonchi: "Bo'ling, — deb, — bizlarga mehmon",
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qrim sharooblari jomga quyilur,
Musibat kun to'kilgan qon bilan yoshdek.
Saxiy barkashlarda bug'lanib kelur
Ukrainaning noni issiq quyoshdek,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qizlarni qo'litiqlab kelar qahramon,
Ko'zlarda aks etar o'limgan bu nasl.
Qulqoqda "bobo" deb yangraydi nido,
Oltin beshiklarda tug'ar yangi fasl,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Yigitlar davra olib ayturlar qo'shiq.
Hijronzada qizlar bo'lib jo'r ovoz;

Visol kunidir bu va mukammal ishq
Odamlik sha'ni-la qiladi parvoz,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Raqslar boshlanur, gul o'yin, gopak,
Hunarin ko'rsatar qiz, juvon, xonim.
Shirakayf qarsaklar, gulduros chapak,
Ulug' ayyom kunidir, qolmas armonim,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Shoir ham she'r o'qir zavqdan asabiy,
She'rini o'qiydi u birinchi bor.
She'rda Gitlerday itvachcha kabi
La'nat so'zlardan bo'lmaydi g'ubor,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Ivirsib bazmga kechikib qolsam,
G'oliblar avf etsin — biroz uzrim bor;
Bisotda yo'q emas, qiyiq, beqasam,
Biror kun dam olsin aziz jomakor,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

G'aflat hammomida kirim qoladi,
Yengil tortajakman misoli pardek;
Ko'ringan do'stlarim belim oladi
G'oliblar belida oltin kamardek,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Jaranglab chervonlar hamyondan chiqar,
Qizlarimga atab xina olaman.
O, ranglar...
Oy tug'ib, oftob bolqar,
Haqiqiy hiftrang, haqiqiy chaman,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qarindosh, qondoshlar halqasin qoqib,
Erinmay aytarman: "Ayyom muborak!"

Afv etsin olamning posboni erlar,
Afv etsin g'oliblar, kechiksam andak,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qiyomat kunning ham so'ngi bor axir,
Bo'Imagay bu zulmat bilonihoya.
Vatanim tong to'yi g'oyatda yaqin...
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

YANGI YIL QO'SHIQLARI

Yangi yil yangi baxt ayyomi keldi,
Asl umrimizning davomi keldi,
Qalam tebratingiz baxtli shoirlar,
G'alabaning jo'shqin ilhomi keldi.

Kechalar kumushrang, olam oppoq qor,
Bu qalin qorlarda ne-ne hikmat bor...
Tengi yo'q hosildan bo'lib mujdalar,
Qor ostida kamol topadi bahor.

Qor ostida kamol topadi bahor,
Toshqin dalalardan toshib keladi,
Qirlarni ko'tarib, gurkirab, yashnab,
To'kin-sochin fasl shoshib keladi.

Bu kecha jomlardan limmo-lim boda,
Bazm dasturxoni tamom omoda,
Do'stlar soqiy bo'ling bizga bu kecha
Do'st yuzidek issiq tong yo'q dunyoda!

Zafar sharobidir, do'stlar, bu sharob,
Yovning orzulari bo'lmishdir sarob,
Bu kecha sherlarning jasur hamlesi
Dushman galasini qilajak xarob.

Shafaqdek qirmizi mayga to'lsa jom
Ne uchun ruboiy o'qimas Xayyom?
Aziz umrlarga debocha bo'lgan
Eng baland tolelar yuksalur mudom.

Mayda aks etmishdir sahar kulgusi,
Quyoshga rang berur yuzlarning tusi,
Dimog'da ertangi bahor atri bor,
Bizga quchoq ochar g'olib kelgusi.

Bu kech baxt madhiga sayroqdir tillar,
Sevinchdan mavjlanur otashin dillar,
Mangu g'alabaga komildir imon,
Bizning hukmimizda mazmundor yillar!..

Visol tong otari — suzgun ko'z vola,
Qo'llarda falakday gulgun piyola.
O'pishing oshiqlar, soat o'n ikki,
Yov qismati bo'lsin o'lim va nola.

Lab o'ynab go'yoki kaptarning pari,
El madhini yo'llar g'oliblar sari,
Million yillar bo'yi takror va takror
O'qilur zafarning ulkan daftari.

Boshlanur yangi davr — zabardast kunlar,
Qo'zg'alur istakka to'lgan ko'ngillar,
Yoqutday lablarga kulgular sig'mas,
Ochilur go'yoki qirmizi gullar.

Husn to'uda kerak, muhabbat har kun,
Muhabbat sozidan jaranglasin un!
Ozod kelajakning ishonchi bilan
Salmoqdur yillarga ayladik yakun.

Otlar suvliq bilan suv icha oladi,
Mardlar etik bilan suv kecha oladi.

Aql-u idrokimiz, kuch va zARBAmiz
Dushmanga kafanbop bicha oladi.

Bu yil asrimizning go'zali bo'lur,
Go'yo she'rda Bedil g'azali bo'lur,
Jahonga ozodlik va shon baxsh etgan
Avlodlarning baxti azali bo'lur.

Visol arafasi, yuzlar lolarang,
Hijronzada qoshlar o'smadan tarang,
Ellarni qutqazgan erlar aysh eting,
Bu yilgi jangningiz bo'lsin so'nggi jang.

Odam tinchligining posbonlari,
Jahon gumbazining charog 'bonlari,
Yanching o'z ichida darranda zotin,
Gitlerning baloyi nogihonlarin.

Kurash va yengishni sevar aslimiz,
Ozodlik faslidir bizning faslimiz,
Yovni yakson eting, sohibqironlar
Mangu omonlikda o'tsin naslimiz!

Alyorlar boshlangiz, baxt bo'lsin soqiy,
Qadahlardek to'la dil ishtiyogi!
Quyosh paymonadek har ko'ngil ravshan,
Uning umri kabi umrlar boqiy.

Halol mehnat halol sharobday bo'lsin,
Yoshlikda yodlagan kitobday bo'lsin,
Keling aziz do'stlar, oppoq ichaylik,
Shu yil umrimizga savobday bo'lsin.

Intizor kelinlar, qadah ko'taring!
Nigoron onalar, qah-qah ko'taring.
Bu yil kelib yetur siz kutgan bahor,
Zoriqqan bulbullar chah-chah ko'taring!

Butun yurt purviqor ko'tarsin kosa,
Azamat paxtakor ko'tarsin kosa,
Sog'liqqa ko'tarsin jangdagi sherlar,
Xalqiga vafodor ko'tarsin kosa.

Bu yil so'nggi bobni bitkumiz oxir,
Berlinda bayroqni tikkumiz oxir,
Olam gulshanida insonlar uchun
Ozodlik chechagin tikkumiz oxir.

Umr bahor bo'lisin, aslo so'lmaylik,
Janglarda yengaylik, mag'lub bo'lmaylik,
Vatan iqboliga ko'tarib qadah,
Oq iching yigitlar, yigit o'lmaylik!

Ey Vatan, yangi yil muborak bo'lisin,
Bog'ingga saodat gullari to'lisin,
Ona yurtim, qutlug' yigirma yoshing,
Senga qasd qilganlar mahv bo'lisin, o'lisin!

Zavqlar ko'nglimizni to'lqinlatadi,
Bodamizga iqbol sharbat qotadi,
Oqarib otalar kumush sochiday
Ulug' g'alabaning tongi otadi.

KUZ KELDI

Urushdan qaytgan g'olib otadek
Qo'yin-qo'nji to'lib saxiy kuz keldi.
Qator tevalarga sepini ortib,
Mardlikning yurtiga yetuk qiz keldi.

Qirq besh yoshdagiday mosh-birinch soqol,
Barvasta, mehribon, yalangto'sh, tanti,
Ag'darma etikning changi ham qutluq
Baraka yildagi xirmonning gardi.

Sumbula suviday tiniq manglay ter
Marvarid donalar bo'ldi oqibat.
Chalishmak mezonin botmonlaridan
Yulduz son qanorlar to'ldi oqibat.

Quyoshga tig' urib, uchdi kurkunak,
"Kuzak yaxshi bo'lur", degan darak bor
Qirqini bajarding, qirq biri — yig'im,
Qani, bir etakni bar urib yubor.

Doshlarda qaynagan shinnining hidi
Dimog'ni shod etar, ruhni salomat;
Sharbat-sharoblardan sipqorgan kishi
To'qson yil yashaydi ko'rmasdan ofat.

Ishkomlar yoqut-u aqiq xazina,
Qirq besh nom uzumlar osilgan atan.
O'lma, ey qo'li qand, jafokash bog'bon,
Yashay ber, bog'larga chulg'angan Vatan.

Qirquyak yomg'iri shivirlab o'tdi,
Cho'pon qo'chqorlarga tashlaydi nazar.
Kelasi ko'klamda qo'zi ko'p bo'lur,
Alhazar, yaramas ko'zdan, alhazar.

Tavrotda afsona: bir olma uchun
Jannatdan badarg'a bo'lgan mish Odam...
Yopirilib kelinglar, aziz odamlar,
Bu yer odam yeri — muqaddas, ko'r kam.

Bizda olmalarning yuz besh turi bor:
Rozmarin, bilflyor, jonoqi, kandil...
Olma taqdim etmak muhabbat ramzi,
Olmada aks etar qonga to'la dil...

Tilimi tilingni ming tilim qilgan
Qirqmalar bog'ladi yukin qovg'aga,

Asaljon Shakarov pasporti bilan
Bebilet jo 'naydi do 'stga sovg 'aga.

Nimtadir shabada, shabnam, bedana,
Chaylaga o 'rmalab chiqqan suvqovoq...
Sohibkor o 'zbeksan, bu yer polizing,
Men esa shaharli bir shirin tomoq.

Yoz bo 'yi uch-to 'rt gal yer etagidan:
"Hormanglar-o '", — qichqirib o 'tib ketganman.
Bu gal insof bilan, kolxozchi o 'rtoq,
Senga yordam uchun kelib yetganman.

Mehnat kuzagining to 'yin fayzidan
Qolmagay daryodil erlar bebahra,
Yakkalay jasorat mevasi irmoq
Bir qatra bo 'lsa ham quyuqlar nahra.

Zumurrad butoqda, oltin chanoqda
Billurin may tutar ko 'rkam paxtazor.
O 'z so 'zli o 'zbekning ko 'klam va 'dasi
Ming karra ming tonna, hazor bor hazor.

Inju donalaring bo 'lmasin uvol,
Cho 'ntagi teshilgan mudroqo zargardek,
Qishning guldurosini kutib ag 'rayma,
Karnay ovoziga ishqiboz kardek.

Ikkita chanoqning paxtasini olsang,
Eng ozi bir g 'altak chiyran ip bo 'lur.
Isrofgar o 'z baxtin dushmani axir,
Beling og 'rigan-ku, nechuk ep bo 'lur?

Kuz keldi, g 'animat oltin kuz keldi,
Manglay osmoniga ming yulduz keldi,
O 'raylik, yig 'aylik, teraylik, do 'stlar,
Bir kutgan unumdan yuz to 'qqiz keldi.

Eldoshlar og'ziga bol qo'yguvchimiz,
Qondoshlar, kiyasiz yangi sarupo.
O'z so'zli o'zbekning va'dasi bitta,
Ming karra ming tonna paxta jobajo.

G'olib vatandoshim, kekkay, haqqing bor,
Bu karvon yukidir mehnating — mevang.
Shaharlar kezadi mag'rur odim-la,
Bo'ynida qo'ng'iroq gilampo'sh tevang.

VAQT

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kamalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olgulik muddat —
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam qimmat,
Bir lahma mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan taroz, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayyuhannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko'ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz.
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.
O'zbekning barhayot avlodlarimiz,
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek
Jahoni ma'nodor qorachig'imiz.
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,
Zamon ko'räsining so'nmas cho'g'imiz.

Zamona soati zang urar mudom,
Minglab hodisalar minutlarga qayd,
Qahramon tug'ildi, shahar olindi,
Bir gigant qurildi sharafli bu payt.

Reyxstag ustiga g'alaba tug'in
Qadashda otilganadolat o'qi —
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas oliy huquqin.

G'alaba amri-la, mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qir
Million yil fashistning umriga la'nat.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'bardin yoqmoq shart emas,

Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,
Umridan o'tajak har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiyidir, umrimiz boqiy.

19. 9. 1945

AVVAL O'QI

Kecha o'ninchini a'lo tugatding,
Qo'lingda yetuklik guvohnomasi.
Ipak galstukka endi ijozat,
Yigitga munosib yigit jomasi.

Ovozing do'rillar, demak, bu uyda
Ikkita erkakning sharpasi hokim...
Onang bo'yginangga tasadduuq bo'lib,
Otang maqtanadi: — Tayanchim, ko'rkim.

Sezaman, oqshomlar meni uxlatib,
O'tyosov jazini tinglaysan sekin.
Javondan Mopassan tomi yo'qolsa,
Bilib-bilmaslikka olishim mumkin.

Qo'shnidan kelarsa jaranglagan sas,
Hushingni elitar ishqning g'ammozi,
Tentagim, bu qizning kulgusi emas,
Jonon piyolaning yangroq ovozi.

Shodlik qo'shini bosdi saodat ko'chasini,
Go'daklar jaranglatar hayitlik tangasini,
Kelinchaklar axtarar pardoz qutichasini,
Oirq kokil bo'lsin deydi, qistaydi yangasini,
Bugun chin arafadir.

Bo'lgan edik intizor ko'z ko'zga tushmak uchun,
G'oliblar qaytgan kun, yor orzusi qongan kun
She'riy o'xshatish bilan qalbimizdir lolagun,
Ayriliq unut bo'lib, bir-birni quchmoq uchun,
Bugun chin arafadir.

Yuzimizni yoritdi kechagi to'kilgan yosh,
Bugun bayram keltirdi kechagi hajr-u firoq.
Bugun bo'ston kezadi, kecha qon kechgan quyosh,
Har kunning fayzi boshqa, erta yana yaxshiroq,
Bugun chin arafadir.

Yigitga ot kelishar, bayroq — g'olib qo'liga,
Qadri baland insonga shon kerak, sharaf kerak,
Yuz ming ko'klam poyandoz arslon erlar yo'liga,
Mening yenggan elimga bayram kuni muborak,
Bugun chin arafadir.

Ertaga tong otardan nog'orada zil-u bam,
Chaling, Ahmadjon ota, navoni savti bilan,
Sen ham shoh she'ringni yoz bayramga, G'afur G'ulom,
Foilotan faalan, foilotan faalan,
Bugun chin arafadir.

YIGITLARGA

Yigitlar xalqlarning maqtovi — ko'rki,
Naslning javhari, davlat tayanchi,
Yurtning obodligi, to'ylar sababi,
Elning gurkirashi, fayzi quvonchi...

Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q,
Qalqon bor: qal'a but, qo'rg'on salomat,
Qizlar kulgusida avj-u daromad,
Chollar uyqusida jannat, farog'at.

Yigitlik umrining bir ko'klamiga
Bir butun zamonni alishsang arzir.
Arzir, o'z yigiting qadami uchun
Zamonlar, ko'klamlar bo'lsa muntazir.

Bir yigit hijroni ba'zan otaning
Bag'rini, do'stlarim, dog'-dog' o'rtar...
Raso qomatingiz bizga asodir,
Ufuring, bog'imiz bo'lsin muattar.

Siz axir, o'limni yurtdan qochirib,
Hayotni poydon qilgan askarsiz.
Siz axir, ulug' yurt iqboli uchun
Jon tikkan erlarsiz, zotsiz, nafarsiz.

La'nati galalar yerdan suprildi —
Muqaddas va halol qoningiz bilan.
Yangi jahon uchun asos qo'ydingiz
O'limni bilmagan jonингиз bilan.

Atomlar quvvati pok qalbingizda
Va sizdan kutadi taqdirin jahon;
Jahon, zamon, xalqlar, Vatan va davlat
Sizga tayanadi, sizdir posbon.

HUKM

Yer yuzi odamzod tug'ilgan uydir,
Bu uyda iblisga bo'Imagan o'rinn.
Iblislar o'lsin, deb hukm chiqardi
Adolat sudyasi kecha kechqurun.

Zolimlar bo'g'zini po'lat kishanday,
Shunchalar begunoh oqqan qon tutdi.
Insonlik huquqi vahshat, zulmatni
Hayot kurashida nihoyat yutdi.

Qaro bayrog'ini ko'tardi qasos,
Oyunda tebranur murdalar murdor.
Oh-u fig'onlarning izsiz tovshidan,
Zoyaning sochidan o'rilgan bu dor.

O'chini ololdi zo'rangan, ojiz,
Ma'sum qurbanlarning pokiza ruhi.
Adolat sirtmog'in hukmiga tushdi
Shaytanat sardori, la'nat guruhi.

Yetimlar yoshining qonli to'foni
Mal'un vujudlarni oxir g'arq etdi.
Zulumot ufqida o'tli shamshirday
Saodat quyoshin tig'i yarq etdi.

Qasos hissi bilan chanqoq yuraklar
Tarix jazosini dedilar: — Durust.
Berlinni zabit etgan xalqim nomidan
Hukmiga qo'l qo'ydi ...

Ruhingiz shod bo'lsin, g'arib, bechora
Ovora millionlar... aziz vujudi!
Dorga halqa bo'ldi Maydanekdag'i
Tirik yonganlarning intiqom dudi.

Bir qator dor bilan sharmanda bo'ldi,
Fashizm beshigi bo'lgan Nyurnberg.
Gitlerning minbari, Gebbels masjidi,
Jahannam qopqasi mangulikka berk!

Xalqim! Omonlikda bemalol, ozod,
Halol mehnatingni qilishing mumkin.

Yerlarga ko'mildi oh-u fig'on, dod,
Gering halqumiga bog'landi tugun.

Tarixning hukmi bu. Unutib bo'lmas,
Millionlar qonidir har qatra siyoh.
Jahonni qaytadan tashvishga solmoq
Ko'yida yurganlar bo'lsinlar ogoh!

Hukm qat'iy, tarixning hukmiga ulug' —
Yerdagi odamlar chekdilar imzo.
Mal'un fashizmning qilmishlariga
Bu bo'lur ayovsiz va qat'iy jazo!

OLTIN MEDAL

(10-sinf o'g'il va qizlariga)

Marmar tusidagi po'lat sanduqda
Balog'at muhridek yaltirab kutar:
Hali qo'l tegmagan, jarangli, vazniin,
Zarbdan yangi chiqqan oltin medallar...

Klassda shu dono ko'zlarga boqib,
Cheksiz quvonch ichra suraman xayol...
Bu yigit, qizlarning qancha-qanchasin
Kutib turgan ekan porloq istiqbol.

Sizga qarsaklarda chiniqdi ilgim,
Istiqbol sizniki, baringizniki.
Olamning egasi siz bo'Imayin, kim?
Shundayin olamki, kelmagan tengi.

Sizsiz kelajak yo'q, siz axir xalqning
Ming yilni ko'rajak qarog'larisiz.
Sizsiz yorimaydi osmonda Zuhra,
Zamonlar tongining charog'larisiz.

Qo'chqor bo'laturgan qo'zichoqlarning
Manglayi tug'ilgan chog'da do'ng bo'lar.
G'alaba asrining o'smirlarisiz —
Sherbachcha qilig'i sherday cho'ng bo'lar.

Shunchalar bilimdon siyoqingiz bor,
Ming o'ylab, bir so'ylar o'qituvchi ham,
Uyda, sizdan oldin bir masalani
"Bilaman", deyishga qiladilar sharm.

Bebaho naslsiz, hayot va mehnat
Olim qalbingizga sut bilan kirgan.
Sizning xamiringiz shu ulug' xalqqa,
Vatanga muhabbat bilan yo'g'rilgan.

Va'daga vafoli, axloqda mumtoz,
Do'stparvar, o'z so'zli, yoriga sodiq.
Otalar: "o'g'lim", deb to'shini kersa,
Qizi bor onaga kuyovga loyiq.

Baxtimiz charog'i, qizlar, jononlar,
O'xshashsiz chamanda ko'rgizing jamol.
Husnning umri oz, ammo go'zallik —
Ilm-u ma'rifatda topadi kamol.

Yigitlar sarasi sizga muntazir,
"Uyqu joy tanlamas, muhabbat — chiroy".
Donolik surmasi bilan qarangiz,
Nechog'lik ravshandir bu gulshan saroy.

Bu gapga hali bor... kelasi bahor
Yetuklik pasporti qo'lga tekkan chog',
Uchirma bolasini kutgan lochinday
Qator institut ochadi quchog'.

Besh yil ha deguncha o'tib qam ketar,
So'zingiz mamlakat xiroji bo'lur.

Vatan va davlatga oid ko'p ishlar
Obro'li fikringiz muhtoji bo'lur.

Ko'k o'pgan tog'larning muammosini
Biringiz geolog erta qilur hal,
Biringiz Amudan cho'lga suv ochib,
Jahonday ko'zguga berajak sayqal.

Biringiz she'rda kamolga yetib,
Ishq-u so'z mulkini qilursiz obod;
Shunda ibtidoiy bo'lsa ham garchand
Mening yozganimni qilajaksiz yod.

Zabardast, bardoshli, qunt-u ixlosli,
Azamat o'g'llar, otincha qizlar,
Sizlarga yarashar shu oltin medal
Kelajak ufqida sizdir — yulduzlar.

QOR

(Peyzaj)

Ona g'ozning to'shi kabi yumshoq qor
Sukut bilan quyiladi sarbasar...
Borliq vazmin uyqu ichra bexabar,
Yoki osmon tullab, to'zg'itmoqda par,
Kipriklarning momiqlardan yuki bor.

Uzoqlarga boqar suzuk ko'zingiz,
Nuqtaday tor qorachig'dan oqar nur...
Tala-tuzning ko'rkmaglii nur-billur,
Yelkalardan bosar yengiltak surur,
Bir burda qor salmog'icha o'zingiz.

Unutilar olam-olam alvon rang,
Yorug'likdir koinotning enasi,

Sanchib o'tar har uchuriq ignasi,
Sutday oppoq bog'-bo'stonning siynasi:
Go'yo ko'klam chamanida rang — nayrang.

Qor marvarid qipig'iday qup-quruq,
Hurpanadi bir zum olidin bosgan iz.
Ko'k suprasi yoyilgandir tep-tekis,
To'y ogshomi inju taqqan yetim qiz;
Majnuntolning marjonida bulduruq.

Oq qo'zining sirtidagi barradek
Elanadi zarra-zarra beg'ubor.
Uchib kelib tushgunicha qaltirar,
Kaftga qo'nib, erib titrar, yaltirar,
Yosh bolaning mijjasida qatradek.

Pora-pora sovurgandek yellarga —
Vafosiz qiz yor maktubin maydalab, —
Qirov kabi qiltirig'i timdalab,
Qor yog'adi tinmay parda-pardalab,
Bir muntazam zarb baxsh etib dillarga.

Sutda moydek singib ketgan oftob
Yer-u ko'kning poyoni yo'q ichida.
Mikroskopsiz ko'rish ham qiyin juda,
Olti qirra qor parchanening uchida
Ilg'anadi quyoshchalar parpirab.

Somon yo'lin eslatadi daricham,
Bunda uzoq yulduzlarning yo'q soni,
Har yulduzning o'ziga xos jahoni,
Ijod uyin qorday bosiq imkonи —
She'r bilan ziynatladi bu kecham...

YANGI YIL QO'SHIG'I

Bog'chamizning archasi,
Yarqiraydi darchasi,
Muncha ham shirin ekan
Yangi yilning kulchasi!

Barra po'stin qo'zichoq,
Ko'zlari shisha munchoq.
Po'lat prujinasi bor,
Turli-tuman o'yinchoq.

Bir, ikki, o'n olti,
O'n olti deb kim aytdi?
Tishim bir tushib chiqdi,
Yoshim sakkizga yetdi.

Olmos, Nazmi, Nurzoda,
Kitobimiz ozoda.
Erta ko'klam bo'ladi,
Qo'shiq aytar shabboda...

Laylak kelib, yoz bo'lur,
Qanoti qog'oz bo'lur.
A'lo o'quvchi qizning
Axloqi ham soz bo'lur...

...Bizning uyda shu kecha,
Radio chaldi tonggacha,
Shunda kelib Qorbobo
Qutladilar mengacha.

"Oppoq qizim", dedilar,
"Yumshoq qizim", dedilar
"Yaxshi o'qib, unib-o's,
Baxtli qizim", dedilar.

O'ttizgacha sanayman,
Yigirma harf taniyman.
Qulupnay pishgunicha
Maktabimdan qolmayman.

Jon archajon, archajon,
Yangi yil senga marjon.
Bu yil bir yil qo'shildi,
O'nga kiraman qachon?

SIZNING HADYANGIZ

Bizning uyning ziynatlari kitoblar-u gilamlar,
Tirik jonlar namoyishi oddiy bu oilada.
Bobom kabi mag'rur turar bog'imizda bir terak,
Bibim kabi boshimizga tashlaydi soya sada.

Onamning hud sharpasi bor ko'z yoshi bu ko'zguda;
O'tganlarning aziz ruhi doim bo'lzin bizdan shod...
Meros qolgan bu bisotda bir gavharni saqlayman,
Bu bisotdan olam ozod bo'lgan,
 oilam — obod.

Bir bor ekan, hayot ekan, mo'ysafid aziz marshal,
Uning bitta Toshmuhammad soldati bo'lgan ekan —
Saritsinning janglarida bir millionning bittasi,
Men bir million berdankadan bittasin saqlaganman.

O'sha jangning Paulyusni asir qilgan quroli
Bir tabarruk bisotimdir.
Birinchi marshalimiz
Toshmuhammad deb nomlangan o'sha
 o'zbek soldatga
G'oliblarning qatorida hadya qilgan ekansiz.

BIZNING BOG'GA KELINGLAR

(*G'ala kunining qo'shig'i*)

O'zog' yili qo'lim bilan
ekkan edim shaftolu,
Bu ko'klamda gulladiki,
xuddi baxmal chamanday.
Bizning bog'da o'ynashaylik,
havo xushbo'y, salqin suv,
Chamanda gul do'ppi kabi,
kattaligi Vatanday.
O'sha yili sochim edi —
oq pilikli jamalak.
Bu yil endi belga tushdi,
qoshim oydek kamalak.
Dadam omon-eson kelgan —
ikki yilga to'y qilib,
Juda yaxshi qurchog'im bor,
unga guldan uy qilib,
Jon o'rtoqlar, bizga kelng,
uchishamiz halinchak.
Quda-quda o'ynashamiz,
kelin-kelin, kelinchak.
Oqshomgacha qo'l tutishib,
boqchada o'ynashamiz.
Biz yashagan zamonning
qo'shig'in kuylashamiz.

YETTI YUZ O'TTIZ KUN

Bugun soat beshda tong otar chog'i
To'lin oy darchadan mo'ralab o'tdi.
Zulmat kechalari nurga almashib,
Itlar oyga qarab hurish unutdi.

Kechalar umrning yarmisi demak,
Umrda zulmatning fazilati yo'q,
Ayniqsa, yetti yuz o'ttiz kundirki,
G'oliblar yurtida topolmas huquq.

Jahonga jamolni berguvchilarmiz,
Minnati qolmagan insonda yerning.
Qon bilan lolalar o'stirdik, chunki
Tabarruk izi bor muzaffar yerning.

Ota-bobolarning udumni oqlab,
Tuproqni pok tutmak odatimizdir.
Baxtiyor umrning shahanshohimiz
Xalqimiz butligi davlatimizdir.

Hamisha muborak bo'lg'uvsi bizga
Dasturxon ustida ushatilgan non.
Quyosh dasturxoni ushalmagandek,
Ming bo'lak bo'linmas bu ko'hna jahon.

Koinot buyukdir, yerimiz garchand
Uzilgan kichkina yulduz poradir.
Xo'sh, nima qilaylik, lo'ttibozlarga —
Bir no'xat ustida qanday choradir!

Suvda oy nurining jiłvasi kabi,
Qalbda umidlarning namoyishi bor.
Ajoyib nasllar ulg'aytgan xalqning
Endisi o'tmishtdan topdi e'tibor.

Mayning to'qqizida gilos ham pishdi,
Uni ekkan edik o'tgan navro'zi.
Ma'rifat bog'ida, rostini aytsam,
Jahon bog'bonining o'zimiz, o'zi.

Yeru suv, havoda baxt topa olgan
Ikki yuz milionli ozod insonmiz.

Kaftimizda olam siri yashirin,
Biz-la o'chakishmoq uncha osonmas.

Nima gap jahonda bilguvchi xalqmiz,
O'z davlat hukmining bir hijosida.
"O'qlar" davlatini barbod qiloldik,
Yetuk qudratimiz bir imosida.

Hayotda, mehnatda, jang-u jadalda
Qahramon xalqlarimiz — xullasi kalom;
Mehnat qahramoni yettita do'stga
G'alaba kunida shoirdan salom.

Ota-bobolarning udumin saqlab,
Tuproqni pok tutmoq odativimizdir.
Baxtiyor umming shahanshohimiz,
Xalqimiz butligi davlatimizdir.

* * *

O'qilgan, yozilgan va yod olingan,
Aqli har so'zning sadosi bordir.
Ajoyib Vatanning farzandlarimiz,
Eritilgan she'rdek havosi bordir.

Nafaslar vaznday o'zi muntazam,
O'g'il, qizlarimning ko'zi qofiya.
Yurakning urishin o'lchamak uchun
Ikki og'iz so'zning o'zi kifoya.

Men sizni sevaman aziz farzandim,
Siz axir Nodira, Zebunisosiz,
O'zbekning shon ila sharaflarini
Ko'klarga ko'targan Xayrinisosiz.

Aziz manglayingiz har tong otarda
Oshiqlar baxtiga bo'lsin oftob.
Ko'ksingiz sharaflı bir yigit uchun
Muhabbat bahsiga ochilgan kitob.

SIZGA

(*O'rta Osiy Davlat universiteti filologiya fakultetida
o'tkazilgan kechada o'qilgan*)

Majlisda muborak yuzingiz ko'rib,
Shoirning dovdirab qolishi mumkin.
Qaysingiz Alisher, qaysingiz Pushkin,
Qaysingiz Nodira, Lomonosov kim?

Xato aytmoqdaman, dono avlodlar,
Bu majlis egasi siz o'zingizsiz.
Endigi olamning har bir mushkuli
Hal bo'imas mo'tabar bir so'zingizsiz.

Siz, axir, osmonning olmoq bo'lsangiz,
Ne uchun yelkamni tutib bermayin,
Aql-u balog'atning shotilaridan
Yuksala beringiz sekundlar sayin.

Bir varaq qog'ozga besh so'z yozguncha,
Ming karra o'ylayman sizni, toki bu —
Sizday dono bola, o'g'il, qizlarim,
Bitta mo'ysafidni qilmasin kulgu.

Siz, axir, qutlug' uy egalarisiz,
Siz, axir, gulxanlar xo'jası o'tdek;
Siz, axir, gulshanlar yaratolg'uvchi,
Nayson tongotari qutlug' bulutdek.

Yerdagi baraka qadamingizdan,
Aziz fe'lingiz-la olam munavvar.

Siz, axir, bizlardan endigi ming yil,
Yana ming yillarga berguvchi xabar.

Kimki yuz, ko'zini siylash istasa —
Bizning avlodlarga bir nazar solsin.
O'qib, o'rganingiz, ijod qilingiz,
Hamma dushmanimiz bexabar qolsin.

Sizday o'g'il, qizni ulg'aytgan Vatan
Hamisha obod-u hamisha dilshod.
Bizning avlodlarni tug'a olmagan
O'zini tanigandan buyon odamzod.

Ma'rifat yarashgan peshonangizda
Istiqlol bo'sasin aniq muhri bor.
O'z ota, onalar siz sharpangizda,
Gerdayar, tashakkur, ya'ni shukri bor.

GILAM

Bir Mari qizining tikkan gilami,
Oxirgi satrda nomin o'qidim.
Yulduzni eritib, aziz do'stlarim,
Shu turkman qizi-chun she'r to'qidim.

Oqshomni kim yaxshi ko'radi, do'stlar,
Tongotar chog'gacha ko'zim toliqur.
Umr boshlandi, deb o'layman tonglar,
Qachonki, zoriqqan quyosh boliqu.

Chinorlar uchida birinchi nurni
Dastavval ko'rishga ko'zim uchadi.
Qalam ham quyoshdek, tez yurish bilan
Satrimdan satrimga qarab ko'chadi.

Malla qo'zichoqning terisi kabi,
Bahor erkalagan ayqiruvchi suv,
Bitta qiz gullardan taqib chambarak,
O'zi ham kulgordi va kuldil ko'zgu.

Bir Mari qizining tikkan gilami,
Oxirgi satrda nomin o'qidim.
Yulduzni eritib, aziz do'stlarim,
Shu turkman qizi-chun she'r to'qidim.

SIYOHDON

Alisher qalamga qilganda xitob
Davoti yodidan ko'tarildim-u?
Siyohdon, azizim, qora ko'zligim,
Qora tunlar aro yorigan ko'zgu.

Sendagi u siyoh — yo'q siyoh emas,
Qalbimda qaynagan qip-qizil qonim —
Dong'imni olamga o'zing yoygansan,
Omon bo'l, qolmadi dilda armonim.

Yillarki uxlamay ikkita shoir —
(Sening ham she'rimga ancha haqqing bor,)
Oqni qora qildik — qog'oz qalam,
Har yaxshi fikrimiz bo'ldi beg'ubor.

Ulug' jang kunlarin yozar chog'ida
Mardlarning qonidek daftarga tomding.
La'nati mal'unlar nomin yozganda —
"Men qora emasman!" deding-u, tonding.

She'r tamom bo'ldi, rahmat, azizim!
Ne qatra sarf qilding quyib qo'yaman.
Bugun biz ikkovlon yozgan kitob ham
Chiqarmish, tabriklab, suyib qo'yaman.

O'ZBEKNING TOMINI...

O'zbekning tomini tomosha qiling,
Bayram bayrog'iday yasatgan boshin —
Hech qanday usta ham to'qiy olmaydi
Olamning munchalik atlas — qumoshin.

Kecha teraklar ham tashlab kuchalak,
Tuyalar tulladi, qo'zilar ma'rab.
Yaxshi ham jahonga shoir kelibman,
Bu bahor fayzidan qolmadim gangrab.

Dovuchcha, ko'ksulton sho'x o'g'illarning —
Har bahor chog'ida erur ermagi.
Ular-ku shohlarda o'ynab yuradi,
Mening manzilimdir daraxtning tagi.

(Qamich qafaslarga mazza ko'ksulton
Bulbulday ilinsa, qizg'aldoq tomda.
Hammasi yaxshiy, ammo buvimning
Yoqmaydi, yuvGANI meni ham jomda).

Maynami, chittakmi, yangi ko'chatmi,
Omon bo'l, kelajak, mening yoshligim.
Bir marta yoshlikni yashab o'tganman,
Tilxat beramanki, bor qardoshligim.

Yoshlikning hurmati hali ko'ngildan
Oyina zangidek ko'chib ketgan yo'q,
Garchand ota-bobo aytgani kabi,
Yoshlik qaytib kelmas, bir otilgan o'q.

Yo'lbars terisini silab ko'rmaklik,
Tirik yo'lbars uchun bo'lmas munosib.
Koshkiydi yana o'z vujudim uzra,
Yoshlikni tabiat qilolsin nasib.

TUSH YO'YISH

(*Shukrulloning tushiga ta'bir*)

Tush ko'rib kelibsan, o'g'lim, yo'yaymi,
Yomg'ur barakat-u qut-u nishona.
Kamalak ko'ribsan, buning ta'biri —
Yetti rang quyosh-u qutlug' peshona.

Qalblari pokiza do'stlarning doim
Hattoki tushlari keladi taqqos.
Umid ko'klamida olma gulidek
Shoir shu fayzni ham o'z she'ringga yoz!

Gulsafsar ochildi, qizg'aldoqlar ham,
Arpa, bug'doy bo'yi belga barobar.
Yo'ng'ichqa shabnami to'piqlarda nam,
Mol to'yin, yurt to'yin, elga barobar.

Chigitdan xavotir ola ko'rmangiz,
Ekildi va undi, ko'p joyda chopiq,
Ya'ni bu yilgi planimizni
Bajarmak, uzsiz, bo'lur yo'l ochiq.

Yomg'ir-ku ko'ribsan — xalqning quadrati,
Shunday barakali, yengilmas, botir.
Kamalak ko'ribsan, o'zbek elining
Ikki qosh o'rtasi bir quyosh yotur.

Tush ko'rib kelibsan, o'g'lim, yo'yaymi,
Yomg'ir barakat-u qut-u nishona.
Kamalak ko'ribsan buning ta'biri
Yetti rang quyosh-u qutlug' nishona.

Hayot tush emasdir, hayot — hayotdir
Tush garchand, yaxshilik ko'rgizadi fol.
Xayolsiz va folsiz, tushsiz kelajak —
Bizda shunaqadir porloq istiqbol.

BAHOR TARONALARI

1. Yangi kun

Yangi kun uyg'ondi, ulug' xalqimga
Tong otar muborak oftobidek.
Sharafli mehnatning subhidamida
Yeri yuz ming yillik o'z kitobidek.

Yerdan o'z ketmonda ko'chgan har tuproq
Ota yurt ilmidan go'yo bir varaq,
Tong otar mehnatin aytganda biroq,
Quyoshning tig'idek har dam yaltiroq.

Mehnatsiz umrning tongi otmagay —
Bahordan benasib qurigay ko'chat.
Eng aziz fursatni yelga boy berib,
Tizzasin quchoqlar ahmoqlar faqat.

Yashagil, ketmonim, quyoshim, nonim,
Boshimga oltindan qo'yding chambarak.
Yashagil, mehnatim, quvvatim, jonim,
Ilk tong sahardan berolding darak.

Yangi kun uyg'ondi shudgor oralab
Birinchi chigitni ekishim zarur.
Toinki o'tgan yil qissasi kabi
Bo'lmayin xalqimiz oldida ma'zur.

2. Ikki "beadab"

Bir bahor she'rini yozmoqlik uchun
Talay binafshani chakkamga taqdim.
Har ko'klam, bu gulshan yashnagaymi, deb,
Ra'no gullaridan gulxanlar yoqdim.

Ikkita "beadab": gul va na'matak
Ko'klamning udumi — qiloldim payvand.
Ikkita "beadab": bulbul na'madak
Sayrabon ketdilar go'yo aqd-u band.

Kolxozning ikkita semiz bayirin
Mingan ikki yigit — ikki "beadab",
Ishimdan qo'ydi-yu to'yga chorladi,
Ne qilay, bunga ham ilk bahor sabab.

Alvonrang gul ekdim, toki kelajak,
Yerdagi quyosh bu, desin chamanni.
Nomard o'lib ketsin bezamas ekan,
O'zi tug'ib o'sgan aziz Vatanni.

Nur tomon til cho'zar bunda har giyoh,
Kimniki juft ko'rsam, yashay ber, deyman.
Har ko'chat o'g'limdek jonimga aziz,
Yerdagi ne'matni oshayver, deyman.

To'palon Mirzo ham mindi so'riga
Quyoshda beparvo isinmoq uchun.
Qo'lidan nonini Qoplon opqochdi,
Unutgan edi u suqtoy kuchugin.

Ikkita "beadab" musicha kelib,
O'rik gullariga biqinib oldi.
O'zganing siriga oshno emasmen,
Tarnovga in qo'ydi, tuxumni soldi.

3. Olmosni uyg'oting

Tong otish huquqin hali tabiat
Odam bolasiga bergunicha yo'q.
Qizim Olmos uxlар tantiq, beparvo,
To'yib-to'yib tush ham ko'rgunicha yo'q.

Ikkita kapalak bir-birin quvlab,
Atirgul oralab yel qoqar qanot.
Saharxez chollardan yana ikkisi,
Birisi: "Shah!" dedi, biri qoldi mot.

Beshiktog' orqasi quyoshning tig'i
Ufuq minbarida pushti rang kulgu.
Bu kulgu bog'iston aro ko'chganday,
Gullar-la tabassum qildi shaftolu.

Bolari qaydandir vizillab kelib,
Olti oyog'ida oltin etigi,
Shoir ayta olmas bugungi tongning
Qanchalar buyukdir aniq tag-tugi.

Chamanda allakim qiyqillab qoldi,
Tanish-tanish emas, bu qay qush ekan?
Qush emas. Gulqaychi. No'noq Xayrining
Etagin tutibdi besh-o'nta tikan.

To'rqovoq ichida malla tullak ham
Qoqindi, cho'qindi, sayrab bir qafas.
Qish ko'rpa bardini tokdan uchirdi,
Ko'klam tong otari, "puf" degan nafas.

"Olmosni uyg'oting", dedi otasi
Agarchi besh karra — besh-ku, jo'n hisob:
Yuvindi, kiyindi, nonushtadan so'ng,
Qo'ltilqda kitob-u manglayda oftob.

SOCHLAR

Qarigan boshimda sochning qayg'usi
Ba'zida oqini, qorasin ko'rib...
Ba'zida qizim ham qirq kokil o'rib,
Sochini taraydi kelmay uyqusi.

Ba'zida chakkaga qo'yadi gajak,
Ensam ham qotadi qilig'in ko'rib,
Go'yoki men ekkan gullar yugurib,
Bog'imni o'radi misli gul — pechak.

O'g'limning tarog'i ko'krak cho'ntakka
Yanglishib tushibdi: mendek bo'yi bor.
Oyog'i mendan-ku bir nomer ortiq,
Jahonga qadamni qo'ymoq e'tibor.

Uzr etdi Muhammarram soch yuvar chog'da:
— Yanglishib kiyibdi kostumingizni,
O'ttiz yil hidladim men sochingizni,
Hidi gukrab ketdi nechun bu bog'da.

O'g'il, qizlarimning sochini silab,
Baxtini tilayman, doim vaqtim chog',
Ammo tushgan tish-u sochimni ko'rib,
Menden kulmakdadir eskigan taroq.

GUL

Bu bahor tongida birinchi gulni
Andijon shahrida hidladim, taqdim.
Bu gulni eng aziz va zarif do'stim
Mulla Abdulhamid ayladi taqdim.

Yonida g'unchasi, yaprog'i tugal
Bu gulni kitobga solib qo'yganman
Va unga nasihat qilar chog'imda
Tamburning qulog'in burab qo'yganman.

Hayotdan bahramand jahonda hamma,
Bebahra yashamak munosib emas.
Bahorda yerlarni qazib chuvolchang
Quyoshga bosh cho'zar, olsam, deb, nafas.

Yakka uy mo'risin tutunlaridek
Yuzingga singmasin g'urbatning dog'i:
Bahor ayyomidir, bahor ayyomi
Senga ham yaproqlar, g'unchalar chog'i.

Sen taqdim etdiging shu gulni, do'stim,
O'z ko'zing o'ngida chakkamga taqdim,
Hazil-huzul aralash rost so'zni aytib,
Qalbingga gul rangli bir gulxan yoqdim.

ALISHER

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning
Na'rasiga tengdir aksi sadosi.
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda
Buyuk Alisherning asriy nidosi.

Ona sutidan ham aziz narsa yo'q,
Bag'ir: forsiy — siyna, arabchada — adr.
Ko'krak suti bilan boqqan o'g'lini
Ona yurt xalqlari qilmoqdadir qadr.

Birinchi tamshangan sutning hurmatin
Butun hayot bo'yi oqlay ololgan,
Tevarak olamga ko'rkin ko'rsatib,
Vatan va xalqini yo'qlay ololgan;

Tirik odamlarga nasiba bo'lgan
Hayotiy farog'at, jahoniylam;
Birisini ozgina erkalab o'tib,
Birisini bir umr ta'qib qilsa ham;

To'fon, quyunlarda yakka-yu yolg'iz,
Monolit, granit haykalday mag'rur,
Temurlang davlatin so'nggi chog'ida
Sarkash-u barhayot, bo'ysunmas shuur —

Daraxshon yulduzlar sari o'kirgan,
Bo'ynda zanjir-u qalbi ozod sher,
Insoniy muhabbat mehri-la vafo,
Erk-u baxt timsoli ulug' Alisher.

Hirot tongotarin tasavvur qilib,
Yigitlik umringning kamolin ko'rdim.
Qarigan chog'laring qaro shomida
Xuroson o'lkasin zavolin ko'rdim.

Zavolni bilmagan porloq ijoding
Ma'rifat mulkida bitmas xazina!
Insoniy kamolot katta yo'lida
Bir poya yuksakroq oltindan zina.

O'tmishdan besh **yuz** yil tarixchi uchun
Sinchiklab qarasa — kuni kechadek.
Yashovchan kishiga endigi ming yil
Ertaga qo'liga kirgan o'ljadek.

Besh yuz yil hurmating saqlagan o'zbek
Kecha tug'ilning, deb qiladi faraz.
Yetuk kishilarni yana ming yillar
Xalq farzand ataydi, jondan — beg'araz.

O'zbek deb atalgan ozod ulusning
Otaxon shoiri, qadrli ustod.
Oshiqlar g'azaling kuyga solganda.
Ma'shuqlar dilining xonasi obod.

Biror shohbaytingni yoddosh tutmagan
Kattadir, kichikdir, bizda kishi yo'q.
Oltin baldoqdagi nefrit ko'z kabi
Asaring biz uchun bo'ldi qorachug'.

Ulug'vor xalqimiz tarixda mashhur,
Guvohlik berolur bunga Gerodot.

O'zbekni, tojikni qabila atab,
Biror lord qilolmas o'tmishni unut.

Sharqimiz chumoli uya emasdir,
Birin-birovidan tanib bo'lmasa,
Sho'rlik boybachchalar, toleyingiz sho'r,
Afsuski, tarixdan tonib bo'lmasa!..

Ne-ne tarixlarni boshdan o'tkazib,
Talay jafolarni tortgan eski Sharq —
Ne-ne daholarni tarbiya qilib,
Oftobday jahonni nurga qildi g'arq.

Alisher Mushtariy yulduzi kabi
O'zbek osmonida balqigan chog'i
Yana bir muhtaram o'g'il ko'rganday,
Kattaroq ochildi olam quchog'i.

Elektr barchanining uyin yoritur
Va tuz totimida milliy farq yo'q.
Ma'rifat insonning sherik xislati,
Vatani fazodir bo'shalarkan o'q.

Tirik Farhodlarni tanimak bo'lib,
Oliy yurtimizga qilsangiz safar,
Bu yerda har bitta taroshlangan tosh
Yuksak umidlardan beradi xabar.

Mirzacho'l sahrosin sug'ora olgan
Shirinsoy qizlari tilaklarida,
Yangi zamonani yo'rgaklab olib,
Sizga taqdim etar bilaklarida...

...Mehnatda qahramon. Janglarda botir,
Sevmakda vafoli, do'stlikda mahkam —
Alisher orzusi bo'lgan avlodmiz,
Asrimiz — ko'rkimiz, asrimiz ko'rkm.

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning
Na'rasiga tengdir aksi sadosi,
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda
Ulug' Alisherning asriy nidosi.

YOZ

Umrdan o'tajak har bir nafasni
Yana bir yoz o'tdi, deyilsa ham oz.
Bu yoz ta'rifini senga aytaman,
Oltin qalam bilan daftaringga yoz!

Gilosday bir labdan bo'sa olguncha
Ba'zan bir yigitlik ketadi uvol.
Qishki lazzatlarni xayolga olsang,
Yozdagi mehnating kelmaydi malol.

Yozgi tongotarda o'z bog'ing ichra
Bir nafas kezishing — bir umr demak.
Go'yoki kechagi payvand ko'karib,
Endigi umrdan berajak darak.

Nastaron shoxida sayragan bulbul
Nahotki ko'zingga begona bo'Iса?
Xush kelar qalbimga, mening bog'imda
Atir gullaridan ming dona bo'Iса.

Bir tilla qo'ng'izning oyog'in bog'lab,
O'g'lingga berganing neqadarli xo'b,
Jahonga kelibsan, obod qil, axir,
Bog'-bo'ston o'stirmoq naqadar mahbub.

G'o'zalar gulladi, Masudaxonning
Qalbida qanchalik g'ururi bordir,
Chillaki chumaki urgan chog'ida
Xasta xayolotlar go'yo g'ubordir.

Yoz keldi... Saraton. Luchchak shaftolu
Marg‘ilon shahriga ziynat sanalur.
Tut pishiq tugadi, ilk bodomning,
Qandak o‘riklarning vazni sinalur.

Mehnat bozorida mard o‘g‘illarning
Gerdagan mevasin bozori ushbu.
Yoz demak — azamat har bir kolxozning
Bog‘ini qilolur lola rang, xushbo‘.

Bir sada salqini ba’zan charchagan,
Horg‘in badanlarga berolur rohat.
Nimtatir shabboda ichra palakdan
Bir bodring uzmoqlik qancha farog‘at.

Choshgoh chog‘ida dalada go‘ja
O‘n-o‘n besh bazmdan lazzatliroqdir.
“Hay, bo‘l!”, deb ogohlik bergen brigadir
Ota, onadan ham izzatliroqdir.

Besh boshoq ilk bug‘doy nonini yegan
Hamma mehnat ahli qalbida g‘urur,
Yashagil mehnatim, ketmonim, yerim,
Ya’ni, ona-Vatan, senga tashakkur!

Paxta, olma pishdi, shotut qizardi,
Uchinchi chopiqni boshladik kecha.
Tep-tekin yoz bo‘yin yallo surganlar,
Yo‘q esa hayotdan qilsin andesha.

Hey, kolxoz haqiga tekin yashovchi,
Bir kichik jonvordan, xo‘s, nimangiz kam?
Yashangiz bir ipak qurti singari,
Bolari mehnati aziz, mukarram.

Yerning o‘zi bizni chaqirib tursa:
“Jannatmen, ne’matlar makonimien”, deb,

"Hayot bu yerdadir, jannat bu yerda,
Vatanning jahonda jononimen", deb.

Ne'matdir bu yozning chorak soati,
Fayz erur har yerga to'kilgan jiyda.
Urunmak balodan qutqarajakdir,
Uncha ham tantiqlik ketmaydi juda.

Arpa o'rimida kelgan yuzlardek
Kulimsab boshlandi bu chamanda yoz.
Shoirlik da'vosi bordir qalbingda,
Buni ham nazm etib daftaringga yoz.

QIZLARGA

Giloslar labingiz aksi bo'Igandek,
Labingiz aksidir bu bog'da gilos.
Siz uchun she'r yozar bo'lgan chog'imda
O'sma siqib berdingiz siyohimga mos.

Ko'karing, o'n-o'n besh bola ko'ringiz,
Uyalmang, bu axir tabiat hukmi.
Er, xotin bo'lmasa kishilik naslin
Davomi bo'libon qolardi kimi?!

Bog'imda nastaron gullab qoldi-yu
Bahor hurmati-chun men uzib oldim.
Keyin o'z chakkamga taqishdan ko'ra,
Bekamga taqdimin o'ylabon qoldim.

Bali, uning chakkasida kelajagimning
O'n olti nuri bor, unga arzigay.
Tabiat hukmini yozar chog'larda
Savat to'qimoqqa o'ragay qo'g'ay.

Bosh qizim er o'g'il nabiram bilan
Qutlug' oilaga qo'yganda qadam.
O'zimni qizimning yuzida ko'rib,
G'afur deb atayman nabiramni ham.

Kelajak naslning manglayin o'pib,
Umrim o'lmas bo'lib qiladi davom.
Bahor tabrigini sizga yozguvchi
Katta to'y kunlari bobongiz G'ulom.

QIZIMGA

Mukammal odamni yaratmoq uchun
Faqat bizning qonun bo'ladi asos.
Oynadan dog'larni kesa olguvchi
O'tkir so'z brilliant, qalbimiz olmos.

Qiz degan ko'ngilning qonidan bo'lur,
Bo'y yetib, boshqa uy egasi — beka.
Qiz degan gulshanning onasi bo'lur,
Familiya boshqadir, unamay nega?

SHARAF QO'LYOZMASI

(Ingliz lordining bizlarni qabila deb
ataganiga javob)

Qadim o'zbek xalqisan,
Asl odam avlodи.
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir.

Xorazmning har g'ishtida
Bobolarning ijodi,
Anglo-saksonlardan
Ancha yuqoriqodir.

Bizda logarifmaning
Mushkul muammolari,
Qo'ldagi barmoqlarday
Oddiy qilinganda hal,

"Oliy irq" da'vogari,
Cherchillning bobolari,
Hatto sanay olmasdi
O'n barmoqni mukammal.

Biz ekkan paxtalardan
Yer yuzida bor kishi
Uyatini yopganda
Ustma-ust, qavat-qavat,

Hozirgi janoblarning
Ma'rifat va donishi:
"Paxta daraxt qo'zisin
Juni", deb bilgan faqat.

Ozod Vatan egasi,
O'z ko'kingda o'z quyosh,
Quyoshday zavol bilmas
Yarqiroq jamoling bor.

Xuddi shu tarixingni,
Shu yering, quyoshingni,
Biliming, do'stligingni
Ko'rolmaydi kapital.

Bechora negrlarday
Yerga tiqib boshingni,
Qullik kishanlarida
Qilmoq bo'ladi ma'tal.

Ne-ne jafo kunlari
Katta yorug' yo'l sari

Hulkar yulduzi kabi,
Yetakladi mehnating.

Ozodlik qo‘lyozmasi —
Sharafingning daftari,
Tekinxo‘r boyvachchaday
Birovga yo‘q minnating.

Ular ne-ne paktlarga
Og‘uli muhr bosib,
Jahannam qopqasini
Yer yuzida ochmoqchi.

Sen ham shu mal’unlarga
Do‘zaxni qilib nasib,
Qadrdon shudgoringda
Ketmoning urib boq-chi...

Ular ayhannos solgan
Atom shu tuproqdadir
Va bu tuproq seniki
Butun mazmuni bilan.

Olamga arzigulik
Qudrat shu chanoqdadir,
Sen qudrat egasisan,
Mehnat yakuni bilan.

Sohibkor o‘zbek xalqi
Dehqon ashraf avlodi,
Paxtakorlik san’ating
Tarixdan qariroqdir.

Bir zo‘r ur, gurullasin
Bilag‘onlik ijoding,
Sening bilan shoirning
Manglayi yarqiroqdir.

“Sharaf qo‘lyozmasi” deb
Atalgan katta xatda,
Bilib qo‘yki, azizim,
Sening ulug’ noming bor.

Vatanga berilgan
So‘z o‘rinlar albatta,
Va‘daga vafo bilan
O‘zbek topdi e‘tibor.

FARG*ONA UCHUN

She‘r aytgim kelyapti, aziz do‘stilarim,
She‘r aytgim kelyapti, go‘zal Farg‘ona,
Bir sabab izlaydi she‘r aytgan har kim,
She‘rimga GPIda bir qiz bahona.

Qayerda saodat qurib oshyon,
Xalqi hayotidan minnatdor esa,
Shu yerda qo‘schiqdan jaranglab osmon,
Mehnatdir muhabbat, sharafdir bo‘sса.

Shu qiz yalla uchun labin tebratsa,
Qo‘shaloq olchani yel ochar go‘yo.
O‘rtangan avjlari bir dam titrasa,
Biyron bulbullardan kabob muhayyo.

Eng sho‘x qo‘schiqlarning ota shoiri —
Shabbodang yallalar bastakoridir.
O‘g‘il, qizlaringning ikkidan biri —
O‘zbek san‘atining iftixoridir.

Men o‘z Farg‘onamni maqtamoq bo‘lsam,
Yigit Farhod-u qizi Shirinday;
Samolyot bu yerga qo‘nadi ko‘rkam,
Ko‘lanka izlagan charchoq lochinday.

Yetmish go'zallikning bittasi — mehnat,
Yetuk bu go'zal qiz topmasin zavol,
Paxtakor otizda sarbast muhabbat
Va mehnat sayqali yo'g'irgan jamol.

Farg'ona paxtasi olamga mashhur,
Nomimiz sohibkor — hamma berar tan.
Yerimiz o'z ega erlar-la mag'rur,
Yashay ber, muqaddas, daxlsiz Vatan.

Biz ipak ishida tolalar cho'zgach,
Chin-Mochin rassomi ora yo'lida lol.
Biz shohi tandaning naqshini chizgach,
Niliy rang ko'k undan topadi jamol.

To'quv tariximiz bilmoqchi bo'lsang,
Xonatlas qatlarin o'zi bir kitob.
Daryo jilvasi-la tovlanadi rang,
Alvon shu'lasi-la shogird oftob.

Ipak kombinatning dastgohida
Jujuncha to'qiydi barno bir juvon,
Yigit harbiydir, parashutchidir,
Yorining yodida qo'nadi omon.

Shu qizga munosib she'r yozsam deb,
Xayol tinka qurib oshar tog'ma-tog',
Musaffo havoga vazn qidirib,
Quyoshga ro'baro', quchoqma-quchoq.

Vodil irmog'ining olmos qatrali
Go'zallar labida reza donadir,
Rost aytsam GPIda qizlar sarasi
Bu gal she'r uchun bir bahonadir.

O'sha Farg'onali otinchaxon qiz —
Ko'zguda aks etgan go'zal Farg'ona.
Sochlari oqshomdir, chehrasi kunduz,
U bilan mukammal bizning zamona.

POL ROBSONGA

O'kirgan arslon kabi ko'k gumbazin titratib,
Pol Robson qo'shiq aytar, tinglaydi butun olam.
Bu qo'shiqda huquqsiz qora bashariyatning
Jahoniy iztirobi gurkiraydi mujassam.

Qo'shiq aytar qora qul — negrning asl o'g'li,
Bu qo'shiqda aks etar mazlum xalqning sadosi.
Bu qo'shiqda aytilar Garlem mahallasida —
O'z yurtida g'ariblar boshga tushgan savdosi.

Bu qo'shiqda ehtiros, asab, umid, kelajak
Quyosh aniqligi-la ertadan berar xabar.
Bali, qorong'ulikning o'rnnini nur egallar,
Tom tog'a kulbasida tong otishi muqarrar.

Qo'lda bor fursatlarni hukmiga bo'yin egib,
Qondagi toshqinlar-la yozar ekanman kitob,
Qalbimning cho'qqisiga umid bayrog'in tikib,
Tasavvurga keladi Amerikadagi inqilob...

Har xalqning o'z xohishi, irodasi, huquqi,
Tuzumi va to'zimi — o'z-o'zining ishidir.
Qo'shnilar devoridan mo'ralab sir axtargan
Xuddi shu qo'shnisiga dushman bo'lgan kishidir.

Demokrat axloqli yerning grajdani
Tomas, Renkin emaski, o'g'irlikda ushlansa,
Shum Kennon kiygan bo'lsa Rozenberg kafanini,
Ne ajab kuli ko'kka sovrilibon tashlansa.

Yigirmanchi asming qonxo'r kanniballari
Bemurod niyat bilan topgan irqiy falsafa —
Nuh kemasin qidirmoq Turkiya tog'laridan,
Xom, Som, Yofas singari juda eski safsata.

Yerdag'i ne'matlardan mahrum qila olmagay —
Oq, sariq, qizil, qora, badandagi jilo rang.
Yer yuzi insonniki, uyi ham go'ri shunda,
Yankilar falsafasi Gebbelsdan meros nayrang.

Halgacha negrlar, hindular, habashlarning
Tortgan jahon alami Afrikadan og'irroq.
To'yimag'ur, ochko'z, zolim ingliz quzdorining
Vijdoni do'zaxlarning sahrosidan taqirroq.

Oqsuyak janoblarining qonli mudhish ijodi —
Qora qasos simvoli ataluvchi Linch sudi:
Ohu fig'on ichida o'rtangan negrlarning
Tutuni ular uchun go'yo sigara dudi.

"Amerikacha intizom", "jahoniy hukmronlik"
Yer yuzida jahannam qopqasin ochib xalqqa,
Bular bari Trumen niyati, shirin xayol,
Barmoqni ko'zga tiqsa ko'ringan tilla xalqa.

Forrestol degan biri devona bo'lgan bilan
Devona bo'lmayajak jahondagi aqlar
Va Uoll-stritdan qachon bo'lsa ham axir,
Zanjirini parchalab o'tajak qora qullar.

Tinglar xayrixoh ellar, Pol Robson qo'shiq aytar,
Quyosh aniqlig'i-la ertadan berib xabar,
Bali, dollar zulmatin erkning nuri egallar,
Tom tog'a kulbasida tong otishi muqarrar.

IMTIHON

Kattakon maktablarning
Minglarcha yulduzisiz.
Respublika tayanchi —
O'g'illari, qizisiz.

Siz bilan gurkiraydi
Endigi porloq zamon.
Yodingizdan chiqmasin,
Bugun sizda — imtihon.

Bugun o‘qigan har fan
Ertaning naqdinasi.
Sizning shu qalbingiz
Bilimlar xazinasi.
Ilmingiz-la yer yashnab,
Yarqiraydi osmon.
Yodingizdan chiqmasin,
Bugun sizda — imtihon.

A’lochi nomingizga
Tushirmsandan zarra dog’,
O‘qigan kitobingiz
Zehningizdag'i charog’.
Otalar nakazi shu,
Bo’lsin boshimiz osmon,
A’lo baholar bilan
Kutar sizni imtihon.

BIZNING KEKSALAR

Oppoq soqollarin tong yeli tarab,
Shabnam qatralarday tiniq o‘y bilan,
Goh uni tekshirib, goh uni qarab,
Hijolari tutash g‘o‘ng’ir kuy bilan, —
Mehnat kunduzini boshlar keksalar.

Kecha o‘tib ketgan umr soati
Shu yong‘oq hosili singari tayin.
Endigi naqdina yillar rohati
Novvot choy singari erkalar mayin, —
Doim farog‘atda yashar keksalar.

Ming oylik umrga kecha to'y qilib,
Tengdoshlar yo'qlovin yaxshi o'tkazdi.
Daromad orttirib ancha qo'y qilib,
Kolxoz podasiga qo'shoq tutqazdi;
“Qari bilganini bilmaydi pari”.

Ko'zida yuz yilning chaqin mazmuni,
Jussada nor filning salobati bor.
Go'yo xalq hikmati jonli yakuni
So'zida ma'nilar harorati bor, —
Jamiyat ko'rkidir bizlarda qari.

Chinniday pokiza, ardoqli hujra:
Tugun-tugunchalar limmo-lim bisot,
O'tgan yoz qovuni po'choqlar ichra,
Bir kaftcha urug'lik lalmikor no'xot,
Bir xalta pushti-yu mallarang chigit.

Bu yerning mag'zida yotar yashirin,
Sohibkor hayotdan oz-oz xotira:
Baliq yil tarvuzi, qo'y yildan shirin,
Bu yil uzumlargacha tushmaydi shira,
Cholga quloq osar donishmand yigit.

Paxtakor o'zbekning dono choliga
Yerimiz royishi qo'lida tangaday,
Chunki shular voqif har ahvoliga,
Ba'zida otaxon, ba'zan yangaday
Ozmuncha parvarish qilmagan u sarf.

Otaxon tajriba katta hosilning
Tilla qog'oziday bo'lsa ne ajab?!

Issiqroq, sovuqroq kelmagi yilning
Unumning cho'g'iga bo'lolmas sabab,
Sabab — mehnatimiz erur harfma-harf.

Katta taxtalarning bo‘liq yerida
Tizzadan o‘padi yashil kishtukor.
Paxtakor dalaning o‘ri-qirida
Ming tuman mashina hayqirib tayyor, —
Dasturxon yozganday olam muhayyo.

Kutadi azamat o‘g‘illar, qizlar
Jondosh azizlarin — otaxonlarin,
Yo‘liga poyandoz kecha-kunduzlar,
Kutadi bilimdon qadrdonlarin,
O‘z loyiq hurmatin tutib jobajo.

Oppoq soqollarin tong yeli tarab,
Dala yo‘llarida ketar keksalar.
Uchragan g‘o‘zaning tusiga qarab,
Kuzakdan xushxabar atar keksalar, —
Agronom bu gapni topadi ma’qul.

Kun kecha qilingan mehnat soati
G‘o‘za kurtagida bo‘rtmoqda tayin,
Endigi naqdina hosil rohati
Hozirdan qo‘shiqqa tushmoqda mayin,
Ilm-u tajribaning qardoshligi shul!

ONA

Tug‘ilgan damimni eslay olmayman,
Tashakkur deyilsa arzigulik tong.
Tanam yo‘rgaklangan, mushtim tugilgan,
Oltin rudasiday ishlanmagan ong.

Hali bepardozman, olam jamolin
Ko‘ra olmaklikka ko‘zim ham ojiz.
Tanglayim ko‘targan bibim bechora
Kim edi, bilmayman, o‘lgandir, esiz.

Birinchi tamshangan ona sut qadrin
Asl o'g'li bo'lib oqlash e'tibor.
Tavarak olamga ziynat sanalur
Ona yurt bag'rida ko'r kam har chinor.

Qirq yil ha deguncha o'tib ham ketdi,
O'g'lingni ko'rsayding yetuk kamolin,
Kutib yetisholmay bizga qoldirgan
Shunchalar muhayyo olam jamolin.

Dunyoday alvon rang dasturxon yozib,
Sening oilangda hammamiz obod.
Kumush uzugingni barmoqdan olib,
Ushbu she'rim bilan seni qildim yod.

Xuddi yurak ustida
Erkalagan qo'ling bor.
Sochimni silab qo'ygan
Panjang izi — yo'ling bor.

Ufqlardan keng eding
Bag'ringga olgan chog'i.
O'zligimni tanitgan
Onaginam quchog'i.

Mingga kirib o'lsam ham
Qulqoqda quyma allang.
Quyoshga qo'shnimiz, deb
Ko'rsatganing ming-ming rang.

O'zing, axir, nimasan,
Qoyamisan, tog'misan?
O'zing, axir, nimasan,
Jahonmisan, bog'misan?

Rangmisan, quyoshmisan,
Hammasidean ulug'san!
Yetuk-yetuk so'zimni
Sha'ningga aytguliksan.

Hoynahoy bir kitobsan,
Minglab qomusdan baland.
Hoynahoy oftobsan,
Men esa senga farzand.

ENG ZARUR BURCHIMIZ

Har kimning ish soati,
intizomi, hayoti,
Har kimning o‘z dilining
zarbiga itoati
Quyosh aniqligi-la
xalqimizga bilgulik.
Xalqimizga bilgulik
minutlardagi mazmun,
Yengmaklik g‘ururi-yu
ishlamaklik sururi,
Nafas-nafas har yakun
qutlug‘ bo‘lsin, degulik.
Qalb urib turishiga
hech kim hukmron emas,
Mehnatga shaxsda bo‘lgan
o‘z ehtiyoj — tabiiy.
Ehtiyoj hayotiydir,
hayot demak — bu nafas,
Kuzlar, qishlar so‘ngida
ko‘klam bir toj — tabiiy.
Shu yerning
varaq-varaq mazmunida mehnating,
Dil zarbing, manglay tering,
nafaslaring yashirin.
Kuzidan, qishlaridan,
ko‘klami, yozlaridan,
Dilning har urishidan,
ayrim-ayrim nafasdan

Jamul-jami hayotdan
 ulgurji bahra olmak
Hayotni qadrlagan
 har bir insonga shirin.
Mabodo biror oqshom
 quyunday qora bulut
 ko'kni qoplagan bilan
 ishingni qilma unut!
Har kimning ish soati,
 intizomi, hayoti,
Lafzi bor, g'ururi bor
Va o'zbek xalqimizning
 xalqlarga qardoshligi,
Zarur paxtasi bilan
Topdi shuncha e'tibor!
Koreyalik jangchi qiz
 omonlik tongotari
Cho'ntagidan olganda
 guldor ro'molchasini,
Paxtaobod qishlog'in
 kumush rang dalasida
Jahon-jahon suyunib,
 paxtakorlar to'y qildi.
Qumrixon o'yin tushdi,
 Mamajon aytdi o'lan,
Birodarlik bu bo'lur,
 qon-qardoshlik bu bo'lur,
Quyosh ham qoyil bo'lib,
 yetkazolmay qoldi rang,
Dil rost bo'lsa — yuz qizil,
 dilga yuz ko'zgu bo'lur.
Bittasi: "Yashang!" — dedi,
 bittasi: "Oshang!" — dedi,
 biri: "Ming yashang!" — dedi;
Ming yashamoq oson gap, —
 hamma xalq inoq bo'lsa,

Soqiy insofli bo'lsa,
may to'la ayoq bo'lsa,
Rumkadek chanoqlarda
qizil bo'lsa, oq bo'lsa,
Xo'sh, paxta-chi? O'rtoqlar,
bizlar, axir, paxtachi!
Xalqlar bahramand bo'lsin
milliard chanog'imizdan;
"Yali-yali" aytaylik
ajoyib she'rimizda.
Bilolmay dog'da qolsin,
dushman sanog'imizdan!
Paxtaobod qishlog'in
kumush rang dalasida,
Qadrdon Mamajonning
yangragan yallasida
O'zbek o'z ovozini
do'stlariga yetkazdi.
Shular qatori shoir
lafziga muhr bosib,
Qutlug' tilaklar bilan
qog'ozini to'lg'ozib,
Xalqimning yuzi bor, deb,
chin aytgan so'zi bor, deb,
Yuzini xalqqa tutib,
o'z she'rini bitkazdi.

GURUNGDA ANDIJONLIK

Yoz fasli farax erdi diydamning shamligidan,
Gurungda andijonlik do'stlarning jamligidan.

Yozaylik deb ko'ngilni, kirdik semurg' tagiga',
Zirqiradi oyoqlar yerlarning namligidan.

¹ Andijon shahar madaniyat va istirohat bog'ida qurilgan semurg' shaklidagi pavilyon.

Ko'rib rizqing ko'pikda ranjidi kosagul ham,
Ey, badburush, mayfurush, pivongning kamligidan.

Baqraytirib ko'zlarni aldaysan jo'mragingda,
Nafratga keldi hamma betingning chamligidan.

Aytgil, bu kosalarni go'r boshidanmu olding?
Har bittasi moxovday vujudi g'amligidan.

Havz ichra o'ynagan nur quyosh sharorasidek,
Zangorligi nishona suvlarning zamligidan.

Bir qiz yonimga keldi, taskini dil bo'lay, deb,
Zerikdi so'zlasholmay, ko'nglimning xamligidan.

Bas qil, so'zingni G'afur, cho'zmay bo'shat kosangni,
Quvonch bo'lmaydi ortiq do'stlarning jamligidan.

MUXAMMASI BADR SHOSHIY BAR G'AZALI FUROAT

Ishqidin sargashtalik boshimni har jo tortadur,
Ba'zida bejo chekib, ba'zan o'rin jo tortadur,
Chin abro'sini ko'rgach dilni mabxo tortadur,
Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,
Bu ishidan dahr eli ortuqcha g'avg'o tortadur.

Osmon qatlim uchun chekti shafaq, qon ko'zlari,
Dahr elidan har nafas surmakdadur jon ko'zlari,
Menga mozog', albasarga berdi imon ko'zlari,
Qoshlari ostida yotgan ikki fatton ko'zlari
Ikki hind-u bachchadurkim, yondoshib yo tortadur.

Za'faroniy may avalda kuldirur, so'ng mojaroi,
Ko'p yemaklik me'dada "saraton" misol ochgay yaro,

Yoz quyoshi tilla jomin ko'mdi shom tuproq aro,
Sorig' oltun kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo'lsa g'olib, o'zga savdo tortadur.

Qayda ishq sirri yetishsa unda sen paydo ko'ngil,
Bo'Imading bir dam muhabbat sirliga sen jo ko'ngil,
Siyna sonduqida yoshrungandi ham ammo ko'ngil,
Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo, e ko'ngil,
Mushk pinhon bo'lsa, bo'yi oshkoror tortadur.

Bu mayi manxusmi sezsin andaliblar sozini,
Mardlardurki chekarlar dahrining ming bozini,
Badr qaytmas tinglagan birlan bo'ri ovozini,
Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatidek bekasu sho'rida rasvo tortadur.

TABRIKLAYMIZ

Oilada muhabbat tuzdan oldin turadi,
O'sma ekkan otaman qoshing qaro bo'lsin, deb,
Chunki qosh deganimiz ko'zdan baland turadi,
Boshingga yoqqan yomg'ir ko'zingga tushmasin, deb.

Qo'sha-qo'shoq yashaymiz bu hayot olamida,
Farzandlarning jamoli ro'paramizda ko'zgu.
O'lim bilmas jonimiz shular istiqbolida,
Har birin yetukligi bu dunyoga obro'.

Ko'chat ekib bog'iga, shundan meva uzgan chol
Qalbdagi quvonchini sig'dirolmas uyiga.
Yana meniki bo'lgan kelajagim baxt-iqbol,
Marhamat, azizlarim, yurtimiz to'yiga.

Hisorning kanali munchalar uzun
Tashnalab odamzod tarixi poya
Labtashna to‘kilgan ko‘z yoshi uchun
Bu inju qatralar...
Ko‘ksi oq shu mag‘rur cho‘qqi tog‘lardan
Pok dilli tojikka suv yetib keldi.
Tojik sahrolari uzum bog‘lardan
Tojik hayotiday lolalar undi.

BIR G‘UNCHA OCHILGUNCHA

Har narsada intizom,
Har ishda bir qoida,
Harakatda aniqlik
Ikki karra ikkiday,
Shu mustahkam tartiblar
Biz yashagan jahonda.

Qofiya, vazn-u ilhom
Shoирга kerak juda;
Shabnam kabi tiniqlik,
Shafaqlarda kulguday,
She‘rga ko‘chsa agar
So‘zing qolmas armonda.

Uzun-uzun kechalar
Sharqdan G‘arbgasuzadi,
Million-million yulduzlar
Buzilmas qonun bilan
Hisob daftari kabi,
Bag‘ri keng osmon aro.

Qator asfalt ko'chalar...
Grajdalar kezadi;
Million juft yulduz ko'zlar
Mehnatda yakun bilan,
Quvonchdan gulday labi
Bu tinchlik zamon aro.

Har yilning intizomi
Yoz-u kuz, qish-u ko'klam.
Ko'klamdag'i kunlarning
Minuti million g'uncha.
Tabiat bo'sh o'tkazmas
Ko'z ochguncha fursatni.

So'zning xullas kalomi,
Bo'yin eg bunga sen ham,
Uch chorak yakunlarni,
Bir g'uncha ochilguncha
Bo'shashtirmay bir nafas
O'qishingga hurmatni.

To'rtinchi chorak demak
Bir butun yil yakuni.
Qunt bilan, chidam bilan
A'lo zinapoyadan
Quyoshday yuksaklarga
Chiqmoq uchun tirmashing.

"Besh"ga topshirmoq kerak
Katta imtihon kuni.
Quvlashib ko'klam bilan
Yozga tutashib yana
Sinfdan sinflarga
Umringiz kabi oshing...

CHAROG'LARIM – QAROG'LARIM

O'ttiz uchmi, o'ttiz to'rttami
Gul ekkandim sizlarga atab,
Chuvvos solib sinfdan chiqib,
Har bittasi bitta g'unchalab,

Quvlay ketdi, kulib qoldim men
O'z umrimning iqbolin ko'rib,
Uzoq yillar bekor ketmagay
Umidimning jamolin ko'rib.

Hammaida bir quchoqdan gul,
Quchoq-quchoq gulday o'zлari.
Uy-u ko'cha to'la ming bulbul,
Ayniqsa-chi, ravshan ko'zлari.

Men shularga kitob yozmasam,
Ketgani xo'b ko'zлarimdan nur.
Sizday dono o'g'il-qizlarni
O'qitganga minglab tashakkur.

Qarsak chalgan kabi kulgingiz,
Qulog'imda umrbod jarang.
Jahonning jamoli siz bilan,
Siz berdingiz bu olamga rang.

Imtihondan a'lo o'tdingiz,
Bolalarim, o'ynamoq chog'i.
Sizni kutar lagerlar, bog'lar,
Shu bog'larning sизsiz charog'i.

Quvlay ketdi, kulib qoldim men
O'z umrimning iqbolin ko'rib,
Uzoq yillar bekor ketmagay
Umidimning jamolin ko'rib.

SYUY YUAN

(Bizning eramizdan ilgarigi 340–278 yillarda
yashagan ulug‘ xitoy shoiri)

Insoniy zehnning ilk shoiri,
Gomerlar asrining ulug‘ ustodi,
Ming-ming yillar osha hanuz jaranglar
O‘lмаган-yitmagan shoir ijodi.

Tori uzilmagan yangi soz kabi,
Chala uyqudag‘i yangi noz kabi,
Yigit sevgilisin sochidan o‘pib,
Qulog‘iga aytgan nim ovoz kabi;

Paxta payrahaga tush-la yozilgan,
Yo marmar lavhaga o‘yib qazilgan,
Sening to‘rtliklaring o‘lim bilmasdир,
Fazoda gul hidi esgan nafasdir.

Og‘izdan og‘izga ko‘chgan qo‘shiqlar
Dillardan dillarga solib o‘tdi iz.
Taxallus o‘rnida nomingni yo‘qlar,
Xalq sevgan she‘rlar o‘lmaydi hargiz.

O‘z xalqing dilini demakchi bo‘lsang,
Xalqingning ruhiga ko‘makchi bo‘lsang,
O‘z xalqing kuchiga qilsang e‘timod —
Ming-ming yil o‘tsa ham xalqing qilar yod.

Ulug‘ xalq orzusin kuylagan shoir,
Xitoylar dil so‘zin so‘ylagan shoir,
Iskandar, Dorolar asriday ko‘hna
Va muhri o‘chmagan oltinday yana,

Yarqirab turguvchi dono fikrni,
Ming yillar erk uchun barpo fikrni
Tug‘dirgan shu xalqdir, ushbu Vatandir,
Avvalo kuylagan Syuy Yuandir.

Filday ulug' xalqning filday sabri bor,
Erk uchun kurashda yo'l uzoq bo'ldi.
Chudan¹ Chan Kay-Shining asriga qadar
Har qadam qo'ygan yer bir tuzoq bo'ldi.

Bu qissa alqissa juda ham uzun
Aytilar dostonning bobি bobida.
Ammo ulug' shoir Syuy Yuanning
Kuylari kurashning har xitobida.

Qattol jang kunlari jangchi labida
El kuchin qistovchi shoir bo'loldi,
G'alaba kunlari, to'y-hasham kuni
Ma'shuqlar qo'shig'i-gulyor bo'loldi.

Shuning-chun Xitoya har yetuk aql
She'r yozmoq uchun olarkan qalam,
Avvalgi satrini ulug' shoirning
Muqaddas nomi-la qilur mustahkam.

Qardosh ulug' xalqning sha'niga atab
Men ham bir necha so'z yozmoqchi bo'ldim.
Murodga yetkazar — murod va talab
Oltin tog' bag'rini qazmoqchi bo'ldim.

Inju qidirmakka Chinga jo'nadim,
Xuan-Xe daryosin saxiy qo'yniga.
Tizgan injularim ziynat bo'lajak
Chinlik go'zallarning zebo bo'yniga.

Ulug' Syuy Yuan ijodlaridan
Ilhomim bahramand bo'lsa — menga bas.
Garchand oramizda ming-ming yil farq bor,
Erk uchun kuylashda jondosh, hamnafas.

¹ Chu — bizning eramizdan ilgarigi 1122–249-yillar o'tasida o'tgan Chjon dinastiyasining bir qismidagi aristokratiya podsholigi.

BAXT SIZLARGA BUYURSIN

Tilla rang kuzak keldi,
Turnalarga sayohat.
Ko'zim ko'kka tikildi,
Shunchalar istirohat.
Balalarga buyursin,
Balalarga buyursin.

Jon qizim, oftobimsan,
Sho'x o'g'lim — TU samolyot,
Men yozgan kitobimsan,
Baland uch-u yo'qlab o't.
Baxt sizlarga buyursin,
Baxt sizlarga buyursin.

Yulduz aro yulduzlar
Bu yo'lda oqin bo'lsin.
Ming yildagi kunduzlar
Siz uchun yaqin bo'lsin.
Zamon sizga buyursin,
Jahon sizga buyursin.

Sen sinfda o'qigan
Atlasga aqlim shoshib,
Sen qo'lingda to'qigan
Atlasga ko'z qamashib,
U ham senga buyursin,
Bu ham senga buyursin.

Bolalik qo'ling bilan
O'zingga bog' yaratding.
Ishongan diling bilan
Paxtadan tog' yaratding.
Ishonch senga buyursin,

Tayanch senga buyursin.
Baxtiyor otalikning
Nurlariga yo'g'rilib,
Osmon o'par tog'liqday
Boshlaringdan o'gilib,
Kelajagim, keragim,
Buyursin shu yuragim.

CHIROY

Qo'limda eng qimmat uzugim bo'lsa,
Undan ham qimmatroq ko'zi suzugim:
Aziz bolalarim, sizga atayman
Qalbim erkalari, o'zi tuzugim;

Men yiroq turaman, ammo joni
Har kuni ming marta safari sizga.
Omon-esonlikning bu jahon bo'ylab
Qutlug' bo'lganidek xabari sizga.

Tongotar singari buncha go'zalsiz,
Talpinsam arziydi bu jamol uchun.
Insonning aqlidek g'oyat azalsiz,
Tiz bukmak kerakdir bu kamol uchun.

Jahonga kelibman ketgumdir axir,
Bolalarning qo'lida kir qo'g'irchoqdek.
Ammo vijdonimni sota olmayman,
Vahshiylar qo'lida iflos pichoqdek.

Bo'yningdan suyayin, boshingdan o'pay,
Ulug' Sharq xalqining aziz farzandi.
Istagan tog'ingni etayin gard-gard,
Endigi ming yilning zo'r kamarbandi.

Quyosh inson uchun poyandoz bo'lsin,
Insonlik shukuhi g'oyat soz bo'lsin.
Urush degan so'zning nomi yo'qolib,
Har kimga aytar so'z va ovoz bo'lsin.

Baxtim baland bo'ldi butun umrimda,
Atlas zamonamda mukammal chiroy.
Yoqimli jamoling, o'ngim, fikrimda
O'zingdan, aqlingdan ming bor o'rgilay.

* * *

Asrlar yil o'rtasi va yillarning o'rtasi
Har kimning umr o'rtasi qosh-qabog' o'rtasida.
Ellik yosh yashay olgan har kishi viqor bilan
Maqtana olar emish har o'rtoq o'rtasida.
Shu yildan, bahordan to hanuzgacha
Uchqur uch egizak bulbullar uchdi.
Shu gul yaproq yozib g'uncha ochguncha
Necha lab qovushdi... lola o'pishdi.
Ko'klamning hovuridek bir ko'tarilib
Bu kun yaproqlarga qo'ngan shu shabnam,
Manglay teri, yurak to'lqinin
G'ururi sanalsa na his bo'lmas kam.
Kattakon ro'zg'orning bisoti — bog'i
Muhayyo chekkali to kuzigacha,
Shunchalar saranjom, atay osilgan
Taralgan, bog'langan xomtokigacha.
Mevaning turi ko'p, rangi, lazzati,
Hattoki danagi qo'shaloq mag'iz.
"Kamoli xo'jandiy" atalgan o'rik,
Lirik Kamol bilan bog'laydi og'iz.
Yoshlik chog'larida to'rg'aylar uchib,
Pardasin bog'lagan o'z dutorim bor.
Shu dutor pardasin yoshlardek bosib
Kuylasam mo'ysafid — oshno yorim bor.

CHITTI GUL

Toshxon qiz o'zi-o'zi,
Boshida yo'rmado'zi.
Yo'rmado'zi yarashgan,
Oyisiga qarashgan,
Hay-yu chitti gul.

Toshxon qizning boshi bor,
Manglayda quyoshi bor,
Bu yil birinchi sinf,
Chunki yetti yoshi bor,
Hay-yu chitti gul.

O'zi a'lo o'qisa,
Bundan yaxshi qiz bormi,
Chevar bo'lsa, to'qisa,
Bundan yaxshi qiz bormi,
Hay-yu chitti gul,
Hay-yu chitti gul.

NAMANGAN UCHUN

Namangan deganda har qari-yoshning
Labidan bol tomar, tillari shirin.
Azaldan fayzi bor bunda quyoshning,
Yuzlarida qon-qaymoq rangi yashirin.

Sihat tilaganlar bu yerga kelur,
Oshiqlar mot qolgan ishvalar bunda.
Bu yerda iporning qadri to'kilur,
Erka bir halovat kezadi tanda.

Xayol tarqoqligin, dilning qisishin,
Ko'zguday yoritib, uyg'otur havas.

Navqiron yigitlik ko'klamiday chin
Namangan bog'ida har yutum nafas.

Umrni olib ham, sotib ham bo'lmas,
Qancha yashay desang, o'z izming, mayli.
Sehrli paymonang to'lmas-to'kilmas,
Hayot chamanzori yashamak sayli.

Namangan havosin kuyladim chog'i,
Suvlari Navoiy umididek pok.
Tog'lardan sharqirab kelgan irmog'i
Mashrabday g'azalxon, Majnun — yaqo chok.

Hayot bulog'ini har kim qilsa yod,
Chortoq qaynariga bosadi qadam.
Qirq yillik qiynalish bir damda barbob,
Hayotda har ishdan sog'liq muqaddam.

Jahonni girdo-gird kezgan sayyoh ham,
Oxirgi manzil deb seni tanlardi,
Iqlim bo'la olur shunchalar ko'rkan,
Iqlimlar ichida shakarpayvandi.

Havo, suv, quyosh-u iqlim nimaymish,
O'rtada tirik jon, inson bo'lmasa.
Inson nafasidan jonda osoyish,
Umr bemazmundir zamon bo'lmasa.

Ajoyib zamona, baxtiyor inson,
Sharaflı mehnatdan yashnagan Vatan,
Sidirg'a yoqutdan tizilgan marjon
Yirik durdonasi bo'lgan Namangan.

Bir chinni limmo-lim, maza sharbatday
Noz-u ne'matlaring munchalar chuchuk?
O'n sakkiz yoshdag'i ilk muhabbatday
Senga qasidalar yozmayin nechuk!

She'rim do'stlarimga kelsin deb forom,
Dilimning bog'iga anor o'tqazay,
Hali maqtovlarim qilajak davom,
Mevalar ta'rifin erta tong yozay.

Dalalar egasi paxtakorlarning
Obod qishloqlarin kezdim sarbasar.
Qondosh, qarindoshlar — ijodkorlarning
Hurmati bag'rimda bir qo'yin daftar.

Ajoyib zamona, baxtiyor inson,
Sharaflı mehnatda yashnagan Vatan.
Sidirg'a yoqutdan tizilgan marjon
Yirik durdonasi bo'lgan Namangan.

BUYUK OLAMGA SALOM

Surayyo yulduzidek yalt etgan tezlik bilan
Tular uchib keladi qadimi Shosh shahriga.
Iskandar ololmagan va Firdavsiy maqtagan,
Nizomiy kelmak bo'lgan o'zbekning bosh shahriga.

Tular uchib keladi Yava, Madagaskardan,
Yo'llariga poyandoz o'zbekning aziz joni.
Ko'zimiz yo'lingizga muntazir ilk sahardan,
Ey hayot karvonining nurlar mingan mehmoni.

Bu qizning oti Toshxon, mening qizim bo'ladi,
Qabog'ida subhidam alvonlarning aksi bor.
Qo'lidagi gulini to'ksa jahon to'ladi,
O'zi juda pokiza, gullaridek beg'ubor.

Toshxondagi gul bilan, oddiy o'zbek til bilan
Mehmonlarni kutadi mo'ysafid G'afur G'ulom.
Pokiza vijdon bilan, kaftidagi dil bilan
Aziz o'zbek xalqimidan buyuk olamga salom!

BIZNING UYGA
QO'NIB O'TING,
DO'STLARIM...

O'zbekiston yurtiga borgan chog'i,
Gurr ochilur qardoshlikning quchog'i,
Dilda qaynar ne'matlarning o'chog'i,
Asfalt yo'lida "Volga"ning to'pichog'i,
Avval bizga qo'nib o'ting, do'stlarim!

G'afur G'ulom kimligini bilasiz,
Adresimdir O'zbekiston, shubhasiz,
Qistalang gap, biznikiga kelasiz,
Tashrif etib meni xursand qilasiz,
Baxt uyida tunab o'ting, do'stlarim!

Olam bilan, Furqat ko'cha yo'li bor,
Beruniy maydoni, Yoshlar ko'li bor,
Muqimiy binosin xuddi so'li bor,
Ko'rsatuvchi militsioner qo'li bor,
Bizning uygaga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Do'stlar uchun darvozamiz lang ochiq,
Boshingizga gul yaprog'idan sochiq,
Bu toza suv, atirsovun, oq chochiq,
So'lim ayyom, kelishingiz yarashiq,
Albat bizga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Kelasiz deb jambil, rayhon o'tqazdim,
Kim kelibdi dasta-dasta tutqazdim,
Za'far bitmay qoldi — bir oz yutqazdim,
Qardoshlikda oltmis bahor o'tkazdim,
Bizning uygaga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Joyni solib gulzorning o'rtasiga,
Parqu bolish, atlasdan ko'rpasiga,

Musht tushurib qayg'uning kallasiga,
Jo'r bo'lhib o'n besh til yallasiga,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Shukr aytaman toleyimga, bolam ko'p,
Chakkalarga taqilguday lolam ko'p,
Kelin-kevat, tog'a, amma, xolam ko'p,
Ko'k choy uchun yetgulik piyolam ko'p,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Bolalik uy — qalb uyining bozori,
Sho'xlikka sho'x, Tom Soyerning sardori,
Suyganlari foto va qo'l fonari,
Tegishmagan kishiga yo'q ozori,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

O'rtangizda yozig'liq shu dasturxon,
Saxiylikka misoli katta jahon,
Dasturxonning boshi erur tuz-u non,
Yulduz kabi yarashib sizday mehmon,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Dasturxonda mevalarning turi ko'p,
Barisi pok, shabnamday toza, mahbub,
Uzum, anjir, shaftoli der: meni o'p,
Shu qovunni so'yib yeng rohat qilib,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Bu qирг'овул, бу тувалоқ, бедана,
Бу шимоғиң нон — ўзларидага седана,
Қази-қарта, сомса дегани мана,
Hasip, norin, siz emassiz begona,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Mana budir gilos, olma, shakarob
Va bu esa charosdan tortgan gulob.
Ichganlarni hushyor qiluvchi sharob.
Bu qimizni sipqoring kuchga qarab,

Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!
Har guruchi anor dona osh bilan,
Muharramoy laganmas, quyosh bilan,
Qo'l ko'krakda, ta'zim etib bosh bilan,
Yor-og'ayni, qari-qartang, yosh bilan
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

She'r o'qiylik Lutfiydan, Navoiydan,
Bedil, Furqat, Pushkin ila Jomiydan,
Keyin qolmay zamona ayyomidan,
Dil yorisin misralar ilohmidan,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Har kitobdir oilamiz oftobi,
Tirsillaydi kutubxona shkafi,
Kimmiki, deb so'rsa mehmon arbobi,
G'afur degan bir Nasriddin kitobi,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

Keksa shoir tilidan ovozimiz,
Shunday o'tsin har bahor-u yozimiz.
Ko'p ko'rinsin ko'zingizga ozimiz,
Do'stlar uchun jonimiz, niyozimiz,
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim!

YONMA-YON KETAYLIK

Qirda lolalardan baxmal to'shaldi,
Ipak so'zanalar qadri ushaldi.
Adirlar gul kamar bilan qurshaldi,
Yallangdan ko'nglimning qushi bo'shaldi,
Bo'ylaring sambitday, chakkangda g'uncha.

Ko'klamday xushfe'l suyunchuging bor,
Yuzingda olmagul kulunchuging bor,

Labingda atir hid, bol suchuging bor,
Qoshlaring chimrilgan, kimda o'ching bor,
Yo'l bo'lsin quralay ko'zim otincha?

Yuragim urishi qaynar buloqday,
Yonma-yon ketaylik qo'sha irmoqday,
Hov anov quvlashgan ikki toyloqday,
Bu yo'l ko'rinsa ham ancha yiroqday,
Birga odimlashsak yil o'tar kuncha.

Bizga nasib bo'ldi bu ulug' manzil,
Yo'llari charog'on, toza, yam-yashil,
Yo'ldoshin topmasdan qo'yarmidi dil,
Baxtingga sherik qil, jonginam kafil,
Juft hayot quraylik dunyo turguncha.

Tarang soz tortamiz qing'ir-qiyshiqdan,
Mehnat yengil tortar quvnoq qo'shiqdan,
Qiyinlik qo'rqiadi ishi pishiqdan,
Iltimos qiladi oshiq-ma'shuqdan,
Hamdam bo'l, umrimiz davom etguncha.

Ko'klamdir, muhabbat jomini tut, May!
Sho'x-u shan damlarning qadrin unutmay,
Yaproqdan oftob shabnam quritmay,
Uncha zoriqtirmay, uncha kuttirmay
Kela qol, qumrilar ku-kulaguncha.

MUHARRAM

Dunyo-dunyo gunohimni kechirgan,
Suv deganda menga sharob ichirgan,
Qo'lтиq tutib shohin kabi uchirgan
Azizimsan, jigarbandim Muharram,
Sanalganda jigar-bag'ring bo'lmas kam.

Azizimsan, do'stim, jonim, tozasan,
Tozalikda el aro ovozasan,
Mendan boshqa tushmagan bir sozasan,
Mehribonim, aqd-u bandim Muharram,
Ohularni qiyg'ir ko'zing qilsin rom.

Rayhon, yalpiz, sunbul, jambil — barisan,
Tola soching mazmunin anbarisan,
Oshiq bo'lgan kishi mendek qarisin,
Ulug'mirzo onasisan Muharram,
Farzandlarim siynasisan Muharram.

Yulduz sonli bolalarni sen tug'ding,
Ba'zan havo issiq keldi, bo'g'ilding,
Bir hamirdek G'afur bilan yo'g'rilding,
Bir o't ichra pishgan jonim Muharram,
Go'zallikda Shirin nomim Muharram...

Salomat bo'lg'aysan xonadon boshimiz,
Quyosh bo'lgan non kabi yo'ldoshimiz,
Nasibamiz sen pishirgan oshimiz,
Men qalb bo'lay, qalbimda qon Muharram,
Men tan bo'lay, tanimda jon Muharram.

BUNI TOPING, QIZLARIM

— To'ni silliq, tuki yo'q,
Hammasi to'q, po'ki yo'q.
Ichi qizil, ko'ki yo'q,
Uni cho'qolmas chumchuq.
Bu nima, qizim Qunduz?
— Bumi, dadavoy? Tarvuz.

— Marjon-marjon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.

Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko'rmasdan o'ylab boq,
Sen ayt, Mamlakat qizim?
— Bumi, dadavoy? Uzum.

— Malla tukli, sap-sariq,
Murabbosi mazaliq,
Palovga bossa bo'lar,
Podvalga ossa bo'lar,
Tishlab ko'rib, ayt Mehri,
— Bumi, dadavoy? Behi.

Mayda yoqtiday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil,
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.
Sen ayt-chi, qizim Gulnor?
— Bumi, dadavoy? Anor.

SEVSAM SEVIBMAN-DA

SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim,
Yetti rang tovlangan quyosh kabi pok.
Koshkiydi o'ttiz yil orqaga qaytib,
Ishqimni aytsaydim qilib yoqa chok.

So'zlarin jarangin eshitmak uchun
Izlanib, topolmadim bahona — savol.
Samarqand tongining yeliday mayin
Kulimsab lab ochdi, bir butun jamol:

— Mayiz bozoriga chapdan borilur,
Anjir ham shu yerda, anor ham shunda,
Muncha ham soddasiz, muncha o'zbeksiz,
Yo'l yitib bo'larmi yop-yorug' kunda...

Agar-chi, qadimiy samarqandiyman,
Kaftim chizig' iday hamma yer ayon.
Bag'rimni erkalash, muzika tinglash
G'oyat zarur edi shu nozik bayon.

SamDU qopqasida ko'rganim qizning
Qaymoq mazmuniga jonim omoda.
Samarqand mazmunli ko'r kam yulduzni
Sevsam sevibman-da,
O'zbekman, sodda...

BAHOR OHANGLARI

O'rik gullarini emar bolari,
Nasrin yaprog'ida titraydi shabnam,
Ipak qurt tuxmida hayot asari,
Olam nikoh oqshom bir zebo sanam.

Ilk ko'klam fayzini sozga solmoqqa
Tanbur kosasida sharob kerakdir.
Damlar mazmunini qamrab olmoqqa
Dunyoday kattakon kitob kerakdir.

Atlasday tovlangan yonbag'ir qirlar,
Bepoyon gul gashtin sursa necha do'st,
O'zligin unutgan oshiq-ma'shuqlar
Yalakat danakday qo'shmag'iz bir po'st.

Navro'zi bedona o'rganchik sayrar
Yanglish chuchutlarda sevgi ohangi.
Yosh irmoq sohilga tilini qayrar,
Quyosh nusxalidir muhabbat rangi.

Tongotar ufqni loladay yirtar
Timmag'ur mehnatning zabardast tovshi.
Har yerda hukmron tanti va lobar
Omonlik zamonning yenguvchi ishi.

GULXONA

O'rtacha gilamdek gulxona qilsang
Keksa atirgullar yoniga yana,
Bir bosh sadarayhon oq-u jigarrang,
Bir tutam jambil-u qatma-qat xina.

Itog'iz, bo'tako'z, gultojixo'roz,
Gulbeor, chinnigul va cho'pkachizar
Ekib qo'ya olsang bo'lar juda soz,
Chetiga chim bossang chamanni bezar.

Reja olmoq uchun o'tkir did lozim,
Ranglar tanlamoqqa bo'lgil kapalak,
Chamanga qiz sochi mayin hid lozim,
Buni bolaridan o'rganmoq kerak.

Kelin o'ksimasin, ariq labiga
Otquloiq o'smadan ancha ekib ber,
Osh ko'ki socha ber yerning namiga,
Ko'klamday himmating yaxlit to'kib ber.

Chamandan uch qadam ko'lanka burchak
O'n kishi siqquday bitta so'ri qur,
So'riga chirmashsin gul ishqil — pechak,
Ana undan keyin gulzor gashtin sur.

Gulxonang agar-chi, gilamday kichik
Ammo mazmunida Vatan yashirin,
Gukragan hidlari hayotday suchuk,
Tinchlik zamonida har nafas shirin.

ENDI URUSH BO'L MAYDI

Bizning mahallamizda
Ikki qo'lsiz kishi bor.
Boshi-ko'zi but-butun,
Og'iz to'la tishi bor,
Ammo qo'li tubdan yo'q,
Aytishicha, ko'pdan yo'q.

Bir kun bizlar hammamiz,
Boshliq murabbiyamiz,
Shu kishiga uchrashib
Hol ahvol so'rashib,
O'zini ko'rmak bo'lrik,
Sababin so'rmak bo'lrik.

Oti Mirjalil aka,
Uyida yurgan ekan,
Stoldan ro'molchasin
Ololmay turgan ekan.
Artib qo'ydik yuzini,
Sal yoshlangan ko'zini.

— Ayting, Mirjalil aka,
Qo'llaringiz ilgari
O'mida bo'lganmidi
Bizlarniki singari?
Barmoqlari bormidi?
Tirnoqlari bormidi?

Miyig'ida iljayib
Bizlarga berdi javob:
— Qo'l-barmog'im bor edi,
Varaqlar edim kitob,
Tokarlik bilar edim,
Gul payvand qilar edim.

Urushning oti qursin,
Qo'llarimdan ayirdi.
Fashistning zoti qursin:
O'g'limdan ham ayirdi.
G'azabimda asos bor,
Urush qursin, qasoskor!

Ovqatni yeysizmayman,
Yedirib qo'yadilar,
Kiyimni kiyolmayman,
Kiydirib qo'yadilar... —
Shunday deb irg'atdi bosh,
Ko'zlarida jiqla yosh.

— Yaxshi ham sizlar kabi
O'g'illarim, qizim bor.
Sizlarning joningizda
Sog'-salomat o'zim bor.
Endi urush bo'lmaydi,
Qo'lsiz yurish bo'lmaydi.

Hamma yaxshi kishilar:
“Tinchlik zamon bo'lsin”, der,
“Odamlar do'st-u inoq,
Birga omon bo'lsin”, der.
Siz qo'rqlay o'ynay bering,
Qo'shiqlar kuylay bering.

Urushga la'nat o'qib,
U bilan xayrashdik.
Tinchlikka she'r to'qib,
U bilan xayrashdik.
Boshimiz tog'day bo'ldi,
Ko'nglimiz bog'day bo'ldi.

QUYOSHNING YORUG'LIGI BARCHA XALQQA BAROBAR

Biz yashagan yer yuzi
Juda katta dasturxon,
Olam to'la ne'matdan
To'yadi ahli jahon.

Quyosh o'z yorug'ligin,
Tuganmas haroratin
Barchaga teng ulashar,
O'zgartirmay odatin.

Osh tuzining mazasi
Barcha xalqqa barobar.
Tuzsiz ovqat yemaydi
Hind-u xitoy ham avar.

Tuzdan ming qatla ortiq
Suvning hurmat, hissasi.
Yerdagi tirik jonning
Suv avval nasibasi.

Suvsiz yashay olmaydi
Qimirlagan biror jon,
Suvga huquqda tengdir
O'simlik, hayvon, inson.

Nafas olmoq huquqi
Jonlilarga sheriklik.
Havosiz, kislorodsiz
Mumkin emas tiriklik.

Quyosh-u suv, havo, tuz,
Ona yer — demak hayot.
Barchasidan bahramand
Teng huquqli odamzod.

Insonlar oq-u qora,
Sariq bo'lishi mumkin.
Ammo yerdagi ne'mat
Tep-tekisdir, tep-tekin.

Havo-yu suv singari,
Oftob nuri kabi
Ozodlik huquqi ham
Xalqnikidir azaliy.

Har kishining o'z tuqqan
Aziz ona vatani,
Tinchgina boshpanasi,
Oilasi, chamani.

Har kishining ko'nikkan
Erkin-ozod mehnati.
Do'stlari, qarindoshi,
Bir-birga muhabbati.

Har oila o'chog'in
O'ti, noni, qozoni,
Baxti va istiqboli,
Umidi va jahoni.

Har bir ozod kishining
O'z fikri, o'z ishonchi.
Jumla insonlarga xos
Kitobi va tayanchi.

Na birovni qul qilur,
Na birovga bo'lur qul.
Hamma odam yor-u do'st,
Qayg'usiz yorug' ko'ngil.

Tezda shunday bo'ladi,
Shunday zamona yaqin.

G'oyat yorug' yo'l tomon
Boramiz oqin-oqin.

Insonlar bir-biriga
Beray shunday xushxabar:
Quyoshning yorug'ligi
Barcha xalqqa barobar.

* * *

Tishlaring tushibdi, desam, Shukrullo,
Shirinlik vajiga o'ch emas eding.
Manglaying ajinin sanab hayronman,
Meni tuqqan zamonga duch emas eding.

"Yoshlik nima o'zi, keksalik nima?"
Bir she'r yozibsan, mencha, ertaroq.
Umr falsafasin anglamoq uchun
Quyi satrlarni o'qi-chi. Biroq —

Tug'ma ko'r, bukurlar, ta'nadan xoli,
Bu shaxsning o'zi erki, ixtiyorimas.
Qay jonivor bor ekan, ayt-chi, jahonda
Biror mayiblikni qilguvchi havas?

She'r — meditsina, retsept bilmaydi
Kamdan-kam shoirlar bu fanda raso.
Aql-u mulohaza, kuzatuvchanlik
Yakun chiqarmoqqa yetsa, tasanno!

Oltmish yil olamni qilib tomosho,
Nimani ko'ribman, taqqoslab yozdim.
Mukammal aniqlik topa olguncha
Ko'pincha haq yozdim, ba'zida ozdim.

Soch, soqol oqardi, munkayish, tishlar...
Bilinur ba'zida yashirin dard izi,
Ba'zida kutilmagan bir dahshatdan so'ng
To'satdan keladi umrning kuzi.

Ba'zan farzand dog'i, qo'rquv va alam
Qalbingga cho'kirar og'ir iztirob,
Qattol urushlar ham ochlik, falokat
Qilolur vujuding xonasin xarob.

Ba'zan ne'matlarga suiiste'mol
Ko'p yemak, ko'p ichmak,
 ko'proq o'ynamoq,
Dasturxon to'la, deb ochko'zlik qilmay
Hazm bo'lishini avval o'ylab boq.

Bir soat ichida kunlik umrni
Charxga tutgan kabi qisqartish mumkin.
Muskuling o'ynamay, qo'ling qabarmay,
Yemakka o'rganma tekindan-tekin.

Mehnatsiz umr ham bebaqo bo'lur,
Chirik latta kabi uvada badan.
Bir umr tekinga yashab qarimak
Hayot qomusida olinmaydi tan.

Sakson yosh, to'qson yosh otaxonlar bor,
Og'ir mehnatlarga berolgan bardosh.
Qalbi, asablari quyma po'latdan,
Yulduz ko'z ustida quyuq qora qosh.

Xullasi tish tushmay, soching oqarmay
Yuzlardan oshmakni qilganda mo'ljal,
Qo'lingda quroling, aqling, mehnating —
Porloq taqdiringni qilib berar hal.

QISH LAVHALARI

Dala-tuzga cho'kib yotar qor tog'day,
Oshayotgan xamirday ko'pchigan yer.
Iliq ko'rpa qo'ynida arpa, bug'doy,
Botmon-botmon qudratli yutoqib yer.

Qor yog'moqda to'q ilikni ko'mguday,
Terim chog'i xuddi paxta xirmoni.
Yosh-yalangning quvnoq labi kulguda
Yog', yog'a ber Amu, Sirning darmoni.

IKKI SHE'R

(Rafiqam Muharramxonga atayman)

1. Soching oqaribdi

Vafoning oq yo'li shuncha uzunmi,
Sochingda munschalar oq ko'p, Muharram?
Ishqingda kezganim tongotarlarni
O'rib olgandirsan, shu durrang ko'rakam.

Qirq yil qirg'in bo'lsa, qopqa tubida
Baxting qo'rig'ida o'zim posbon.
O'zim qulog'ingga shivirlaganda,
Bag'rimga ochilgan bag'ringdek jahon.

Yodimda o'sha kun, talpingan yurak
Buzib qochalardi ko'krak qafasin,
Agar sezmasaydi tutashganini
Sening nafasingga o'zin nafasin.

Mening Muharramim, she'rlar yozib,
Ko'nglingni ovlamoq niyatim emas.

Soching yulug'idan tuzoq bog'labon
Qalbim bedonasin ovlagansan, bas!

Vafoning oq yo'li shuncha uzunmi,
Sochingda munchalar oq ko'p, Muharram?
Sharaflar qutbidek ikki chakkangga
Butun mazmunimni hadya qilsam kam.

2. So'rang

Dildagi sevgi jilosini jamolidan so'rang,
Uydagi har ma'rifat nurin kamolidan so'rang.

Bog'imizda yuz tuman rang oftob ko'zgusidek,
Bu chiroy mazmunini ruxsori olidan so'rang.

Baxtu iqbol-u sharafning chashmasi mehnatdadir,
Zahmatim qadrin,
tamannosiz visolidan so'rang.

Yersizin yashnab ko'karmas bog'aro hech bir nihol,
Ona bag'ri lazzatin erka g'izolidan so'rang.

Bog'bon qilsun hikoyat gulparastlar ishqidan,
Bolarilarning hujumin g'uncha xolidan so'rang.

Jambul-u rayhon hidi ko'ngilni ko'klam qilganin
Bir tutam qiz sochidek tongning shamolidan so'rang.

O'zaro eldan nihon hech sirimiz yo'q, qirq bahor
Qo'sh vafo sиррин G'afur mirzo maqolidan so'rang.

MOHGUL

(Afg'oniston samolyotidagi
stuardessa qizga)

Xalqing kabi jasur afg'on qizisan,
Mukammalsan, ya'ni zamon qizisan,
Qandahorlik keksa bog'bon qizisan,
Shu soatda ammo osmon qizisan,
Yo'lovchilar qarashadi, Mohgul,
Kiygan formang yarashadi, Mohgul.

Talay qizni ko'rdim Kobul, Hirotda,
Chodir ichra zulmatda, pulsirotda,
Sen uchasan qo'shqanotli G'irotda,
Olmos pora qadri oshar qirotda,
Qorachig'ing chaqinsimon, Mohgul,
Umidlaring oqinsimon, Mohgul.

Tashna edim bir qadahda suv berding,
Limu ezib shakarlab kulgu berding,
Shifo berding, xo'p qilding, ezgu berding,
Jamolingdan qalbimga ko'zgu berding,
Suvday serob bo'lgil endi, Mohgul,
Yovga sarob bo'lgil endi, Mohgul.

Koshki edi barcha afg'on qizlari,
O'z xalqining ko'k to'la yulduzları,
Gard-g'uborsiz porlasa kunduzları,
Jahon sig'gan ongli qora ko'zları
Senikiday kulib tursa, Mohgul,
Dilni o'rtab, yulib tursa, Mohgul.

ALISHER NAVOIY QABRI USTIDA

(“Hirot” nomli she’rlar turkumidan)

Dilim ravshanligin hissim yo'lida oftob aylab,
Mazoring boshida ta'zim ila turmakdadurmen
 sarhisob aylab,
Qulog‘ing so‘z eshitmas bo‘lsa ham qalbdan xitob aylab,
Vatandoshlar salomin necha jildli bir kitob aylab
Navoiy deb Musalloga¹ kelibmen intixob aylab.

Samarqand, Andijon,
 Toshkand-u Urganj-u Buxorodan,
O‘zing nash’u namo topgan sharaflı-shonli ma‘vodan,
Sening orzularing ro‘yobga chiqqan yangi dunyodan,
Tuman Farhod-u Shirin suv chiqargan baxtli sahrodan
Ajab guldaста keltirdim, unga zarrin tanob aylab.

Kitobing kirmagan o‘zbek elida xonadon yo‘qdir,
Rubobiy kuylaring yod bilmagan bir jonajon yo‘qdir,
Yetuk avlodlaringdir ilm-u donishli,
 gumon yo‘qdir,

Bashar tarixini yuz bor o‘qi, bunday zamon yo‘qdir,
Ko‘ngillarni yoritdik ma‘rifatdan mohitob aylab.

Vatan osmonida nurga to‘la oftobni, yulduzni,
Buyuk iqbolni ijod aylagan minglarcha gul yuzni,
Qorong‘i shomi yo‘q doim munavvar baxtli kunduzni,
Jamolini ko‘rishga bir umrlar yummayin ko‘zni,
“Navoiy ham yotar to ro‘zi mahshar tarki xob aylab”².

¹ **Musallo** — Hirotdagи qadimiy namozgoh, Navoiyning qabri shu yerning g‘arbida.

² Bu satr Navoiyning o‘zidan.

HAMMA YERDAN SEN GO'ZAL¹

Jahonda nima ko'p — go'zal joylar ko'p,
Tovusning pariday rango-rang, so'lim.
O'shqirib oquvchi ajib soyalar ko'p,
Bir yog'i o'rmon-u bir yoq uchurum.

Talay o'lkalarni kezdim darbadar,
Yelkada xurjin-u qo'limda tayoq.
Shunday zaminlar bor, oddiy qumi — zar,
Bu yerda uch hosil berarkan tuproq.

Pista, arg'uvon ko'p afg'on yerida,
Noj-u, archalarga burkangan Hirot,
Binafsha daraxti o'r-u qirida,
Jo'shinq irmoqlari — bo'y bermas bo'z ot.

Ajib manzaraga ega Qarochi,
Dengiz sohillari ko'z ilg'amas keng.
Biror tepalikka chiqib qara-chi,
Yer, dengiz osmon tutash, teppa-teng.

Dehlida kirmagan ko'cham qolmadi,
Ajoyib-g'aroyib har bir qadamda.
Tizzamda, ko'zimda kuch ham qolmadi
Paydarpay hayratlar chulg'agan damda.

Agrada uchratdim kishi aqlining
Takror bo'lmaydigan mo'jizasini,
Tojmahal yerida ko'rganday bo'ldim
Go'zal Andijonim andozasini.

Qayerda bo'lmadim! Nilning bo'yida
Abulhavl oldida hayronlikda mot,

¹ Shu nomli she'mning bir qismi.

Besh ming yil namoyon kishi o'yida,
Ehromlar, ehromlar, bahaybat, hayhot.

Rumoda muqaddas ulug' Petrning
Mashhur jomesini qildim ziyorat.
Kolizey maydoni xotiralar-la,
Spartak qalblarga berdi harorat.

Eyfel minoridan Parijni ko'rdim,
Zehn sig'dirolmas edi husnini.
Bir muddat Bolqonda tentirab yurdim,
Qadamlab o'lchadim eni-bo'yini.

Necha-necha kishilar-la ayladim suhbat,
Birisi maqtanar, birisi — hasrat,
Hammaning o'z qalbi, quvonchi, dardi
Bedard emas edi tanishlar fardi.

Yer o'g'li edim men, shuning uchun ham
Bir payt sayyohlikni kasb qilib oldim.
Ko'ra-ko'ra charchab, hafsalam sovib,
Nihoyat,
Vatanga qaytib yo'l oldim.

Hamma ko'rganimdan yaxlit xulosa:
Tug'gan Vatan ekan — jahonda go'zal!
O'z yurtim yerida ungan har maysa,
Begona yurtlarning gulidan afzal.

Zumurrad havongni to'ygancha yutdim,
Ajoyib Vatanim, jonim Farg'ona,
Vodil suvlarida betimni yuvdim,
Eh-he,
qanchalik keng bizning zamona!

OLMA OTDI

(Xorazmlik qizlar qo'shig'i)

O'rim-o'rim sochlarim Am-u to'lqini,
Ko'zim qorachig'ida sevgim jo'shqini,
Ruldag'i barno yigit, bu tomonga boq,
Yuragimdan o't olib charog'ingni yoq.

Xorazmlik qizlarning jamoli suluv,
Mashinada teradi, kamoli suluv,
Tamannosi tosh yorgan, hey Jumaniyoz,
Dilimizdan cho'g' olib startyorni bos.

Dalada paxtamizdan tog' kabi xirmon,
Hech bir ko'ngil bo'larmi, beishqu armon,
Qunduz qoshli kekkayma o'g'lon Matnazar,
Basma-baschi qizlarga tashlab o't nazar.

Mamasharif, sevishgan qizing shu yerda,
Esing og'ib aylangan izing shu yerda,
Chala tergan egatdan yana qaytib o't,
Kelar hafta to'ying mish, bizni aytib o't.

Planimiz yuz bo'ldi, yuzimiz ravshan,
O'g'il-qiz chiroyidan yurtimiz gulshan,
Olma otdi o'ynaymiz tarafma-taraf,
Bizning aziz Vatanda sevishmak sharaf.

ZULFIYABEGIMGA

Umrlarcha davom etsin Vatan ufqida parvozing,
Zamon aksi sadosidek jaranglab tursin ovozing.

Asrlarning nidosi yangragan har pard - satringkim,
Hayotiy shashmaqomlardir yurak zarbiga teng sozing.

Uvaysiy, Nodira, Zebunniso, Mehriy, Mahastiylar
Tuzatgan anjumanning mash'alidir fikri mumtozing.

Hamisha sen qalam olganda xalqlar toleyin ko'zlab,
Uzun tonglar musaffo aql-u idrok bo'ldi hamrozing.

Qanotlangan umid, iqbol erur har she'rkim yozding,
Surayyo yulduzidan ham balandroq uchdi shahbozing.

Ko'ngillarning jilosidir rubobiy mavzun ijoding,
Ajib nozik tabiat, zarshunoslar zehni pardozing.

Muazzam Sharq namoyondir sening pokiza joningda,
Bu bizningdir, sening axloq-u iffatga to'liq nozing.

TUN BILA TONG

(Navoiy g'azaliga muxammas)

Mening qarog'im-u oning jamoli tun bila tong,
Mening zavolim-u oning kamoli tun bila tong,
Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bila tong,
Mening firoqim-u oning visoli tun bila tong,
Bu nav'dahrda yo'q ehtimoli tun bila tong.

Nechuk tushuntira oldim buni gumon eliga,
Hamisha ishqni qilguvchi imtihon eliga,
Ki birni ikki deyib bo'limg'ay zamon eliga,
G'arib zulf-u yuz ermasmukim, jahon eliga
Ko'runmamish bu ikkining misoli tun bila tong.

Qachonki zulmat-u nur o'rinni olmoshadur,
Qora boshimdagi savdo dilimga tirmoshadur,
Qonim kuyarda tanimning alangasi oshadur,
Tongim yorug'u tunum tiyradurki, chirmashadur
Ko'ngil aro yuz-u zulfung xayoli tun bila tong.

Ne shomda vasli umidi, ne tongda nurli xabar,
Ne kechda rayhon isi-yu ne tongda g'unchada zar,
Ne oqshomimda qadah bor, ne tongda bir sog'ar,
Ne tunda aysh nasimi, ne tongda mehr magar,
Ki bo'ldi zulf-u yuzung poymoli tun bila tong.

Dilingning ko'zgusidan bir umrga ketsin g'ash,
Ichar chog'ingda sharobinggadir hayot aralash,
Kechang charog'i-yu kunduz quyoshidek dilkash,
Tuning hujusta, tonging qutlug' o'lsun, ey mahvash,
Ki ikki banda sanga bo'ldi holi tun bila tong.

Kimiki qayg'u qo'lidan yaqoni qutqordi,
Jahon ishini etak silkimak-la bitkordi,
Qarong'u kecha yurib subhidam tomon bordi,
Biravki, tong-u tunin boda birla o'tkordi,
Yaqinki, bo'limg'ay oning maloli tun bila tong.

Qilolmadim qaro tun, nurli tong zavolin kashf,
Nafas-nafas o'tayotgan umrning uvolin kashf,
Siyoh haqqi bu Mirzo, qog'oz jamolin kashf,
Navoiy etmadi zulf-u yuzung visolin kashf,
Valek erur g'amining ittisoli tun bila tong.



QISSALAR



YODGOR

Yozning qiziq kunlari. Egnimda yelvaygina, ko'ksi ochiq, yoqasiga pilta otgan surp yaktak. Boshimda chust do'ppi, belimda shohi qiyiq, oyog'imda nimposhna xrom etik. Uzun, tor bog' ko'chalaryning birida ketmoqdaman. Zeriktiruvchi tuproqli ko'-cha — jimjit. Daraxtlarning soyasi o'z atrofidan bir qadam nari-ga siljimay, tik turadi. Baland-balando so'qir paxsa devorlar osha ko'cha tomonga shaftoli, olxirot, ba'zan aymoqi tog' uzumlar osilib tushgan. Har o'n-o'n besh qadamda ko'chani cho'rt kesib — bir tomondagi qo'rg'onchadan chiqib, ikkinchi tomondagi qo'rg'onchaning paxsasi tagiga kirib ketayotgan ko'priksiz mayda ariqlar uchraydi. Pashsha uchmagan tilsiz ko'chada ketib bormoq-daman. Boradigan yerim hali uzoq. Mayda yallalar kuylab ko'raman. Biroq, ashulaning ayrim bandlari havoning issiqligida erib ketganday avjsiz, lazzatsiz.

Ko'chaning ikkinchi boshida paranjili bir xotin ko'rindi. U menga qarab keladi. Yuzi ochiq, chachvonini dastalab ushlab olgan, go'yo yelpig'ichday tebratib, o'ynab keladi. U ro'baro'sida yigit kelayotganidan hayiqmaydi. Lobar, beparvo. Men ham jimjit ko'chada yolg'iz bormoqdamman. Bir-ikki og'iz gap bilan tegish-moqchi, boyatdan buyon bo'lgan zerikuvning hordig'ini chiqar-moqchi bo'laman. Paranjili xotin menga yaqinlashib kelmoqda... Betma-bet yo'liqib o'tishga o'n qadam ham qolmagan. Men undan ko'zimni uzmay bormoqdamman. U ham shunday. Ana — uning qip-qizil va kichik lablarida meni haligacha maftun qilgan bi-rinchchi yarim tabassumning yovvoyi izlari. U sipohgarchilik bilan kulgisini yashirmoqchi bo'ldi. Lekin labda yashiringan kulgi endi qora ko'zlarda o'ynoqlaydi. Kun issig'idan anor yuzlari bo'rtinib ketgan. Baxt yo'llariday oq va keng manglayida marvarid donalariday mayda ter. Yaqinlashdik, yana bir sekund, men unga, u menga yo'l beradi. Har ikkovimiz o'z yo'limizga ketaveramiz.

Yo'q, bu shunday bo'lindi. U to'xtadi. Bir nafas mening boshdan-oyog'imgacha kuzatib chiqdi.

— To'xtang, mulla aka.

Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi.

— Xizmat, jonom?..

— Birovga xolis xizmat qilib o'rganganmisiz?

— Yigit kishining kuchi halol. Haligacha xolisdan boshqa xizmat qilgan emasmiz. Butun mehnatimiz dalaga ketgan. Agar xizmatingizga munosib bo'lsam, ko'zim ustiga.

— Bo'lmasa, biror ovloqroq joy toping, xizmatimni aytaman.

Shu ko'chaning sal narirog'ida bo'yra-palossiz bir xonaqoh, bir peshayvon, ariq o'tgan kichik sahnga ega bir bog' machiti bor edi. Machit juma kunidan boshqa haftaning olti kunida ko'chib ketgan hovliday bo'sh bo'lar edi. Oldinma-ketin yakka tavaqa es-higidan kirib bordik...

Qiz borib ayvon dahanasiga o'tirdi. Men uning ro'baro'sida — ariq labiga cho'nqaydim... Qiz marmarday bilaklarigacha shimarib qo'yilgan ko'yak yenglari orasidan kichik shohi ro'molchasini olib, burun uchlari, dudoq ustlariga qo'ngan shabnamday toza terlarni arta boshladi. Ro'molchadan suvg'a ivitilgan qalampir-munchoqning hidi burqib ketdi. Machit bino bo'lgandan buyon bu yerga — muhabbat va balog'at hidi biringchi marta tarqalgan bo'lsa kerak. Qiz qoshlarini chimirib, meni bir marta tekshirib, kuzatib chiqdi.

— Uylanganmisiz?

— Yo'q.

— Juda yaxshi, bo'lmasa, meni olmaysizmi?

To'satdan bo'lgan bu nogahon taklifdan juda shoshib qoldim.

— Xizmatingiz shumidi?

Qiz qah-qah solib kulib yubordi...

— Rostdan ham, birovga xolis xizmat qilib o'rganganman deng?

— Agar buyursangiz, qil bilan fil bog'lashga, tirnoq bilan tog' qo'porishga tayyorman.

— Bo'lmasam, — dedi-yu qiz yana o'ylanib qoldi, — mayli, hammasini aytaman. Diqqat bilan qulq soling.

Yoshlik kitobining zarhal sahifalarida yurak tepishlari qayd qilingan bu satrlarni umrday mayda to'lqinlar bilan oqib borayotgan ariqchaga termilib tingladim. Go'yo barakati ketmagan subhda "Alif layli va laylata"ning Shahrizod afsonalarini so'ylar edi.

— Ota-onam eski odamlar. Bular oldida ishqning puch yong'oqcha qadri yo'q. O'z ra'yлari bilan meni erga berdilar. Erimning tayinli kasbi yo'q; yashirinchay mayda savdogar. Bir yildan ortdi, uning zanjiridaman. Qayg'uli kechalarni g'am tonglariga ulayman. U beparvo. Uning uchun muhabbat yostiqdan boshqa narsa emas. Mening bo'lsa, u bilan bir minut yashagim kelmaydi. Ajrashmoqchi bo'laman. Yaxshi bilasizki, oila eskicha bo'lganidan keyin, qiz ajratib olish juda katta isnod. Erim ham ajralishimga tish-tirnog'i bilan qarshi. Ba'zida o'lguncha ichib keladi-da, meni uradi. Shunda: "Agar mendan zerikkan bo'lsangiz, qo'yib yuboring", desam, "Sening zanjirlarda sochingni oqartirib yuboraman", deydi. Men hali yoshman. O'z tengqurlarim singari o'ynagim, kulgim keladi. Bundan bir haftacha burun yana har galgi janjallardan bittasi bo'ldi. Bu gal dazmol bosilmagan shim bahonasi bilan yetti otamning go'riga g'isht qalab haqorat qildi, urdi. Bu galgisi juda ham jonimdan o'tib ketdi. Boshimni olib biror yerga qochmoqchi ham bo'lib qoldim... — dedi juvon, ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh olib.

Ichimda: "Obbo! Endi meni olib qoching, desa, qayerga olib boraman", degan mujmal xayol bilan so'radim:

— Xo'sh, endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

Juvon yana bir marta machit sahnida qalampirmunchoq hidi burqitib, ro'molchasini yozdi. Jingalak kipriklariga ilinib qolgan yosh donalarini artdi.

Yarim o'ksik ohang bilan:

— Bir necha kundan beri poylab yurib, erimning pasportini o'g'irlab chiqdim. Mana shuni olib biror soatga mening erim bo'lib turasiz, — dedi.

— Ya'ni, qanday? Mening bu yerda xizmatim nimadan iborat bo'ladi?

Juvonning yuzidagi qayg'ular o'rnini yarim aldovchi mug'am-bir tabassum egalladi:

— Go'yo mening erim bo'lasiz-u, ZAGSga borib, meni taloq qo'yasiz...

Juda allanechuk bo'lib ketdim. Haligina to'lqinlari bilan ovuntirgan ariqcha ters oqayotganday bo'ldi. Suvga ivitilgan qalampir-munchoqning hidi sarimsoq kabi me'daga tekkanday bo'ldi. Kalakalanib qoldim.

— Bu qanday mumkin?

Juvon mening bu shubhamni o'z latofati bilan yengmoqchi, bu ikkilanuvimni takabbrul kulgilari bilan sehrlamoqchi bo'lar edi. Uning endi mendan hech ko'z olmay tikilib turishidan, go'yo: "Men seni yenga olaman!" deganday ma'no anglashilar edi.

— Yuragingiz dov bermayaptimi, yigitcha? Do'ppi, qiyiq — savlat deng-chi bo'lmasa?..

— Yurak-ku, dov berishga beradi-ya, hali olganimcha yo'q, darrov qo'yamanmi? Bu ish tug'ilmagan buzoqqa qoziq chopishga o'xshaydi.

Juvon sharaqlab kulib yubordi. Bu kulgidan haligacha machit tomining tarnovida kukulashib turgan ikki musicha cho'chib uchib ketdi.

— Mayli, sizniki shunaqa teskarisidan bo'lsin. Avval qoziq chopamiz, keyin buzoq topamiz. Avval taloq, keyin nikoh qilamiz.

— Qaydam?

Juvon birdan o'zini tundlikka oldi. So'zidagi haligacha bo'lgan mehribonlikni shiddat qopladi.

Pushaymon ohangi bilan:

— Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so'rigan ekanman-ku, bo'ldi-yey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo'lsa paranjini to'nga ayrbosh qilamiz, — dedi.

Bu gapdan keyin men ancha po'k bo'lib qoldim. Oldin bergen va'damdan aynishni — yigitlik nomiga or, deb bildim. Meni u haqiqatan yenggan edi.

— Xo'sh, endi nima qil, deysiz?..

Uning ko'zlar g'alabadan porlar edi.

— Shu lapashangligingiz bo'lsa, hali meni ZAGSda ham sharmandamni chiqaradigan ko'rinasiz. Ha, mayli, tavakkalda, yaxshilab quloq soling. Shu pasportni yonga solib qo'ying.

ZAGSga birga boramiz. Eshikdan men sizni, siz meni koyib kiramiz. Siz: "Qo'yanim qo'yan", deysiz, men: "Chiqqanim chiqqan", deyman. Agar ZAGSdagilar yarashtirmoqchi bo'lsalar, nasihat qilsalar bo'sh kelmaysiz. Bir gapda turib olasiz... Men sizni qarg'ayman, so'kaman, xafa bo'lmaisiz. Siz ham bir-ikki marta so'kishingiz mumkin... Ishqilib, taloq pattani qo'limga olib bersangiz bas...

Shunday qilib, juvon tushmagur ilonning yog'ini yalaganday bidirlab meni avradi, bosh-ko'zimni aylantirdi. Ikkovlashib ZAGSga qarab ketdik.

Yarim soatlardan keyin bir-birimizni kurakda turmaydigan haqoratlar bilan so'kib, ZAGSning tor idorasini boshga ko'tarib, shovqinlashmoqda edik. U meni "chayqovchi", dedi. Men uni "tantiq, satang", deyman. ZAGSdagilar har ikkovimizni bosib qo'ymoqchi, iloji bo'lsa bitishuvchilik bilan yarashtirib qo'ymoqchi bo'ladilar. Men bo'y bermayman. U mahmadonalik qiladi. Xullasi, ZAGSdagilar ham tanglikda qoldilar. Tezroq bizning taloq pattamizni berib, janjaldan boshlarini qutultirmoqchi bo'ldilar. Unchalik qiyin-qistovga olib, surishtirib o'tirmadilar ham. Pasportimni olib, patta yoza boshladilar.

Ana endi markasi ham yopishtirildi. Kopiyasi ko'chirildi. Bir nusxa unga, bir nusxa menga berdilar. Xarajat pulini to'lab turib, bir xo'rsinib qo'ydim:

— Xudo yo shukr! — dedim, — shunday lazzatsiz umrdan qutuldim! Endi hech uylanmaganim bo'lsin-a.

Juvon ham pattani olib turib:

— Uh, — deb qo'ydi, — yorug'lik jahonga chiqadigan kunlar ham bor ekan-a. Er shu bo'ladigan bo'lsa, qaro yer bo'lsin...

ZAGSdagilar bizning gapimizga achinish aralash sovuqqonlik bilan qaradilar.

Hech kim biror so'z demadi.

Ishni bitirib, bir-birimizga to'rsayishib, ko'chaga chiqdik. Ko'chada u menga yondashib, bir o'ymalab qo'ydi:

— Rahmat. Men o'ylagandan ham yuqori quv bola ekansiz. Lekin, hali ishimiz sal chalaroq bo'lganga o'xshaydi. Agar sizga bu yog'i malol kelmasa, o'n minut meni ZAGS eshidiga kuting.

Men hozir qaytib kelaman. Bir bo'lgan ish — puxta bo'lsin. Ha, darvoqe, pasportni menga bering. Endi kerak bo'lmas.

Men lakov, go'gina banda laqqa uchdim:

— Xo'p, faqat tezroq keling.

Juvon tramvayga tushib ketdi. Men kutib qoldim. Haqiqatan, aytganidan ham tez keldi. Lekin qo'ltig'ida — paranji ostida bir nima borday ko'rinar edi.

— Yuring, — dedi u. — ZAGSga kirib, o'sha qolgan chalasini bitkazamiz.

Kirdik. Yana o'sha taloq stoliga yaqinlashdik.

Juvon qo'ltig'idagi tugunchani oldi. Ko'zlarim kosasidan chiqib ketguday bo'ldi. U oppoq qilib yo'rgaklangan, maza qilib, hamma ishdan beparvo emizik emib yotgan yosh bola — yangi tug'ilgan chaqaloq edi. Men savol ko'zi bilan unga qaradim. U Xudo urgan o'jar dag'dag'a bilan ZAGS ro'yxatchisiga qarab:

— Mana, qo'yishga qo'ygandan keyin, bolasini ham boqib olsin. Yosh umrimni bola boqib xazon qilmayman. Kerak bo'lsa o'zi boqsin. Itdan bo'lgan qurbanlikka yaramas! — dedi-da, bolani menga tutqizib, jahd-u jad bilan ko'chaga chiqib ketdi. Men bolani ko'targancha ag'rayib qoldim. Nima qilish kerak? Agar: "Hoy birodarlar, bu xotin mening xotinim emas. Men yollanib uni qo'ydim, bolaning ham hali qiz-o'g'lligini bilmayman", desam, baloga qolaman. Balki jinoiy mas'uliyatga tortarlar. Garangsib qoldim. Yig'lagunday bo'lib:

— Axir, men endi qandoq qilaman? Buni qayerga olib boraman? — dedim-da, o'z gapimdan o'zim cho'chib ketdim. ZAGS-dagilar menga haqoratli nazar bilan qaradilar, ichlaridan bittasi jerkib:

— Shunday yosh xotining umriga zomin bo'lganidandan keyin jabrini ham tort-da. O'z gunohing, uka, — deb piching otib qo'ydi.

Yana birisi yupatganday bo'ldi:

— Xafa bo'lman, emizikdag'i bolani qonun onasiga buyuradi. Innaykeyin, xotiningiz salaptidan tushsin, baribir, onalik muhabbat qo'ymaydi, bolani sizdan olib ketadi.

Juda shalvirab tushgan edim. Oyoqlarimga ham ishonmay, sudralib qadam tashlardim. O'sha kuni uzun, keng, serqatnov

shahar ko'chasida bola ko'tarib, tentirab yurganimni ko'p kishi ko'rgan edi. Ko'chaning u boshidan bu boshiga bir necha marta borib keldim. Xuddi biror nimasini yo'qotgan kishilarday, intizor, hushim ketgan edi. Ora-sira chaqaloqqa qarab qo'yaman. Yo'rgagi yuzini yashirgan bo'lsa, nafas olishga qiyalmasin deb, qiya qilib ochib qo'yaman. Chaqaloq mayda-mayda chiroyli nafas olib yotadi. Emizigi og'zidan tushib ketgan. Haligina emgan so'nggi ona sutlarining lazzatini tamshanib qo'yadi. Ana, u kichkina, qora munchoqday ko'zlarini ochdi. Qorachiqlar beqaror, bir nuqtada to'xtalib turmaydi. Oppoq momiqday yuzlarida g'ivir-shi vir ijirg'anish boshlandi. Oorni ochdimikan yo tagi ho'l bo'lib qoldimi — yig'lay boshladi.

Endi nima qilaman? Axir, bola ultayib, ota-onasini topib olguncha, ochdan-och ko'chada ko'tarib yurish mumkin emas-ku! Biror oshig'ich chora topish kerak. Chaqaloqning yig'isi meni tezroq bir qarorga kelishga chaqiradi. Onasining qilgan bevafoligi orqasida tor-mor bo'lgan yigitlik zaptini qayta boshdan tikladim. Bo'lar ish bo'ldi. Endi qanday bo'lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. Axir, bu go'dakda nima ayb? Ayb ota-onasida. Es-hushimni yig'ishtirib oldim. Qat'iy qarorga keldim. Bolani quchoqlab tramvayga tushdim. Uyga qarab ketmoqdaman. Bola tramvayda o'zini juda notinch tutdi. Uzlikib-uzlikib yig'laydi. Iskab-iskab ona bag'rini qidiradi. Ko'k simga bosaman. Lekin menda u qidirgan hid yo'q. Yana yig'laydi. Yo'lovchilar bezovta bo'la boshladilar. Men xijolat chekaman.

Oralaridan bittasi:

- Og'ayni, bolani onasiga bering, jindek emizib bersin, — deydi.
- Onasi yo'q, — deyman. Yana bittasi g'udunglab:
- Onasini uyda qoldirib, yosh bolani ko'chada kezdirish juda bema'nilik-da, — deydi.
- Onasi betob edi, bolani torttirgani olib borgan edim, — deb chuchmal javob beraman.

Tramvay jamoatchiligiday sermulohaza xalq kamdan kam bo'ladi. Bittasi olib, bittasi qo'yib, yosh bola to'g'risida gap otadilar. Ba'zilari meni ahmoqqa chiqarib qo'ygan, ba'zilari tang ahvolim-

dan achinganday bo'ladi. Yonimda o'tirgan bittasi zarda bilan o'rnidan ham turib ketdi. Men bilan chaqaloq bu tarafda qolib, ikki kishi janjallashib ham ketdi.

Bittasi: "Yosh bolaning yig'lagani yaxshi, ko'zi qora bo'ladi", desa, ikkinchisi: "Yo'q, yig'lamagani yaxshi, ko'p yig'lasa, ko'ziga oq tushadi", dedi. So'kishishgacha borib yetganda, biz — yangi ota-bola tramvaydan tushib qoldik.

Men eshikdan kirib borganimda oshxonan bilan ayvonning ustuniga arqon tortilib, ukalarimning katta-kichik ko'ylak- ishtonlari yoyilgan, kampir tog'ora ustida o'tirar edi. Kampir qo'limda bola bilan kirib kelganimni ko'rib: "Hoynahoy, opa-singillarini yetaklab kelayotgan bo'lsa kerak", deb o'yladi shekilli:

— Tag'in mehmon boshlab keldingmi, kim kelyapti, Savrimi, Rahbarmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? O'zing ham, bolam, Xudo urgan qo'li ochiq, mehmondo'stsan-da, muncha aka-uka, egachi-singillaringga mehribon bo'lmasang, bu kun ham ukalaringning kiri chala qoladigan bo'ldi-da, — dedi.

Endigma sal ovungan chaqaloq yana yig'i boshladi. Kampir tog'ora boshida turib, chaqaloqni ovutmoqchi bo'ldi:

— Ninni, ninnigina nevaraginamdan o'rgulay, yig'lamasin, yig'lamasin, mana, hozir buvingiz qo'lini artadi, do'ndiqqina, o'zim bag'riginamga bosaman!

Kampir ko'pikli qo'llarini tog'oraga silkib, o'rnidan turdi-da, "nabira"ni qo'limdan oldi. Menga qarab:

— Hoy bolam, namuncha qovog'ingdan qor yog'ilib turipti, aytta qolsang-chi, kim kelyapti? — dedi.

Indamadim.

Kampir o'z umrida o'nlab bola o'stirgan onalarga maxsus mehr-muhabbatli, oila sevgisi uning asl kasbiga aylanib ketgan. U har zamon-har zamon:

— Bolam, kuch degan yo suyakdan, yo go'shtdan bo'lar ekan. Xudoyo shukr, meniki suyakdan ekan, go'shtdan bo'lganida edi, shu olti bolani o'stirish osonmidi, onang o'rgulsin, — deb qo'yardi. Men bu sodda gapdan hech nima anglamasdim.

Ey, meni bag'ring bilan parvarish qilgan ona, ey, menga borlig'ingni bergen ona, ey, mening tarbiyam uchun ko'z yum-

masdan hułkarlar ko'zlaringga cho'kkana ona. Ey, qora kechalar-ning zulmati baxtiga cho'kkana ona, ey, yorug' kunlarning saodati kelajagingga qo'ngan ona! Dunyoda onadan ortiq kim mehribon? Haligacha beshik tepasida kuylagan allalaringga baravar she'r yoza olmadim. Haligacha mendan chiqqan kichik isitma uchun tortgan qayg'ularingga teng qayg'u his qilolmadim.

Onam chaqaloqni birorta egachi-singlimming yoki akamning bolasi, deb o'ylagan ekan. Bechoraning hozir oltmisik ikki yoshi bor. Uning umrlari allaqaysi menga qorong'u o'tmish yillarning shox-butoqlarida olma tergan qizlarning etaklariday ilinib qolgan. Uning ko'z nurlari biz olti bolaning ko'zlariga termulaverib taqsimlangan. U chaqaloqni darrov taniyolmadidi. O'z tili bilan aytganda, "piri badavlat" bo'lgan onam, bu chaqaloqni "birorta nabiram bo'lsa kerak", deb o'ylagan.

— Oyi, — dedim, — shu bolaning chakagini o'chiring, onasi hali-beri kelmaydi.

Kampir meni koyib ketdi:

— Tinib-tinchimaysan-da, o'g'lim, sening bolajonliging tin-kamni ham quritdi. Nega emadigan bolani onasidan ajratib olib kelasan, men endi bunga nima beraman, egaching tushmagur ham o'lguncha beparvo, bolaning qadrini bilmaydi. "Omon bo'lsang pisharsan, bu taptingdan tusharsan", ular ham yoshlikning tax-u takosini yig'ishtirgandan keyin, zora bolaning qadriga yetsa, "Onaning ko'ngli bolada — bolaning ko'ngli dalada".

Chaqaloq tinmay yig'lab turar edi. Kampir meni ham, yuvib turgan kirini ham unutib yubordi. Bolani qo'liga olib, turli harakatlar bilan uni tebratib ovutmoqchi bo'lar edi. Bola ochiqqan edi. Uni ovqatsiz, xushmuomala bilangina yupatish ancha mashaq-qat edi.

— Oh, yoshlar, yoshlar, — der edi kampir.

Bolani menga berib, o'zi irviti qutisini ochdi. Undan bir-ikkitita g'alvirak bodom olib yanchdi. Uni qaynoq suvgaga ivitgandan keyin, doka ro'molga o'rabb, bolaga shimdira boshladidi.

Tasodifan o'sha kezlarda akamning xotini hamda kichik singlim tuqqan bo'lib, kampir bu chaqaloqning qaysi birisiniki ekanligini bilmas edi. Bola biroz tinchlandi. Bir oz turib yana yig'ladi.

Oradan bir-ikki soat vaqt o'tib qolishiga qaramasdan, kampir kutgan "mehmon"dan darak yo'q edi. Kampir meni koyiy boshladi:

— Tusingni yel yemasin, o'g'lim, hoy, sen qanaqa bola chiqding? Nega axir bu yoshgina go'dakni onasidan ajratib, tentiratib yuribsan?

— Oyi, — dedim, — rostini aytaymi, bu bolaning onasi yo'q. Kutganingiz bilan kelmaydi ham. Bu — mening bolam!

— A?.. — dedi kampir. — Nima deyapsan, bema'ni? Qanday qilib bu sening bolang bo'ladi?!

— Kishi qarigandan keyin ezma bo'lib qolar ekan-da, mening bolam degandan keyin, mening bolam. Surishtirib nima qilasiz, boqavering!

— Hoy, sen bola, nima deyapsan? Sinni solim shu yerga kelganda, kelib-kelib endi senga mayna bo'lib qoldimmi, bolam? Axir, bu kimning bolasi o'zi?

Kampirga bir oz baland kelish kerak edi:

— Mening bolam, dedim-ku, tamom! Mening bolam, shuni boqasiz. Meni, aka-ukalarimni qanday tarbiya qilgan bo'lsangiz, buni ham shunday tarbiya qilib o'stirasiz, boshqa gap yo'q.

Kampir avval ishonmadi. Keyin yuzimdag'i jiddiylikni ko'rib, gaplarimning mazmuniga bir oz tushunib olganday bo'ldi. O'zini tiyolmasdan, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi.

— Axir, — dedi kampir, — men endi qanday qilaman? yetti nomusimni yerga bukding, juvormak! Men seni kim ko'rganga maqtab, orqangdan ko'rpa cha soldirib yurgan bo'lsam, ammangning qizigasovchi yuborib, unashirib qo'ygan bo'lsam, sen juvormak oxir chog' uyimga onasining tayini yo'q bolani ko'tarib kelsang. Men bu xo'rlikka qanday chidayman?! Do'stim bor, dushmanim bor, mahalla-ko'y, guzarim bor, qarigan chog'imda kenjaginamning xotini menga pushti-panoh, qo'l-oyoq bo'larmikan, degan edim. Xudoyo, seni otangning arvohiga soldim.

— Hadeb obidiyyda qilaver mang, oyi, men ham sizni xursand qilaman, deb yurgan edim-u, lekin onasi shu bolani tug'di-yu, o'ldi-da... Bo'lmassam, kelin desangiz arzigundai kelin edi.

— Axir, kimni olgan eding? Kimning farzandi edi? Bolaning onasi o'lgan bo'lsa, azasiga boray, uyi qayerda?

Chaqaloq yana yig'lab qoldi. Kampir men bilan pachakilashib o'tirsa, "nabira" gina och qoladigan, ko'z yoshlarini dakanasining uchiga artib, chaqaloqning yoniga bordi.

Uni yo'rgagidan yechdi:

— Bolaginamning tagi ham bo'kib ketibdi.

O'mimdan turdim, sekin ko'zimning qirini tashlab qaradim. Bolish par yostiqday momiqqina oq badanli, to'la o'g'il bola ekan.

Shu fursatdan boshlab mening yuragimda g'azab bilan muhabbatning, o'ch bilan ishqning kurashi boshlandi.

Guvoh bo'ling, o'rtoqlar, shu — mening o'g'lim bo'ladi!

Avvalgi bir necha kun kampir bolaga unchalik mehribonlik ko'rsatmadi. Ukalarimning sut stansiyasidan har kun keltiradi-gan sutini ham juda ishonchsizlik bilan bolaga berib yurdi. Lekin kundan-kun bolaga bo'lgan mehr-muhabbati oshib borganligi sezilar edi. O'ninchi kunlarga borganda yig'lab yotgan bolani ko'rib, ukalarimni koyiyotganligini eshitib qoldim:

"Hoy, Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ket-di-ku! Nonimni yopib olgunimcha ovutib turgin. Men hozir borib olaman". Yoinki: "Abdug'ani, tura qol, oppoq o'g'lim, vaqtliroq borib, ukangning sutini olib kelib bermasang, kun qizib ketsa, olib kelguncha aynib qoladi", deyar edi.

— Kampirning bu gaplari bolaga uning muhabbati oshib borayotganligini ravshan ko'rsatib turar edi. Demak, men tinch-lansam bo'ladi. Bolaning tarbiyasi ta'minlandi. Harchand kampir haligacha norg'ul-norg'ul azamat bolalardan oltitasini o'stirgan bo'lsa ham, uning tarbiyasi biroz eskicha. Lekin nima qilish mumkin? Boshqa xil tarbiya berishga men singari dunyo ko'rma-gan, bo'ydoq yigitning chorasi yo'q. "Bolali uyda g'iypat yo'q", deganday, o'g'lim kelgandan buyon uyimizda anchagina ermak topilib qoldi. Ukalarim mакtabдан kelgandan keyin o'ynaydigan narsalari — chaqaloq. O'zim ham ishdan qaytgandan keyin chaqaloqni qo'limga olib, jindak ovuntirgan bo'laman. "Ninni-ninni", deb qo'yaman, "Kulib bering", deyman. Shunchalik o'zimizdan tinib-tinchib qolganimizga qaramasdan, men bu chaqaloq to'g'risidan anchagina gap-so'z bo'lib oldim. Ancha ta'na-malomatlар eshitdim. Ammam qizini menga bermaydigan bo'libdi:

— Bo, Xudo ko'tarsin unaqa yigitni, — deyar emish, — kim ko'rgan bilan yurib, bola ko'tarib keladigan beboshvoqqa beradi-gan qizim yo'q.

Mahalla-ko'y — guzardagi kim ko'rgan meni masxara qilib:

— Ha, farzand katta bo'lib yotibdimi? — deb so'rab qo'yisha-di. Men ham juda o'jarlik bilan qarayman-da:

— Shukur, — deb o'taveraman.

Akam-ku orqavoratdan:

— Bo'ldi, men bilan bordi-keldi qilmasin. Unaqa ukam yo'q! — deb yurgan emish.

Opam bo'lsa kampirni koyir emish. "Qarigan chog'ingizda, — deyar emish, — sizga nima zarur: bolasini qo'liga tutqazing, xohlagan joyiga olib borib boqtirsin, Xudo ko'tarsin, "yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'g'lon asrasang, og'zi-burning qon etar", degandek, hali bu o'limtik katta bo'lib, sizga bozordan bir chakim nos olib kelib berdi-yu, birov ko'rmay qoldi". Xullasi, qarindosh-urug', mahalla, tanish-bilishlardan turt-ki yeayerib xit bo'lib ketdim, nomim yomonlikka yoyildi, kim ko'rgan ta'na qilib ta'zir beradi.

Shu kezlarda mening jonimga tasodif ora kirdi. Yoshim yigirma ikkida bo'lgani uchun harbiy xizmatga chaqiriq bo'lib, mahalla komissiysi harbiy komissariatning chaqiriq qog'ozini topshirdi. Bu narsa menga juda yoqib tushdi. Og'zim qulog'imda. Yelib-yugurib borib doktordan o'tdim. Butun a'zoysi badanim po'latdan quyganday sog'-salomat bo'lgani uchun birinchi darajada yaroqli bo'lib qabul qilindim. Bosar-tusarimni bilmay xursandman. Doktor meni kavaleriya ham pexotaga yaraydi, deb yozdi. Harbiy komissariat meni pexota qatorida Ashxobodga yuboradigan bo'ldi. Bu ish kampirga ma'lum bo'lgandan keyin jiindakkina ko'z yosh qilib oldi. Men Ashxobodga ketgunimcha qolgan ikki-uch kun ichida uyda juda siylanib yashadim. Haligacha jirkanib, xor tutil-gan o'g'limga ham hech kim shamolni ravo ko'rmay, diydasining ustida saqlab, hurmat qiladigan bo'lib qoldi.

Chaqaloq kelgandan buyon unga tavinli bir ism qo'yilmagan edi. Menga hurmatan kampir unga "Yodgorvoy, Yodgorvoy", deb ism qo'ya boshladi. Kampirdan:

— Oyi, Yodgorvoyingiz nimasi, qayyoqdag'i qolib ketgan eski ot-ku? — deb so'rasam, kampir o'pkasini tutib ololmay:

— Oh, onaginang o'rgilsin, bolam, sen endi sallotga keta-yotibsan, Xudoyo Xudovando, yomon ko'zdan saqlasin... Xudo dushmaningni xor-u zor qilsin. Ishqilib, o'qqa uchib ketmagan. O'rtoqlaring bilan yenginglar-u yengilmanglar. Men o'g'lingning otini ehtiyyot shartdan Yodgor qo'ydim. Sendan qoladigan tuyoq-qina. Yaxshi ham shu bola dunyoga kelib qolgan ekan, seni ko'r-gandek bo'lib yuraman, hiding dimog'imdan ketmaydi, — deb yig'lar edi.

Kampirning gaplari menga kulgi tuyulsa ham, hurmat yuzasidan ham bolaga yaxshi parvarish qilish zarurligi vajidan, bir nima demasdan, unga tasalli berar edim.

Shunday qilib, haligacha yurak tepishlar bilan kutgan sevimli yangi olamga — harbiy qo'shin quchog'iga qarab jo'nab ketdim.

* * *

Men, o'zim qatori chaqirilgan tengqur yigitlar bilan Ashxobodga jo'nadim. Harbiy xizmatga chaqirilganimda chalasavod, hisobdan to'rt amalnigina biladigan oddiy bir yigitcha, yana to'g'risi, oldi ochiq yaktak kiygan yalla bedard o'spirin edim.

Bizni qabul qilib oldilar. Uydan kiyib kelgan haligi kiyimboshlarim allaqachon harbiy forma bilan ayrbosh qilingan. Bu kiyim-boshlarga bir necha kunlar ko'nikolmay yurdim. Harbiy ta'limlarni juda jon-dil bilan o'rganayotganim, harbiy xizmatlarga juda ishtiyoq bilan bo'yin egganim, berilgan yaroqlarni ozoda tutishim, yotoqlarimning tartibli turishi — hammasini ko'rgan o'rtoq komandir har zamonda meni erkalab:

— Shunday bo'lisi kerak, siz yaxshi askar bo'lasiz, — deb qo'yadi.

Umumiy harbiy ta'limdan tashqari, kechqurun har kim o'z kuchiga qarab gruppalarga ajratilgan — o'qiyimiz. Muallimlar menden juda xursand.

Ahyon-ahyonda hovlidan — kampirdan xat kelib qoladi. Unda yoziladigan gaplar, albatta, ma'lum. "Seni sog'indik, hech bandani ota-onasiz qilmasin ekan. Yodgorning ham tili chiqib qoldi,

"dada-dada"ni og'zidan qo'y maydi. Yuraklarim ezilib ketadi", ana shunga o'xshagan gaplar. Men ham xat yozib qo'yaman. Otpuska olsam borib ko'rib kelishni va'da qilaman. Shunday qilib, umr o'tib turadi... Kundan-kun jussam to'lishib bormoqda, rangim qip-qizil, baquvvatlashib ketganman, tevarak-atrofim osh-na-og'aynilar bilan to'lib yotadi. Zerikish degan narsani bilmayman. Bizning polkda turli millatdagi yigitlar bor, qozoq deysizmi, o'zbek deysizmi, tatar deysizmi, tojik, turkman deysizmi — hammasi bilan inoqman. Hammasini ham qo'yavering, so'nggi olti oy ichida juda ham qattiq havas bilan rus tilini ancha o'rganib oldim, hovliga yuboriladigan xatlarning manzilini o'zim yoza-man. Yaqinda butun harbiy kiyim-bosh bilan surat oldirdim, shu suratimni konvertga solib kampirga yubordim. Oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin akamdan xat keldi. Kampir suratni qo'li-dan qo'ymas emish. Butun qo'ni-qo'shnilarga suratimni ko'rsatib chiqqan emish. "Xudoyo shukur, — deyar emish, — shu tentakki-na o'g'limga ham aql kirib, hukumatning sallotboshisi bo'lib ket-gan", deyar emish. Quvonchlari olamga sig'mas emish.

Bir yildan keyin kampirni, kasal, deb eshitdim. Ariza berib, o'n kunlik otpuska oldim. O'rtoqlar bilan xayrashib kampirni ko'rib kelmoqchi bo'ldim. Men kelgan kuni hovlida to'y bo'lib ketdi. Men bilan arazlashib qolgan akam, opalarim, kelinoyim ham kelgan. O'g'lim bo'lsa alpon-talpon yuradigan, baqaloq, oppoq bola bo'lib qolibdi. Tizzamdan tushmaydi, men ham qo'limdan qo'yayman. Ko'chaga chiqqanda ham ko'tarib chiqaman. Avvalgiday, meni "Ha, kuyov, o'g'ilcha katta bo'lib yuribdimi?" — deb mazax qilishmaydi.

Ammam ham ko'rgani keldi. Keta oldida kampirni xoli topib: "Taqdirni buzib bo'larmidi, yigit degan ne ko'ylarga tushmaydi. Tentakkinangiz savlatlikkina yigit bo'lib qaytdi-ya, sallotlikdan. Kuniga deng, aylanay egachi, sovchilar eshigimning turmini bu-zadi. Hammasiga ham: "Yo'q, aylanaylar, hali qizim yosh, undan keyin buning boshi bog'liq", deb javob beraman. Tog'asining o'g'liga "beshik ketdi", deyman, buning yigit Ashxbodda sallot-boshi, deb maqtanib qo'yaman, debdi daromad keltirib. Kampir buni menga og'zining tanobi qochib, iljayib gapirganda, men:

— Qizi hali yosh, shoshmasa ham bo‘ladi. Menga qarasa, men hali uch-to‘rt yilsiz uylana olmayman. Hali harbiy xizmatim tamom bo‘lgani yo‘q, undan keyin yana bir-ikki yil o‘qimoqchi-man, — deb javob berdim.

Kampir ham:

— Ha, aylanay bolam, hali ham, ertaga to‘y bo‘lsin, deyayot-gani yo‘q, aytganingdek, qizi ham yosh, shunchaki daromad qilib qo‘yyapti-da, bolam! — dedi.

Toshkentda turgan uch-to‘rt kunda o‘rtoqlarimni sog‘inib, yuragim urar edi. O‘zimning sevimli polkimni zoriqib-zoriqib sog‘inar edim. Shuning uchun ham otpuskani tamom qilmay tezda qaytib ketdim.

Ikkinci yil — taktik o‘qish bo‘lsin, umumiy ma’lumot bo‘l-sin — juda jiddiy ketdi. Men, ayniqsa harbiy bilimlar bilan birlikda chala qolgan o‘rtta maktabimni bitirishga urinar edim. Hatto yil o‘rtasiga borib, komandir otdeleniya qilib ko‘tarildim. Onamdan kelgan xatlarning mazmuniga qaraganda, kampir ham endi meni “o‘limga ketgan” sallot, deb o‘ylamas edi... U: “Aylanay bolam, yaxshi o‘qigin, yaxshi mashq qilgin, sayoq bo‘Imagin, yolg‘izgina o‘g‘lingni yodingdan chiqarmagin”, deb nasihatlar qilib yozar edi.

Albatta, o‘g‘lim Yodgorni ham u bilan bog‘langan voqealarni hech qachon yodimdan chiqarmayman. Bilmadim, taqdir uning va mening peshonamga nimalar yozganikin?

Asosan o‘ylaganda “taqdir” degan so‘z kishilarini yaratmaydi, balki kishilar taqdirni yaratadi. Men o‘zimga ham, Yodgorga ham juda yorug‘ kelajak, porloq taqdir yaratishga harakat qilmoqdam. Bu to‘g‘ridan kampir tinch bo‘lishi mumkin.

Ish bilan o‘tgan umr juda qisqa tuyuladi. Erta bilan vaqtli mashqqa chiqamiz, ortiqcha, turmushga aloqasiz xayollarni o‘ylashga qo‘l ham tegmaydi. Kecha bilan o‘zimni yana dars tayyorlab o‘tirgan holda ko‘rib qolaman. Turib-turib o‘zimga ishonmayman. Shu menmi? Kechagina dunyoning ishqini, zavqini — sayroqi bedana, xrom etik, beqasam to‘n, yaxshi qo‘lbola musallasdan iborat, deb yurgan oddiy chapani — shu menmi? Ammo bugun mening butun zavqim o‘zgarib ketgan. Mening ishqim, muhabbatim o‘zining mazmunini o‘zgartgan. Men endi Vatanimning ishqini

bilan yonaman. Shu Vatanimning va meni tarbiya qilayotgan jamiyatning yaxshi o'g'li bo'lgin keladi va bo'laman ham.

Yigirma besh yoshimning ko'klami. Olam chamanlarga burkangan, dunyo lolalardan, g'unchalardan iboratga o'xshaydi. Hamma jahon menga kulib qaraydi. Qo'limni peshonamga qo'yib, uzoqlarga qarayman. Oyoq ostimda baxmallarga burkanib yotgan ulug' Vatan; uzoq-uzoqlarda uning baxt-saodatli qishloqlari — shularning hammasi go'yo menga botirlik ishqib xaxsh etib, menden xizmat kutib turganday bo'ladilar. Yigirma besh yoshni nima deb atasam ekan? Agar tabiatning ixtiyorini mening qo'limda bo'lsa edi, yana bir necha yillar shu yoshimda to'xtab turar edim.

Ey, meni tarbiyalab o'stirgan, dunyoga kulib qarashga o'rgatgan, ikkinchi onam bo'lgan harbiy qism, nimaga mening yigit umrim shuncha qisqa qo'yildi? Ikki yil ikkita issiq o'pichday tez o'tib ketdi?

Mana, tez orada davomli otpuskaga ham chiqamiz. Lekin men yana ko'ngilli bo'lib qolmoqchiman. O'qishlar juda qizg'in bormoqda. Ko'pchilik fanlardan "a'lo" darajaga ega bo'lsam ham, nima uchundir... ona tilidan bo'shroqman. Muallimlarim meni uyaltilib qo'yadilar... Xayr, endi bir fan uchun "past" baho bermaslar.

Biz bilan bitiruvchi yigitlarning ko'plari "a'lo" daraja oldilar. Komandirimning menga mehribonchiligi, ayniqsa, yaxshi. Ba'zida:

— O'rtoq komandir, — deyman, — agar mumkin bo'lsa, meni yana ko'ngillilar qatori harbiy xizmatga qoldirsangiz, — deyman. U iljayib, yelkamga qoqib, erkalab qo'yadi.

— Sening to'g'ringda mening fikrim boshqacharoq, — deydi, — kerakli joylar bilan so'zlashib qo'ydim. Seni majburiy xizmating tugagandan keyin, albatta, endi istasang, Leningradga yubormoqchimiz. Harbiy akademiya qoshidagi meditsina fakultetiga kirib o'qiysan. Agar u yerda ham o'zingni shu mahalgacha tutganingdek faol, jiddiy, o'z vazifasini anglaydigan bo'lib tuta olsang, to'rt yilda yaxshi harbiy doktor bo'lib yetishasan.

Bu gaplarni eshitib, juda ham quvonib ketaman. Ko'z oldimda yaqin baxtli kelajak porlaganday bo'ladi. O'rtoq komandirning qo'lini mahkam siqib, unga minnatdorchiligidagi bildiraman.

Haqiqatan ham, o'rtoq komandir menga bergen so'zida turdi. Ham harbiy ta'limdan, ham boshqa fanlardan a'lo darajada imtihon berdim. Otpuskani oldim.

Maxsus komissiyadan o'tib, akademiyaga yo'llanma ham oldim. Quvonchim olamga sig'maydi, ikki yil bo'yи aka-ukaday bo'lib qolgan o'rtoqlarim bilan ajralish juda qiyin.

Kanselyariyaga kirib kartochkalarimni oldim. Otpuskaga ketuvchilar uchun maxsus chaqirilgan kechada o'rtoqlar bilan, muallimlar bilan, bizni tarbiya qilgan komandirlar bilan issiq-issiq quchoqlashdik, o'pishdik, xayrashdik. Men, ayniqsa, muallimim bo'lish bilan birlikda eng yaqin birodarim bo'lgan komandirimga so'nggi chestimni berdim:

— O'rtoq komandir, sizning shogirdingiz butun umrida o'z Vataniga sodiq qoladi. Uni har qanday ichki va tashqi dushman dan mudofaa qilishda botir askar deb o'zini his qiladi. U jonajon Vatanning, mamlakatning obodonligini va hurmatini saqlashga postda turgan ryadovoy askarday doim tayyor!

Meni tarbiyalab o'stirgan Vatanim mendan harbiy doktor bo'lishlikni talab qilgan ekan, men tez fursatda bu vazifani "a'lo" darajada bajaraman.

Toshkentda do'stlarim, o'rtoqlarim, aka-ukalarim — hammlari ham juda hurmat bilan qarshi oldilar.

Yodgor bo'lsa yaqindagina qizamiqdan qutulib olibdi, meni tashvishlanmasin, deb bu to'g'rida yozmagan ekanlar. Yarim-yorti tili ham chiqib qolibdi. Chunonchi, "peshona", deb aytolmaydi-da, "shepana", deydi; "r"ni hech ham aytolmaydi. "Boraman", deb aytgin desam, "boyaman", deydi; "patron", deb aytgin, desam, "patyon", deydi, "aeroplan", degin desam, "ayupyan", deydi. Kullishamiz. Mening harbiy kiyimim, ayniqsa shapkam Yodgorni juda qiziqtirdi. Shapkamni kiyib oladi-da, ko'ziga tushib ketsa ham buvisiga chopib boradi.

— Buvi-buvi, men dada bo'ldim, — deydi.

Ishqilib, bolali uyda g'iybat yo'q.

Mening askariy xizmatni tamom qilib kelganimni eshitgan kampir orqavoratdan to'yni tezlatish harakatiga tushib qopti. "Yosh bo'lsa ham mayli, o'zi durkungina, o'zim katta qilib olarman, men

bundan ham yosh tushgan edim, nikoh pattasini ola olsa bas”, deyar emish.

Men Leningradga ketishimni hali onamga aytmagan edim. Bu to’grida opamga aytdim. “Kampirga aytib qo’ying, to’ydan ilgari nog’ora qoqib yurmasin. Men askariy xizmatdan bo’shagan bo’lsam ham, o’qishim tamom bo’lgan emas. Hali uch-to’rt yil o’qishim bor. O’qishni tamom qilganidandan keyin bir gap bo’lar, shuni tushuntirib qo’ying”, dedim. Shu bilan bu masala hal bo’ldi.

O’qish birinchi sentabrdan boshlanadi. Ikki yarim oylik umrni bekorga o’tkazish maslahat emas edi. Toshkent universitetining meditsina fakultetiga borib yangi kiruvchilardan talab qilinadigan ma’lumot darajasini bilib oldim. Ham shunga qarab Leningradga tayyorlana boshladim.

Kechki paytlar bo’lsa Yodgorni ko’tarib olaman. Parklarga borib sirklargacha kiramiz. Aylanma ot o’yinida Yodgorni otga mindirib aylantiraman. Quvnoq, baxtli, saodatli umr juda sekin o’tib turadi. Yodgor yangi kelgan kunlarimda biroz tortinib turgan bo’lsa ham, keyingi kunlarda juda inoqlashib ketdi. Menden bir qarich ham ajralgisi kelmaydi. Biror soat ko’ziga ko’rinmay qolsam: “Dadam ani?” deb janjal qilar emish. Bolani otaga bunchalik ham o’rgatish yaxshi emas. Chunki men Leningradga ketganimda ichikib qolishi mumkin. Kampirning fikri ham shu.

Minutlari soatday, soatlari kunday uzun ko’ringan, qachon o’sha kunlar bo’lar ekan, deb sog’ingan, yurak urib kutgan vaqtlar ham yaqinlashdi. Yigirmanchi avgustda, albatta, Leningradda bo’lishim kerak. Bugun bo’lsa o’ninchisi avgust. Indinga, albatta, jo’nayman. Egachi-singillarim, akam keldi. Ularning bola-chaqlari kelishdi. Men shundan bildim: agar kampirdan tarqalgan bolalari, nabiralari hammasi bir uygaga yig’ilsa, o’zimiz ham salkam bir mahalladek oila bo’lar ekanmiz. Uyimiz to’ydagiday bo’lib ketdi. Kampir egachi-singlim bilan birga kuyunib-suyunib bo’g’ir-soqlarmi, patirlarmi-ye, cho’zma-chalpaklarmi-ye pishirmoqda, menga yo’l oziqlari tayyorlamoqda edi. Hammalari meni kuzatish taraddudida. Yodgor bo’lsa, kampirning boshqa nabiralari bilan o’ynab yuradi. Hammalari ham ozor bermasdan o’ynatadilar, erkalaydilar.

Akam Yodgorni erkalab turib:

— O'g'ling o'zingdan ham o'tkir chiqadi-da! Qurmagurning ko'kragini qara, xuddi Hojimuqonning ko'kragiga o'xshaydi, boldirini qara! — desa, kampir:

— Hap ko'zingga, qo'y, bolam, unaqa dema, bola degan guldan ham nozik bo'ladi, — deb qo'yadi. Gapga kelinoyim aralashadi:

— O'zi ham xuddi quyib qo'ygandek o'zingizga o'xshaydi. Bir tuki o'zga emas, voy xudoyo, bola degan ham otasiga shunchalik o'xshaydimi? — deydi. Ichimda kulib qo'yaman.

Bundan ortiq oila muhabbatiga ijozat yo'q edi.

Men ketishga majbur edim. Meni vokzalgacha akam, o'rtoqlarim kuzatib chiqdilar. Akamning qo'lida Yodgor, hammalari menga muvaffaqiyat tilaydilar. Borgan zamonim sog'-salomatligim, imtihondan qanday o'tganligim to'g'risida yozib yuborishni so'raydilar. Men ham ularning xat yozib turishlarini so'rayman. Akam ham juda mehribon bo'lib ketgan.

— Bir narsaga muhtoj bo'lsang, darrov xat yoz. O'quvchilik, qiynalishing mumkin, qo'limdan kelgan yordamni ayamayman. Undan keyin, kampirlardan xotirjam bo'l, — dedi.

Men poyezd derazasidan qarab turaman. Yodgor menga talpinadi. Qo'limga oldim. Qo'zg'alishga zvonok allaqachon bo'lgan. Yodgorning har ikki yuzidan o'pdim. Yana akamga qaytarib berdim. Yodgor yig'lab qoldi. Poyezd qo'zg'alib ketdi. Men ham haligacha o'zimda tajriba qilib ko'rmagan, bir yurak ezilish, butun a'zoni jimirlatib keladigan qandaydir bir ichki hissiyot bilan beixtiyor ko'zimga yosh oldim.

— Xayr, xayr...

Poyezd ketib boradi. "Imtihondan qanday o'tar ekanman?" degan fikr bilan yuragim urib qo'yadi. Haligacha o'qigan darslarimni ichdan takrorlab, o'z-o'zimni imtihon qilib ko'raman.

Uzundan uzoq qozoq cho'llarini bosib o'tib ketdik. Orenburg chegaralari ham bosib o'tildi. Mana endi Samara viloyatiga qarashli yerlar, muttasil quyuq yashil o'rmonlar, poyonsiz g'allakorliklar, yo'l-yo'lakay katta-katta zavod, fabrikalar tutun burqitgan halqumlarini cho'zib qoladilar. Men o'z umrimda bunday katta

safarga birinchi marta chiqqanim. O'h-ho', bizning Vatanimiz hali shunaqa kattami? Shular axir hammasi ulug' Vatanning ayrimas bo'laklari. Men esa — shu Vatanning bitta o'g'liman... Quvonchim ichimga sig'maydi. Diviziyada o'rgangan ashulalarni dimog' bilan o'zim eshitarlik qilib kuylab qo'yaman. Men bilan hamroh bo'lib Moskva aviatsiya maktabining studenti, bir qozoq bola ham borar edi. U otpuska bilan Qizil O'rda kelgan ekan. Vatanimizning kengligi, kattaligi, oboddigi to'g'risida so'zlab ketdi:

— O'rtoq, — dedi, — siz askarsiz. Agar menga o'xshagan aviatsiyachi bo'lsangiz edi, Vatanimizning qanchalik kattaligini yana yaxshiroq ko'rgan bo'lar edingiz. Axir Tinch okeandan tortib Qora dengizgacha, Shimoliy qutbdan tortib Afg'oniston chegarasigacha — hammasi bizning baxtli Vatanimiz. Bizda nima yo'q deysiz? Hamma narsa bor. Agar aeroplanga tushib, uzoqlarga uchib ketsangiz, Vatanimizning go'zal shaharlari, baxmal bog'lari, yam-yashil o'rmonlari, paxtazor dalalari, Donbassi, Urali, Sibiри — hammasini yaqqol ko'rasiz, ana shunda bilasiz?

Bu student juda ochiq ko'ngilli yigit ekan, u o'z turmushidan, o'qishlarining borishidan va boshqalardan so'zlar edi. Hatto u meni doktor bo'lishdan aynitib, aviatsiya maktabiga kirishga unday boshladi. Men unga javob beraman: "To'g'ri, aviatsiya ham juda qiziqarli ilm, lekin doktor bo'lishga ko'proq havasim bor. Undan tashqari, men doktor bo'lishni o'z komandirimga, besh yuzga yaqin yigitlar oldida va'da bergenman, — deyman va uning yelkasiga qoqib qo'yaman. — Ey o'rtoq, — deyman, — sen bilan men — hali yosh yigitlarmiz, o'ttiz yoshgacha bir emas, ikki fakultetni tamom qilishmi? Agar to'rt yil jiddiy o'qisam, doktor bo'laman. Yana boshqa fakultetda, masalan, aviatsion injenerlikka yana to'rt yil o'qish sen bilan menga qiyin deb o'ylaysanmi?"

U bilan o'tgan to'rt kunlik umr juda quvnoq o'tdi. Bir-birimiz bilan juda eski birodarlarday suhbatlashdik. U menga adres berdi. Men uning adresiga xat yozib, o'zimning adresimni ma'lum qiladigan bo'ldim. Moskvada u bilan ajraldik.

Leningradga yaqinlashgan sari yuragim kaptarbachchaday tipirchilaydi. Yana bir necha quyuq uzun o'rmonlarni kesib o'tgach, Leningrad shahri ham ko'rina boshladi.

Nihoyat, bir talay zoriqishlardan keyin poyezdimiz kelib to'xtadi. Yuklarimni ko'tarib vagondan tushdim. Qo'limdag'i adresga ko'ra harbiy akademiyani qidirib topdim. U yerda meni juda yaxshi qarshi oldilar. Ulug' Vatanimizning turli mamlakatlardan kelgan mening singari imtihonga tayyorlanmoqda bo'lган studentlar bilan tanisha boshladim.

Imtihon kunlari yetib keldi. Ish — haligacha mening qo'rqib yurganimday bo'ldi. Asosiy fanlarning hammasidan "a'lo" va "yaxshi" darajalar bilan imtihon bergan bo'lsam ham ruschadan bo'shligim yaqqol sezilib turar edi. Lekin imtihon komissiyasi tarjimi holimda ko'rsatilgan asosiy faktlarni e'tiborga olib, birinchi yildayoq rus tilini asosan egallashimni shart qilib, harbiy akademiya qoshidagi meditsina fakultetining birinchi kursiga qabul qildi. Quvonchim haddan ziyoda. Mana, darslar ham boshlanib ketdi.

Men dunyoda harbiy akademiyadan olgan birinchi dars soatimday lazzatli, shirin umrni eslay olmayman. Axir, o'rtoqlar, o'zingiz o'ylangiz, bundan ikki yarim yilgina ilgari hamma narsadan bezabar, bog' ko'chalarda yallasini tortib yurgan chapani yigit, bugun harbiy akademianing meditsina fakultetida professorlardan leksiya tinglab o'tiradi!

Darslar kundan-kun og'irlashib, qizib bormoqda. Hattoki, bul-turdan boshlab yoza boshlagan xotira daftaramni ham yozishga vaqtim yetmaydi. Toshkentdan keladigan xat-xabarlarning ham ko'piga javob yozolmayman.

To'g'ri, endi har qanday bo'lmaganda ham sabr, qanoat, jiddiyat, sabot kerak.

Bo'sh qolgan vaqtlarimda ko'proq rus tilini o'rganishga harakat qilaman. Bizning yotoqxonamizdag'i studentlarning ko'pchiligi turli millatlardan bo'lgani uchun ularning ichida ham mening singari ruschaga no'noqlari ko'p. Bir-birimizga yordamlashamiz. Har holda ko'p umrimni rus studentlari bilan suhbatda o'tkazishga urinaman. Umuman aytganda, leksiyalarning hammasini yaxshi tushunib boraman, so'zlashda ham unchalik qiynalmaydigan bo'lib qoldim. Lekin yozuvda imlo xatolarim ko'p.

Yarim yillik imtihonni yaxshi topshirdim. Imtihon so'ngidan keladigan o'n to'rt kunlik qishki kanikul vaqtida haligacha javob

yozilmagan bir necha xatlarga javob yozdim. Bu xatlarning ichida, ayniqsa, meni juda ham taajjubga qo'yadigan — ammamning qizi Saodatning xati edi. Men hayron qolaman. Bu xatni yozishga uni nima majbur qilgan ekan? U bilan meni: bir-birovimizga onalarimiz unashirib qo'yishgan, deb eshitganman, to'g'ri, lekin men Yodgorni ko'tarib kelgandan keyin ammam uni menga bermaydigan bo'lgan edi. Buni ham bilaman. Haligacha Saodat bilan betma-bet uchrashib, har ikkimizning turmushimiz to'g'risida yoinki bir-birovimizga uylanish to'g'risida biror og'iz suhbatimiz bo'lgan emas. Xo'sh, u endi qanday jur'at bilan menga xat yozadi? To'g'ri, u biz unashirilgan vaqtda yosh edi. Men Yodgorni olib kelganda endigina o'n uch yoshga kirgan edi. Hozir u o'n olti yoshga to'lib qoldi. Bo'yi yetib qoldi, deb hisoblash mumkin. Xo'sh, bu xat qanday xat bo'ldi? U meni sevarmikan-a? Men bo'lsam, unga oddiy ko'z bilan, sovuqqonlik bilan qarayman. Hali: "Uni yaxshi ko'rasanmi?" — deb o'z yuragimdan so'rab ham ko'rghanim yo'q.

Saodat shunday yozgan edi:

"Jo'ra aka! Salom.

O'qishingizga muvaffaqiyat tilayman. Imtihondan qanday o't-ganiningiz, darslaringizning borishi, sog'ligingiz to'g'risida bilishga qiziqaman. Sizga bir yangi xabar: o'zingizga ma'lum, men boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin ota-onam o'qishimni davom ettirishimga rozilik bermay, uyga berkitib qo'ygan edilar. Bu yil nima uchundir, yo menga rahmlari keldimi, yo o'rtoqlarimning iltimoslarini qabul qildilarmi, o'qishimga ijozat berdilar.

Pedtexnikumning birinchi kursiga imtihon berib kirdim. Hozir o'qimoqdamani. Darslarim juda qiyin bo'lishiga qaramasdan (o'zimni maqtaganday bo'lmasin), ko'pchilik fanlardan "a'lo" olib o'qimoqdamani.

Tunov kuni sizdan xat-xabar bormikan, bir bilib kelay, deb xolamlarning oldilariga kirgan edim, o'g'lingiz Yodgor do'mboq-qina bo'lib o'ynab yurgan ekan, juda ham sevimli bo'pti-da. Ko'tarib, bag'rimga bosib, ancha o'ynatib yurdim. Agar qimmatli vaqtingizni ayamasangiz, bir enlikkina xat yozsangiz, boshim os-monga yetar edi.

Sizga hurmat bilan: Saodat".

Xo'sh, bu xatga nima deb javob yozish kerak?

Saodatning o'zi yomon qiz emas. O'qishga kirgani yana yaxshi bo'libdi. Bu galcha men uni sinab ko'raman. Rasmini so'rasam-mikan? Yo'q, bu juda ko'p bo'lib ketadi, uni cho'chitib qo'yishim mumkin.

Men undan bitta do'ppi so'rayman. Xat yozdim.

"Saodat!

Mendan ko'pdan-ko'p salom. Sog'man, sog'liqlaringizni tilay-man. O'qishga kirganingni eshitib, juda xursand bo'ldim.

Kelajakda baxtli bo'lmoqni istagan har bir qiz o'qishi kerak. Mendan so'rasang: imtihonni yaxshi topshirdim. Men ham (maq-tanmay) birdan oldin, birdan keyin darsimni olib borayotirman.

Saodat! Bilmadim, vaqtin bo'larmikan, bizning hovliga bor-sang-da, xolangga aytsang, agar mumkin bo'lsa, birorta do'ppi tikib yuborsalar, chunki ba'zan, bayram kunlarida milliy kiyim kiyib yurgan studentlarni ko'rib, havasim keladi. Men ham hech bo'lmasa, ba'zi-ba'zida do'ppi kiyib yurmoqchi bo'laman.

Mendan hammaga salom ayt!

Hurmat bilan: Jo'ra".

Men shundan ortiqcha boshqa xayollarga borishim mumkin emas edi. Chunki birinchi kursdaman. Hozirdan boshlab Saodat va boshqalar to'g'risida o'ylay boshlasam, darsimga xalal yetishi mumkin.

Yana o'qishlar boshlanib ketdi. Yana o'sha jiddiy umr. Erta bi-lan turib, kechki soat birgacha studentlik hayoti.

May oylari keldi. Butun studentlar kechani kunduzga ulab, yil-lik imtihonga tayyorlanmoqdalar. Men ham shunday.

Shunday jiddiy kunlarning birida pochtadan kichkinagina posilka oldim. Ochib qaradim: qavatma-qavat turli ipaklar bilan bog'langan qog'oz. Qog'oz ichini sekin ochib qarasam, bitta yaxshi ipak tagdo'zi do'ppi, uning orasidan bitta kichkinagina shohi ro'molcha chiqdi. Shohi ro'molchaning bir chekkasida turli ipak-lardan nozik, juda ham san'atkorona qilib chiroyli bir kapalak va qizil gul g'unchasining rasmi tushirilgan. Uning orasida xuddi aspirin poroshogi o'ralgan qog'ozday kichkina maktubcha. Xatni ochib o'qidim. Yana Saodat yozar edi:

“Qadrli Jo‘ra aka!

Tuganmas salom. Afv etingiz, xolamdan so‘rab yuborgan nar-sangizni o‘z vaqtida yubora olmadim. Sizdan jindek xafa ham bo‘ldim. Lekin bilib qo‘yingki, do‘ppini tikish degan so‘z u — yoshlarning ishi. Bechora xolam qarigan chog‘ida hamma ish qolib, sizga do‘ppi tikib yursalar uyat bo‘lar dedim-da, o‘zim tika boshladim. Ma’lumingizki, men ham studentman.

O‘qishlar juda qizg‘in borayotganligidan tezroq tikib bitirishga vaqt topolmadim. Otpuskalar ham yaqinlashib qoldi. Tunov kun xolamlarning oldilariga yana borib, “Men Jo‘ra akamlarga xat yozmoqchiman, gap-mapingiz bormi, qo‘sib yuboray”, dedim. Xolam juda sevindilar. Ayniqsa Yodgoringiz juda sog‘ingan ko‘ri-nadi. “Dadang otpuska vaqtida keladilar”, — deb uni yupatgan bo‘ldim.

Aytgandek, siz uchun yana bitta yangilik: yaqinda men yoshlар uyushmasiga qabul qilindim.

Sizga hammadan salom.

Xatingizni kutib: Saodat”.

Masala menga bir qadar ravshan. Ayniqsa, shohi ro‘molchaning bir chekkasiga tikilgan g‘uncha bilan kapalakning surati meni allaqanday xayollarga olib boradi. Allanarsalardan xabar bergandy bo‘ladi.

Ajabo, chindan ham Saodat meni sevadimi? Men-chi?

Yo‘q, hali buni o‘zimda his qilib ko‘ra olganim yo‘q. Yaxshisi, bunday xayollarni unutish kerak. Lekin qiz bolaning ko‘nglini cho‘ktirmaslik ham lozim. Qanday bo‘lsa ham bir javob yozmoqchi bo‘ldim. Uning do‘ppisiga qarshi men ham biror narsa sovg‘a qilib yuborishim mumkin. Unda yana uni allanarsalardan ishorat bergandy qilib bog‘lab qo‘ymasmiikanman? Yuborganda ham nima yuborish kerak? Yaxshisi, hech nima yubormayman. Yaxshilab bitta xat yozaman. Shuning o‘zi bas.

Xat yozdim. Xat o‘tgan galdag‘i singari oddiy. Bir akaning singilga yozadigan xati edi. Do‘ppi uchun rahmat aytdim. Bu yil otpuska vaqtida bora olmasligimni bildirdim. O‘zim ham qarindosh-urug‘larni, ayniqsa, Yodgorni sog‘inganligimni aytdim. So‘z oxirida tez-tez xat yozib turishini iltimos qildim.

Imtihon kunlari yetib keldi. Ruscham bir qadar tuzalib qolgan. Lekin bu yerda ikkinchi dard chiqib qoldi. Men hozir buni yashirmsadan aytaveraman. Anatomiyan dan qanoatlanarlik imtihon berolmadim. Shuning uchun otpuska vaqtida Toshkentga borishni yig'ishtirib qo'yib, akademianing dachasiga chiqib, o'rtoqlar yordami bilan tayyorlana boshladim.

Lekin chinini aytish kerak. Yodgorni juda-juda sog'inar edim. Hech kutmaganda iyun oxirida akamdan yuz so'm pul perevod kelib qoldi. Perevod bilan kelgan xatida, akam go'yo mendan uzr so'ragan bo'libdi. "Kechirasani, — debdi, — bola-chaqam ko'p, ko'proq yubora olmadim. Har holda, student hayoti, birorta kerak-yarog'ingga yarab qolar, oz bo'lsa ham ko'pning o'rnida ko'rasan", debdi. Ham xatida: "Ammalaring ham shaxtidan tushgan, "begonaga beradigan qizimiz yo'q: "Saodat Jo'raniki", deydigan bo'lib qolishdi. Bu tomondan ham tinchanishing mumkin", debdi. Xullasi kalom, oilaviy gaplar...

Demak, Saodatning do'ppisi, ro'molchasi va ro'moldagi g'uncha bilan kapalak surati — hammasi ham bekorchi narsalar emas. Masala menga oydinlashdi. Yaxshi ham bu otpuskaga bormaganim. Nima qilganda hamki — yigitchilik, yoshlik, biror sabab bilan bog'lanib qolishim mumkin. Yo'q, har qancha og'ir bo'lsa ham, garchand Saodat meni yaxshi ko'rib, men uni yaxshi ko'rsam ham, chidayman? O'qishni tugatgunimcha chidayman.

Dachada vaqtida bo'sh chiqqan darsim birgina anatomiya bo'lgani uchun anchagina bo'sh vaqtlarim bo'lar edi. Shunda shaharga tushib aylanib, tomosha qilib yuraman. Akamdan kelgan yuz so'm menga tamom ortiqcha bo'lganligidan unga Yodgorga atab kiyimboshlar oldim. Bu kiyim-boshlarni yangi oldirgan katta suratim bilan qo'shib hovliga yubordim.

Yodgorga yuborgan posilkam ham rasmimidan keyin oradan bir oylar o'tgach, Saodatdan xat oldim. Saodat bu safar nima desam ekan-a, yurak yutib yuborgan bo'lsa kerak, xati kinoyalar bilan to'lib yotar edi. U yozar edi:

"Sevimli Jo'ra aka!

Yodgorga atab yuborgan rasmigizni xolam uyda chetlariga gullar taqib devorga osib qo'yibdilar. Yodgor har kun "dadam"

deb talpinganda, ko'rsatar ekanlar. Bir nafas termilib o'tirgandan keyin sog'ingani qonib, yana olib qo'yar ekanlar. Men borib: "Qani, Yodgor, dadangning suratini men ham ko'ray", desam, shiringina tilchasi bilan: "Qo'yib qo'ying, tegmang, bu — mening dadam", deb meni biylatmadи. "Axir, bu sening dadang bo'lsa, mening Jo'ra akamlar-ku", desam, "Ha, mayling", deb qo'limga berdi. Shunda sizning suratingizga qarab turib o'yladim. Bu suratni olgan suratkash bir nusxa olgan ekan-da, tanish-bilishlariga ham berar, deb bir-ikkita olmagan ekan-da, bizga ham yuborsangiz, o'zingizdan ham yaxshiroq qilib saqlar edik. Arzimabmiz-da. Mana, siz yubormasangiz men yuboray, dedim-da, Yodgor bilan birga oldirgan rasmimni yubordim. Suratkashdan xafa bo'lman. "Qozonda bori cho'michga chiqadi", deganday borini olibdi. Darvoqe, do'ppi boshingizga loyiқ keldimi?

Jo'ra aka! Agar sizga malol kelmasa, bitta movut beretka olib yuborsangiz, chunki Toshkent qizlarining hammasiga beretka ki-yish rasm bo'lib ketgan. Sizga tunganmas salom bilan, sizni sog'i-nib: Saodat.

Aytganday, sizga rasm yuborganimni Toshkentdagilar bila ko'rmasinlar".

Xat, ayniqsa, rasm yuragimga o't yoqdi. Ajabo, shu o'zimizning Saodatmi? Qizi tushmagur ancha yetilib qopti-ya! Rasmning yarim diydon ekanligiga endi ishondim. Saodatning qora ko'zları meni ishq musobaqasiga chaqirganday, yarim tabassumda turgan lablari menga allanimalar deganday bo'lar edi. Bo'liq, toza oq yuzlariga to'zg'ib tushgan parishon sochlari mening yuragimni o'z zanjirlariga bog'lab olmoq uchun tayyor turganday sezildi.

Ishon, Saodat, ishon! Men seni sevaman, shu qora jingalak kipriklaringga butun hayotimda yosh ilintirmayman.

Qiz o'z latofati bilan meni ishqqa chaqirar edi. U g'olib keldi.

Menda Saodatga chin muhabbat boshlandi. Biroq o'qish mavsumlari borgan sari yaqinlashmoqda bo'lgani uchun muhabbat mojarolari bilan bog'lanib qolish dars uchun ancha xavfli bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun Saodatga bu mavsumning so'nggi xatini yozmoqchi bo'ldim. Ham birdan-bir iltimosi bo'lgan beretkani qo'shib yubormoqchi bo'ldim. Shahar borib so'nggi mo-

dadagi bir beretkani oldim. Unga o'z ishqimdan xiylagina ochiq ishoratlar, ishonchlar beradigan bir xat yozdim. Xat ichida rasm bilan, o'qish yaqinlashib qolganidan juda vaqtim ozligini, bu xatdan so'ng yaqin orada xat yoza olmasligimi bildirdim. Bir chekkasi sinoq, bir chekkasi chindan Yodgordan ham, kampirdan ham xabar olib turishini iltimos qildim. Shu bilan bizning yangi boshlangan "roman" imizning birinchi bobo o'qilib bo'ldi. Kelajak baxtli bobiga — kelgusi yiining otpuska muddatigacha "kanikul" berildi.

Otpuska vaqtida borolmaganim uchun kampir bir oz ranjigan bo'libdi. O'g'lim ham bir oz betoblanib olgan emish. Qumri to'qimachilik kombinatining FZUsiga o'qishga kiribdi. Uni yotoq ham stipendiya bilan ta'minlabdilar. Abdug'ani bo'lsa, hali boshlang'ich maktabni tugatmagani uchun kampirning yonida ekan. Akamdan kelgan bir xatda: "Kampir, Abdug'ani va Yodgorlardan xavotir olmasang ham bo'ladi. Ularning maishatidan o'zim xabar olib turibman. Bu tarafdan qiyinchilik yo'q", deyilgan edi. Demak, men juda tinch, hech qanday ortiq tashvishni xayolga olmasdan o'qishim mumkin. Bu shunday ham bo'ldi. Fakultetning ikkinchi kursida ham men a'luchi bo'lib o'qidim. Rus tilida ko'rilgan bulturgi bo'shligim bu yil sezilmadi. Anatomiyanı ham yetkazib oldim. Shuning uchun ham ikkinchi yillik imtihonda ko'pchilik fanlardan "a'lo", "yaxshi" imtihon berib, otpuskani Toshkentda o'tkazmoqchi bo'ldim.

Yil bo'yi turmushimda esdalik daftariga yoziladigan katta hodisalar yuz bermadi. Shuning uchun ham ish bilan, o'qish bilan o'tgan umr mayda to'lqinlar bilan oqqan tekis irmoqday o'tib ketdi.

Men otpuska vaqtida Toshkentga borishim to'g'risida uy ichilarga yozgan bo'lsam ham, qay kuni, qay vaqtida borishim to'g'risida ochiq yozmagan edim. Chunki xat yoki telegramma bilan xabar bersam, hoynahoy, Saodat kutib olishga chiqadi. U bilan birinchi marta qarindosh-urug'larning oldida uchrashuv menga juda noqulay tuyular edi. To'g'risi, o'ng'aysizlanar edim. Shuning uchun ham stipendiyadan orttirib yurgan pullarimga kampirga, Qumri, Abdug'anilarga, Yodgorga, shular qatori Saodatga ham

arzimagan mayda-chuyda sovg'a-salom qilgan bo'ldim-da, iyul o'rtalarida Toshkentga qarab jo'nadim.

Hech kutilmaganda erta bilan choyning ustiga kirib borishim kampir bechorani juda dovdiratib qo'ydi. Sho'rlik ayvondan yo'lakka qarab quchog'ini ochib, hovliqib yugurib kelib, bo'ynimdan quchoqlab oldi. Sevinganidan yig'lab ko'risha boshladi. Yuz-ko'zimni o'par edi. Allanimalar demoqchi bo'lar edi. Lekin tili galdiraklab, aytmoqchi bo'lgan gapini aytolmas edi. Shuncha qariligiga qaramasdan, chamadonlarimni o'zi ko'tarib, ayvonga olib bormoqchi bo'lar edi. Men unga ijozat bermasdan, o'zim olib borib qo'ydim. Hol-ahvol so'rashdik. Ko'zim atrofga jovidir-jovidir qilar edi. Yodgor ko'rinas edi:

— Xo'sh, Yodgor qani, oyi?

— Voy, darvoqe, hozir olib chiqaman bolaginangni. Uning katta yigitcha bo'lib, bog'chaga qatnaydigan bo'lib qolgan. Ertabilan, azonlab o'rnidan turadi, iloji bo'lsa choyni ham ichmasdan bog'chaga qarab chopadi. "Hoy, ko'chada bir nima bosib ketmasin, adashib qolmagin", deb ketidan javrab qolaman. Orqasidan qidirib, kalovlab yuraman. Shuning uchun har kuni erta bilan Abdug'ani mактабга ketishida o'zi qo'yib ketadi. Qaytishda yana o'zi olib keladi.

— Qo'ying, kampir, o'zim olib kelaman, — deganimga ham qulq solmasdan, kampir chiqib ketdi. Oradan o'n minutlar o'tganda Yodgorni qo'lidan yetaklab kirib keldi. Egnida bog'cha bergen ko'k xalat. Qo'Itig'ida o'yinchoq avtobuscha, ishonarishtanmas g'ildiratib kelar edi. Ayvonda meni ko'rishi bilan hech tortinmasdan o'yinchoqni yerga tashlab, chopqillab kelib "dada!" deb quchog'imga otildi. Bag'rimga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pdim. Shunday mahmadona, sersavol bo'libdiki, har narsa uni qiziqtiradi. Bir nafasning ichida mening kelganimni, sog'inganligini ham unutib yubordi-da, savol yomg'irlarini yog'dira boshladi:

— Dada, bu yimadi?

— Tugma, o'g'lim, tugma.

— Yaga yulduzi bor?

— Harbiylarning tugmasi shunaqa bo'ladi.

— Harbiy yima bo'ladi, dada?

- Harbiy qo'shinni bilasanmi, o'g'lim?
- Bizzayam bog'chada Harbiy qo'shin o'ynaymiz.
- Ha, ana shuni bilsang, Harbiy qo'shin shunaqa tugma ta-qadi.

Darrov berib turgan savol esidan chiqdi-da, boshqa savollarga tushib ketdi:

- Qachon keldingiz?
- Hozir keldim, o'g'lim.
- Yimada keldingiz?
- Poyezdda, poyezdni bilasanmi?
- Sharippi dadasi aeroplanda keladi-yu?

Kampir Yodgorni urishadi:

- Judayam ezmachuruk bo'libsan-da. Bir nafas men ham ga-pirishib olay.

Kampirning gapiga qulooq solmaydi.

- Dada-chi, dada, men ashula aytishni bilaman.
- Qani, aytib ko'r-chi?

U darrov tizzamdan tushib, o'midan turdi-da, ashulasini boshlab ketdi...

- Ana, bilamiz, biz.
- Ha, yasha o'g'lim, oppoq o'g'lim, mulla bo'lib qolib-san-ku!

- Endi ketib qolmaysizmi?
- Yo'q, endi ketmayman.
- Xayr bo'lmasa, men bog'chamga ketdim.

Orqasidan buvisi javrab qoldi:

- Ko'zingga qarab, chetdan yur. Haftovuz kelayotgan bo'lsa, chetga chiqib turgin, tag'in bosib ketmasin, bolam!

Kampir bilan o'tgan-ketganlarni gapirishib o'tira boshladik... Gap orasida kampir:

- Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, "xola-xola", deb holimdan xabar olib turadi. Nima uchundir, uch kundan beri kelmadi. "Tiq" etsa eshikka qarab o'tirgan edim. Baraka topkurning qo'li gulgina. Bir nafasning ichida xamma ishlarni saranjom qilib berib ketadi. Anavi kuni kelib: "Xola, kiringizni yuvib beraymi?" — dedi. "Voy, xolaginang o'rgilsin, omon bo'lsang,

bir kun yuvarsan” dedim-da, unamadim. Hammadan ham Yodgor-ga mehribonligini aytgin, nax ustida parvona bo’lib o’lib bo’ladi. Yodgor ham unga juda el bo’lib qolgan. Ikki kun kelmasa, “Opam kelmadi”, deb maktabdan qaytishini poylab o’tiradi.

Mening kelayotganimni bir necha kishilar ko’rgan edi. Ular bilan so’rashib o’tgan edim. Undan tashqari, bir nafas ichida ma-halla-ko’y, guzarning hammasiga ovoza bo’lib, bir soat o’tmasdan uyga qarindosh-urug’lar to’lib ketdi. Hali unisi bilan ko’rishish, hali bunisi bilan ko’rishish, rostini aytsam, o’zim ham oiladan xiyla uzoqlashib ketgan ekanman. Bu takalluflardan juda o’ng’ay-sizlanardim. Nima uchundir ko’zim eshikda: shu kelgan qarin-dosh-urug’larning ichida allakimni qidirganday bo’laman. Men kutgan birov yo’q. Keling, shuni yashirib o’tiramanmi: Saodatga muntazirman... Bir chekkasi hozir kelmaganiga xursand bo’lib qo’yaman.

Nimaga desangiz, shuncha el-urug’larning orasida u bilan qay xildagina ko’rishish mumkin? Kichkina tabassum, ikki minutli ko’z urishtirib olish, qisqagina eson-sog’liq so’rashish, vassalom...

O’sha kuni kechgacha umrim kelgan-ketganlarni kuzatish bilan o’tdi. Abdug’ani ham kattagina dastyor bo’lib qolibdi.

U bu yil beshinchi sinfda o’qir ekan. Uni kelgan mehmonlar dan, kampirdan xoli qilib gapga soldim:

— Saodat opalaringnikiga mening kelganimni xabar qil dingmi?

— Boya siz mehmonlar bilan ovora bo’lib turganingizda oyim qo’yarda-qo’ymay yuborgan edilar. Borib, aytib kelganman.

— Saodat opang uyda bor ekanmi?

— Yo’q, maktabda ekan. Ammamga aytib keldim.

— Pochchang-chi?

— Pochcham uyda ekanlar.

Abdug’ani bilan suhbatimiz tugamagan ham ediki, eshikdan savat ko’tarib, terlab-pishib ammamning o’zi ham kirib keldi. Eshikdanoq javrab kelar edi:

— Voy ammaginang bo’yingga qoqindiq bo’lsin!

Ammam men biłan juda issiq, bag’rilariga bosib ko’rishdi. Peshonalarimdan o’pdi. Meni o’rtaga olishib, u yoqdan-bu yoqdan,

ko'rgan-kechirganlarimdan gapga solishdi. Men o'zimga juda ham ulug' vorlik berib, so'ralgan savollarga kalta-kalta qilib, salobatli javob bermoqdamen. Lekin gap orasida Saodatdan so'z ochilishini kutaman. Hech bo'lmasa, nomini eshitish bilan tasalli topmoq-chi bo'laman. Xizmat vaqtini tamomlab, akam ham yetib keldi. U bilan suhbatlashib o'tirganimizda eshikdan yigitlar chaqirishib qolishdi. Uydagilar bilan suhbatni yig'ishtirib, o'rtoqlar oldiga chiqishga majbur bo'ldim. Yoshlikdan birga o'sgan Obid, Mansur, Yo'ldosh va mahallaning boshqa yosh-yalanglari edi. Ular bilan ko'rishib ketdik. Obid uyiga taklif qilib, olib ketdi. O'tgan-ket-ganlardan suhbatlashib o'tirdik. So'z orasida Obid menga tegajlik qilib Saodatdan gap ochib qaradi. Bizning Saodat bilan bo'Igan, hali barg yozmagan — kurtak holidagina bo'Igan bu muhabbatimiz darrov bunchalik el og'ziga tushib ketganiga hayron bo'ldim. Hoynahoy bu "xolis xizmat" kaminaning kampiri yoki ammamning ichida gap yotmaydigan "devonayi rostgo'y" ligidan bo'lsa kerak. Undan tashqari, Obid xotin-qizlar texnikumining direktori bo'Igani uchun Saodat to'g'risida ancha ma'lumotlarni olish mumkin edi. Suhbatimiz yarim kechagacha davom qildi. Ular bilan xayrashib, hovliga kirib yotdim. Charchaganim uchun ikki yildan buyon unutib yuborganim ona quchog'iday issiq oila o'mida cho'zilib qattiq uyquga ketdim.

Saodat ertalab ham kelmadi. Mening yuragim juda bezovta bo'lib, hatto undan shubhaga ham tusha boshladim. Bir vaqtda — siyrak xatlashib turaylik, degan mazmunda imo-ishora bilan yozgan xatimdan xafa bo'limganmikan, deb o'ylardim. Kelib qolsa, gina ham qilmoqchi bo'ldim.

Tag'in o'zimni yupatib, balki keldi-ketdilarning oyog'i tovsi-lishini kutar, balki onasi bu yerda bo'Igani uchun meni kelib ko'rishga iymanar, deb o'ylar edim.

Ertangi choydan keyin ammam ketdi. Ortiq bitta-yarimta kelmaydigan bo'Igandan, birrov shaharni aylanib kelmoqchi bo'ldim. Lekin yuragim, "ana Saodat kelmadi, mana Saodat kelmadi", deb talpinar edi.

Toshkent juda o'zgarib ketibdi. Men ko'rmagan yangi binolar, yangi ko'chalar, hatto, odamlarning muomalalari ham ancha

o'zgarib qolibdi. Aylanib tonosha qilib yurib soat ikki-uch bo'lib qolganini ham bilmay qolibman. Tezroq hovliga qaytish kerak edi. O'n-o'n beshta bodring, ikkita handalak ko'tarib hovliga qaytib keldim. Kampirning qilib qo'ygan sho'rvasini ichib, yangi gazeta-larni o'qib o'tirdim. Ko'zim gazetada, ammo ko'nglim Saodatda: "tiq" etsa eshikka qarayman. Soat besh-oltilarda uzoq muddat yurak urishlari bilan kutilgan "mehmon" ham kirib keldi. U men haligacha xayolimda suratini chizib yurgan, ko'kragi burma atlas ko'ylakli Saodat emas. Qo'lida kichkina amirkon portfelcha, egnida klyosh qilib tikilgan krepdeshin ko'ylak, boshida men yuborgan beretka, sochlari turmaklangan, o'rtta darajadagi yevropalik bir qiz edi. U eshikdan kirib kelishda pastki labini tishlab, juda uyalgansimon kelar edi.

Yuzlari bo'rtib ketgan, issiq kunda uzoq yo'l yurbanidanmi, yo uyalganidanmi, lablari, burun uchlari, manglayi mayda ter bilan qoplangan. U ter artish bahonasi bilan ko'zini yashirmoqchi bo'lar edi. Darrov o'rnimdan turdim. Ko'kragimni harbiylarcha maxsus savlat bilan oldinga chiqarib, uning istiqboliga chiqdim. Mahkam qo'lini siqib, ko'zda yashiringan tabassum bilan salomlashdim. U juda uyalib ketgan edi.

Shu paytda, qaldirg'ochday "pir" etib uchib ketishga tayyorday ko'rinar edi. Menden qo'lini bo'shatib, kampir bilan so'rashdi. Kampir darrov o'tqazib, yangi dasturxon qilgan bo'ldi. Biz ikkov bir-birimizga ro'baro' xontaxta oldida o'tirdik. Kampir non ushatib, choy quymoqchi bo'lgan edi, Saodat o'rnidan yarim qo'zg'alib:

— Ovora bo'l mang, xola, choyni men quya qolay, — dedi. Kampir mehribonlik bilan:

— Qo'yaver, xolang aylansin, o'zim quyib beraman. Sen hozir mehmongan, bolam! Omon bo'lsang, hali quyarsan, — dedi.

Kampirning bu soddagina gapidan orada ivir-shivir bir sir o't-ganday bo'ldi. Saodat yer ostidan qiya qilib menga qarab qo'ydi. Men ham xuddi shunday qilib qaradim. Har ikkovimizning ko'z qarashimiz yarim sekund ichi dasturxonagi novvot ustida to'qnashib oldi. Bilinar-bilinmas iljayishib qo'ydik. Saodat yerga qaradi.

Saodat yetilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan. Har bir kichik imo-ishoratdan muhabbatga taalluqli ma'nolar anglaydigan yetukkina qiz bo'lib qolibdi. Uyda ko'zimga hamma narsa kulib qaraganday ko'rindi. Hatto hovli sahnlarini bo'ydoq qizlarning bosh qo'ygan yostig'ining hidi qoplab ketganday tuyuladi. Saodat kichkina qandni qo'liga ushlab, patnis chetiga sekin-sekin urib, yerga qarab o'tirardi. Bu hol mening ham tilimni bog'lab qo'yganday. Oxiri bu qisqa muddatli jimpitlikni kampir buzdi:

— Sizlar bir nafas gaplashib o'tiringlar, bolalarim. Men oshxonadan xabar olay.

Saodat:

— Qo'ying, xola, hech narsaning keragi yo'q. Ovora bo'l-mang, men hozir ketaman, — desa, kampir:

— Nega ketar ekansan? Jo'ra akang bilan bir nafas gaplashib o'tir, nima, men senga qo'y so'yarmidim? Har kungi o'zimizning qiladigan obi yovg'onimiz-da, xolang o'rgilsin, — dedi.

— Shundoq-ku, — dedi Saodat, — sizning oshxona ishlariiga kuymalashib yurganingizni ko'rsam juda achinaman, xola.

Gapga men aralashdim:

— Oyi, bo'lmasa, siz mayda-chuydangizni tayyorlang, men o'zim ham ancha vaqtidan buyon osh qilganim yo'q. Oshni o'zim qilib beray.

— Qo'ying, — dedi Saodat, — shu kiyim-boshingiz bilan qozon-tovoqqa urinmay qo'ya qoling, ha, men-chi?

— Sen kuydirib yuborasan.

— Kuydirsam ham sizcha kuydirmayman.

Yana bir-birimizga qarashib oldik. Kampirning oshi gap boshlanishiga bahona bo'ldi. Kampir oshni vaj qilib, bizni yolg'iz qoldirib, oshxonaga ketdi. Uzilib qolgan gapni qaytadan boshlash uchun so'z qidirar edim:

— Ta'til vaqtida nima qilib portfel ko'tarib yuribsani. Abdug'anini yuborsam, "maktabda", deyishibdi. Sizlarda o'qish tamom bo'lgani yo'qmi hali?

— O'qish-ku tamom bo'lgan. Meni qo'yarda-qo'ymay xotin-qizlar klubida tashkilotchi qilib qo'yishdi. Umrimda shunaqa ishlarni qilganim yo'q edi. Bu, xotin-qizlarning boshini bir joyga

qovushtirish ham juda qiyin ekan. Ertadan-kechgacha shular bilan kuymanaman.

— O'h-ho', juda aktivistka bo'lib ketibsan-ku! Men bo'lsam, ikki boshni bir yerga qovishtirolmay hayronman.

Saodat yana kinoya bilan qarab qo'ydi.

— Har bir gapni boshqa yoqqa buraverar ekansiz-da. Lenigradliklar muomalaga usta bo'ladi, deb eshitar edik. Sizni ham ancha o'rgatib qo'yishibdi.

Javob o'tniga men cho'ntagimdan Saodatning o'zi tikib yuborgan shohi ro'molchani olib, ko'zimni artmoqchi bo'ldim, bu bilan go'yo, "hali ham yonimda saqlab yuribman", degan ishoratni bildirmoqchi edim. Saodat ro'molchani tanisa ham, o'zini bilmaslikka soldi. Shu paytda ko'chada o'ynab yurgan Yodgor aravasini yetaklab, alpon-talpon eshikdan kirib kelib qoldi. Men bu yoqda qolib, to'g'ri borib Saodatning quchog'iga otildi. Bola g'oyat sevingan edi:

— Opa, qachon keldingiz? Nega ertaga kelmadingiz? (Kecha demoqchi).

Saodat ham Yodgorni bag'riga bosib erkalar edi. Men bularning har ikkovining qiliqlarini tomosha qilib turib, kelajak to'g'risidagi anchagina xayollarga botib ketdim: "Bolaga shu muhabbat chindanni, biz uylangandan keyin ham shu muhabbatida davom qilarmikan? Qachon bo'lsa ham Yodgorning tarixi ochilganda, Saodat bunga qanday qarar ekan, nima deyar ekan?" Ham o'sha bir vaqtligi hikoyalarni ustidagina bo'lsa ham o'ylab chiqdim. Yodgorning bevafo onasi bilan Saodatni bir-birovlariga husnda taqqoslab ko'rmoqchi bo'ldim. Saodat u bevafo xotindan anchagina o'tkir, aql jihatidan ham undan yuqorilik qiladi. Tasodifni qarang-a, bir xotinning tashlandiq bolasi bir go'zal qizning mehribon og'ushida...

Mening yuzimda ozgina bo'lsa ham bu xomush xayolkashlikni ko'rgan Saodat birdaniga o'zining mehribonligini tunddikka aylantirdi. Kinoyali ohang bilan:

— Jo'ra aka, — dedi, — juda xayol surib ketdingiz... Olam degan shunaqa bo'lar ekan, hech istamagan vaqtda kishini bir-birovidan ajratadi, xafa bo'lmanq.

Men seskanib tushdim, hamma xayolni bir chekkaga yig'ishti-rib qo'yib, jindak iljaydim. So'zni boshqa yoqqa burmoqchi bo'l-dim. Uning ko'zlariga zavq bilan termildim-da:

— Saodat, muncha ham yaxshisan! — dedim.

Saodat bir cho'chib tushganday bo'lди.

— Muncha, juda ham maqtagingiz kelib qoldi? — men qolib Yodgorga xitob bilan: — Yodgor, dadangning so'zlarini eshityapsanmi? — dedi.

Yodgor bahonasida ancha gap aylantirish mumkin edi. Lekin oshxonada kuymanib yurgan kampir, hatto Yodgorni ham bizga xalaqit bermasin dedimi:

— Yodgor, hoy Yodgor, o'g'lim, bu yoqqa qara, mana senga jo'xori kavob qiliyapman, — deb aldab chaqirib oldi.

Suhbatimiz boyagiga qaraganda ancha ochilib qolgan. Boshqa taraflardan asta-sekin so'z ochish mumkin bo'lar darajaga yetib qolgan edi:

— Saodat, — dedim, — bugun kechqurun bo'shmisan?

— Nima qilar edingiz?

— Toshkentning parklarini tomosha qilar edik.

— Siz bilan-a, qiziq bo'pti-da?

— Ha, nima, uyalasanmi, kap-katta qiz-a?

— Dadamning tabiatlarini o'zingiz bilasiz-ku, ko'rib qolgun-day bo'lsalar, ko'ring hangamani!

— Sen qiziq ekansan, bugun bo'Imasa, baribir keyin yuramiz-da...

Saodat "yalt" etib menga qaradi-da, erkalanibroq:

— Rostdan-a, sizga buni kim aytdi? — dedi.

— Ko'zing aytib turibdi.

— Ayniy-ayniy deyapsiz-a, Jo'ra aka. Xolamga aytaymi?

— Xolang nima qilar edi, qaytaga xursand bo'ladi, kel, gapni chetga burma, kechqurun bo'shmisan?

— Ha, bo'shman, qo'ying, tag'in gap-so'z bo'lib yurmaylik, uyalaman.

Aldab-suldab, uning noz-firoqlariga qulq solmasdan ko'n-dirdim. Demak, uchrashuvning birinchi bobি, Leningradda boshlangan "roman"ning ikkinchi qismi ham muvaffaqiyatli chiqdi.

Kampir oshni suzib keldi. Birgalashib o'tirib yeya boshladik. Kampir so'z orasida o'zini soddalikka solib, gap aylantirmoqchi bo'lar edi:

— Jo'ravoy, bolaginam, kampirlarning qilgan oshi senga yoqadimi, bizlar shunaqa o'zimizga o'xshagan lanj, bo'sh qilib qo'yamiz. Saodat qilganda edi, tasmadakkina qilib pishirar edi.

— Yo'q, xola, — dedi Saodat, — men munaqa shirin qilib pishirolmayman: sabzi-piyozni xo'p yaxshi qovuraman-u, lekin tuzini bilolmayman.

So'z navbatni menga kelib qoldi:

— Oshni o'zim qoyil qilaman-da, lekin, shunda ham o'tni birov yoqib berib tursa.

— Oh, bolam, — dedi kampir, — to'rt yildan beri masalluqli tayyor oshni pishira olmaysan-ku?..

Bu gapdan Saodat uyalib yerga qaradi: men ichimda: "Obbo kampir tushgur, eski zukkolikdan bittasini ishlatding-a", deb qo'ydim. Yana kampirning o'zi gapni boshqa yoqqa burmoq uchun besh panjasini og'zi-burni aralash surkab o'tirgan Yodgorni koyib ketdi:

— Aylanay bolam, to'kmasdan yegin. Qo'lingni mana bunday qilib chimchib olgin!

Kampirning pichingi bilinar-bilinmas o'tib ketdi.

Oshdan so'ng kampir laganni ko'tarib oshxonaga ketdi. Saodat o'rnidan qo'zg'alib ketmoqchi bo'ldi. Kechqurun parkka borish to'g'risida qat'iy va'dasini oldim. Hovlidan birga chiqib ketish unga ham, menga ham bir oz o'ng'aysiz edi. Shuning uchun tramvay bekatida uchrashmoqchi bo'lqidik.

* * *

Saodat bilan ko'pincha birga yuramiz. Hatto bir oyning ichida ikki-uch marta birga parkka boruvimiz hamma uchun ham masalaning ochilib qolishiga sabab bo'lgan edi. Saodatning o'rtoqlari bir-ikki marta unga tegajaklik qilib ko'rgan bo'lsalar ham, bu ish ularning oldida ham oddiy sanalib, hech kim bu to'g'rida gapirmaydigan bo'lib qolgan edi. Bizning ko'pincha birga yuruvimiz Saodatning otasiga ham eshitilibdi. U akam bilan uchrashib: "Endi bo'lar ishning bo'lgani yaxshi, qiz bolaning tuprog'i juda yengil

bo'ladi. Jo'ravoy bu yil o'qishdan qola qolib, to'yni qilib ketgani ma'qul bo'lar edi. "To'y qachon?" deb so'rayverganlaridan juda zerikdim", degan emish. Akam "Ha, xo'p, gaplashib ko'rарman", deb javob beribdi. Men o'qishim tamom bo'limguncha to'yni qilmasligimni bir talay uzrlar bilan aytib, tushuntirib qo'yishni so'radim.

Bir kun Saodat menga kelib:

— Jo'ra aka, dadam sizga salom aytib yubordilar. Dam olish kuni kechqurun bir-ikkita o'rtoqlaringiz bilan biznikiga borar emishsiz, mendan boshqa dastyorlari bo'limgani uchun men sho'rlik xabar qilib yuribman, — dedi.

— Ha-ha, — deb kuldim, — to'ydan ilgari charlarni yer ekanmiz-da.

— Hech hazilkashligingizni qo'ymadingiz-da, sizga bir gapni aytish-u ochish.

Va'da qilingan kuni texnikum mudiri Obid o'rtog'imni olib bordim. Quyuq-suyuq ziyofat juda yaxshi bo'ldi. Lekin Saodat oshxonadan chiqmas edi. Pochcham, ya'ni Saodatning dadasi o'zi xizmat qilib turar edi. Pochcham, bu gal juda ham yechilib ketib, ammamni chaqirib qoldi:

— Saodat! Saodat! Bu yoqqa qara, mulla Obiddan qochmay qo'ya qol. Qizimizning domlasidan ham qochasanmi? Saodatingni ham chaqir, o'zining kunda ko'rib yurgan domlesi-da! Uyda senlar turib, men xizmat qilib yuraymi! Jo'ravoy bo'lsa — o'zimizniki.

Obid hazillashib qo'ydi:

— Umar aka, bunday, kampir bilan birga bog'larga tomoshaga ham tushmaysiz!

Kulishdik.

— Ey, uka, — dedi pochcham, — endi bizlarning vaqtimiz o'tib qoldi. Mana sizlar yursangiz yarashadi.

Dadasining bu himmati Saodatning kutganiday bo'lsa kerak, shu gapdan keyin ba'zi narsalarni dahlizga olib kelib, yarim ko'rinishlar bilan xizmat qilib turdi. Men bo'lsam, mumkin qadar eshik tomonga qaramaslikka harakat qilar edim. Sipohgarchilikni qo'lidan bermas edim. Anchagina u yoq-bu yoqdan so'zlashib o'tirdik.

Ketar oldimizda Leningradga yuborilgan tagdo'zi do'ppining ikkinchi nusxasi ammam tomonidan menga kiygizilib yuborilgan edi.

* * *

Shunday shirin turmush juda tez o'tib bormoqda. Yaqinda Leningradga qaytib ketaman. Saodat bilan birga o'tkazilgan soat-larning qanday tez o'tib ketganligini bilmayman. Mening ketishga tayyorlana boshlaganligimni ko'rgan Saodat:

— Ketmang yo meni ham ola keting, — dedi.

Ketadigan kunlarim juda ham aniqlanib qoldi. Avgustning o'n beshlarida yo'lga tushaman. Shuning uchun ertaga Saodat bilan so'nggi marta bog'ni tomosha qilmoqchimiz. Ham o'sha yerda men uning chinakam va'dasini olmoqchi bo'laman. Abdug'anidan Saodatga chumchuq tiliday xat yuborib, "Xo'p", degan javobni oldim. Ertasiga kech bilan bizning hovliga keldi. Kampir ozgina ovqat qilib qo'ygan edi. Bizning o'zimizga ayrim suzib berdi. Ovqatdan keyin sekin-asta Saodatning yoniga o'tdim. Qo'lini kaftlarim orasiga olib siqdim, ko'zlariga termildim-da:

— Jonim Saodat, — dedim, — bugun-erta men Leningradga qaytib ketaman. Sen ham o'qishingga kirasan, shuning uchun seni chaqirtirgan edim. Sen bilan bizning turmushimiz to'g'risida ochiq fikringni eshitmoqchiman.

— Qanaqa turmush? Nima demoqchi bo'lasiz?

— Ke qo'y, o'zingni soddalikka solma, biłasanki, men seni yaxshi ko'raman, bilamanki, sen ham meni yaxshi ko'rasan.

— Buni sizga kim aytdi?

— Ha, mayli, qani javob berchi, turmushimiz to'g'risida se ning qanday fikrlaring bor?

— Leningradda ham pedtexnikum bormi?

— Bor...

— Men borsam olarmikin?

— Olmaydi, ruschani bilmaysan.

— O'rgatmaysizmi?

— Senga bir nima o'rgatib bo'ladimi?..

— Harbiy odam bunaqangi gap qilmaydi, undan ko'ra siz menga komanda bering!

— Xo'p, yaxshi, komanda beraman. Hozir bo'l! Ikki yildan keyin to'yimiz bo'ladi. Men o'qishimni bitirib kelaman. Sen ham o'qishingni bitirib qo'yishga majbursan. Porloq turmush uchun, chin hayot uchun, yaxshi farzandlarning ota-onasi bo'lish uchun ilgariga qarab shagom marsh!

Saodat bu gapdan, kampirning eshitib qolishidan uyalishni ham esidan chiqarib, o'zini to'xtatolmasdan sharaqlab kulib yubordi... Suhbatimizning bu tomoni jiddiy bordi. Saodat bir nuqtada turib olib, Yodgorning onasi kim ekanligini bilgisi, shu to'g'ridagi hikoyaning nima bo'lganligini eshitgisi kelar edi. Men unga Yodgorning butun hikoyalarni to'ydan keyin aytishga va'da berdim. Va'damiz bir yerda qaror topdi. Men eng yaxshi doktor bo'lib kelishni, u eng yaxshi pedagog bo'lishni va'dalashdik.

* * *

Leningradda yana ikki yil qoldim. Yil o'rtasidagi otpuskada Toshkentga kelishni o'zimga ma'qul ko'rmadim, ayniqsa, oxirgi yilgi o'qishlar juda og'irlashib ketgan. "Ikki quyonni quvlagan birisini ham tutolmas", degandek, shu qimmatli vaqtlardan ozgina — bir qismini bo'lsa ham muhabbat mojarolariga sarf qilsam, darsga xalal yetishi mumkin edi. Saodat bilan bo'lsa va'dalashib qo'yganmiz, bu to'g'rida hech qanday tashvish tortmasam ham bo'ladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, u menga yozib turadi, men unga ora-sira javob berib turaman. Shuning singari oila bilan bo'ladigan xat bordi-keldisi ham o'rtalarajada: "Sog'indik", deydilar, "O'g'ling ayniqsa ichikmoqda", deydilar, kampir, "Kasalman", deydi. Shunga o'xshagan gaplar...

So'nggi yilning imtihoniga juda qizg'in tayyorgarlik bornmoqda. Ishimizning ko'p qismi amaliy tajriba ustida bo'lgani uchun ko'proq vaqt klinikalarda o'tadi. Men ichki kasalliklar vrachi bo'lishni havas qilganim uchun ko'proq ichki kasallar bilan qiziqaman.

Imtihon vaqt yetdi. Deyarli ko'p darslardan professorlar bili-mimni yaxshi topdilar. Akademiyadagi boshliqlarning maslahati-

cha men o'zimning diplom ishimni bajarish uchun yana bir yil Leningradda qolishim kerak.

Lekin men diplom ishini Toshkentda yoqlashni so'ramoq-chiman. Bu tarafi ixtiyoriy bo'lgani uchun ijozat berdilar. Kerakli hujjatlarimni olib, muallimlarim, professorlar va o'rtoqlarim bilan xayrlashib, harbiy komissariyatdan uchotimni Toshkentga ko'chirtdim.

Shu bilan to'rt yil meni quchog'ida saqlagan, tarbiyalagan, oddiy askardan oliv ma'lumotli harbiy doktor tayyorlab chiqargan shahar — Leningrad bilan xayrlashdim.

G'oyat shodman, g'oyat quvnoqman. Yo'l-yo'lakay shu mahal-gacha o'tgan, ayniqlsa, so'nggi olti-yetti yillik umrimning yakunlarini mulohaza qilib ko'raman.

Toshkentga yaqinlashgan sari yuragim uradi. Har galgi odatcha qachon borishim to'g'risida hovlidagilarga telegramma bergen emasman. Faqt mening qachon kirib borishimni Saodatgina biladi.

Poyezd sekin-asta tiyg'anib kelib, Toshkent vokzalida to'xtadi. Plashimni bilagimga solib, qo'limga chamadonimni ushlab, vagon derazasidan platformaga qarayman. Kishilar, xotinlar, bolalar — kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopadilar.

Derazalardan qarab, allakimlarning ismlarini qichqirib chaqidilar. Shular ichida Saodatni qidiraman. Ana u!... Yurak urishlari bilan zoriqib-zoriqib kutganim — Saodat! U allakimnidir qidirib yuradi. Bizning vagon derazasi yoniga kelganida, oynani chertdim. U alanglab yuqoriga qaradi:

— Jo'ra aka! — Yugurib eshikka kela boshladi. Men ham kuperdan chiqib yo'lakka yurdim. U allaqachon tamburga yetib qolgan edi.

U hech qanday tortinib ham turmadi. Kela solib menga otildi...

Go'yo bizning har ikkovimiz Leningraddan birga kelganday, bizning uyga kirib bordik.

Mening kirib keluvim har ikki uyda ham, ya'ni bizning uyda ham, Saodatlarning uyida ham juda katta quvonchlarga sabab bo'ldi. O'qishim tamom bo'lganini bilgan onam terisiga sig'may sevinar edi. Yillar bo'yi xayoldan haqiqatga o'tmay yurgan "ken-

jatoy kelin" umidi ortiq qo'lga kirgan edi. Har ikki uyda ham to'y taraddudi uchun jahd jad bilan tayyorgarlik borayotgani qulog'imiga yetib turar edi. Yana galga solishga qo'limda hech qanday vaj-korson bo'lmagani uchun men ham bu ishga o'z roziligidimni bergen edim.

Olti yoshni to'ldirib, yettinchingning ikki-uch oyini yashab qo'ygan Yodgorning anchagina esi kirib qolgan. Unga kimdir tushuntiribdi.

U kelib mening tizzalarimni quchoqlaydi-da:

— Dada, menga oppoq oyi olib berasiz-a? — deydi. Men uning bu gapidan o'ksib ketaman. "Bechora Yodgor, — deyman, — qachon bo'lsa ham men sening haqiqiy otang emasligimni, sen qandaydir bevafo, biroq go'zal bir xotinning tashlandiq va qandaydir bag'ri qattiq, men tanimagan sayoq yigitning ko'zi ko'rma-gan farzandi ekaningni bilib qolsang..." deyman, yana o'zimni yupataman, o'zimga qattiq ishonch beraman: "Yo'q, Yodgor — bu mutlaqo mening o'g'lim, u Saodatning ham birinchi bolasi", deyman, uni gapga sola boshlayman:

— Senga tag'in qanaqa oyi olib beraman, o'g'lim, katta oyimlar-chi, u senga ham oyi bo'ladi, menga ham, Abdug'ani akangga ham, Qumri opangga ham bo'ladi. Tag'in kimni olib beraman?

U yana suykanib keladi, erkalanib:

— Ha, oling-a, u kishi buvim bo'ladilar-ku, menga Saodat opamlarni olib berasiz! Men u kishini oppoq oyim qilib olaman o'zim...

— Obbo jinni-ye, buni senga kim aytdi? Xo'p-xo'p, olib beraman, — deb kulib qo'yaman.

Muhabbat quchog'iday issiq yoz, charoslar baxt chehrasiday xol otgan, qizilurug' qovunlar ishqday shirin. Iyul oyining qizg'in kunlaridan birida Saodat bilan ikkov yetaklashib ZAGSga bordik. Bu mening ZAGSga ikkinchi boruvim... Menga bu yerdagi ko'p narsalar, hatto umrning ayrim qoidasi, xunuk qismi ham tanish. Xuddi kechagina shu yerga kelganday sezinaman. Tag'in bu galgi keluvim o'sha birinchining o'zi bo'lmasin, deb, sekin yonimga qarab qo'yaman. Yo'q bu — mening Saodatim! Vafoli Saodatim! Men u bilan umrli baxtning ahdi uchun kelganman.

Turmushda har narsaning tarozuday ikki pallasi bo'ladi, dey-dilar: shirinlikning achchig'i, qorong'ilikning nuri, kechaning kunduzi, tikanning guli bo'ladi. Yoshlik g'ururi bilan qilingan bir taloqning jabrini tortib keldim. Achchiqligi bilan o'rtandim. Qorong'iligi bilan tentiradim. Kechasi bilan zulmatda qoldim. Tikani bilan alam tortdim. Endi bularning hammasiga nihoya.

Endi men bilan Saodat uchun baxt darichasiday ochilgan qalin muqovali ZAGS daftari boshida kulgan yuzlar bilan turmoqdamiz. Uzun va oydin umr yo'li. Bu yo'l nurlarga to'lgan, shirinliklarga mo'l, muttasil kunduz, gullar to'shalgan yo'l.

Mening bu bir nafas xayolga cho'muvim Saodatni shubhalantirdimi, bilmadim. Qo'limni mahkam siqib qo'ydi-da:

— Mening familiyam nima bo'ladi? Javob bersangiz-chi, kutib qoldilar... — dedi. "Yalt" etib uning ishq va muhabbat to'la ko'zlariga qaradim. Butun kechmish xayollarim bo'ronga yo'liq-qan tutunday to'zg'ib ketdi:

— Ixtiyor senda, xohlasang mening familiyamni yozdirishing mumkin.

ZAGSdan chiqib, kiyim-bosh magaziniga qarab ketdik...

* * *

Harbiy komissariat meni uzoq chegara tumaniga yubordi. Men bu yerda chegara soqchi otryadlarining doktori bo'lib tayinlangan edim.

Uylanganimdan keyin Saodat bilan uyda bo'lishim uch-to'rt oydan nariga o'tmadidi. Saodatning yana bir yillik o'qishi bor. Shuning uchun men uni o'zim bilan birga olib kelishga andisha qildim.

Umrimning anchagina qismi harbiy ishlarda o'tgani uchun men bu yerda hech qanday qiyinchilik tortmayman. Lekin sog'inuv o'z hukmini o'tkazib turadi. Uylanmasdan ilgari bu hisni o'zimda tajriba qilib ko'rmagan edim. Uzun kechalar, yulduzli osmonga qarayman. Jimirlab oqib turgan Amudaryoning mayda to'lqinlarida oy nurining ermak bo'lganini ko'raman. Daryo kabi keng quchoq ochib, to'lqinli bag'rimda Saodatni ko'rgim keladi...

Osmonda shimoldan janubga qarab Somon yo'li bo'ylab turnalar, g'ozlar karvoni uchib o'tadi. Go'yo ular mening bu orzula-

rimning tezdan ro'yobga chiqishiga bashorat berganday, "haq-haq", deb o'tadilar...

Yana o'z uyimga qaytib kiraman. Saodatdan kelgan xatlarni bir necha marta o'qib ko'rgan bo'lishimga qaramay, yana qaytadan o'qib chiqaman. Xatlar Saodatlanib men bilan so'zlashganday bo'ladilar, sekin o'pib qo'yaman.

Bizning chegara soqchiligidagi yigitlarning hammasi ham tog'ni ursa tolqon qiladigan azamat, sog'lom yigitlar, borganimga ikki-uch oy bo'lishiga qaramasdan, bularning ichida birorta jiddiy kasal uchrata olganim yo'q. Oshib borgani tumov yoki oftob urish. Harbiy poliklinikada ish oz bo'lgani uchun boshliqlarning ijozati bilan grajdanlar poliklinikasida ham ishlayman. Ko'p umrim tevarak-atrofdan keladigan aholiga yordam berishdan iborat. Ayniqsa, grajdanlar o'rtasida nomim yaxshilikka yoyilgan. Mening yerlik tilni bilishim ularning dardlariga darmonlardan bittasi bo'lib xisoblanadi.

Grajdanlar o'rtasida bo'lganidek, mahalliy tashkilotlar o'rtasida ham durustgina obro'yim bor. O'zimga yarasha oshnaro'rtoqlar, yor-do'star topganman. Dam olish kunlari ular bilan birlikda bir-birimizga bordi-keldi qilamiz, xushchaqchaqlik bilan umr o'tkazamiz. Kunlardan bir kun shu o'rtoqlarimdan birisi — tumanimizda mas'ul xizmatlardan bittasini egallab turgan bir yigit — meni shaxsan uyg'a taklif qildi.

— O'rtoq doktor, — dedi, — bir necha vaqtidan buyon tutzalmayotgan bir bemorim bor, ko'p doktorlarga ko'rsatdim, har qaysisi har xil fikr beradi, lekin birortasidan ham shifo topgani ma'lum emas. Rostini aytsam, bemor — o'zimning xotinim. Sizdan iltimosim: bir borib ko'rsangiz.

Bu yigit ko'rinishda mendan bir-ikki yosh katta, ko'nglida kiri yo'q, juda xushchaqchaq bir kishi edi. Ayniqsa, tumandan ottirgan o'rtoqlarim ichida men ham unga, u ham menga ko'nglimizni juda yaqin tutar edik. So'zini qaytarmasdan, va'dalashgan kuni uyg'a bordim. Mehmonxonasida bir oz so'zlashib o'tirgandan so'ng, meni yotoquyiga olib kirdi. Uyning to'rida po'lat karavotda ko'zini shipga tikib bir yosh xotin — bemor yotar edi. U meni ko'rishi bilan o'rnidan qo'zg'alib, karavotdan tushmoqchi bo'ldi.

Men unga ozor bermaslik uchun qo'zg'almasligini taklif qildim. Xotin bir oz ozib, rangi sarg'ayinqiragan bo'lishiga qaramay, yuzlarida o'tkir husnning izlari barq urib ko'rinish turar edi. Yoshi yigirma to'rt-yigirma beshlarga kirgan bir juvon. Men uni doktorlarga xos bir ezmalik bilan diqqat qilib tekshirib ko'rdim. Bilmadim, boshqa doktorlar qanday hukmga kelgan ekanlar, menimcha, xotinda o'tkir asabiylikdan boshqa hech qanday jiddiy kasallik ko'rinas edi. Men buni o'rtog'imga aytdim. Ham xotinni sayohatga yuborishni maslahat berdim. So'z orasi bolalari bor-yo'qligidan, oilaviy turmushlaridan so'radim. U bir xo'rsinib oldi-da:

— Bolamiz yo'q. Rostini aytSAM, bu kishining kasallari ham qisman shu bolasizlikdan, — dedi.

Men uylanganlariga qancha vaqt bo'lganini, bolalari bo'lsa ham turmaganmi yoki hech bolalari bo'lmananmi, hammasini aylantirib so'ray boshladim. (Chunki doktorlarga ba'zan shunday, turmushdagi mayda faktlar ko'p narsalarni bilishga yordam beradi.) Mening savollarimdan zerikdimi yoki ezildimi:

— O'rtoq doktor, — dedi do'stim, — hammasini bilgingiz kejadimi? Xo'p, aytib berganim bo'lsin. Siz shu yerda bir nafas o'tirib turing...

Narigi uydan bir stul keltirib, hemorning bosh tomonida men, oyoq tarafida eri o'tirdi. U hikoyasini so'zlay boshladi:

— O'rtoq doktor, men sizga aytSAM, buning kasali bola vajidan. Ba'zi-ba'zida men ham o'ylab ketib, kasal bo'Iguday bo'lib qolaman-u, nima qilsangiz hamki, bir tarafi erkakchilik, ikkinchi tarafi, ish bilan ovunib, ko'pda esimga olmayman.

O'rtoq'im so'zini bo'lib xotiniga qaradi:

— Aytaveraymi, Mehrixon?

Xotin uyalganday bo'lib, yuzini ters o'girdi-da:

— O'zingizga sinashta o'rtoq'ingiz bo'lsalar, u kishidan sir yashirib o'tirasizmi, bir boshlagan gapni o'lda-jo'lda qo'ymay aytavering endi, — dedi.

O'rtoq'im yana bir xo'rsinib qo'ydi:

— Shunday qilib desangiz, o'rtoq doktor, men bundan oltiyetti yil burun qip-qizil chapani yigit edim, — xotinini ko'rsatib, — bu bo'lsa paranjidagi oddiy bir o'zbek qizi edi.

Mana endi o'zingiz ko'rib turibsiz, bilasiz: men SAKUga kiriб o'qidim, masalaga boshqacha qaraydigan bo'ldim. Hikoya-mizning bosh yillardagi oddiy chapani emasman. Mening hozirgi hikoyamga bu kungi odamshavanda, madaniyligimning aloqasi yo'q. Bu ham o'qib, tappa-tuzuk aktivistka bo'ldi. Mana, besh yildan buyon bir-birimizni sevib, ko'rmasak sog'inishib, mehribonchilik bilan umr o'tkazamiz, meni shu tumanga tayin qilishdi. Ikki yildan beri shu yerda ishlamoqdaman. Albatta, bu gaplarning sizga qizig'i yo'q gapning qizig'i mana qayerda, quloq soling, o'rtoq doktor!

Bizning uylanishimizning tarixi juda ham qiziq. Haligi aytganimdek, men oddiy bir chapani edim. Bu bir musulmonning iffat pardadagi qizi edi. Nima qilay, yigitlik g'ururi deysizmi, yoslik deysizmi, biz bir-birimizni sevishdik — bu mendan boshqaga tegmaydigan, men boshqani olmaydigan bo'ldim. Lekin buning otasi menga berishga rozilik bermas edi. Shunday bo'lsa ham, ishq deganday, bir-birimizdan ajralmas edik. Birmuncha vaqt yashirin yurdik. Bilasizki, o'rtoq doktor, men dunyo ko'rmagan chapani yigit bo'lganidan keyin, bu paranji ichidagi hurkovich quyondek, ota-bobolarcha aytganda, "qog'ozdag'i qantdek qiz" bo'lganidan keyin, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu sirni ikkovimiz va buning onasi bildi. Nima qilish kerak, bu sir bitta-yarimtaga oshkora bo'lib qolsa, buning otasiga bosh ko'tarib yurish o'lim bilan baravar edi. Bizga ham, ayniqsa, bunga juda zo'r isnod bo'lar edi. Biz har uch go'l kishilar mumkin qadar sirni yashirib, oy-kunini kutishdan boshqa chora topa olmas edik.

Voy o'rtog'-ey, o'sha kezlarda men bilan Mehrining tortgan jabr-u jafolarimizni qo'yavering. Hammaga shumshuk ko'ringanday. Hamma meni jinoyatchi deb barmoq o'qtalib ko'rsatayotganday sezinaman. Shaxtimdan tushganman. Bo'shashib qolganman. Ayniqsa, Mehrining onasi menga ko'z ochirmaydi. "Yigit o'Igor, juvonmarg, qizimning nomini bir pul qilding", deb qarg'aydi. Biror qarq'ishlar foyda bermas edi. Yo menga Mehrini berishlari, yoki bolani yo'qotishlari kerak edi. Otasi bu sirlardan xabarsiz bo'lGANI uchun onasining qilgan qiyin-qistovlariga quloq solmas, so'zida turib olgan edi. So'nggi ikki-uch oy ichida, mana o'zining

yuzi, ko'zi, uydan ostona hatlab ko'chaga chiqqani yo'q. Uzoq kutilgan "mehmon" tug'ilishiga bir necha kun qolganda Mehrini "Dalaga, xolasinikiga ketdi", degan bahona bilan otasining ko'zidan bir ovloqqa yashirdik. U yerda bola tug'ildi. Ikki-uch kundan so'ng Mehri salomatlandi. Endi qanday qilib bo'lsa ham bolani yo'qotish hammamizning fikrimiz bo'lib qolgan edi.

Hikoya chuqurlashgan sari bir qorong'ilikdan — nurga, shubhadan yaqinga borayotgan kishilarday ko'zimning qorachiqlari kengaymoqda, badanim allaqanday qo'rqinchli uchrashuvdan darak berganday jimirlashmoqda edi. Xotin bo'lsa ko'zini yashirib, piq-piq yig'lamoqda edi. O'rtog'im hayajonlangan... Bir necha sekund oraliqni jimjitlik bosdi. Go'yo pashsha uchsa, uning qanotidan chiqqan ovoz jimjitlikni buzar edi. O'rtog'im xotiniga bir qarab qo'ydi. O'zini to'xtatib olib, yana so'zida davom qildi:

— Shunday qilib, o'rtoq doktor, og'ayni, men sizga aytSAM, bolani nobud qilishga hech qaysimizning ko'zimiz qiymadi: oppoqquina, lo'mbillagan o'g'ilgina bola edi. Ming tomonni o'ylab hiyla va chora axtarar edik. Birorta befazl zardon odamga berib yuboraylik, desak, sir ochilib qolishidan qo'rqrar edik. Hali ham maslahat Mehrining o'zidan chiqdi. U mening pasportimni so'rab oldi, ko'chaga chiqib ketdi. Bilmadim, bolani nima qildi? Ertasi-ga xabar olay deb uchrashganimda — bola yo'q. Hech nimani ko'rmaganday. Menga muomalalari sovuq, Mehri menga pasportimni qaytarib berdi. Pasport ichida ZAGSdan olingan, mening nomimga yozilgan taloq xatining kopiyasi yotar edi. Juda hayronlikda qoldim. Biz ilgari u bilan nikohdan o'tmagan edik. Xo'sh, taloq xati qayerdan paydo bo'ldi?..

Gapning qisqasi, bola nima bo'lganini hali ham menga aytgan emas, o'rtoq doktor. Mana shu taloq xatini hali ham saqlab yuraman.

U qo'yin cho'ntagidan pasportini oldi. Pasport ichidan tarixiy taloq xatini olib menga uzatdi. Qo'llarim qaltirar edi. Ko'z oldimni yillar bo'yi to'sib yotgan qorong'i tuman sekin-sekin tarqalganday bo'lar edi. Ag'rayib qolgan edim. Bu — o'sha, men qo'l qo'yib olgan va meni qo'lga tushirgan taloq xati edi. Yigitlik zabitini yig'ib olishga ojiz edim. Mening buncha o'zgarib ketu-

vimdan shubhalangan o'rtog'im to'xtalib, menga hayronlik bilan termilar edi.

Mehrixonga qaradim. Bu — o'sha aldamchi, bevafo ko'zlar, bu — o'sha bir kulgusi bilan machit tarnovidan musicalarni cho'chitib uchirgan yoqt lablar...

Mehrixon yig'idan bo'rtinib ketgan ko'zini ipak dastro'molchasi bilan artib oldi. Uyning ichini suvgaga ivitilgan qalampir-munchoq hidi tutib ketdi. Men o'zimni bundan yetti yil ilgari bog' machitida, deb his qilar edim. Nihoyat, o'zimni qo'lga oldim.

O'rtog'im mening tinchlanganimni ko'rib, xotinini qistay boshladi:

— Mehrixon, hoy, Mehrixon! Kel, qo'y endi, sog'-salomat bo'lsa o'ynab-kulib katta bo'lib qolgandir, o'lib ketgan bo'lsa, ayb eski turmushning kishilarga kafan bichishida. Mana bu o'rtog'im doktor — o'zimizning hamshahar. Bu kishining fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi. Juda ulfat yigit ekan. Sen o'sha yetti yil ichingda saqlab yashirib kelgan siringni shu bugun ochib ber. Shu bilan bu hikoyaga go'r qaziylik-da, yuragimizdan sidirib tashlaylik. Sen ham o'zingni diqqat qilib kasal bo'lib yurma, men ham seni ko'rib ich-etimni yeb yurmayin. Qani, qolganini o'zing aytib ber, bolani nima qilgansan?

Og'ir bir jimjitlikning vazmin qo'llari har uchovimizning yelkamizdan bosib turganday edi. Go'yo qorong'i kechalar zanjir halqalariday bir-biroviga tutashib ketgan, go'yo ulug' bir tilsimot sandig'ining qulfiga bir kalitning tushishini kutganday har uchovimiz shu mubhamlikda jaranglagan ovoz kutar edik. Meni esa umri yetti yil, lekin mazmuni yetmish yillarga teng bir hissiyot chulg'ab olgan edi. Meni o'ch bilan shafqat, g'azab bilan marhamatning kurashi o'z domiga tortgan edi.

...Ana Yodgor, haligina emgan ona sutining lazzatini tamshanib mening qo'limda uxlamoqda...

... Ana Yodgor, mening yulduzli shapkamni kiyib o'yna-moqda...

...Ana Yodgor, "Menga oppoq oyi olib bering", deb qista-moqda...

Yodgor...

Endi Yodgor yo'q. Yodgor — u, birovning o'g'li.

Ey ishq, muncha ham qudratlisan!

Xotin ko'zlarini ochdi. Titragan qo'llari bilan karavot qirg'oqlarini ushladi-da, qaddini rostladi.

Titroq va hayajonli ovoz bilan:

— Aytaymi? Aytaymi? Men bir o'g'il va bir yigitning qoniga javobgarman! — dedi.

U yarim telba edi. Hissiyot agar muhit bo'lsa, u shu muhitning to'lqiniga asir bo'lgan bir cho'loq chumoli...

Menda shafqat — o'chni yengdi, mehr — g'azabni, go'yo so'qir paxsa devorlardan shaftolilar mo'ralagan uzun va jimit bog' ko'chaning yalla bedard chapanisi edim. O'rnimdan qo'zg'al-dim: Mehrixonning ikkala qo'lini ushladim. Butun kuchimni ikki ko'zimga yig'dim-da, uning bevafo, biroq g'amgin, sho'x, lekin ma'yus ko'zlariga tikildim:

— Birovga hech xolis xizmat qilib o'rganganmisiz?

Mehrixon menga juda qattiq termildi. Andisha oyoqosti bo'ldi, or-u nomus bir pul!

— O'sha sizmisiz? To'g'ri, sizsiz...

U meni mahkam quchoqladi va hushidan ketdi...

* * *

Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z yonimda, ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi.

SHUM BOLA

I BO'LIM

Rastalar obod. Qaymoq bozorining burilishida, mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo'lib, unda grammonfon chalinadi. Turli-tuman plastinkalar orqali To'ychi hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg'ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi. Choyxonada joy yetishmaydi. Uzun rasta, juhud rasta, aporlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo'sh vaqtlarida bu choyxonaga yig'ilib, mehmonxonalardek o'ttada katta barkashlarda qand-qurs, pista-bodom, murabbo, nisholda, obinon, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan darturxon atrofida chaq-chaqlashib o'tirishadi. Ba'zi boyvachchalarining dasturxonida qorniga qaldirg'och surati solingan, ustiga poxoldan to'r to'qilgan konyaklar ham ko'rinar edi. Bu choyxonaga bozor-o'charga sang'ib tushib qolgan dehqon, kambag'al kosib, qozoq, qirg'iz va boshqa oddiy fuqaro kirolmas edi.

Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. Ustida oldi ochiq yaktak, oyog'ida qala kavush, zangori shohi qiyiq bog'lagan, yelkasiga xolparang ro'mol tashlagan xushe'l yigit edi. Choyxo'r boyvachchalardan birortasi:

— Asra!

Yoki:

— Kal! — deyishi bilan:

— Labbay, mulla aka, choymi, chilimmi? — deyardi-da, darrov bir qo'lida kichkina choynak, ikkita kichkina xitoy piyola yo bo'lmasa yarqirab turgan kattakon mis chilimning sarxonasiga tamaki bosib, ustiga cho'g' qo'yib, bir-ikki quldiratib tortib, pishtib, kashandaning xizmatiga yugur edi.

Bu choyxonada meni mahliyo qilgan narsalarning biri kiraverishning shiftiga ilib qo'yilgan katta, simlariga zarhal berilgan, har

xil tumorlar, bayroqchalar bilan bezatilgan qafas va bu qafasdagι jonli to'ti edi, o'lib ketay agar, tirik to'ti edi. Patlarining rang-ba-rangligi Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi. Ko'k, qizil, zangori, sariq, oq, pushti, jigarrang, gilos, pistoqi — boring-chi, dunyoda qancha rang bo'lsa, shu to'tining patida bor edi. Ayniqsa, bu to'ti qurmagur shunaqa ham biyron ediki, endigina tilga kirayotgan uch yasharlik qizlarning ovoziga o'xshatib:

“Asra, Asra! Mehmonga qara, bir choy, bir chilim. Keling, mulla akalar, keling, boyvachchalar”, degani hali ham qulog‘im-dan ketmaydi.

Biz yalang oyoq, bo'z ko'y lak-ishtonli, kir-chir bolalar to'tiga yaqinlashib:

— To'ti, to'ti...

— To'ti, to'ti... — deb qichqirar edik. Asra kal bizni quvlar edi, qo'liga tushsak urardi. To'ti bo'lsa orqamizdan:

— Buvningi... — deb so'kardi.

Bozorda sanqib yurgan biz daydi bolalar uchun quvonchli er-maklardan biri bozor, mahalla, ko'cha-ko'y jinnilari edi. O'sha yillarda Toshkentda shunaqa ham jinni ko'p ediki, sanab sanog'iga yetolmaysiz: Malla jinni, Karim jinni, Mayramxon, Xol parang jip-jinni, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Ovoz jinni va boshqalar... Har bir jinnining o'ziga xosligi, tantiqligi, "shirin"ligi bor edi. Karim jinni so'kkani-so'kkani edi. Unga na Xudo, na payg'ambar, na Shohidoyat hoji-yu Orifxo'ja eshon va na Olim qozi-yu Sharifjon Duma — baribir so'kaverar edi. Yetti pushtidan tortib, astar-avrasini ag'darib so'kaverar edi. U ilgari bo'zchi ekan, chit ko'payib ketganidan keyin bo'z o'tmay qolib, bozori kasodga uchrab, bola-chaqasini boqolmay, jinni bo'lib qolibdi, deb eshit-ganman.

Eshon oyi degan xotin ham jinni edi. U qirq-qirq besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, xushqomat, qalamqosh bir xotin edi. Bu xotin aslida qalandarxonalik Mittixon to'ram degan eshonning xotini bo'lib, eshon shu xotinning singlisi bilan o'ynashib turganida ustidan chiqib qolib, jinni bo'lib qolgan ekan.

“Juft kaptar”ga hukumatdan tekkan edi: Nikolay bormi, Kaufman bormi, Mochalov bormi, Nabi o'g'ri degan mirshab bor-

mi — hammasini bir qozon qilib, martabasining pasti balandligiga qaramay so'kaverar edi.

Xol parang tagi qo'qonlik ekan, Qo'qonda baxmal to'qir ekan. Keyin do'kon-dastgohiga o't tushib ketib, jinni bo'lib qolibdi. Avaz bo'lsa havaskor jinnilardan edi.

Kunlardan bir kun Tojixon jinni bitta ketmon dasta bilan o't-gan-ketganni quvlab, urib, so'kib: "Hammang bir tomonga yur, tarqalib yurma! Tartib kerak, intizom kerak", deyar edi. Hech kim unga bas kelolmas edi.

Shunda Olim jinni kelib qolib:

— Hoy, hoy, nima deyapsan, jinni? — deb so'rab qoldi.
— Nimaga odamlar bir tomonga yurmasdan, har qayoqqa tarqalib yuradi? Nikolay poshsho zamonida tartib-intizom kerak, bir tomonga yursin-da!

Bunga Olim jinni:

— Ahmoqsan, Toji, ahmoqsan. Yer, axir, taroziga o'xshagan narsa bo'ladi, hamma bir tomonga yursa, yer barkashday bir yoqqa og'ib, hammamiz Kurdum daryoga g'arq bo'lib ketamizku, — dedi.

Zirapchani nina bilan olganday, jinnining gapi jinniga ma'qul tushib, odamlarni urishdan to'xtadi.

Jinnilarning ichida o'ziga xos tantiqlaridan biri Mayramxon edi. Asli ismi Mamatraim bo'lib, xalqqa "erka" bo'lganidan "Mayramxon" deb atar edilar. U esidan chilangar ekan. Ketmonning zo'g'otasi, eski tish, otashkurak, tunuka qaychi, shunga o'xshagan eski-tuski temir-tersaklarni bir simdan o'tkazib, boshiga kiyib yurar edi. O'z qo'li bilan ovqat yemas edi. Uning bozordagi mayda kosiblardan ixlosmandlari ko'p edi. Beshikchilar, taroqchilar, dugchilar Mayramxonni o'z qo'llari bilan ovqatlantirishni "baxt" deb bilar edilar. Go'yo Mayramxon biror kosibning do'koniga borib egasi qo'lidan ovqatlansa, shu do'konga qut, baraka kirgan hisoblanar edi.

Temir-tersak asboblar zavoddan chiqa boshlagandan keyin Mayramxon "sinib", jinni bo'lib qolgan ekan.

Xullas, Toshkentda jinni ko'p edi. Ba'zi kunlar bir jinniga tosh otib, ikkinchi jinnini o'yinga solib, uchinchi jinnidan

kaltak yeb, kech kirib qolganini ham sezmas edik. Namozgar-namozshom o'rtasi uyg'a qaytib atalami, umochmi, moshqovoqmi, moshxo'rdami, ugra oshimi, apir-shapir ichib, yana ko'chaga chopar edik.

Mahallamizning bir tomoni Tikonli mozor, bir tomoni Ko'r-g'ontagi. Uzun ko'chaning o'ng, chap tomonidagi pasqam, tor ko'chalarda o'g'il va qiz bolalar to'planib, har xil o'yinlar o'ynaymiz. Kurash, "botmon-botmon", "oq terakmi-ko'k terak", "qu-shimboshi", "mindi-mindi", "o'g'ri keldi", "bekinmachoq" degan o'yinlarimiz bor.

Bular hammasi oqshom o'yinlari, kunduzgi o'yinlar boshqa-cha: har xil oshiqliq o'yini, yong'oq o'yini, to'p o'yini, zumchillak o'yini, yov-yov, o'q kamalak otish, yalang'och poyga, ot o'g'risi va hokazo. Xullas, na kechasi, na kunduzi o'yin vajidan taxchillik tortmas edik.

Otalarimizning ko'pchiligi mayda kosiblar, qorovul, xodimgar, meshkob, otboqar, hammol, so'fi, folbin, arqon tovlaydigan, nog'ora-childirma qoplayadigan, to'qimdo'z, chegachi va hokazo bo'lganliklari uchun ularning qo'lidan hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi. Otalarimizning o'ziga ish topilmaganda, bizga ish qayoqda deysiz. Ertadan-kech ko'cha changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvinto'da bekorchi bolalarmiz. Bitta qo'lom-qo'rg'oshin qo'yilgan rangdor oshiqliq yoki dugchilar qirib bergen mo'guz soqqa yoki yong'oq soqqa, hech bo'limganda, birorta soatning qopqog'i bizning katta davlatimiz hisoblanadi.

Ramazon oyida o'yinimizning turlari yana ko'payib ketadi. Oqshomlari mahallada eshikma-eshik yurib, ramazon aytamiz. Namozshomdan saharlik oshgacha machitma-machit yurib qorilarning qiroatini eshitamiz.

Ayniqsa, oydin oqshomlar maza qilib o'ynaymiz. Yoz, kuz, bahor vaqtlarida-ku, ko'chalarimiz tuproq bo'lganligi uchun yumshoqqina, maza bo'lar edi, ammo qish kunlari belgacha loy, botqoq bo'lganidan o'yinlarni katta maydonlarga yoki bostirma yo'lkalarga ko'chiramiz. Har mahallaga bittadan shahar dum-

xonasi o'tkazgan xira fonuslarning ichida yettinchi pilikli kerosin chiroq yonar edi. Bu chiroqlarni har kuni kechqurun narvon ko'targan chirog'bon kerosinidan, piligidan xabar olib, shishasini artib, o'zi yoqib, azonda o'zi o'chirib ketadi. Bu ko'cha fonuslarining yorug'i uncha bo'lmaydi. Uzoqdan qaragan kishiga qorong'idagi mushukning bir ko'ziga o'xshab yiltirab ko'rindi. Chetiga xarsang terilgan tor ko'chalardan ketuvchi yo'lovchilarga uzoqdan "men bor" degandek, qizg'ish shu'la ko'rsatsa ham yorug' bermaydi. Bu chiroqlarning tagida o'ynab bo'larmidi? Katta kishilar ham xuftonni o'qir-o'qimas, soat yetti-sakkizlardayoq uyga kirib ketishadi. Ko'chada zog' uchmaydi. Faqatgina bekinmachoq o'ynab yurgan bizlar qolamiz. Xullasi kalom, o'yinimiz ko'p.

"Qushim boshi" shunaqa o'yin: bolalar ikki to'daga ajralishiadi, ular ichidan ikkitasi "onaboshi" bo'ladi. Ular bitta lattani qushga o'xshatib tugadi. Har ikki bola bir-biriga shivirlashib, bir qushning otini yashirishadi. Sutimi, baliqchimi, chittakmi, qumrimi, itolg'imi, qirg'iymi, miqqiymi — biror qushning nomini yashirishadi. Keyin bolalarga lattadan qilingan qushni ko'rsatib:

— Qushim boshi shuncha, tana-manasi bilan mana shuncha, toping nima? — deb savol beradi.

Bolalar javobga oshiqib chuvvos bilan:

- Kalxat! — deyishadi.
- Yo'q, topolmading, — deb javob qaytarishadi onaboshilar.
- Tovuq.
- Yo'q, topolmading.
- Zarg'aldoq.
- Yo'q, topolmading.
- Ukki.
- Topding, topding! — deb tan berishadi ona-boshilar.

O'sha zamon topgan tomon topmagan tomonni bitta-bitta minib oladi. Hammasi baravar "xih, eshagim", deb ma'lum belgilangan joygacha opichib boradi. O'sha yerga borganda onaboshilarga bolalardan bittasi: "Otliqmi, yayov?" — deb savol beradi, agar onaboshi:

— Ost-ustiga,— deguday bo'lsa, minganlar tushib, mindirganchalar unga opichib oladi.

Shunda ashulalarimiz ham bo'ladi:

Xum-xum hazrati xum,

Umarali xon-u Madalibek,

Madalibekning zamonida Tarala gijbang-u tarala gijbang.

“Yalang‘och poyga” degan o‘yinimiz yaxshi o‘yin. Ikkita do‘ppini chakkalarimizga bog‘lab, otning qulog‘iga o‘xshatib orqa etaklarimizni tugib dum qilib, turli masofaga kim o‘zarga yugurishamiz. Bizniki Tikonli mozor, Qoratosh, Yalanqari, Olmazor, Devonbegi, Qo‘rg‘ontagi, yana Tikonli mozor mahallalari bo‘ylab o‘tgan masofada — taxminan, uch chaqirimcha keladigan bir doi-rada o‘tkaziladi. Oldin kelgan bolalarga chapak chalib, barakalla aytib, hurmat ko‘rsatamiz. Ikkinci poygagacha u zo‘r hisoblanib yuraveradi.

Kurash o‘yinimiz bo‘lsa, o‘zingizga ma’lum.

O‘yinlarimizning hammasini bir chekkadan ta’rif qilaversam, gap cho‘zilib ketadi.

Bizning mahallamiz kichkinagina bo‘lsa ham gavjum. Karim qori degan gazlamafurush, Yoqub qovoq degan mumfurush, Abdullaxo‘ja degan bo‘yoqfurush boylarni hisobga olmaganda, qolganlari bosmaxona va qandolatxona (konditerskiy) ishchilari edi. Mahallamizda ikkita machit, bitta choyxona, ikkita baqqollik bor. Samovarchi — Qodir aka degan yalangto‘s sh kishi. Machitning bit-tasi — Tikonli mozorda, ikkinchisi — yettimachit, Qo‘rg‘ontagida. Har ikki machitning ham yonida maktab bor. Mahalla imomlari o‘z navbatida o‘qituvchi. Tikonli mozor machitida Shamsi domla muallim, Qo‘rg‘ontagida Hasanboy domla o‘qitadi.

Men Hasanboy domlada o‘qidim. U bizlarni “Haftiyak” dan emas, “Ustodi avval” kitobidan o‘qitib, tez savodimizni chiqardi.

Mahalladagi mening o‘rtoqlarim: Omon, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Yo‘Idosh, Husni, Solih, Abdulla, Po‘latxo‘ja, Miraziz va boshqalar.

Omonning otasi Tursunboy ota qalamtarosh-pichoq qiladi. Xotini o‘lib ketib, beva yashaydi. Omon yolg‘iz o‘g‘il.

It Obidning otasi Zohid aka yakanchi (eski-tuski yig‘uvchi) edi. Bit Obidning otasi Rasulqo‘zi aka qin tikar edi. Turobboyning otasi Ziyamat aka g‘o‘zafurush edi.

Yo'Idoshning otasi Buvaka bo'lsa ko'n etik tikar edi, lekin yoshlida o'lib ketib, Yo'Idosh ota-onasiz shum yetim edi. Bizlarning ko'p maslahatimiz Yo'Idoshning uyida bo'lar edi.

Husnibiyning dadasi Omonboy bo'yincha tikar edi.

Solihning otasi Yunus aka hofiz edi.

Abdullanинг отаси Aziz aka kerosinfurush edi. Ot-arava bilan ko'chama-ko'cha yurib "Nobel" shirkatining kerosinini sotar edi.

Po'latxo'janing otasi qal'a savdogari bo'lib, besh-olti yillab Qashqarda, Irbitda savdogarchilik bilan yurgan yillarda onasining qornida "olti oylik yopishib qolib", dadasi kelgan yili uch oydan keyin tug'ilgan ekan.

Usta Miraziz etikdo'zlikda mening ustam. Otasi Salimboy so'fi qushxonadan so'ngak olib kelib qaynatib, yog'ini olib tirikchilik qilar edi. So'fi ota o'z vaqtida — 1860 yillarda Yoqubbekning askari bo'lib, Qashqar qo'zg'olonida bitta xitoy qizini o'lja qilib ot orqasiga mingashtirib olib kelib, muslimon qilib nikohlab olgan ekan. Uning xitoycha otini Baxtibushi deb o'zgartirgan. Miraziz aka Baxtibuvining uch o'g'lidan eng kenjası.

Mahallamizdagı men taniydigان qo'ni-qo'shnilarimiz mana shular, esimdan chiqqanları bo'lsa, esimga tushganda yo'il-yo'lakay aytarman. Shunday qilib, bu falokatlı ishni Yo'Idosh boshladı. Mahallanıng bir to'da o'spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasiiga yig'ilib, oshiq o'ynamoqda edik. Men bugun juda ko'p yutgan edim. Olacha yaktagimning cho'ntagi, yengim, lippam oshiqqa to'lib ketgan edi.

— Bolalar qanda, oshiqlar manda, — deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu oraga Yo'Idosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog'orlab ketgan surp yaktagi ning etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladı:

— Bolalar, xalfana qilamizmi?

— Bo'pti, qilamiz.

— Qayerda?

— Rizqi xalfanıng ko'chib ketgan hovlisida.

— Bo'pti.

Xalfanaga palov qilmoqchi bo'ldik. Masavur otaliqning nabirası Omonboyning o'g'li Husnibiy oshpaz bo'ladigan bo'ldi. Qozon,

cho'mich, tuz, qalampir, suv — undan qolgan masalliqlarini shu yo'sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi — Yo'Idoshdan. Go'sht — Abdulla do'lordan. Yog' — mendan. Qolgan-qutgan narsalar — Po'latxo'ja mug'ambirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog' keltirgani uyg'a ketdim. Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi. Bizning ro'zg'or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun hujrada bo'lar edi. Ayvonda o'tancha singlim kichik ukamni ovutib o'tirgan ekan. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatish kerak edi.

- Shapag', — dedim unga, — katta to'ping qayerda?
- Qo'g'irchoqlarimning oldida, nima qildi?
- U yerda yo'q-ku!
- Ha... o'Igor, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'yidida, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham "lip" etib hujraga kirib, xo'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmuchtlab, lipamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib qarasam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim. Tovuq qaqa lab qochdi.

O'rtoqlarimga yaxshi ko'rinish uchun, rasamadda ko'rsatil-magan bo'lsa ham, yog' yoniga tuxumni ham qo'shib olib borishni o'zimga ma'qul qilgan edim. Zing'illab ko'chaga chiqib keta boshladim. Oshxonamiz yo'l ustida bo'lidanidan onam ko'rib qoldi.

— Hoy, juvonmarg zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutayberib ko'zimni ko'r qilayozdi.

Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib kiyib oldim-da, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalashtirmoqqa boshladim.

Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdag'i yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'sidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

— Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang bolang bo'ladi, shu yerda, shunday Fotimayi Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'i oqqa aralashib, chak-kamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: "Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi", deb esi chiqib ketgan ekan. Men bo'lsam, xalfana qilamiz, deb o'margan o'tiriligid ochilib qolganidan, bir chekkasi qo'rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib, ko'chaga qochgan edim. Yog' erib oqqan, tuxum singan bo'lganidan, xalfanachi o'rtoqlarimning oldiga borishdan ma'no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!

O'ylab-o'ylab topdim. Sa'vonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman. O'zi befarzand. O'zi ham, eri ham meni juda yaxshi ko'rishadi, bularning uyida kishi zerikmaydi ham. Ammamning eri mo'ynado'z — kosib. Bola-chaqalari bo'lmanidan, uylari biznikiga o'xshash to's-to' polon emas — yig'inchoq, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchangal qushlardan — qarchigay, miqqiy, qirg'iy, urishadigan qushlardan — dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi).

Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar. Bulardan tashqari, faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan ko'ppak, bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulra'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Har holda, menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman.

Anmam va pochcham meni erkalab qarshi oldilar.

— Kel-a, bo'yingdan gиргиттон bo'lib ketay, seni qaysi shaml uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi,— dedi ammam.

— Ha, balli, azamat, necha kundan buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgen edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. Sen kelar ekansan, balli-ballı,— dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim.

Pochcham har kuni to'qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko'chaga shataloq otaman. Bu mahalladan ham yangi og'aynilar orttirganman. Kamalak otamiz, oshiq o'ynaymiz, it urish-tiramiz. Bir kun pochchamning ko'ppagini yashirib olib chiqib, urishtirdim. Oldingi bir oyog'i sinib qaytdi va bir umr cho'loq-lanib qoldi.

Yoz payti pochchamning o'rtoqdari qovun sayilga chaqirgan. Bir tarafi hayitlashib ham kelaman-ku, degan niyat bilan yoniga tozisini ham qarchig'ayini olib, matrab ko'tarib uch-to'rt kunga dalaga chiqib ketdi, ketar oldida menga uchta buxor tanga¹ berib:

Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin, — deb tayinladi. Men juda quvondim — mana endi o'sib ham qoldim, yoshim o'n to'rtga kirdi, odamlar menga ishonadigan bo'lib qoldi, deb ich-ichimdan sevindim: kimsan miqqiy, kimsan qirg'iy, deganday sohibchangal qushlarning ixtiyori mening qo'limda.

Qushxonaga kirdim, uyning bir burchagida miqqiy, bir bur-chagida qirg'iy — boshlarini yerga tiqib, qo'ndoqda o'tirar edilar.

Ov qushlarining tezagi oppoq bo'lar ekan. Qatiq icharmikan-a? Albatta, qatiq ichadi, bo'lmasa tezagi oq bo'lmasa kerak, deb o'yladim.

Ammamdan yashirib, oshxonaga kirdim-da, katta xurmachani ko'tarib bozorga ketdim. Bir tangani maydalab, bir paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyg'a keldim. Ikki kosani qatiq bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim. Har ikki qush ham ovqatga qo'noqdan turib sipohgarchilik bilan bir ko'zlab qaradi-da, yuzini chirtta teskari o'girib oldi.

¹ Buxoro amirlari zamonasidagi kumush tanga. Bizning o'n besh tiyinga baravar.

Nima ham qilsa zotdor, tagi ko'rgan qushlar-da, kishi oldida och bo'lsa ham ovqatga qaramaydi. Tovuq bo'lganda edi, pastlik bilan uyalmasdan o'zini ovqatga urar edi, deb o'yladim. Qushxonadan chiqib ketdim.

Oradan ikki-uch soat o'tkazib, yana qaytib qushxonaga kirdim, sipohi qushlar hali ham o'tirgan qo'ndog'idan tushmay, ovqatga ters qarab o'tirar edi. "Chumchuqday joni bilan bularga sipohgarchilikni kim qo'ygan ekan, izzat-obro' bo'lsa qildim, birov ovqat yeyayotganda qarab turish yaxshi emas", deb chiqib ham ketdim. Tag'in nimasi qoldi! Jahlim chiqdi. Qushxonaning qirmagul qozig'ida pochchamning qush qo'ndiradigan ov qo'lqopi ilig'lik turgan ekan. Qo'limga kiyib oldim-da, miqqiyni ko'tardim. Butimga qisib, og'zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdan to'ysi, boshqa qushlarni ham shunday qildim: "Ana endi to'ydilaring. Kishi bir yerga qadalib o'tira bersa ham charchaydi, qorin to'q bo'lgandan keyin kishi tolmaydi. Mana endi o'tira beringlar, qornilaring to'q — qayg'ularing yo'q".

Shu xilda ikki-uch kun ammamdan yashirib, o'z bilgimcha qushlarni qatiq bilan siylab yurdim. Qushlarning ichida o'zim yaxshi ko'radigan bittasi bor edi, unga boshqalardan yashirib qatiqning yuzini berar edim.

Uchinchi kunga borganda erta bilan qushxonaga kirib qarasam, hamma qushlar qo'ndoqdan pastda — hammasi hurpaygan, boshini ichiga olgan, ayniqsa miqqiy qo'ndoq tagida bir qanotini ostiga solib, oyog'ini baralla uzatib, yonboshlab yotgan edi.

— Ha, mana, bu kiroyi ish bo'pti,— deb o'yladim.— Yarim gorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi. Shunaqa o'tirish-turishni ham qilib turgan yaxshi, yonbosh qil, yot, kerish.

Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, chunki bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.

Kushxonaga kirib, ne ko'zim bilan ko'ray? Miqqiuning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi. Karchig'ay ham jon beray deb turibdi. Masala menga ravshan bo'la boshladi. Endi pochchamga nima deyman! Bu qushlarning har bittasini u ko'zining

qorachig'iday ko'rар edi-ku. Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko'rинib ketdi. Pochcham qushlarga ovqat olish uchun bergan puldan ikki tanga-yu bir mirisi hali yonimda. Katta darvozaning ro'parasidagi yo'lakning tepasiga qafasda osib qо'yilgan bir juft qumrini juda ham yaxshi ko'rар edim. Asta borib, qafasni ilgagidan chiqardim. Boshimga qо'yib, katta safar uchun yo'lga tushdim, ammam mushuklarga shovla pishirish bilan ovora bo'lgани uchun mening chiqib ketganimni payqamay qoldi. Belimda pul, boshimda savag'ichdan to'qilgan katta qafasda kukulab turgan bir juft qumri. Etakni turmaklab, sag'rimga bir mushtlab, "hayyo, hu" deb, shahardan tashqariga qarab yo'lga ravona bo'ldim.

*Men ketarman yo 'lda yig 'lab, sen qolursan zor-zor,
Qumri qushning bolasidek ikkalamiz intizor;
Intizorlik torta-torta tanda toqat qolmadni,
Cho'l chivindek sarg 'ayib, yurarga holat qolmadni.
Cho'l chivinning holini yo 'lda yo 'lovchidan so 'rang,
Biz g'aribning holini aqli rasolardan so 'rang.*

Bir talay manzil-marohil yo'l bosib, ko'p yurib, ko'p yursam ham mo'l yurib, Achchabod degan "shahri azim"ga borganimda, bir to'da katta-kichik qora-qura o'spirinlar atrofimni o'rab olishdi. Oralarida jussasi menga bir yarimga keladiganlari bo'lgани kabi to'rttasi bir musht bilan qulatadiganlari ham bor edi. Avvaliga yaxshilikcha qumrini sotishni so'rashdi, ko'nmasam, zo'rlik bilan olib qolishlari menga ma'lum bo'lgan edi, chor-nochor sotishga ko'ndim, olg'irlar qumrini molga almashtirishni zo'r lab iltimos qildilar. Qumrini molga movoza qildim, molning turlari quyidagilardan iborat:

Uch dona g'alvir gardish, bitta yog'och shaqildoq, ikki dona bolalar o'ynaydigan yog'och beshikcha, bitta terisi va gardishi qizilga bo'yagan chirmandacha, bitta tutash dastalik kurak, ikki chaynam saqich va boshqalar...

Mendan ketdimi, ulardan ketdimi — Xudoga ayon. Tavakkal, yo ostidan, yo ustidan.

Bu yuklar qumriga qaraganda ikki baravar ko'proq og'ir edi. Hammasini yelkamga qо'yib, bu shahardan ham chiqib ketdim.

Oldimda katta bir cho'li azim paydo bo'lgan edi, "qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan" bu cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko'rina boshladi. Men unga, u menga qarab kelar edik. Nihoyat, to'qnashdik, bu to'qnashish mening behad va bepoyon xursand-chiligimga sabab bo'ldi. Chunki bu kishi o'z shahrimdan, bir mahallalik, mendan bir-ikki yosh kattaroq Omonboy — Tursun pichoqchining o'g'li, o'z o'rtog'im edi. Yelkasida yetti yarim qadoqlik ketmon — mardikor ishlab yurgan ekan. U mening ustidagi yuklarni ko'rib hayron qoldi. Ayniqsa, gardishni ko'rib meni chalma quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti, deb o'ylagan ekan. Yo'Ining chekkasiga chiqib, bu cho'l-biyobonda bo'lgan yakkagina jiydaning salqinida o'tirib hasratlasha ketdik.

Yakka jiydada meva ko'rinas edi. Men Omonga juda biladi-ganlarday ma'nodor qarab:

— Jiyda solkash¹ ko'rinati, bu yil meva qilmapti, — dedim. Omon menga qarab kului.

— Voy, ahmoq. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari dana-giga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oydan keyin mevalar qaytib keladi, — dedi. — Men esimdan chiqargan ekanman.

Har ikkovimizning ham dunyo qidirib, baxt izlab yurgan o'spirinligimiz ma'lum bo'ldi. Mol-u jonni bir qilib, ahd-u paymon qilishdik-da, katta, ulug' safarni mo'ljal oldik. U ham kelgan izi bilan orqaga qaytdi, birgalashib, "cho'li malik" bilan ketar edik. Kechga yaqin juda ham katta bir "shahar"ga kirib bordik. Bu shaharning oti Ko'kterak ekan. O'rtog'imning yonida mardikorlik bilan topgan puli — mirkam ikki tanga, menda bo'lsa qatiqdan qolgan ikki tanga bir miri pul bor. Samovarga tushdik. Bozorni kutib, ikki-uch kun shu pullar bilan samovarda tunadik. Juma kuni bozor edi. Erta bilan bozorga chiqdik.

Hay-hay, bozor bo'lganda ham qanday bozor, deng? Bu tomoni Eron-u Turon, Makka-yu Madina, Maymana-yu Maysara, Xito-yu Chin, Istambul-u Mozandaron — na quyi, na past, na o'ng-u na chap. Bunday katta bozomi odam bolasi ko'rimgan bo'lsa kerak.

¹ Bir yil hosil qilib, bir yil hosil qilmaydigan meva daraxtlari solkash deb ataladi.

Bozordagi rastalarini aytin, mollarning shig'al to'lib ketganligini aytin, bozor ahlining turlanganini aytin. Savdogarlarning makkor basharalarini, rango-rang kiyim-boshlarini aytin. Bay-bay, bunday bozor "Qissas ul-anbiyo"da ham, "Huriliqo" degan kitobda ham yozilmagan, hech qayerda — tarixda yo'q.

Mana, bir chekkadan tomosha qiling! Mana bu attorlik. Bir qator attorlar eski qop, yag'ir sholcha, yirtiq bo'z parchalardan qizil, oq, ko'k, yashil laxtak quroqlardan turli-tuman soyabonlar yasab, mollarni bevosita yerning o'ziga yoyib qo'yibdilar. Bu mollar ichida jahondagi attorlikning hamma jihozи topiladi. Bit, burgaga qarshi ishlataladigan o'ldirilgan simob deysizmi, qo'tirga qarshi indov yog'i, yomon yaraga qarshi xuni dori, mozi, zanjabil, sanoyi makka, kuchala, ko'zmunchoq, dumaloq upa, ko'rpa igna, soqol taroq, halilayi zang degan quvvat dori, ishtonbog', ishton pocha, buxor saqich, qora saqich, har qanday yaraga dori bo'lган balzam-moy, qalampirmunchoq, tomir dori — qo'ying-chi, hamma narsa bor. Irvit deysiz, Irvit!

Bu mollarni saralab turlaganga, bir yerga jam qilishga aqli yetgan kishiga qoyil qolaverish kerak.

Ana, ikkinchi rasta! Bir tomonda kulollik mollari, bir tomondasovungarlik. Sopol tog'ora deysizmi, tog'oracha deysizmi, xum-dondan yangi chiqqan xum deysizmi, xurmacha, xo'qacha deysizmi? Chertib ko'rishga mahtal: jaranglab ketadi.

Bir tomonda kulcha Sovun, yaxnak Sovun, mum sham. Sovungarlar oldida qopda, xurjunda harom o'lган mollarning jizzasi, ichak-chavoqlari. Ming-ming zangori pashshalar g'uvillab turibdi. Bulardan bir qadoq Sovun olmoq uchun yo dimog'ni ro'mol bilan bog'lash kerak, yoki burunni yeng ichiga olib turish kerak. Ba'zi xushmuomala Sovungarlar xaridorni alahsitiб, o'ziga jalb qilish uchun bir piyola choy, bir burda non ham taklif qilib qo'yadilar. Dunyodagi hidlar ichida Sovunbozorning hididay "xushbo'ylik" jahonda bo'lmasa kerak. Kimga nima yoqadi? Omonga Sovun bozor yoqar edi.

Bu bozorlar ichida, menimcha, ta'rif-tavsifi yetti iqlimga ketgani "bit bozor" deb nomlangan rasta bo'lsa kerak. Bu yerda joningizga orom beradigan hamma narsa topiladi: saldoti shim

deysizmi, poyma-poy sag'ri kavush deysizmi, biror yetti yilgina kiyilgan, asli matoqi nima ekanligi ma'lum bo'lмаган гуппи деysizmi, Mallaxon zamonidan qolgan mursak deysizmi, chevar qizlar uchun rango-rang quroqlar deysizmi, ot bo'ktargisi, yolpo'sh, gulchin bilan tagcharm qo'yilsa hali kiysa bo'ladigan nimdoshgina saxtiyon mahsi deysizmi, paytavabop mollarning va lungibop matolarning son-sanog'i yo'q.

Bu mollarni yoyib o'tirgan chayqovchilarning aft-basharasi ni aytmaysizmi. Betlariga bu hafta ichi suv tegmagan, soqollar i ustарадан ozod, basharalaridan "nur" yog'ilib turadi. Biror molni so'rab qolsangiz, eng avval xuddi ammasining o'g'li tiri lib kelgandek, albatta, qo'l olib so'rashadi, keyin narx aytadi. "Amirkon-amirkon" degan joy bor, deb eshitib yurar edik, amirkoni shudir-da!

Xuddi ana shu bozorda o'z mahallam, o'rtog'im, bo'yinchado'z Omonbiyning o'g'li Husnibiyni uchratib qoldim. U ota kasbini o'zgartirib, laxtakfurushlik qilib yurar edi. Laxtak, deb har bir to'p molning tagida qolganini aytildi. Chunon-chi, bir tup chitni gazlab-gazlab sotib bo'lgandan keyin oxirida to'p tagi bo'lib, yarim gaz, chorak kam bir gaz laxtak qoladi. Bu laxtaklarni katta chitfurush gazlamachilar arzonroq baho bilan ko'tarmachilarga sotadilar. Ular bu rang-barang, guli guliga to'g'ri kelmaydigan turli-tuman laxtaklarni xurjunga solib, yelkaga tashlab, bozorma-bozor sotib yuradilar. Eng kattasi bir yarim gazdan oshmagan bu laxtaklarning xaridori ko'p bo'lar edi. Chunki bir gaz arzon chit sakkiz yarim paqir (bir paqir — ikki tiyin) bo'lgani uchun bosh-oyoq ko'ylak-ishtonni nuql qitdan qilish ko'p kambag'al larga muyassar bo'lmas edi. Shuning uchun ular ko'ylak-ishtonni bo'zdan qilib, ko'ylakning yeng uchini, ishtonning pochalarini — ko'rinaridigan joylarini chitdan qilishar edi.

Husnibiy bir xurjunning ikki ko'zi to'la laxtak, qo'lida gazcho'p:

— Poplin deysizmi, xushvoq deysizmi, chidaganga chiqargan deysizmi, burga chit deysizmi, rohatbadan deysizmi, madipolom deysizmi, surp, tik, shayton teri deysizmi, kep qoling, xaridor! — deb bozorni boshiga ko'tarib, baqirib yurar edi.

Birdaniga men bilan Omonga ko'zi tushib qoldi. Xuddi Imom Hasan bilan Imom Husanni tirik ko'rgandek quvonib ketdi.

— Iya, o'zlariningmi? — dedi-da, menga qarab: — Sen lo'liga shogird tushdingmi? Sen-chi, Omon? Men ota kasbimdan baraka topmaydigan ko'rindim. Laxtakfurushlikka o'tdim. Dastmoyam uch yarim so'mga yetdi. Mana bu mollarni qara, Yusuf Davydovning magazinida ham yo'q. So'ngra menga qarab javray ketdi:

— O'zing bir hafta-o'n kundan buyon qayerlarda sanqib yuribsan? Onang bechoraning qidirmagan joyi qolmadiku. Bir og'iz xabar berib qo'ysang o'larmiding! Haytovur pochchang kelib onangni tinchitib ketibdi. Besh kuncha biznikida turdi, undan keyin Qoplombekka amakilarinikiga chiqib ketdi. Kuzgacha dehqonchiligiga qarashib, biror nima orttirib kelmoqchi ekan, debdi. Undan keyin oying yig'lamay qo'ydi. Birrov tushib chiq, ahmoq.

— Uncha-muncha pul qilay, kiyim-boshimni tuzatay.

— Voy, ablah-ey, pochchangning qumrisini nima qilding?

— Nima qilibman?

— Lo'lilarga sotgan ekansan-ku!

— Sotmaganman, molga ayrbosh qilganman.

— Mollaring shumi, boy bo'lib qolbsan, ey lo'livachcha. Qo'rqlama, pochchang Nabi mirshabni yetaklab borib, ikki so'm to'lab qumrisini ajratib olibdi.

— Ajab bo'pti, bundan keyin hushyor bo'ladi, kim ko'rинганга "bovvachcha" qushlarini ishonib topshiravermaydigan bo'ladi. Ha, mayli. Endi buni qo'y, mahallada nima gap, qiziqroq gap bormi?

— Nima ham bo'lar edi. Jalil baqqol machit tobutxonasingning tepasiga beda bosib qo'ygan ekan, o't tushib ketdi. O't o'chiruvchilar kelib, rosa tomosha bo'ldi.

Po'latxo'ja akasining to'pponchasini o'g'irlab, qorovulning itini otib qo'ygan edi, mirshab bir kun qamab qo'ydi. Tekshirgani ikkita mirshab bilan Mochalovning o'zi keldi. Hamma in-iniga urib ketgan degin, men bilan Solih Miraziz akaning boloxonasidan mo'ralab rosa tomosha qildik.

— Ay-ay, sart, — dedi Mochalov, — jaman, savsem jaman, tuyava Sibir poydesh, ey kizimni...

— Juda ham dahshat. Po'latxo'janing akasi "pojaliska, pojalisika", deb ancha pul berib zo'rg'a ajratib oldi.

Shundan buyon Po'latxo'ja o'rtoqlarimiz ichida Nabi mire shabingdan ham, Mochalovingdan ham, Ko'r Rahim qorovulging dan ham qo'rqmayman, deb kekkayib yuribdi. "Qo'y-qo'y", desak, "Hammangni otib tashlayman", deb do'q qiladi.

— O'zim borganda tanbehini berib qo'yaman, — dedim.

Omon piching aralash:

— "Shunday qilib qo'y", — dedi.

— Oyimga, ukalarimga salom aytib qo'y, xavotir olishmasin. To'xta, mana shu bir mirini Yo'ldoshga berib qo'y, tunov kuni oshiqda yutqazgan edim. G'irromlik qildi, deb yurmasin. Xayr!

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ketmoni bilan mening qumriga movoza qilgan mollarimni bozorga soldik. Xaridor juda ko'p bo'ldi. Mollarimizning bozori chaqqon. Xaridorlardan ham ko'ra so'rab o'tuvchilar ko'p edi. Bu kishilar, ayniqsa, mening mollarimning bahosidan ko'ra, bu mollar turmushda nimalar ga kerak bo'lishini so'rар edilar.

Biror soat sanqiganimizdan keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulgurdik. Shunda ham o'rta ga dallollar tushdi.

— Qani, ha, uka, baraka de, — deb yarim soatcha qo'l siltab savdolashgandan keyin ketmonni yarim so'mga, kurakni bir yarim tangaga "bor baraka top" qildik. (Yoz bo'Igani uchun kurakning bozori kasod edi, attang, arzon ketdi.)

Pulning hammasini Omon belbog'iga tugdi. Endi qolgan mol larni pul qilish kerak edi. Bola beshik bilan shaqildoqni Omonga berdim. Gardishlar bilan childirma menda edi. Men childirmani, Omon shaqildoqni bozorga solib chala ketdik. Bu tekin sayyor konsertning nogahon ovozini eshitgan, tevarak-atrofda salanglab yurgan o'zimiz singari bir talay uvinto'da bolalar bizni qurshab olgan edilar.

Ayniqsa, bir do'lvorgina bolaga shaqildoq yoqib qoldi. Dehqon bola ekan. Qo'yarda-qo'y may bir qovun, ikki tarvuzga alishib oldi. Men Omonga: "Qoyilman, qo'ling yengil ekan", degandek ko'zimni qisib qo'ydim.

Childirmani naqd pulga, bittangayi ashrafga saman ot mingan xushmo'ylov yigitga pulladik. Tez orada gardishlar bilan bola be-shikning ham "ko'r xaridori" topildi. Bozorga tovuq, tuxum, so'k, qurt olib tushgan qozoq kampir:

— Voy-bo'y, qaraqlarim, o'si beshikti magan berag'o'y. Boldarimg'a bozorliq olib borib quvontirayin, — dedi.

— Beshik gardishdan ajratib sotilmaydi, — dedi Omon Xo'tan savdogarlarga xos sipoyigarchilik bilan.

— Voy-bo'y, qarag'im, to'ri jo'q, g'albingni ne qilayin. Key-tayin, olsam olayin. Boldar o'ynab jurar. Ne berayin, ne so'raysinlar?

Uzoq savdolashdik. Keyin yigirmata tuxum, bir do'ppi so'k, o'nta tuyu qurtga biz ham rozi bo'lqidik, kampir ham ko'ndi. Mol-larni tamoman sotib, qushday yengil tortdik.

— Charchadik, ozgina ovqatlanaylik, — dedi Omon.

— Yur bo'lmasa, nima yeymiz?

— O'zi arzon-u to'q tutadigan ovqat bo'lsin, — dedi Omon.

— Bo'lmasa tariq go'ja ichamiz.

— Bo'pti.

Bir paqirga ikkita qovoq solgan zog'orani olib, ovqat bozorga ketdik. Bu yerdagi ne'matlarni ko'ring. Hay, hay, hay! Bir oz hidi bo'lsa ham jigar kabob deysizmi, kartoshka somsa, oqshoq bo'tqa, umoch, bug'doy go'ja, tariq go'ja deysizmi — hammasi ham che-lak-chelak, xo'randa mutazir. Xo'randa sotuvchining atrofini o'rab, yerga cho'qqayib o'tiribdilar. Oshpazlar cho'michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra oshdan bir nima chiqdi shekilli, xo'randa:

— Buning nimasi? Pashshami? — deb so'rab qolgan edi, oshpaz:

— Oshda pashsha nima qiladi! Piyozning kuygani, — deb ko-saga qo'l tiqib "kuygan piyoz"ni olib og'ziga solib yubordi.

Arzonginasi, halolginasi shu deb biz ham bir tovoqdan quydir-dik. Bir tovog'i to'qqiz pul — uch tiyin ekan. Biz savdolashib ikki tovog'ini bir miri — besh tiyinga ko'ndirdik. Bay-bay, maza bo'pti-da. Qarsillab turgan zog'ora bilan sal achinqiragan uvra osh og'zimizga qaymoqday tatib ketdi. Tovoqni boshiga ko'tarib, huzur qilib xo'rillatib ichayotgan Omon peshonasidagi marjon-

marjon terlarini chap qo'lining barmog'i bilan dam-badam sidirar edi.

Ovqatdan so'ng, maza qilib kerishib oldik. Tuxum, so'k, qurtlarni mening belbog'imga tugib oldik. Omon:

— Oziqlik ot horimas, qolgan zog'orani ham ro'molga tugib qo'y, — dedi.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko'tarib oldi. "Semizlikni qo'y ko'tarar", deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi. O'rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so'mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq — boyvachcha qiliq chiqara boshladi.

— Yur, — dedi u menga, — qo'y bozorga kiramiz.

— Nima qilamiz?

— Men o'zimga tegishli aqchaga birorta to'qli olib shaharga haydab ketaman.

— Nima-nima? — dedim men. — Darrov pul quturtirdi-mi? O'zing so'qqa joningni boqolmaysan-u to'qlini qanday qilib boqasan. Yoki dadang Tursunboy akaning to'qliga ko'zi uchib turibdimi?

Baribir, gap kor qilmadi. Meni sudrab mol bozorga olib kirdi. Tugunni-ku, ishonmas edik. Bozor darvozasi oldida turgan patta-chining oldiga qovun bilan tarvuzni omonat qo'yib ichkari kirdik.

Mahshar deganning xuddi o'zginasi shu yerda ekan. Bir tomonda bir arqonga bog'langan qo'shoq-qo'shoq qo'ylar, bir tomonda echkiy-u uloqlar tinmay ma'rashib turibdi. Bir chekkada qoramol bozori: sigirlar, buzoqlar, g'unajinlar, buqalar, ho'kizlar. Narigi tomonda ot bozori. Jalloblar qirchang'ilarni Zolariq suviga solib, qamchilab, arg'imodday dingillatib xaridorlarga ko'z-ko'z qilib yuribdi. Sotuvchi ko'p, undan oluvchi ko'p, hammasidan ham dallol ko'p.

Kun — tig'ida, jazirama, chang. Hammayoqni tezak, ter, jun hidi bosib ketgan. Bir meshkob orqasida bir mesh suv, qo'lida ikkita sopol tovoq:

— Obi xudoyi, obi xudoyi, — deb chanqaganlarga suv ularshib yuribdi.

Bergan biror chaqani sopol tovoqqa tashlaydi, bermagan bilan ishi yo'q. Bir chekkada yalang oyoq ikkita bola "muzdek ayron",

deb qichqiradi. Chelakning ichida bir burda kir muz. Muzni qayerdan oldi ekan?

Bozorning bir chekkasida — beshyog'ochlik qo'ychi boylardan Soyibnazar qo'ychi bilan Ilyos bo'rdoqi. Kiyiz chakmonli, namat qalpog'ini bostirib kiygan qozoq qo'ychilari qo'l siltashib savdolashyapti. Dallollar: "Oling-oling", "soting-soting, boy ota", deb javrab turibdi. Bularning savdosi oz deganda yuzlab qo'yning tepasida.

Biz hali biror tuyaning tishini ko'rmasdan, biror otning yo'ri-g'ini bilmasdan, biror buqaga "bor, baraka top" demasdan, qo'y bozorning kunchiqar tomonidan g'ala-g'ovur janjal ko'tarilib qoldi.

— Ur, sheshangdi!..

— Kisabir, kisabir!

— Bozorga uri aralabdi!

"Chur-chur" hushtakbozlik. Bir qo'li bilan qilichini ko'tarib, ko'k movut shimini eplay olmay, alpong-talpong bir qozoq va bir o'zbek mirshabi o'sha tomonga qarab yugurdi. Hamma o'sha yoqqa qarab chopdi. Biz ham ularning ketidan yugurdik.

Ne ko'zim bilan ko'ray, mana, ishonmasangiz, Omon ham guvoh. O'rtada bizga qo'shni bo'lgan Ko'g'urmoch mahallalik mashhur Sulton o'g'ri turar edi. Bu gal u kisavur sifatida emas, balki pul o'g'irlatgan jabrdiyda bechora sifatida kosibsimon yuvoshgina bir yigitning yoqasidan ushlagan holda ko'ziga yosh olib turar edi.

— Musulmonlar! — der edi u. — Pulimni oldirib qo'ydim. Yonimda mana shu yigit ilashib yurgan edi, gumonim shundan.

Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan, lablari pir-pir uchadi.

— Ey Xudo, quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo'liqdim, o'zing saqla! — deb javob berar edi u.

— Qancha aqchang bor edi? — deb so'radi qozoq mirshab Sulton kisavurdan.

— Sakkiz so'm-u mirikam to'rt tanga. Ola tik hamyonda edi. Ichida "Yo Ali" degan tamg'alik kumush uzugim ham bor. O'zim kambag'al kosib odamman, birorta oriq-turiq qo'y olib kuzgacha semirtirib yuraman, deb kelgan edim.

Shu tobda Sultonning ko'zi men bilan Omonga tushib qoldi.

— Mana bu bolalar ham guvoh!

Hang-mang bo'lib qolgan Omon: "Iye, iye", — deganicha dasasiga to'qli olib borishni ham esidan chiqarib orqasiga qarab qochdi. Men bezrayib turaverdim.

— Seni qancha aqchang bor edi? — deb so'radi mirshab sho'rlik kosib yigitdan.

— Meniki ham olacha tik hamyon. Men ham qo'y olgani kelgan edim. Pulim sakkiz so'm mirikam ikki tanga (mirikam ikki tanga — o'ttiz besh tiyin).

— Guvoh-puvohning hojati yo'q. Qani, ikkoving oqsoqolning oldiga yur-chi, o'sha yerda yechamiz. Olomon tarqalsin, — dedi o'zbek mirshab.

Ikkovini yetaklab bir tomonga olib ketdilar. Biz orqalaridan bormadik.

Sulton o'g'ri guvohlikka tortgandan keyin qo'rqib qochgan Omonni kechgacha qidirib, bozor tarqalganda Tuya saroyidan topib oldim. Hali ham qo'rqqanidan o'ziga kelmagan edi.

— Oxiri nima bo'ldi? — deb so'radi Omon mendan.

— Kisavurga sen sherik ekansan. Mirshablar qidirib yuribdi, — dedim men.

— Rostingmi? Endi nima qilamiz?

— Nima qilar edik. Seni jatingga qovun bilan tarvuz pat-tachining qo'lida qolib ketdi.

— Endi qayerda yotamiz?

Bir-ikkita samovarga borib ko'rdik. Hammasini savdogarlar, lattafurush chayqovchilar egallab olibdi, yotar joy yo'q.

— Endi qayoqqa boramiz? — dedi Omon.

— Oo'rqma, bultur tog'am bilan shu yaqin orada bir bo'zagar kampirning uyida yotib qolganmiz. Yaxshiqiz degan kampir meni taniydi. O'shaning o'tovida tunab qolamiz.

It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi. Tugunni ko'tartirdim. Yaxshi qiz degan bo'zagar kampirning o'toviga qarab ketdik. Kampirning o'tovi Zolariqning chap qирг'ог'ида edi. Atrofi ozodagina qilib supurilgan. Tuproqdan kattagina supacha ko'tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo'yilgan. O'tovning yon-

boshida loy o'choqqa o'rtacha kattalikdagi bir qozon o'rnatilgan. O'choqdan nariroqda ikkita ayriga ip arqon tortib, unga chambaraklarda uch-to'rtta sopol tovoq osib qo'yilgan. Sut-qaymoq bo'lsa kerak. Ikkita qovoq idish osig'liq turibdi. Ularda qatiq bo'lsa kerak. Qozon tuvoqsiz, uning yonida bir o'g'ir, bitta kuv turibdi. Bitta yechiq buzoq shataloq otib o'ynoqlab yuribdi. Chala qurigan bir tolga bog'lab qo'yilgan qari ola ko'ppak juda hafsalasizlik bilan ko'ksovlarning yo'taliga o'xshagan ovoz bilan hurib bizlarni kutildi. Itning ovoziga o'tov ichidan kampir — Yaxshiqiz chiqib keldi. Oltmislardan oshgan bir xotin, oq oralagan sochlari taralmagan boshida dakana, belida shol belboq Ayolning orqa sochiga besh-oltita bir so'mlik, yarim so'mlik so'lkavoylardan saqina¹ osilgan.

— Salom, sheshe.

Kampir alik olishdan avval itga "shpcht adrag'ovur" deganga o'xshagan ovoz chiqardi. It hurishdan tindi.

— Kelinglar, jiggitar, o'si jerga o'tirib turinglar, — supadan o'rinn ko'rsatdi u.

Men imlab qo'ydim. Omon qo'lidagi tugunni kampirga tutqizdi.

— Ozg'intoy bozorliq, — dedim men.

— Keregi jo'qg'o'y. Ne qilib alek bo'lib juribsendar, — degan bo'lsa ham tugunni olib o'tovga kirib ketdi.

Bir nafasdan keyin chiqib:

— Qani, jiggitar, bo'za ichasingdarmi? Et osaymi? — dedi.

— Jo'q sheshe, bo'za ham ichmaymiz, et ham osmang, o'ntacha tuxum pishirib bersangiz bo'ladi. Joy bersangiz tunab ketamiz.

— Jaqsi, — dedi kampir, — xudoyning osmoni ham, yeri ham keng. Joz kuni. Qalag'an yerlaringda jota berasindar. Ikkoving bir tanga berasin.

— Jo'q, sheshe, — dedim, — ikkovimiz yarim tanga beramiz.

— Sartting bolasi quv bo'ladi, jota qollaring. Bu kecha bozor kech, qo'noqlar keledi, boyvashshalar keledi, angime zo'r bo'ladi.

Kampir bizga tuxum qovurib bergani qozonning tagiga o't qo'yib, tappi tutata ketdi. Omon bilan ikkovimiz endigi safarimizning rejasini tuzib, maslahatlashib o'tirdik. Yarim soatlardan

¹ **Saqina** — sochpopuk o'miga taqiladi.

keyin bitta sopol laganda tuxum qovurdoq bilan qozonga yopgan ikkita chap-chap non keltirdi. Bir kosadan sovuq suvni oldimizga qo'yib, mohazarni tushira ketdik.

Omon laganning tagini non surkab yalab turganda ko'cha-ko'yni to'ldirib, ayqirib-chayqirib besh kishi kirib keldi. Novcha bir yigitning yelkasida bir nimta go'sht, qo'lda tugun, unda non, kartoshka, piyoz bo'lsa kerak. Yana bir yigit mullavachchalarga o'xhash qulf soqol qo'ygan, boshida girdak kir sallasi bor, xush-tavoze. Ich yaktagining ustidan belbog' bog'lab, uning ustidan yana bitta yaktak kiyib olgan. Oldinda kimsan, Sulton kisavur. Shimining pochasi shimarilgan, belbog'i burab-burab arqon qilib bog'langan. Egnida yoqasi ochiq tik yaktak, isqirt do'ppisining bir chekkasi qaytarilgan. Boshi sal orqaga moyil, basharasi behayo. Qo'lida to'rtta xirpa oshiqni o'ynab kelar edi. Qolgan ikki yigitni ham Sultonning nusxasi desa bo'ladi. Faqat bittasining bir ko'zida g'o'laqdek oqi bor. Bittasining o'ng yelkasi chap yelkasidan baland. Shuning uchun ham chap qo'li o'ng qo'lidan uzun ko'rindi.

Bularni ko'rish bilanoq Omonning chaynagani og'zida, yutgani bo'g'zida qolib, menga baqrayib qaradi. Men unga "supani bo'shatamiz" degandek imo qildim. O'rnimizdan turdik. Zolariq yoqasida it bog'langan tolning tagidagi maysaga borib o'tirdik. Sulton kisavur:

— Sheshe, omonmisan? — dedi. — Bu kech bizni qo'noq qilasan. Yaxshi chiqqan bo'zalardan bormi?

Keyin bizga ko'zi tushib qolib:

— Hoy, sen haromilar, bu yerda nima qilib yuribsanlar? Qani bu yoqqa kel! — dedi.

O'zi va ulfatlari supaga chiqib o'tirib, bizni ham yonlariga chaqirdilar. Noiloj kelib o'tirdik. Kampir kir dasturxonga bir dasta non o'rab olib kelib o'rtaga tashladi. Keyin katta quruq yog'och chora ham olib chiqib o'rtaga qo'ydi. Sultonga qarab so'radi:

— Oqshoq bo'za ichasindermi, tari bo'za ichasindermi?

— Zo'r chiqqanidan olib kelaver, — dedi Sulton. Kampir o'tovga kirib ketdi. Sulton bizlarga qarab:

— Hali mol bozorda nima qilib yuruvdilaring? — dedi.

— O'ynab yuruvdik.

— Ha-ha. U yerda nima o'yin bor ekan? Yo o'zimga shogird qilib olaymi? — Omonni ko'rsatib: — Mana bundan tomteshar chiqadi. Kisavur bo'lolmaydi, qo'pol, — dedi.

Shu hazil-mazax paytdan foydalaniб, undan so'radim:

— Sulton aka, haligi janjalning oxiri nima bo'ldi?

— Voqyea aslida bunday bo'lgan edi, uka,— deb Sulton kisavur gapirib ketdi. — Ko'kterakning samovarida bir necha kisavurlar o'zining epchilligi, qo'rmasligi, ayyorligi bilan maqtanishar edik. Shunda men o'g'irlagan pulimni halol qilib, egasini rozi qilib ololaman, deb yuborgan edim. Ulfatni bo'zaga to'ydirishdan bahs boy-lashgan edik. Qo'y bozorga kirdim. Ko'zimga o'sha ko'rganing bayov kosib yigit uchrab qoldi. "Shilg" etib hamyonini oldim, pulini sanab ko'rsam, sakkiz so'm-u mirikam ikki tanga ekan, yonimdan unga ikki tanga qo'shdim. Uzugimni ham hamyonga solib, hamyonni qaytadan yigitning cho'ntagiga joylab qo'ydim. Keyin o'sha ko'rganing maynabozlik, yolg'ondakam ayyuhannosni soldim. Mirshablar oqsoqolga olib borishdi. Oqsoqol mening da'vomni, uning raddini eshitib, pulni tekshirishga tushdi. Kosibning cho'ntagidan hamyonni olib, ichidagilarni xontaxtaning ustiga qo'ydi. Mening da'vom to'griligi uchun yigit "kisavur" bo'lib chiqdi.

Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho'tal olib qoldilar. Shunday qilib, o'rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim.

— Iye, sho'rlik begunoh kosib yigit qulog'ini ushlab ketaverdimi?— dedim.

— Yo'q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so'm pora berib, yigitni qutqazib yubordim, da'vom yo'q, dedim. Yigit bechora xursand bo'lidan bo'ynimdan quchoqlab o'pib:

— Rahmat, aka, bu yaxshilgingizni o'Igunimcha unutmayan, qiyomatli aka-uka tutindik, uyim Toqli jallob mahallasida, otim Abdurayim, — deb minnatdor bo'lib ketdi.

— Balli, yigitlik shunday bo'pti-da, aka, — dedim.

Sulton kisavur miyig'ida kulib, "shunday", degandek qilib qo'ydi.

Hammamiz qah-qah urib kulishdik. Sulton kisavur yonboshlab, tirsagiga tayangan, novcha kishi supaning yonida tikka turibdi. Mullanamo kishi tiz cho'kib, ikki qo'lini qovushtirib Sultonning gaplariga miyigida odob bilan tabassum qilib o'tirar edi. Qolgan ikki yigit bir-biriga ro'para chordana qurib, gugurt otishib "ermak qimor" o'ynab o'tirishgandi.

Kampir et osib yubordi. O'choqdan chiqqan zangori tutun os-monga o'rjab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi.

Shom cho'kib, quyosh botib borar edi... O'choqda o't tutashib ketgandan keyin kampir o'tovga kirib ikkita qovoq manak (bo'za quyiladigan idish)da bo'za keltirib qo'ydi. Bir necha zarang kosa olib keldi. Novcha yigit darrov belbog'ini yechdi, uni qoqqan bo'lib, choraning ustiga tarang qilib yoydi, bo'zani suza boshladi. (Bo'za odatda ilitib ichiladi. Kampir olib chiqqan bo'za kuni bo'y ioftobda turgani uchun ilitishga hojat yo'q edi.) Bo'za suzishning o'z qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki ro'molni sidirib suziladi.

Novcha yigit suzgan bo'zadan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi.

— Hammaga quy! — dedi Sulton.

Novcha yigit ikkinchi-uchinchi oyoqni haligi ikkita yigitga uzatib, so'raganday Sultonning o'ziga qaradi.

— Bolalarni qo'ya tur, domлага uzat, — dedi Sulton.

— Yo'g'-e, yo'g'-e, o'zlaridan bo'laversin. Biz ichmaymiz. Ya'ni Xudo kalomida aytganki...

— Kalom-palominingni yig'ishtirib qo'y, qachondan buyon ichmaydigan bo'lib qolding, — deb o'shqirdi Sulton, — islovatda sarqitimizga mast bo'lib yurar eding-ku.

— Ya'ni, ya'ni... tavba qilganmiz.

— Kisavur bilan o'g'rining tavbasi tavba emas. Esingdami, kisavurlikni ham uddasidan chiqqan qiladi. Bultur kuzakda Salor bo'yidagi Kaponda oraga men tushmasam, olomon seni o'ldirib yuborar edi. "O'g'ri qarisa so'fi, g'ar qarisa parixon bo'ladi", deb bekorga aytilmagan-da. Tayba qildim, deydi-ya! Ha-ha, endi eshon bo'lib, qishloqma-qishloq murid ovlab yuribsanmi? Ol buni!

Domla juda qimtinib, o'ng'aysizlanib zarang kosani qo'liga oldi.

— Durvazang qizigandan keyin alyor ham aytib berasan hali.
Ich-ey, payg'ambarning merosxo'ri.

Ortiqcha gap o'tmasligini sezgan domla ko'zini chirt yumib,
bo'zani shimirib yubordi.

Bizni ichishga ko'p zo'rللامادى. "Hali obdan icharsanlar", —
dedi Sulton. Manak ustiga manak keldi. Chala pishgan sho'rva
keldi, ichaverdilar, domla bo'lса allaqachon sallani chuvatib,
beliga bog'lab olgan. Xudoning birligini o'rtaga solib, tilab olib
ichmoqda edi. Almoyi-aljoyi alyorlar:

*Bu tog'larning yonboshida otim yurgan,
Quyushqoni sag'risiga botib yurgan.
Sendek-sendek nomardlarni men ko'p ko'rghan,
Oq tomog'im, yo'rg'alang, alyor bo'lstin.
Onasini boyvachchaga sotib yurgan,
Alyor-yey-alyor, alyor bo'lstin-ey.
Tog'dan quyon qochirdim, iyagi yo'q,
Qizlar ko'ylak kiyadi jiyagi yo'q.
Jiyagi yo'q joylariga qo'lim solsam,
Qo'sh kaptari hurkib qochar, suyagi yo'q.
Alyor-yey-alyor, alyor bo'lstin.
Oq tomog'im, yo'rg'alang-ey, alyor bo'lstin.*

O'tirish sekin-sekin bema'ni tomonga qarab qizib borar edi.
Sekin o'rnimdan turib, Omonni imladim. Yalinib-yolvorib Yaxshi-
qiz kampirdan bitta kichik sholcha bilan bitta xushvaqtadan tikilgan
kir lo'labolish so'rab oldik. O'tovning orqasiga o'tib, joy qilib
yotdik. Mastlar payqagani ham yo'q. Tun yarim kechadan oqqan
bo'lishiga qaramasdan mastbozlik, shovqin-suron, to'polon tohora
avjiga chiqar edi. Yana kimlardir kelib qo'shildi, tanish bo'lImagan
ovozi ko'payib ketdi. Kimdir kular edi. Kimnidir tutib olib urar-
dilar shekilli, doddab, Xudoni o'rtaga solib yig'lar edi.

— Azbaroyi Xudo, borim shu, boshqa pulim bo'lса, imom
A'zam ursin.

— Lippasini axtar, dayusni!

Domlani tunamoqda edilar. Bunday to'polonlarni ko'ra berib
ko'nikib ketgan Yaxshiqiz kampir bemalol o'choqboshi bilan

o'tov o'rtasida xizmat qilib yurar edi. Keyin uxbab qolibmiz. Qancha uxlaganimizni bilmayman. G'ira-shirada kimdir biqinimga turtganidan uyg'onib ko'zimni ochdim. Tepamda kechagi domla turar edi. Boshida shoshib-pishib o'ralsan kir salla, bir chakkasi ko'kargan, qovog'i shishgan, bir ko'zi qontalashgan.

— Tur, uka, turinglar, hammasi dang uchib yotibdi. Qochmasak bo'lmaydi. Mening bo'ladiganim bo'ldi, rasvo qilishdi. Nos puli ham qolmay, bor-yo'g'imni shilib olishdi. Yana bir baloga yo'liqmaylik. Boshim yorilguday charsillab turibdi.

Omonni uyg'otdim, dik etib turib, Zolariqning muzdek suvig'a apir-shapir yuz-qo'limizni yuvgan bo'ldik, o'z etagimizga artindik.

— Xo'sh, qayoqqa qocharimiz, taqsir?

— Xudoy taoloning dargohi keng, to'rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing'iroq tepe tomoniga qocharimiz.

Uchovlon "shilt" etib chiqib ketayotganimizda Yaxshiqiz kampir yo'limizni to'sdi:

— Qayoqqa qochedapsanlar, aqchamni berib ketlaring!

Omon cho'ntak kovlab bitta o'n besh tiyinlik Buxor tanga berdi.

— Mana, sheshe, yarim tanga haqqingizga, bir miri non bilan tuxum qovurgan yog'ning puli.

— Xo'sh,— dedi pulni olib kampir, — kelib-ketib turinglar.

Shunday qilib, kallayi saharlab yo'lga ravona bo'ldik.

II BO'LIM

Uch soatcha yo'l yurgandan keyin Tepaguzar degan bir mavzega yetdik. U yerda bir chol baqqol endigina do'konini ochgan ekan. Undan yo'l xarajatlarini, safar anjomlarini oldik. Chunonchi: bir qadoq tuz, ikki qadoq turshak, oltita zog'ora non, ip, nina, ikkiticha ichi tushgan bosvoldi. Hammasi yetti paqir bo'ldi. To'rt paqirni domla ust yaktagining baxyasiga yashirgan joyidan olib to'ladi. Uch paqirni biz to'ladi.

Yana yo'lga tushib yarim soatcha yurgach, Oynabuloq degan yerda bir tolning tagida, chashma labida zog'orani o'rtaga qo'yib, qovunlarni yorib nonushtaga o'tirdik. Nonushta orasida domla o'zini bizga tanishtirib ketdi:

— Bizning aslimiz Buxoroyi sharifdan bo'lar ekan. Hozir Toshkentning Pushtihammomida turamiz. Boboyi-bobokalonlarimiz juda zabardast eshonlar o'tgan. Dadam rahmatlik ham "kuf" desalar suvni teskari oqizib, "suf" desalar ko'rning ko'zini ochib yuboradigan ulug' zot edilar. U kishiga ixlos qo'yagan odam kamdan-kam edi. Ona tomonidan ham juda haqqa yetishgan odamlarmiz. O'z onam hozir ham childirma bilan fol ochib, xipchin bilan savab, yangi sopol idishga tilsim yozib tandirga qo'yib, oshiq-ma'shuqlarni bir-biriga issiq-sovuq qiladigan katta otindir. Men bir necha yil avval ota kasbimning hadeganda jo'niga tushib ololmay, anchagina shaloqliklar ham qilganman. Avvaliga yigit-yalanglarning bazmida bachcha bo'lib o'ynab pul topdim. Nasha-pashalar ham chekib yurdim. Keyin uncha-muncha kisavurlik ham qilib ko'rdim. Ammo bu hunar bizday zotdor kishilarga to'g'ri kelmas ekan. Bir kun Kapponda olomonda qolib ketay dedim. Yo'q, Xudoga shukr, mana endi yo'limni topib, ota kasbimni boshlab yubordim. Dalayi dashtlarda odamlarni kuf-suf qilib, ezibichki yozib berib, issiq-sovuq qilib binoyidek tirikchilik qilib yuribman. Ota kasbida gap ko'p ekan, birim ikki bo'lib boryapti.

O'zim madrasa ko'rmagan bo'lsam ham, savodimni chiqarganman. O'qimasam ham uqqanman. Za'far bilan duoyi tumor, ismi a'zam yozish qo'limdan keladi. Ko'pchilik qishloqilar menga ixlosmand. Ba'zilari "eshon pochcha" deydi, ba'zilari "qori aka" deydi, ba'zilari "mulla aka" deydi. Asli ismim Mullamuhammad Sharif binni Mullamuhammad Latif ibni G'avsil a'zam.

Mana endi uchalamiz bir yoqadan bosh chiqarsak, hamma ishni bamaslahat qilsak, el-yurt oldida sizlar mening hurmatimni bajo keltirib "hazrat", "hazrat" desalaringiz, men sizlarni "pirbachchalar" desam, shariatga xos ta'zim-tavozelarni o'rgatsam, kuzgacha birimiz o'n bo'lib, bisoti bag'al orttirib, qo'yin-qo'njimiz to'lib, sen je-men je — shaharga izzat-obro' bilan tushib borsak, yomon bo'lmaydi. Shunday bo'lsin, hech kim yo'q vaqtida mulla aka yoki Sharifjon aka, deb chaqirsalaring ham bo'laveradi. Nimaiki topsak — o'rtada, to'rtga bo'lamiz. Ikki hissa meniki, bir hissadan senlarniki. Kim shu va'dadan qaytsa, beti qibladan qaytsin, omin Olloh-u akbar, — dedi.

Biz ham qo'shilishib qibлага qarab fotiha o'qidik.

Yana bir oz salanglanib o'tirgan edik, qarshimizdan chang ko'tarildi. Chang borgan sari bizga yaqinlashar edi. Keyin qorasini tanidik. Bir otliq qishloq o'zbegi edi. Ot chop a berib ko'pirib ketgan. Chavandozning chonining ikki bari taqimidan chiqib yelda uchib kelar edi. Bizning tepamizga kelib, otni arang to'xtatdi.

— Salomu alaykum, mo'lidakalar, jo'l bo'lsin?

Biz ham uning salomiga javob qaytarib: "Alay bo'lsin, olgani", — dedik.

— Yigitlar, — dedi o'zbek, — ichlaringda imon shariatni bila-digan, o'lik juvoturg'anlaring bormi?

Domla bizga qaradi, biz ta'zim bilan unga qaradik. Domla to-mog'ini bir qirib qo'yib, savlat to'kib:

— Topilib qolar, nima xizmat edi? O'zimiz toshkentlik bo'lamiz, eshonzodalardanmiz. Madrasa ko'rgan mullayi zabardast-lardan bo'lamiz. Hozir ta'til vaqt bo'lgani uchun qishloqlarda tabdili havo qilib yuribmiz. Bu ikkovlari ham pirbachchalardan, — dedi. Bu muqaddima gaplardan o'zbek danak topgan tentakdek juda quvonib ketdi.

— Voy-bo'y, taqsirlar, voy-bo'y, taqsirlar! Sizlarni Xudoy-ning o'zi jetkazdi. Qani juringlar, aytpasam. O'zi jaqinda bizning ko'chkin chorva elet bor. Bir jigitimiz novqaslanib qaza qilgan edi. Uni juvib janoga o'qiydigan kishi jo'q. Voy-bo'y, taqsirlarim, sizlarni Xudoy jetkazdi. Qani ketdik!

Omon dasturxonlarni yig'ishtirdi. O'zbek otdan tushib, otga domlani mindirdi. Uchov piyoda, domla otliq keta boshladik. An-chagina olis yo'l ekan. Bir-ikki yerda dam ham oldik. Bir qirning tepasiga chiqqanimizdan keyin uzoqda bir qo'rg'on va bir-ikki o'tov ko'rindi. O'zbek o'sha tomon qo'lini cho'zib ko'rsatdi:

— Hov, o'sha ko'ringan qo'rg'on — bizning qo'nalg'a. Hade-may yetamiz.

Kun qiyomdan oqqanda yetib bordik. Bu ko'chmanchi elatning asli turar joyi bu yerdan yuzlab chaqirim narida, dashtning ichki tomonida qolgan ekan. Mol-qora, bola-chaqa, xotin-xalajlari ham o'sha yerda qolgan ekan. Orada o'lim ro'y berib qolGANI uchun u yerda yuvib, janoga o'qiydigan domla topilmaganidan yigirma

choqli yigit-yalang, bir-ikki qari-qartang o'likni olib kelib, shu yerga qo'ngan ekan.

Hamma "gurr" etib o'midan turib, bizga qo'l qovushtirib salom berdi. Hazrat: "O'lik qayerda?" — deb so'radilar. O'lik qo'r-g'onning ichida ekan. Qo'rg'on ichki tuzilishi jihatidan qaysidir bir chorvachi boyning qo'y qamaydigan saroyini eslatar edi. Unda-bunda tuynukli devorlari mustahkam, qo'sh tavaqa darvosasi ham bor. Lekin vaqt o'tib, taxtalari chirigan, ho'kiz suzsa buzilay deb turibdi. Qo'rg'onning o'rtasi kovlanib chuqurroq qilingan bir hovuzcha ham bor edi. Hovuzning chetlarini har xil po'panak o'tlar bosib ketgan. Labida bir-ikki ko'ndak tol ham bor edi. O'lik qo'rg'onning og'il-xonasida ekan.

Rostini aytish kerakki, na men, na Omon, na hazrat umrimizda o'lik yuvmagan edik. Ayniqsa, men bo'lsam, odam o'ligi u yoqda tursin, mushukning o'ligidan ham cho'chir edim. Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yi o'likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi. Qadam-qadamda pichirlab bir balolarni o'qib, atrofga kuf-suf qilib, fotiha o'qiganday qo'llarini yuziga surtib qo'yar edi. Ammo biz bilar edikki, bularning hammasi jo'n gap. "Pul — dardi kabob" uchun qilinayotgan nayrangbozlik.

Domlaning ishorasi bilan Omon boshqalarini qo'rg'onдан chiqarib, kafanlikni so'radi. Olti gaz kelar-kelmas eski bo'z parchasini keltirib berdilar. So'ngra butun yig'ilganlarga: o'lik yuvilib tayyor bo'lguncha qo'rg'onga yaqinlashmasliklari, bu tomonga mo'ralamasliklarini tushuntirdi. Chunki qarasa gunohkori azim bo'lar ekan. Odam ofatga yo'liqar ekan.

Hamma chiqib ketdi. Darvozani bekitdik, orqasiga bir katta xarsangni olib kelib tamba qildik.

Hazrat bizga qaradi. Biz hazratga qaradik.

— Endi nima qilamiz? Ikkovingdan biring o'lik yuvib ko'r-ganmisanlar? — dedi hazrat.

— Yo'q, — dedik biz.

— Men ham yuvmaganman. Lekin bu o'zbeklar bilan o'n so'lakovoya gaplashib qo'ydim. Yuvmasak, pul uvol bo'ladi. Besh so'mni men olaman, ikki yarim so'mdan senlarga.

— Xo‘p, bo‘lmasa, o‘zingiz yuvasiz,— dedim men.

Qo‘rqa-pisa o‘lik yotqizib qo‘yilgan hujraga kirdik. Murda uzala tushib yotgan ekan. Oyoq tomoni ochiq. Betiga bir eski yaktak yopilgan. Chamasi, yuvg‘uvchi topilmay bir necha kun turib qolgan bo‘lsa kerak, ancha hidlanib ketgan edi.

Oldinda hazrat, keyin Omon, uning orqasidan men, orqamizga tisarila-tisarila bir-birovimizni oldinga qarab itarishar edik. Hujraning ichida o‘likning arvohi aylanib yurganday cho‘chib-cho‘chib, yurak yutib, oyoq uchi bilan yurib o‘likka yaqinlashdik.

Mening oldimda ketayotgan Omon to‘satdan o‘zini orqaga tashlab “g‘iyq” degan ovoz chiqardi-yu, o‘zidan ketib qoldi. Domla orqaga bir sapchib, hujra eshigi oldida qotib qoldi. O‘likka bir qarashdayoq Omonning o‘zidan ketib qolishining sababini tushundim.

Qaysi ko‘zim bilan qaray, biz yuvmoqchi bo‘lgan o‘lik tirilgan edi. Oyoqlari qimirlamagani holda betiga yopilgan yaktakni qimirlatib boshini ko‘tarmoqchi bo‘lar edi.

Yuragim yorilguday bo‘ldi. Orqaga qaytib qochaman deb, yerda yiqilib yotgan Omonga qoqilib, dumaloq oshib tushdim. Ko‘zim hazratga tushdi. Uning ham rangi o‘chib ketgan. Allani-malarni o‘qib, o‘ziga va atrofga dam solar edi. Nafasim og‘zimga tiqilib, jonholatda o‘rnimdan turdim. Yugurganimcha qo‘rg‘onning sahniga chiqdim. Orqamdan o‘lik quvlab kelayotgandek orqamga qayrilib boqar edim. Hovliga chiqib bo‘g‘iq va hayajonli ovoz bilan dodlay boshladim.

Mening bu qo‘rqinchli ovozimni eshitgan o‘lik egalari hovli-qishib, eshikni ochishga urinsalar ham eshik ochilmadi. Chunki xarsangni tirab juda ham mahkam tambilagan edik. Borib, xarsangni olib, eshikni ochishga menda majol yo‘q edi.

Domla hazrat bo‘lsa, sassiq hovuz labiga o‘tirib, hadeb ta-horat qilar edi. O‘lik egalari dan bir-ikkiasi devordan oshib tushib, eshikni ochdi. Qolganlari ham kirdilar. Men nafasim og‘zimga tiqilgan holda ularga voqeani aytdim. Ular o‘likka bizdan ko‘ra jonkuyarroq bo‘lganliklari uchun ko‘zlari qinidan chiqib, hovliqib ketgan edilar.

Endi Omonning ahvoidan xabar olish zarur edi. Ko‘pchilik-ning daldasi bilan hujra tomon yura boshladim. Yurak oldirib

qo'ygan ekanman. Har nafas orqamga qarab qochadigan yo'lni mo'ljallar edim. Shovqin-suron bilan hujraga kirib borar ekanmiz, yaktak sudragan bir olg'ir qir mushugi sapchib, Omonning ustidan sakrab, bizning oyoq oralarimizdan o'tib hujradan chiqib ketdi. Hammamizning ham qutimiz uchib, serryab qoldik. Shu paytda Omon ham o'ziga kelgan edi. O'likning "tirilganligi" sababi bizga endi anglashildi.

O'lik bizning ko'zimizga bosh ko'targanday bo'lib ko'ringanligi shunday ekan: qir mushugi yaktakning tagiga kirib olib, o'likning ko'kragiga o'tirib, hadeb burnini kemirmoqda ekan...

O'lik egalari o'likning burunsiz qolganidan qanchalik qayg'urgan bo'lsalar, bizdek yosh, no'noq, uch o'g'lon g'assolning "dovyurakligi" dan shunchalik maza qilib kular edilar.

Mushuk yaktakni sudraganicha ketdi. O'lik egalari bizni qoldirib tashqariga chiqdilar. Eshik orqasiga yana xarsang tambalandi. Omonni hovuz bo'yiga o'tqazib, yuziga suv sepgan bo'lsak ham hadeganda o'ziga kelmay, aftida "bir qari bo'z bitganday" bo'lib xomush o'tirar edi.

— To'xtang, ukam, to'xtang, o'zim bir dam solib qo'yay, ko'rmaganday bo'lib ketadi, — dedi hazrat. Allanima balolarni o'qib, Omonga kuf-suf qila boshladи.

— Ana xolos, o'zingizga kelib qoldingiz. Inshoollo, duoga shak yo'q.

— Tur endi, uyat ish qilib qo'ygan boladay serrayib o'tirma, — dedim men koyib.

— Yo'q, meniki bo'ldi, o'zlarining bir balo qilib amallab qo'ya qollaring, — dedi Omon.

— Yuvish shariatda uch kishini talab qiladi, — dedim men.

Yalinib-yolvorib Omonni turg'az dik. Uchovlashib "sen oldin bor, men keyin borayin" deganday hujranging eshigiga borib, ikki qulqoq beridan mo'rالay boshladik. Omon domla bilan menga qarab zo'rma-zo'raki bir iljaydi-da:

— Xo'sh, endi ish boshlaylik. Qanday qilib yuvamiz. Xalq ma'tal bo'lib qolmasin, — dedi.

— G'assolboshi hazratim bo'ladilar. Ikkovimiz suv quyib turamiz. Yaxshilab badanlarini ishqalab yuvsalar, murda ozor top-

masa, burniga ehtiyot bo'lsalar — hamma savob hazratimga. Biza ga yirtish kifoya,— dedim.

— Ey,— dedi domla,— yoshlar xizmatda, kattalar rohatda, deganlar. Sizlar yuvasizlar, men suv quyib turaman. Duo ham qilaman.

— Duo o'zingizga kerak bo'ladi. Ehtiyot qiling, taqsir, yaxshilikcha yuvsangiz yuvGANingiz, bo'lmasa o'lik egalarini chaqirib sharmandangizni chiqaraman.

— Shunday, — dedi Omon.

— Iya, iya, — dedi hazrat. — Shu ham sherikchilik bo'ldimi? Qani yuringlar, men oyog'idan ko'taraman, sizlar boshidan.

— Yo'q, taqsir, siz boshidan, bizlar oyog'idan.

Janjalimiz tashqaridagilarga bilinib qolmasin deb, eshikning tirqishidan mo'ralab-mo'ralab sekin-sekin gapirishar edik. Tashqaridagilar bo'lsa o'likni solish uchun tol novdadan zambar to'qimoqda edilar. Bir oz janjaldan keyin Omon menga dedi:

— Ikki quloch arqon bo'Iganda yaxshi bo'lar edi.

— Nima qilasan?

— Hiylasini topdim, — dedi quvonib. — Qani, yur, qidiramiz.

Ikkalamiz birgalashib qo'rg'onning butun og'illarini axtarib chiqdik. Baxtimizga, bir burchakda eski oxur yonidagi qoziqqa ikki qulochdan mo'lroq jun arqon bog'lanib yotar edi. Yechib oldik. Yana o'lik yotgan hujraga kirdik. Ikki qo'llarini bir-biriga ishqagan domla yo'lakda shivirlab yurar edi.

Bu gal endi Omon o'z aqliga qoyil qolgani uchunmi, dadillanib ketgan edi. Domlani yoniga chaqirib o'likni ko'tarishga buyurdi. Domla avvaliga bir oz tixirlik qilib turgan bo'lsa ham, orqasi bilan o'likka yuz o'girib, ming jirkanchlardan keyin o'likning oyog'ini ko'tarib berdi. Omon boyagi arqonni o'likning har ikki oyog'iga to'pig'idan yuqori mahkam sirtmoq solib bog'ladi. Uchalamiz arqonni tortib, o'likni hovuz bo'yiga qarab sudray boshladik. Teskari sudrashdan har ikkala qo'li ochilib, qulochi yozilib ketgan edi. Bechora agar tirik bo'lsa orqasi shilinganidan bizga shikoyat qilgan bo'lar edi. Hovuz labiga kelib to'xtadik. Omon gapirib ketdi:

— Yaxshisi shuki, o'rtoqlar, bosh tomondan suvgaga tushirib, uch-to'rt marta yaxshilab chayqab olamiz, happa-halol bo'ladi qoladi.

— Inshoollo, — dedi hazrat, — albatta, halol bo'ladi. Xudo o'z kalomida ham shunga ishora qilgan. "Innamal havzato'n ta-horato'p hallolun", degan.

— O'Iganingiz yaxshi, — dedim men unga.

Hammamiz kulishdik. Bu maslahat hammamizga ham yoqqan edi. Arqondan ushlab, o'likni suvga sho'ng'itdik. Hovuzning u boshidan bu boshiga sudrab chayqata boshladik. Uchovimiz ham yangi havaskor g'assol bo'lganimiz uchun qiziqib ketib uch marta-gina emas, o'n-o'n besh marta chayqab, juda ham oq yem qilib yubordik. Har qancha varzish yetkazgan g'assol bo'lsa ham bir o'likni shunchalik yuvar-da!

Keyin, sekin-sekin hovuz qirg'og'iga torta boshladik, lekin o'lik qimirlamay qo'ydi, o'rnidan jilmaydi. U xuddi hovuzning tagiga jipslashib qolganday edi. Omonning rangi yana quv o'chib ketdi. Domla bo'lsa "yo madad, yo madad", deb arqonni siltab tor-tar edi. Men yana bir dodlab ko'ray dedim-u bu ishning bizga nafi tegmasligini bilib, xap qoldim. Omon buni fahmladi shekilli:

— To'xta, ahmoq, — dedi, — nima qilmoqchisan?

— Dodlasammikin?

— Dodlashga beradigan kuchingni arqon tortishga ber!

U ovozini chiqarmasdan tishini g'ijirlatib meni jerkib tashladi.

Uchovimiz bor kuchimiz bilan to'ngak tolga oyoq tirab arqon-ni torta boshladik. Ancha urindik. O'lik bechoraning bellari qir-sillab, taxminan, yarim gazcha cho'zilib ketdi.

Shu payt eshik taqillab qoldi. Domla yugurib borib javob berdi.

— Hali tura turinglar, rahmatlikning hali beligacha ham yuvib bo'lganimiz yo'q. O'zimiz chaqiramiz.

Qaytib keldi. Yana torta boshladik. Bultur yozdan beri og'il-xonada kuya tushib chirib yotgan arqon o'Igur shartta uzilib ket-di-yu, uchalamiz chalqanchasiga tushdik.

Vaqt kechikib borar edi. Hayallah xavfli edi. Uchovimizga ham o'lik o'zimiznikiday bo'lib ko'nikib qolgan edik. Pahlavonlarcha jasoratlanib ketgan Omon shartta ko'ylak-ishtonini yechib, o'zini hovuzga tashladi-da, sho'ng'ib ketgan o'likni qidira boshladi.

— Qani, taqsir, siz ham yechining, besh so'mni jo'nlikcha olavermaysiz, — dedim men.

— Ya'ni masalan, yechmasam nima bo'ladi?

— O'lik egalariga aytib, olomon qildirib yuboraman.

Domla g'azab bilan menga qarab "xinzir", dedi-da, ko'ylagini yechib, oq ishtonii bilan hovuzga tushdi. "Bu xinzir degani nima degani ekan? So'kkanimikan? Qoyilman deganimikan?" Omon bilan ikkovlon qidirib ketdilar. Bir vaqtida o'likning oyog'ini osmonga qilib, belidan mahkam quchoqdagan Omon uni hovuzdan olib chiqishga urinar edi. Domlaga uzilgan arqonning uchini tutqazdim. O'likning oyog'ida qolgan yeriga ulab berdi. Lekin o'likning boshi tolning ayri ildiziga kirib qolgan ekan. Men hovuz labidan turib tortar edim. Omon bilan domla belidan olib sug'urishga harakat qilar edilar. Nihoyat, zo'r berib o'likni hovuzning chetiga chiqardik. Biroq burunsiz bosh yo'q edi. Buni ko'rgan Omon yana hovuzga sho'ng'ib ketib tolning ildizidan kallani ajratib olib, domlaga uzatdi. Ikkovlari chetga chiqdilar. Shoshib-pishib darrov safar xaltadan yo'l uchun olingan ipni olti qavatlab pishitib ko'rpa qaviq nina bilan kallani o'z joyiga qo'yib tika boshladik.

Qoyil, hazrat ko'p hunarni bilaman deganicha bor ekan, chokka usta ekan.

Ish jo'nashib ketdi. Hash-pash deguncha kafanni ham ko'kladik. O'likning ochiq badani mumkin qadar ko'zdan yashiringan edi. Lekin kafan uchun berilgan bo'z parchasi to'pig'idan nari ga o'tmay, oyog'i ochilib qolgan edi. Oyog'ida bo'lsa haligina chambarchas qilib bog'langan jun arqonning shilib yuborgan o'rni qo'rga ko'mgan lavlagiday ko'rinish turar edi.

Safar xaltani bo'shatib, ichidagini belboqqa tugdik. Xaltani o'likning oyog'iga kiygazib, kafanga qo'shib ko'kladik.

Omon ko'ylak-ishtonini kiyib oldi. Domla ham ishtonini, salla, to'nlarini namozjumadagiday savlat qilib kiyib, qo'il qovushtirib, basharasiga payg'ambar nusxa berib, lablarida bir nimalarni shivirlab o'qib, o'lik tepasida turar edi.

Men borib eshikdan xarsangni ko'tardim. Janozaga yig'ilgan ta'ziyachilarni chaqirib keldim. Tashqarida bo'lsa, tol novdadani to'qilgan uzun dastali zambil allaqachon tayyor bo'lgan edi. Zambilning ikki tomonidagi aravaning shotisiga o'xshash uzun dastalari o'rtasiga oldinma-ketin ikki ot qo'shilgan edi. O'likning

egalari atrofni qurshashib, ba'zilari uning betlarini silab yig'lay boshladilar. Shunda birisining qo'li o'likning bosh tarafiga tegib, chalqanchasiga yotgan o'likning boshi chappa bo'lib qolganini sezdi. Ma'lum bo'lishiga qaraganda, biz shoshilib, uzilgan kallani teskari o'rnatib qo'ygan ekanmiz.

— Buning beti nega ters bo'lib qoldi? — deb so'radi o'sha kishi.

Biroz shoshib qolgan, ammo sipohgarchilikni qo'ldan berma-gan hazrat:

— Tirikligida ko'p gunoh qilib qo'ygan bo'lsa kerak, Xudo yuzini ters qilib qo'ydi, — deb javob berdi.

Men bu yerda domlaning shuncha ziyrak, hozirjavobligiga qoyil qolib, ichimda "o'qigan ilming shu yerda ish berdi", deb qo'ydim.

Biroq bu bilan sir yashirinib qolmadi. O'likning boshi uzil-ganligi, kallani gavdaga ters o'rnatib chatib qo'yilganligi ma'lum bo'lib qoldi.

O'lik bir yoqda qolib, olomon uchovimizni qurshab oldi. Haz-rat ham ishboshi, ham yosh jihatidan bizlardan katta bo'lganligi uchun hamma unga tikilgan edi. Om'on bilan ikkovimiz olomon-ning orasidan bir amallab sirg'alib chiqib, ko'chaga tomon qoch-dik. Orqamizdan ko'proq umri otda yurib, piyoda quvplashga uncha ham epchil bo'Imagan bir-ikkita o'zbek kelar edi. Ana shunday vaqtarda tarqalib qochgan yaxshi. Omonga baqirib, "Chapga qoch", dedim. O'zim o'ngga qarab qocha boshladim. Domla olo-monning orasida qolib ketdi. Nima bo'ldi, bilmayman. Tirik bo'lsa biror go'rdan chiqib qolar, o'lgan bo'lsa, Xudo rahmat qilsin.

Omon qochib qayga bordi bilmadim, men bir zumdayoq ko'zdan g'oyib bo'lib borar edim. Oldimda bir to'qaylik paydo bo'lib qoldi. To'qayning ichida yolg'iz yo'l bor ekan. Shu yo'ldan chopib ketaverib bir sizot zovurga uchradim. Zovur menga birdan-bir boshpana bo'ldi. O'zimni zovurga tashladim. Orqamdan quvib kelganlar meni bir muddat qidirib borgach, izimni yo'qotib, qaytib ketdilar.

Vaqt kechikib bormoqda, o'rtaliq qorong'ilashmoqda edi. Qo'rqa-pisa zovurdan chiqib, to'qaydag'i so'qmoq yo'l bilan keta

boshladim. Lekin ko'nglim Omon so'ltidan va hazrati domla ji-hatidan ancha tashvishda edi. Bechoralarning boshiga qanday kunlar keldi ekan. Nima bo'ldi ekan, urib o'ldirmadilar miikan?

Xuftonga yaqin yana katta bir "shahri azim"ga kirib bordim. Kichkina xonaqo va jilovxonadan iborat bo'lgan devorlari paxsa qilib urilgan machitning eshigida uch-to'rtta chol kishilar xufton namozini poylab o'tirar edilar. Men ham salom berib, sekingina ularning yoniga borib o'tirdim. So'fi azon aytdi, garchand, tahratim bo'lmasa ham, shu o'tirganlarning rahm-shafqatini keltirish uchun kirib, jamoat bilan namoz o'qidim. Namozdan keyin hamma uy-uyiga tarqaldi. Men machitdan qo'zg'almadim.

Bu machitda bundan ilgari bir necha marta joynamoz, namat o'g'irlangani uchun so'fi ham, domla-imom ham mendan shubhalanib, bir necha marta yer ostidan ko'z qirini tashlab, xo'mrayib qarashdi-da, so'fi so'radi:

— Ha, o'g'lim, juda o'tirib qoldingiz? Namoz tamom bo'ldi.

— Otajon, musofirman, — dedim. — Agar ruxsat bersangiz, ertalabgacha machitda qolsam, yo'limdan adashdim.

Gapga imom aralashdi:

— O'zing qayerlik bo'lasan, o'g'lim?

— Taqsir, toshkentlikman.

— Bu yerlarda nima qilib yuribsan?

Omondan o'rgangan gaplarni ishga soldim.

— O'zim madrasada o'qir edim, hozir ta'til vaqtি bo'lGANI uchun biroz pul topish maqsadida mardikor ishlash uchun safarni ixtiyor qilgan edim. (Yana ichimda, bu yerda ham g'assollik xizmati chiqib qolmasa yaxshi edi, deb o'ylar edim.)

— Qaysi madrasada o'qir eding, mudarrisining kim?

Qo'lga tushdim. Toshkentda nima ko'p — madrasa, nima ko'p — mudarris.

— Taqsir, o'sha katta madrasa-da, domlamiz ham o'sha katta domla bo'ladilar.

Domla kuldi:

— Ha, ha, mullavachchaman degin, darsxona emas, xirsxonda ta'lif olganman, degin. Yaxshi, bo'lmasa, men bilan hovliga ketasan. Qorning qalay?

Uyalib joynamozga qaradim.

— Qani, yur bo'lmasa. Bizga ham jindak xizmat qilib qo'y, ovqating ham o'tib qolar.

Domlaga ergashib, hovlisiga bordim. Domla ikkita qo'rga ko'milgan jo'xori bilan bitta sopol tovoqda moshxo'rda chiqarib berdi. Bu lazzatli taomni huzur qilib ichib oldim. Domla ichkariga kirib ketdi-da, bir ozdan keyin qo'lida bitta katta pichoq, bir bolta va bir oz chiyratma arqon bilan to'ppa-to'g'ri mening oldimga kel-di. Men bo'lsam, domlaning nima niyatda ekanligini tushunmas-dan, hurkovich kiyikdek oyog'imni bir yerga g'uj qilib, qochishga hozirlangan, og'zimni bo'lsa, dodlashga juftlagan edim.

Domla mening harakatimdan bir narsa sezdimi, haytovur kulimsirab, meni yupatib, dedi:

— Qo'rqlama, seni so'ymayman, men yom-yom emas. Sen-ga bir xizmat bor, o'g'lim, bir poy ho'kizim bir necha kundan buyon bo'kib, novqaslanib yotibdi. Mana shu asboblarни boshing-ga qo'yib hushyorroq yotasan. Mabodo, ho'kiz yomonlab qolgun-day bo'lsa, borib, darrov bo'g'ziga pichoq tortib yuborasan-da, meni chaqirasan. Ehtiyyot bo'l, lekin tag'in uxbab qolib, harom o'ldirib qo'yma.

— Xo'p, taqsir, — dedim. — Choy-poy yo'qmi?

— Nima-nima, nimchorak choy bir miri-ku, sen choy icha-sanmi, suv ariqda oqib yotibdi, erinsang, ana, obdastada ham bor, ichaver...

Domla buyurgan ishning oson ko'chganligini bilib sevindim, domla ichkariga kirib ketdi. Domla chiqarib bergan ko'rpacha-ga cho'zildim. Allavaqtargacha ko'kka qarab, termilib yotdim. Qo'rg'onchaning atrofida har bir qoraygan ko'lanka hovuzda boshi qolgan o'likday vahimalanib, oldimga kelganday bo'lar edi. Uxlay olmadim. Yarim kechadan og'ib, tong yaqinlashib qolganda ko'zimni g'ira-shira uyqu bosgan bo'lsa ham xayolim uyg'oq edi. Og'ilxona tarafda bir nimaning "gurs" etib yerga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi.

"Obbo, harom o'lqur ho'kiz yomonlab qoldi-yov", deb o'yladim-da, arqon bilan pichoq-boltani ko'tarib, og'ilxonaga qarab yugurdim. Qorong'ida qandaydir bir hayvon yerda yotib, tipir-

chilamoqda edi. Tikka oldiga borib, devkor sallohlarday "shoxidan" ushlab, "bismillohu ollohu akbar", deb bo'g'ziga pichoq tortib yubordim. Qon deganizingiz tizillab otilib ketdi. Oyog'imdan tortib basharamgacha qonga bo'yaldim. Jon bermoqchi bo'lgan hayvon eng so'nggi nafasida ma'rab qolmoqchi bo'ldimi, ichidan butun o'pkaning siqilib yoyilishidan paydo bo'lgan hansirash bilan katta hammomning dudburoniday pishqirib yubordi.

Hayvon jon berib bo'ldi. Garchand domla: "Meni chaqir yoki hafsalang kelsa terisini shilib, nimta qilib qo'ygin", degan bo'lsa ham, qorong'i bo'lgani, ham bir chekkasi — o'zim charchaganim uchun hamda go'sht qon-qushga tegib harom bo'lmasin, deb bu ishlarni erta tongga qoldirdim. Katta bir tashvishdan qutulgan kishilarday osoyishtalik bilan tinchlanib, yana ko'rpa chaga cho'zilib, uyquga ketdim.

Azonga yaqin shirin uyquda ekanman, och biqinimga tumshug'i qayrilib ketgan baland poshnali sag'ri kavushning bergan achchiq tepkisidan cho'chib uyg'ondim. Tepamda xalta ko'ylakli, bir qo'li bilan istibro kesagini ushlangan, har bir ko'zi g'a-yin olxo'ridek qinidan chiqib ketgan domlapochcham turar edi. Alanglab o'rnimdan turishim bilan domlaning qo'lidagi teskarı ushlangan boltaning muhrasi yelkamga kelib tushdi. Alamlanib ketdim.

— Ha, taqsir, bir yetimni hadeb ura berishmi, xizmatga tuhmatmi, taqsir? — deb yig'lab yubordim.

— Ha, xizmating boshingni yesin! — dedi domla. — Eshakni so'yib qo'yibsan-ku, padarla'nat! Men bu eshakni Buxoroyi shariifdan uch tilloga olgan edim. O'zi ham qanday eshak edi-ya, baybay... eshagim...

Eshakka motamzada bo'lgan domla meni hech imkon bermay savar edi.

Ma'lum bo'lishiga qaraganda, men kechasi qorong'ida yanglischib, kulga ag'anab yotgan eshakni — novqas ho'kiz gumon qilib, bo'g'ziga pichoq tortib yuborgan ekanman. Ho'kiz bo'lsa, allaqachon yomonlab harom qotgan ekan. Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to'rt tomonga alanglab, o'zimga bir najot yo'li qidirar edi. Ko'zim og'ilxonaning tomiga qo'yilgan narvonga

tushib qoldi. Tomning labida bo'lsa, marhum eshakning quyush-qonlik palangini quritish uchun oftobga to'nkariq qo'yilgan ekan. Zinadan chiqqan itdek to'rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim. Eng so'nggi damda domladan bir marta bo'lsa ham o'ch olib qolmoqchi edim. Palangni azot ko'tarib, domlani mo'ljallab otdim. Lekin ko'p afsuslar bo'lsinki, egasini so'yib qo'yganim uchun mendan o'ch olishni kutib yotgan salmoqli palang quyush-qoni bo'yning ilinib, o'zi bilan birlashtirib, ikki qo'llab domlapochchamning oldiga meni sudrab tushgan edi. Bir chekkasi — palangning ustiga tushganim, ikkinchidan, badanim kaltakning zarbidan shishib ketgani uchun tomdan yiqilish u darajada menga zararli bo'lmadi. Men tomdan yiqilishimning ilmini sarhisob qilishga ham ulgura olmagan edim.

Mening shakkokligimdan yana g'azabi alangalanib ketgan domla behol ho'kizning oyog'ini bog'lash uchun kechasi yetib kelgan va bir necha marta urishga ham ulgurgan edi. Men yana turib qoqdim. Yana o'sha narvonga tirmashib tomga arang chiqib oldim. Tomga chiqish bilan orqamga qaray-qaray tomma-tom qoqib ketmoqda edim.

Baxtimga, anchagina tomlar bir-biriga tutash edi. Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham, tulki quvlagan tovuqday sakrab o'tib ketar edim. Kallayi saharlab boshdan-oyoq qonga belanib, tomma-tom qoqib kelayotganimni ba'zi uyqusи ziyrak, so'fi tabiat qari-qartanglar ham ko'rib qolgan edilar. Domla esa bir necha tom narida harsillab-gursillab, quturgan nortuyaday ko'pirib, quvlab kelar edi. Haytovur domla ishtonbog'ini mah-kam bog'lamagani uchun chopish vaqtida oyog'iga tushib, kishan bo'lib paypoqdor tovuqday kalavlab qoldi-da, men qoqib qu'tildim.

Biroq bizning bu vahimamizdan ko'p xonadonlar tomga chiqqan edi. Men hali ham qochmoqda davom etar edim. Bir orqamga aylanib qaraganimni bilaman, bexosdan "sho'p" etib qamishtuproq aralash pastga yiqilib tushdim. Men yiqilib tushgan yer oshxonaning mo'risi edi. Mo'ri yerga qo'ndirilgan tandirning ro'parasida bo'lganligi uchun men tomdan tikka tandirning ichiga tushgan edim. Oyog'im ko'ksimda bo'lib, g'ujanak holimda

tandirning ichiga tiqilib qolgan edim. Chap qo'lim ham yonimga jipslashib tushgan, biroq o'ng qo'limgina erkin harakat qila olar edi. Ancha urinib ko'rdim, toza ham tipirchiladim. Orqamdan quvlab kelganlar mening birdaniga g'oyib bo'lganligimni ko'rib, qo'rqib ketgan, insmi-jinsmi deb o'yab, ko'plari "astag'firullo" aytib, noumid orqalariga qaytib ketgan edilar. Bechoralar nima deb o'yladilar ekan. Hazrat Iso deb o'yladilarmi yoki Ko'hiqofdan kelgan Abdurahmon parining lashkarlaridan bittasi deb o'yladilarmi, ishqilib, men yo'q edim. Kechgacha tuz totmay, o'tirgan joyimdan qimirlolmay, tandir o'choqning ichida yotdim. Qosh qoraygach, oshxonaning eshigi ochilib, bir xotin kelib kirdi. Mening yonim-dagi kichkina o'choqqa o't qalay boshladi. Xotinning sharpasi kelgan zamono men erkin qolgan o'ng qo'lim bilan tandirning labida turgan loytuvoqni olib, ustimga yopgan edim.

Xotin moshkichiri qilmoqda edi. Piyozdog'inining hidlari dimog'imga kirib, ishtaha ham namozshomgulning karnayiday ochilib ketgan. Qozonda bo'lgan masallig'larning yog' bilan aralashib chiqazgan "jaz-buz" ovozi yuragimning eng nozik joylariga borib qadalardi. Bu mamlakat — dala shahri bo'lgani uchun o'tin serob ekan. Bundan tashqari, mosh qurg'ur, bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, hadeganda ochila bermadi. Xotin ham aya-masdan o'tinni qalashtirmoqda edi. Bora-bora qo'shni o'choqqa yoqilgan o'tning tapti sekin-sekin men yotgan tandirning devoriga o'ta boshladi. Yonboshim sekin-sekin qizib bormoqda edi. Agar u badbaxt imildoq xotin o't yoqishda yana davom etaversa, tandir-da kabobday jizg'anak bo'lar edim. Qozonda har bir moshning ko'z ochishi mening ko'z ochishim bilan baravar edi. Eng oxiri uzoq muntazirlik va azoblardan keyin hurmatli moshkichiri tayyor bo'ldi. Oshpaz xotin o'choqning olovini tortdi, biroq qozondagini ikki laganga suzib, bir lagandagisini qaytarib qozonga qo'ydi-da, ikkinchi laganni ko'tarib chiqib ketdi. O'choqda o't ham o'chdi. Lekin mening och yuragimga o't yoqib ketdi. Men bechora mosh-kichirining azobini bekam ko'st tortganim holda xo'rsinardim. Xotin chiqib ketgandan keyin tandirning sarpo'shini olib, bir oz erkinroq nafas oldim. Go'yo bu "xitoy beklari"ning qiynog'idan qutulish uchun turlicha rejalar tuzar edim. Namozshom bo'ldi.

Namozshomdan keyin qonuniy ravishda, albatta, xufton ham bo'ldi. Men bechora qinga solingen pakkiday, zindonda yotar edim. Xuftondan ancha o'tib qolganda, menga birdan-birgina keng olamning darichasi bo'lgan mo'ridan osmonga qarab yotish mu-yassar bo'ldi.

Ana u — Mezon yulduzining dumি, mana bu yulduz — yetti qaroqchining boshlig'i, mana bu — Hulkar, kecha shu tikka kel-ganda eshak so'yilgan edi. Mana bu — Somonchining yo'li, kecha shu kunbotarga yaqinlashib qolganda domla biqinimga tepgan edi.

Men shu xayollarda ekanman, "g'iyq" etib eshik ochildi-da, bir kishi oyoq uchi bilan yurib keldi. Men sekin-sekin go'yo darchanning pardasini tortganday, loytuvoqni ustimga yopdim. Keluvchi kishi men yotgan tandirning ustiga o'tirdi-da, hushtak bilan muzika chala boshladi.

To'g'ri, muzika yaxshi narsa, men qarshi emasman. Tinchlik vaqtida har qayerda eshitishim mumkin. Lekin o'zingiz o'ylang, birovni tandirga qamab, ustiga o'tirib muzika chalsin, deb qaysi qonunda yozilgan ekan? Mumkinmi shu?

Oradan yana bir oz o'tib, eshikdan moshkichiripaz xotin kirib keldi. U ham sekingina kelib, boyagi hushtakchi yigitga yaqinlashdi. Mening boshimdan bir gazcha baland joyda "cho'lp" etgan ovoz eshitildi. Balki o'pishgandirlar, qulog'imga xumga tushgan arining ovoziday g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gapirishganlari eshitilar edi.

— Kutib qolmadingizmi? — dedi xotin. — Erim o'lgor boshqa vaqt qurib qolganday, shu bugun nasiya daftarlarini ochib, oldiga cho'tni qo'yib, hisobga tushib ketdi, endigina uxlatdim-da...

— Ha, mayli, jonim, — dedi yigit. — Nima balo bo'ldi, ering ikkovimizning ishimizni sezib qolganmi, deymanov yoki puk berib qo'ydingmi? Bugun do'konidan to'qqiz pulga nos olgani borsam, juda it xo'mrayishi bilan qarab, bergen nosiga nosqovog'im yarim ham bo'lindi. Har qayerda to'qqiz pulga nosqovog'imni to'ldirib nos olaman.

— O'zlariyam o'lguncha ko'zi tor, ziqna, murdor odam, pul bo'lsa bo'lgani, — dedi xotan. — Menga qayrilib qaramaydilar ham, xotinim bormi, yo'qmi demaydilar ham...

— Kel, gapingni qo'y-chi, ovqat-povqating bormi?

“Ha, bu kiroyi ish bo’pti”, deb o’yladim. Yigit tushmagur, nima qilsa-da, dalatob, azamat yigit-da. Ishtahasi ham karnaydak-kina ekan. Xotin qozonning qopqog’ini ochdi — baliqday bo’lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o’rtaga qo’ydilar. Yigit qulluq qildi-da, menga ozor berishdan chekinib, tandirning ustidan turdi. O’choqning oldiga tiz cho’kib o’tirib, moshkichirini ishtaha bilan yeya boshladi. Azamat olib turibdi, xotin bo’lsa ahyon-ahyonda oshdan cho’qigan bo’lib, o’zining oldidan chiqqan go’shtlarni ham unga terib bermoqda edi.

Moshkichirining tamom jabr-jafosini tortgan bizday yon-boshi kuygan bechoralar tandirning ichida azob-uqubatda. Men toqat qilib turolmadim. Tuvoqni sekin qiya qildim-da, erkinlikda bo’lgan o’ng qo’l bilan men ham laganga cho’zilib qoldim. Ikk-i-uch olishdayoq lagan bo’shay deb qoldi. Qorong’ilik. Oshiq-ma’shuq suhbatga mashg’ul. Yigit qurg’ur sezib qoldi, poylab turib shartta bilagimdan ushladi-da, ma’shuqasiga qaradi.

— Hoy, to’xta! Bu kimning qo’li, mana shu mening qo’lim, mana bu seniki, endi mana bu qo’l kimniki?

Xotin “ha-ha”, deb qo’rqib ketdi. Agar o’zlarining xavotir ishlari bo’lmasa edi, bugun mening umrimga fotiha o’qilsa ham bo’laverar edi. Yigit loytuvoqni oldi-da, bilagimdan azot ko’tarib, tandirdan sug’urib chiqardi. Bellarim qisirlab, uyushgan joylarim rohatlanib ketdi. Qani o’sha yigit bir uqalab qo’ysa, deb o’yladim.

— Govurting bormi?

Xotin yengsiz nimchasini paypaslab, gugurtni olib chaqdi, bir chekkasi ko’ylak-ishtonim eshakning qoni, ikkinchidan, mo’rining qorakuyasi basharaga урган. Surra to’n kiygan eshonday bo’lib ketgan edim. Xotin dag’-dag’ qaltirar edi. Yigit haytovur dovyurak ekan.

— Xo’sh, sen kimsan?

Men ham xuddi shu gapni takror qildim.

— Sen o’zing kimsan?

— Sendan so’rayapman!

— O’zingdan so’rayapman!

— Joningdan umiding bormi, hoy yigit?

— O’zingni joningedan umiding bormi?

— Tavba!

— Astag‘firullo!

Oraga xotin qo’shildi.

— Hoy, aylanay, uka, — dedi, — menga qaragin, kimsan o’zing, o’choqning ichida nima qilib kuymanib yuribsan? Jinmisan, shaytonmisan yoki jinnimisan? Qorong‘i kechada nega birovning o’chog‘iga beijsat kirasan?!

— Bu nima qilib birovning o’chog‘iga suqilib yuribdi?

Yigitni ko’rsatib to‘ng‘illadim.

— Buning nima haqqi bor?

Qarasam, yigit salohlarcha harakatlanmoqchi, yanglishlik qurbanbi bo‘lgan eshakning qasosini oladigan ko‘rinadi.

Men ham eski hunarni ishga solmoqchi bo‘la boshladim.

— Do...d!!!

Xotin shappa og‘zimni ushladi.

— Hoy, sen nima qilmoqchisan?

— Nima qilar edim, dodlayman.

Ikkovlari urinib, meni yenga olmagach, sulh-salohga kelishdi.

— Qani, tur bo‘lmasa, chiqib ket! Yaxshilikcha joyingni top!

— Qorin och.

— Tirik tovonga qoldim-ov, — dedi xotin.

Uy tomonga oyoq uchi bilan borib, supraday ikkita jizzali non keltirib berdi. Qo‘ltiqla qisib oldim. Lekin hali ham qo‘zg‘alishga ra'yim yo‘q edi.

Yigit:

— Qani, endi bir jo‘nab qol-chi, — dedi.

— Jinday puldan cho‘z!

Yigit bo‘g‘ildi, tishlarini g‘ijirlatdi. Yaxshilab, qurtdakkina so‘kishni ham eshitdim. Noiloj, chaqa-tanga aralash ikki tanga pul berdi.

Shuning bilan “yopiqlik qozon — yopiqlik”, meni chiqarib, chiqishimda “tuya ko‘rdingmi — yo‘q” qilib menga qasam ham ichirdilar.

Qorong‘i kechada qo‘ltiqla non, belda pul, yana safarga chiqib ketdim. Vaqt juda ham kech, bora-bora katta bir bozor maydonidan chiqdim. Bu yer tag‘in o’sha, nahs bosgan Kalas bozorining o‘rni

edi. Borarga joyim, qo'narga makonim bo'limgani uchun bir bur-chakka borib, ikkita g'ishtni boshga qo'yib uyquga ketdim...

Bu gal olag'ovur uyg'otib yubordi. Ko'zimni olib qaraganimda, atrofim oq kaltak, qora kaltak olomon bilan davra qilib o'rab olingen edi.

— Xuddi shuning o'zi, — deyar edi bittasi.

— Nima, kim? — Men hayron edim.

Meni turg'izib qo'limni orqaga bog'ladilar. Bozorma-bozor aylantirib, boshimga qamchi bilan urib, "sazoyi kishi odam o'ldirsin", degan so'zni baland ovoz bilan takror qilishga majbur qilar edilar.

Voqeа bunday ekan: Men kelib ko'chada yotib qolganda, kechasi samovarga tushgan allaqaysi chorvachi boyni o'g'rilar tunab, o'zini o'ldirib ketibdilar. Mening kiyimlarimdagи qon-qushni ko'rib o'sha o'g'rilarning bittasi bo'lsa kerak, deb ushlagan ekanlar. Meni sazoyi qilib bo'lganlardan keyin olomon toshbo'ron qilib o'ldirmoqchi bo'ldi.

Olomon yana ko'proq yig'ilsin uchun ikkita o'g'il bola irg'ay novdasi bilan kepcik qoqar edi. O'sha yerda men juda ham behud bo'lib, "g'iyq" etib o'zimdan ketdim.

Bir necha fursatdan keyin dilim uyg'ondi. Qulog'imga hali ham o'sha kepcikning ovozi kelib turibdi, qo'rqa-pisa ko'zimning bir toqasini ochdim. Hech kim yo'q, ikki ko'zimni ro'yirost ochdim, hech kim yo'q...

Bunday bo'libdi. Yig'ilganlardan biri:

— Birodar, — debdi, — avvalo shuki, odam o'ldirib bosqinchilik qilishga bu bola hali yosh, ikkinchidan, mabodo, bu o'sha o'g'ri bosmachilarga sherik bo'lganda edi, buni shu ahvolda tashlab ketishgan bo'lishmas edi, uchinchidan, bu bola sog' emas, tutqanog'i bor ko'rindi. O'g'ri degan bachchag'ar o'ziga esipast — tentakni sherik qilib olmaydi, axir, o'g'rining ham siri bor, o'zidan qo'rjadi, birodarlar, — debdi.

— Bo'lmasa nega ust-boshi qon? — deb, shubha bildiribdi bittasi.

— Iya, iya, men bolani taniyman, bu bola yuqori qorasuvlik Ashur qassobning o'g'li-ku, kecha bozor kuni Ashur qassob

o'g'lim uydan qochdi, qidirib yuribman, jarchi ham soldirdim, de-gan edi. Bu o'sha bola... — debdi.

— Ha, ha, to'g'ri, bozorda jarchi, o'n besh yoshli uvil bola jo'g'oldi, topganga bir to'qli... deb yurganini eshitgan edim, — debdi yana bir "guvoh". Shu bilan mendan qo'llarini tortib, ham-ma o'z yo'liga tarqabdi. Men yolg'iz qolibman.

III BO'LIM

O'zim sog'-salomatman. Qo'lim ixtiyorimda. Oyog'im ra'yim bilan yuradi. Ko'zim ixtiyorimda. Xunuk narsalarga istamasam qaramayman. Og'zim, jag'im, tishim jodidek, istagan xashakni qirqib chiqarishga yaraydi. Ammo badanda bir sarkash a'zo bor, u mening ixtiyorimdan tashqari, o'zboshimcharoq. Unga mening hukmim o'tmaydi.

Bilmaganlar bilsin va ogoh bo'lzin-ki, u a'zo kamdan-kam kishilarga vafo qilgan — qorin. U badan mulkining hokimligini ba'zan qo'limdan olib qo'yadi. Boshqa a'zolar ham uning isyonchi talablariga qo'shila boshlaydi. Ko'zim noshar'iy, harom luqma-larga tusha boshlaydi. Qo'l qorin hukmi bilan ba'zida eng past kishilarga tama kapgiriday cho'ziladi. Oyoq kutmagan joylarga olib boradi. Shunda zor-zor, chun abri navbahor yig'lab, esimda qolgan ushbu g'azalni aytaman, g'azal bu turur:

*Bu qaro ko'zlar mudom yig'lar, chotiq qosh ostida,
Ko'zga olam ters ko'ringay, mijjalar yosh ostida.
Darbadarman, mehribon, issiq quchoqqa intizor,
Tonggacha yer — ko'rpa-yu bir parcha g'isht bosh ostida.
Ey yurak, tirpinma, baxtning tongi balki tez otar,
La'lub gavhar bir umr yashrinmagay tosh ostida.
Charx tegirmon toshiday aylandi boshim ustida,
Parchayi nondur nasibam shuncha bardosh ostida.*

Navoiy aytibdirki: "Baxtli ul kishidirkim, u dunyoni tark qila-di, dunyo uni tark qilmasdan". O'zimni o'ldiraymi, yo'q qilaymi? Yo'q, hali yoshman, menga atalganining qaymog'i buzilgani yo'q. Sa'diy aytibdirki: "Bir mamlakatda g'arib bo'lsang, humatsiz-

lansang, safarni ixtiyor qil”, deb. Ko’kterakday shahri azimda boshimga tekkan toshlarning soni ko’zimdan oqqan yoshlardan ko’proq.

O’z-o’zimga: “Bu g’urbat fikrlarni bir chekkaga qo’yib tur, eng oldin soy bo’yiga bor, o’zingga jindek oro ber”, dedim. Soy bo’yiga borib, bir xoli joy topib ko’ylak-ishtonim, belbog’ bog’langan ro’molni ishqor o’t bilan tozalab, necha martabadan ishqalab yuvib, quritgani tolga ildim, keyin o’zim soyga tushib, kirim ketguncha o’z-o’zimni ishqalab cho’mildim. Bu ozodagarchilik uchun kam deganda bir osh pishim vaqt ketdi. Kiyimlarimni ki-yib, o’zimni silab-siypab binoyiday bo’lib, bozor tomon jo’nadim. Rizqast — fisqast, deganlariday, bir amallab qornimni to’yg’izdim. Yonimda hov anov oshiq yigit bergen ikki tanga borligi do’st-larimizning yodlarida bo’lsa kerak.

Juma kuni, qo’ylar ma’ragan, tuyalar bo’kirgan, otlar kishnagan, bozorchilar so’kishgan, tole osmonini bozorning changi qoplagan, dallollarning bilaklari “bor baraka top!”da charchagan. Men o’sha olag’ovur ichida; selda qolgan chumoliday beixtiyor edim, gangib yurar va noiloj bo’g’ilardim...

Shahar tomondan bozorga qarab yettita qalandar jo’sh, xurush, sochlari patila-patila girdi kamariga tushgan, egnilarida jandayi Muhammadiy, boshlarida kulohi Ahmadiy, yelkalarida ridoyi Mustafo, mast bo’lgan tuyadek og’izlaridan ko’piklar sochib, jazavayi tom bilan talqin aytib kelar edilar:

*Bugun bozorga o’xshaydi,
Yetimlar zor qaqshaydi,
Yo Ollo do’st, yo Ollo.
Haq do’st, yo Ollo.
Yetimning holini so’rsang,
Otasi yo’qqa o’xshaydi.
Yo Ollo do’st, yo Ollo.
Haq do’st, yo Ollo.*

Eng oldinda bir nuroniy qalandar, yelkasida kattakon qora qo’ng’izni eslatadigan kachkil, beliga anvoyi rang-barang lattalar bog’langan, qo’lida boshi qaynab bitgan bujg’un tayoq (Naz-

ar otaning ta'rifiga qaraganda, bu tayoq hazrati Muso asosining amakivachchasi bo'lar ekan). Ixlosmand kishilar bu tayoqni ko'z yoshlari bilan o'padilar, ixlos bilan bir qarich latta bog'lab ketadilar. Tayoq ko'targan qalandari barhaq nuroniy, ketmon soqol kishiga pul, non (Bahovaddinniki bo'lsa yetti, G'avsul A'zamniki bo'lsa o'n bitta), echki, tovuq, qo'y, hatto tuyagacha nazr-niyoz qiladilar. Yetti qalandarning orqasida bir necha yalovkash tushgan nazr-niyozlarni yig'ishtirib, bit bozorning narigi yog'ida bir chetan aravaga bosmoqda. Ko'kterakka g'ulg'ula tushib ketgan. Bugun bozorga Et yemas Eshonbuvaning zanjirband qalandarlari kelibdilar. Ovozalarga qaraganda, janob eshonning bu yetti qalandar turadigan qalandarxonasi kechalari jabroil osmondan vahiy olib kelib turar ekan, hazrat eshonning ishlari bir chekkasi Xudo bilan sherikchiliqday ekan (topgan-tutgan o'rtada). Qalandarlardan oldinda otliq, mo'ylovlari arqon tishlagan itday, katta qilichi otning belidan pastga tushib turgan bir gorodovoy qamchi o'ynatib, olomonning orasini yorib, qalandarlarga yo'l bo'shattrib kelar edi.

Chidab turolmadim. Go'yo yuragimga osmondan bir nur tushdi, badanim erigan qo'rg'oshindek iztirobga keldi. Beixtiyor borib yetti qalandar boshlig'inining qo'lini oldim, o'pib yig'lay boshladim. Kalandar menga mehribonlik qilib boshimni siladi, o'rnimdan turg'izdi va aytdiki: "Ey bo'tam, nima muroding bor, Xudodan so'rab beray?" Men bechoraning tilim g'uldurab, arz-hol qildimki, meni ham shu halqayi ilohiyga bir ko'zoynak zanjirday tirkab, qalandar-bachchalikka qabul qilsalar ekan. Mening bu so'zimni eshitgan, atrofni halqa qilib olgan dehqonlar, xotin-xalajlar o'rtasida olashovur qiyomatday nolayı fig'on ko'tarildi. Qalandarlar boshlig'i ikki qo'lini ko'tarib, meni duo qildi.

Demak, men shu soatdan boshlab yer kishisi emas, "xXudo" mahkamasining mas'ul o'rinlaridan bittasiga qorovullik vazifasiga tayinlandim. Bu kasb menga ko'p ma'qul tushdi. Yegulik-ichgulik istagandan mo'l, yomg'irdek yog'ilib kelib turardi. "Yo Ollo do'st, yo Ollo"ni yaxshi yodlab olsang bas. "Ashulaga osh-non beradi", degan maqol shu yerda to'g'ri keladi. Qalandarlar halqasiga qabul

qilingan soatdan boshlab hushimni yo'qotgan edim. Yetti qalandardan o'n qadamcha oldinda yurib, bosh yalang, kiyim-boshlar yirtiq, og'zimdan tupuk sachratib, g'azallar o'qib, talqin qilmoqda edim:

*Dukur-dukur ot kelar,
Yo Ollo do 'st, yo Ollo.
Chiqib qarang kim kelar,
Yo Ollo do 'st, yo Ollo.
Bizni yorni so 'rasang,
Yo Ollo do 'st, yo Ollo.
Xipcha belli Zebixon.
Yo Ollo do 'st, yo Ollo.
Haq do 'st, yo Ollo.*

Bozor xalqi menday tarkidunyo devonabachchani ko'rib qalandarlarga bo'lgan ixloslari haddan ziyoda oshmoqda, nazr-niyoz yomg'irdek yog'moqda edi.

Kech bilan bozorni olib, somon sotib qaytgan tuyachining tuyasiga ikkita-ikkita mingashib Eshonbozorga qarab yo'l soldik. Chunki Eshonbozor shahri janob eshonning makonlari edi. Shuning uchun ham bu yer Toshkent, Chimkent va Sayram muzofotlarining chorakam bir ka'basi hisoblanar edi. Hamma shaharlarga osmondan nur yog'ilganda, bu yerdan osmonga nur chiqar edi.

Eshonbozorga yetib bordik, tuyalardan yuklarni tushirdik. Tuyakashlarga tuya haqi uchun qalandarboshi duo qilib qo'ydi. Ma'lum bo'lishiga qaraganda, bu duoga boshqa yerlarda bitta ot berar ekan, shunday yo'g'on duo ekan.

Eshonning uylari zikr tushadigan xonaqoxga tutashgan edi. Qalandarxona ham shu yerda edi. Biz avval xonaqohga kirib bordik. Qalandarboshi eshikdan mayda talqin boshlab kirdi. Toinki janob eshonga bizning kelganligimiz ma'lum bo'lsin. Qalandarlar ayvonda davra olib o'tirdilar. Kamina qalandarvachcha kavshandozda qo'l qovushtirib, tavoze bilan xizmatlariga intizor bo'lib turdim. Talqin davom qilar edi. Xonaqoh yalovkashlari — so'filar bizning nazr-niyoz va noz-ne'matlarni hujraga joylashtirildilar. Hujraning ikki tarafidan eshigi bor edi. Bir tomoni xonaqoh

tarafdan, ikkinchi tomoni eshonning hovlisi — harami xoslari tomonidan.

Oradan bir muddat o'tgandan keyin talqin to'xtadi. Ichkari tomondan uzun malla to'n, oq salsa, sag'ri kavush kiygan, qo'llarida ming donalik tasbeh, ko'zlariga surma tortgan, uzun moshguruch soqolli, xushmo'ylov, mosh yegan xo'rozday qizil yuzlaridan "nur yog'ilib" turgan, Muhammad alayhissalomning to'qqizinch xotinlari Bibi Oyisha Kubroning tomdan itarar nabiralari (o'z da 'volaricha) xast eshon tamannolik bilan yerni "minnatdor bo'lsang bosaman", deb chiqib keldilar.

Ana shunda, bilmadim, boshqa g'ofil bandalar ko'rdimi, yo'qmi, yonboshlarida bir yarim mingta maloyika ergashib keelayotganligini o'z ko'zim bilan ko'rganday bo'ldim. Hammamiz o'rnimizdan turdik, ta'zim-tavoze bilan salom berdik. Xast eshon qalandarboshidan bugungi amri ma'ruf: nahiy munkarning daromadini so'ragan bo'lsalar kerak, qalandarboshi kachkil ichidan tanga-chaqa, qog'oz aralash bir talay pulni janob kibriyoning etaklariga to'kdi. Janob eshon pulning qog'ozini, so'lkavoylarini malla to'nning yengidan ichkari qilib, qolgan mayda tanga-chaqlarni:

— Hay, hay, hay, men pul ushlagayman, dunyo harom, "ad-dunyo jiyfatun va tolibuho kilob" (dunyo axlat, uni qidiruvchilar itlardir), — deb qalandarning oldiga itarib qo'ydilar.

Ana shu paytda u janobning nazarlari kamina qulbachchalariga tushib, juda ham mehribonlik bilan:

— Bu bachcha kim? — deb iltifot qildilar.

Qalandarboshi meni ta'rif-tavsiflab ketdi. Jazavalrimning zo'rligidan gapirdi. Bir choynak choy ichguncha olami fanodan olami baqoga o'tib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavam ilohd bilan to'la qalandarbachcha, o'rtta qo'ldek ekanimni tu-shuntirdi. Ana shunda xast eshon menga shafqat ko'rsatib, shahodat barmoqlari bilan o'z oldilariga imladilar. Tavoze bilan oldilariga bordim. "Muborak" qo'llari bilan peshonamni silab:

— Bay, bay, bay, bo'tam, juda "Xudo" nazar qilgan bachcha ekansan, osmonga qara, o'g'lim! — dedilar.

Shunda besh panjalarining orasidan yetmish bitta jannat ko'ribman.

Marosim tugadi. Uvinto'dalarning orasida xonaqohning bur-chagida tong ottirdim. Qorin vaji uncha maqtarli emas. Bir nav qanoatlanurli. Har xil jannatiy xayollarga borib kelmoqdaman. Chunonchi, nazr-niyoz hujrasining uchinchi eshigi yo'qmikan, xast eshon bugun manti yeganmikinlar, palov yeganmikinlar ham qaysi xotinlari bilan yotgan ekanlar, boshlariga ko'k choyning yaxnasi qo'yilganmikin yoki chanqab qolganmikinlar va hokazo...

Kechasi o'zimni na jannatda, na do'zaxda ko'rdim. Xonaqoh muzdek, jimjit edi. Men junjimoqda edim. Chala tush ko'rdim, ro'paramdan bir it chiqib, sovuqda qaltirab g'ingshir emish. Bir rivoyatda shu g'ingshiyotgan kaminaning o'zlarini emishman.

Erta bilan meni so'fi uyg'otdi. Xonaqohda avrod bo'lar ekan. Asta-sekin odamlar yig'ilal boshladi. Men ham chala-chulpa ta-horat olgan bo'ldim. Kattakon davra qurildi. Odamlar davraga yig'ilishib tasbeh o'gira boshladilar. Xotin-xalaj, bola-chaqa, ko'r, shol, befarzand, qarzdor, zahm kasaliga uchragan, ishi qoziga tushgan odamlar kelib eshonga sig'inib, hojat talab qila boshladilar. Eshon haligilarning obdasta, choynak, qumg'on va boshqa idishlardagi suvlariga dam urib bera boshladi.

Namozdan keyin qalandarlar bilan birga yengil-yelpi nonushta qilgan bo'ldik. Eshon qalandarlarni Nazarbek bozoriga jo'nashga buyurdi. Men ham qalandarlar bilan birga jo'nashga hozirlanib turgan edim, eshon:

— Sen qolgin, bolam, oyoq-qo'ling chaqqongina ko'rindi, bu yerda ichki-tashqining xizmatini qilib turasan, — dedi.

Eshonning so'zini qaytara olmasdan qalandarlardan ajrab qolishga majbur bo'ldim. Lekin juda o'kindim. Attang, bebiliska pul topadigan kasb qo'ldan ketadigan bo'ldi-da! Chindan ham bo'zchining mokisidek eshonning ichkari-tashqarisi o'rtasida be-pul oyoqdan horib, qatnab yurishdan ko'ra, havoyigina bozorda ashula aytib, o'ynab yurib pul topishga ne yetsin!

Qalandarlar ketgach, xast eshon mehribonlik bilan lutf qilib, meni hujrayi xoslariga chaqirdilar. "Labbay, piri komil", deb yugurib borib xizmatlariga hozir bo'lib turdim. Qo'lidan tutib hujraga olib kirdilar. Oq bo'yraga cho'kka tushib o'tirdim. Lekin

hayron edim. Tokchadan qalin muqovali Qur'onni olib qo'limga tutqazdilar. Uch marta o'pib, boshimga tekkazib Qur'onni oldim. Eshon ko'z yumib pichirlab bir narsalarni o'qigandan keyin men-ga qarab quyidagi so'zlarni aytishga buyurdi: "Men falonchi-falonchi o'g'li xast eshonning ixlosmand muridlaridurman, pirimning buyurgan xizmatlarini hech so'z qaytarmasdan bajaraman. Boshimga qilich kelganda ham eshonning buyruqlaridan tashqari-ga chiqmayman. Hech bir xiyonat qilmayman. Ayniqsa, pirimning har to'rtala xotinlarini onamdan ham ziyoda ko'raman, ko'z olay-tirmayman. Shu dargohda ko'rgan "sir"larning hech birini kishiga izhor qilmayman. Agar oshkor qilib qo'ysam, ko'r bo'lay, shol bo'lay, til tortmay o'lay. Omin ollohu akbar".

Shu so'zlarni aytib bo'lgandan keyin, o'ylab qarasam, oq bo'yada o'tirib qip-qizil qasam ichib qo'yibman. Xayr, bo'lar ish bo'ldi. Shu kundan boshlab ichkari-tashqariga mokiday qatnay boshladim.

Xast eshonning kichik xotinlari o'n yettiga yettar-yetmas, juda ham quling o'rgilsin. Xuddi "no'g'oy qoshiq"day. Ba'zida ko'nglim allaqanday badxayollarga borib qo'yadi-yu, qanday qilayki, oq bo'yada cho'kka tushib Qur'on o'pganlarim esim-ga tushib ketib, shaytonga "hay" berib, zo'rg'a o'zimni to'xtatib qolaman. Ichkari-tashqariga qatnab yurganda, og'zimdan talqin tushmaydi:

*Xipcha belli Zebixon,
Yo Ollo do'st, yo Ollo.*

Bir kun eshon meni yana hujrayi xoslariga chaqirib:

— O'g'lim, — dedilar, — mana endi bizga ancha xizmating singdi. Ichki-tashqining raft-omadini olding. O'zing ko'rib turibsanki, xotin-xalaj, bola-chaqa, qo'shchi-kulonchi, so'fi farrosh deganday, bizning qo'limizga qarab qolganlar ko'p. Ularni bo-qish kerak, kiydirish kerak. Faqatgina qalandarlarga va bevosita o'zimizga keladigan nazr va niyozlarga tikilib o'tiraversak, ham-masi ochdan o'ladi. Mana, men seni sinadim. Sen ham sirlardan boxabar bo'lding. Oyoq-ko'ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham

tirikchilikning payidan bo'lsang edi, o'g'lim... — Men avval turli xayollarga bordim: Ya'ni "boshqacharoq yo'l" nima bo'ldi ekan?! Eshon u yoqdan-bu yoqdan aylantirib, shama qilib tushuntirdi. Shundan keyingina men bu "boshqacha yo'l"ning fahmiga yetdim.

— Xo'p, taqsir! Bitta jonomiz piri komilga qurbon bo'lsin, — dedim. Eshon mening yelkamga qoqib, duo qildi va mug'ambir ko'zlarini qisib, iljaydi. Men juda botirlanib, ilhomlanib ketdim.

Shu topda eshon "dik" etib o'midan turdi. "Biroz meni kut!" — deb ichkariga kirib ketdi. Birozdan so'ng bir ro'molcha tugug'lik sarpo ko'tarib chiqdi. Bunda eshonning bultur tutqanoqda hovuzga cho'kib o'lgan o'g'lining eski ko'ylak-ishtoni, do'ppi, bosma chitdan qiyig'i bor edi.

— Mana, bo'tam, mana bularni kiyib ol. Xudo rahmati o'g'lim Miyonqudratning arvohiga duo qil, omin.

— Omin, joylari jannatda bo'lsin...

— Inshoollo...

Bu gapdan uch kun o'tganda kech payti bir yerdan qaytib kelar edim. Bizning dargohga yaqin joyda ikki yashar chamali bir ola tanacha beboshboq o'tlab yurar edi. Podadan adashib qolganmi, uyini topolmaganmi — ishqilib, tevarak-atrof kuzatuvchisiz edi. Sekin belbog'imni yechib, shoxiga bog'ladim, dargohga yetaklab keldim.

Eshon bu ishdan chandon-chandon xursand bo'ldilar. "Bo'la-digan bola ekansan. Xudo nazar qilgan ekan. Ishqilib, hech kim ko'rmadimi, balli, o'g'lim, balli, bo'tam! Bir gapni ana shunday ziyraklik bilan anglab olsang, xor bo'lmaysan, har ikki dunyoying obod bo'ladi...", deb ko'p maqtadi. Kech bilan o'zim bosh bo'lib tanachani so'yib, yog'-to'shtini xumga urdik. Terisini eshon, vaqt kelganda mahsi qilarman, deb oshlashga buyurdi.

Tanacha egasi shu qishloqlik chorbozorchi attor ekan. U iz qidirib, eshon darvozasigacha kelsa ham, eshondan shubha qilish gunoh bo'lganidan istig'for aytib, qaytib ketgan.

Shundan keyin eshonning ixlosi menga juda baland bo'lib ketdi. U janob xoli yerda meni uchratguday bo'lsa:

— O'g'lim, endi bozor-o'charning ham payidan bo'ling. Axir, kissa-karmon degan gaplar ham bo'ladi. Naqdina pul —

ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo'ladi. Naqdina bo'lsin, bolam, naqdina bo'lsin, — deyar edi.

Agar bir voqea bilan meni eshon oq qilmaganida edi, kelasi haftadan boshlab chorbozorlarga qatnab, "naqdina"ning — kissanning payidan bo'lmoqchi edim. Bu voqea shunday yuz berdi: Xizmatni qoyil qilib yuborganman, eshon juda xursand. Kunlardan bir kun xast eshon meni chaqirib:

— O'g'lim, qaeyrda bo'lsa ham bir eshak topib kel, — deb buyurib qoldi. Hayron bo'lib ko'zlariga tikildim. Eshon darg'azab bo'lib:

— Nimaga baqraysan, eshak topib kelib, qo'rg'onchadagi tutga boylab qo'y! — dedi.

Eshak nimaga kerak bo'ldi ekan, eshonoyilarimning bittayarimtasiga "eshak yemi" toshdimikan, degan xayollar bilan borib, qishloqning chorbozorchi attori "o'sma ket, surma ket, ishton bog' ket", deb qishloqma-qishloq daydib yuradigan bir kishining eshagini bir soatga ikkita oyimqovoqqa ijaraga olib keltirdim. Olib kirib hovlining o'rtasidagi tutga bog'ladim. O'rtancha eshonoyim eshakni ko'rib juda ham sevinib ketdilar va menga juda ochiq yuz bilan eshak bog'langan tutning salqin yeriga suv sepib, supurib, palos solishga buyurdilar. Men bo'lsam, joy solishning harakatida yurib odmi xotinlar orasida Bibi Fotimayi Zahroning nabiralari deb ta'riflanadigan eshonoyim tomonidan eshakka qilingan bu darajadagi hurmatdan chandon-chandon hayron edim. Joy solib bo'lgandan keyin meni tashqariga chiqarib yuborib, darvozani ichkarisidan zanjirlab oldilar.

Eshak to'g'risidagi xayolot boshimdan hech chiqmaganlik vajidan men ham sekingga xonaqohga kirib eshikni yuziga yopdim. Machitning hovli tarafidagi devordan bir gul qoziqni sug'urib olib, qoziq o'rnidagi teshikdan ichkariga qarab eshak bilan bo'layotgan samimiy muomalani tomosha qila boshladim.

Eshonoyim qaychi bilan eshakning har ikkala qulog'inining uchidan qirqib qon chiqardilar. O'zları men yozib bergen palosga shoyi ko'rpaçhalarni, yostiqlarni solib, yonboshlab eshakka tikila boshladilar. Bir ozdan keyin eshakning qon chiqqan qulog'iga pashshalar qo'nib, eshakning tinchligini ketkaza boshladi. Pashshalar

jabridan alamzada bo'lgan eshak bechora boshini chayqatib, har ikkala qulog'ini bir-biriga urib, shalviratib xira pashshalarni qo'rimoqqa kirishdi. Eshonoyim eshakning bu harakatidan juda ham zavq bilan lazzatlanib, xuddi eshakning bo'ynidan quchoqlab olgundai bo'lib unga xushomad qilar va shirin so'zlar bilan uni olqishlab, yer va ko'kda yo'q sevinar edi:

— Voy, opaginang o'rgulsin! Voy, quloplaringning qimirlashiga o'zginam gиргитон bo'lay! Uni qarang, oyimchaxon, quloplari biram chiroyli qimirlaydiki... Voy, eshak jonga jonginamni qoqay!

Nima uchundir, boshqa eshonoyimlar eshakdan hech qanday lazzat olmasdan, o'tancha oyimning harakatiga kulishar edilar.

Men ham eshonoyimning bu quvonchli harakatlarini ko'rib, ichagim uzilguday bo'lib kular edim. Bir chekkasi ich-ichimdan o'kinib ham qo'yar edim. Keyin bilsam, tantiq eshonoyim eshakning qulop qimirlashiga boshqorong'i bo'lgan ekanlar. Umrda siyrak uchraydigan bu ishni ko'zimni teshikka tiqib tomosha qilar edim.

Birdaniga yelkamga qattiq bir musht kelib tushdi. Chalqancha ag'darilib tushdim.

— Padar la'nat, nima qilyapsan!

Bir-ikki tepki biqinga ham kelib tushdi. Meni urayotgan janob eshon ekanlar. Mehrobning devoridagi qoziq o'rnidan mening mo'ralab turganimni ko'rgan eshon har xil bo'limgur xayollarga borgan ekan. Haqiqatda bo'lsa mening boshqorong'i xotinning harakatini tomosha qilishdan boshqa gunohim yo'q edi.

Menga endi bu dargoh ham harom bo'ldi.

Eshon meni oq qildi.

Attang-attang, qo'lga kiray deb qolgan naqgina jannatdan ajraldim. Shu ondayoq xayr-xo'shni nasiya qilib biyobonga yo'il soldim. Osmon uzoq, yer qattiq edi. Qaeyrga ketib borayotganimni o'zim bilmas edim. Oldinda biror mo'ljallagan niyatim ham yo'q edi. Darbadarlikdan, o'zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o'kinar edim. Salgina bosiq, salgina o'yinqaroq bo'lmasam, hammaning ham nonini tuyu qilib bera olar edim. Ust-boshim but, qomim to'q, qayg'um yo'q bo'lar edi. Xayr, mayli, endi afsusning foydasi yo'q.

Asr bilan shom o'rtasida ro'paramdan katta bir daryo chiqib qoldi. Men bu yerlar bilan tanish bo'lмаганим uchun bu daryoning qaysi daryo ekanini va ismini ham bilmas edim. Daryodan kechib o'tib bo'lмаганидай, suzib o'tish undan ham mashaqqat edi. Orqaga qaytish mumkin emas. Daryo qирғоғида birorta ulovli yo'lovchini kutar edim. Oldidan katta daryo chiqib qolgan mashhur sayyohlarning ashulalarini suvning sharqiroq oqinlariga kuylar edim:

*Daryo toshqin, suvlar to'lqin,
O'tolmayman-a, yor-yor.
Otim oriq, manzil uzoq,
Yetolmayman-a, yor-yor.
Otginamni oriq qilgan
Shu mayda tosh-a, yor-yor.
Ranginamni sariq qilgan
U qalamqosh-a, yor-yor.
Oppoq uring-a,
Hech tommasin-a,
Jonom yorim-a, yor-yor.
Daryolarning ul yuzida
Uylaringiz-a, yor-yor.
Oqarishib ko'rinati
Bo'yлaringiz-a, yor-yor.
Ipdanmidi, ipakmidi
Kiyganingiz-a, yor-yor.
Bizlardan ham ortiqmidi
Sevganiningiz-a, yor-yor.
Oppoq uring-a,
Jonom ko'zim-a,
Alyor bo'lzin-ey, yor-yor.
Daryolarning ul yuzida
Oltin ko'za-ya, yor-yor.
Oltin ko'za ko'tarmakka
Bilak kerak-a, yor-yor.
Bu daryodan kechish uchun*

*Yurak kerak-a, yor-yor.
Oppoq uring-a,
Jon musofir-a,
Chanqov ketsin-ey, yor-yor, —*

deb bir hovuch suvni lazzat bilan shimirib turgan edim, gard namoyon bo'ldi. Gard orasidan oriq baytalga mingan bir uzumchi chol paydo bo'ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim. Uzumchi: "Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko'p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashsa uyat bo'ladi", deb bahona qilsa ham xiralik qila berdim. Noiloj qolib o'tkazib qo'yishga majbur bo'ldi.

Bu daryoning ismi Kalas deb atalar ekan. Hozir chiqqan o'rimiz daryoga nisbatan Kuri Kalas qishlog'i deb nomlangan ekan. Borarga makonim, tanish-bilishim yo'q edi. Uzumchi g'ayribud-diyor ekanimni fahmlab, ba'zi maslahatlarni berdi. Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqtি bo'Igani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshididan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo'lboshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Bouning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

— Assalomu alaykum, — deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

— Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganiningda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan... — degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja qu'yib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

Yotishda ham shular o'rtasida qoldim. Yaxshi olmalarini joylab, uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon

karavot qildim. Boshimga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiq qilib rohat-rohat uyquga ketdim.

Bu uyqu eshon xonaqohiga qaraganda juda shohona edi. Hech bo'lmasa, bu yerda, tong azonda avrodchi so'filarning qichqirib g'o'ldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi. Erta bilan bo'lisning oldiga bordim. Bir qancha silkillashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o'n yetti qadoqdan olma beradigan bo'ldi. Shu paytda boyning avzoyini ko'rib, mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. "Mendan nima ketdi, bir shart qo'yib qo'yay, bir kun boshimga biror ish tushib qolsa, shu bahona qutulib ketarman", degan xayol bilan: "Boy buva, — dedim, — endi-ku, savdomiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yganim yaxshi".

— Xo'sh, nima aybing bor? Siyg'oqmisan, tutqanoqmisan?

— Yo'q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg'on gapirib qo'yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqqi mayli, siz aytgancha bo'lsin.

— Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin!

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog'och atroflardagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa mol yemaydigan olmalarni cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doya alishaman.

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng Xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi. Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda "innaykeyin" deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu "innaykeyin"ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'onda ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, unga "qandil olma pishibdi", deb aystsangiz, u sizga "innaykeyin", deb savol beradi. Siz albatta: "Shu

pishgan olmani terish kerak”, deysiz. Yana Xudo qarg‘agan “innaykeyin”, deydi. Xayr, “Sotish kerak”, deysiz. Yana “innaykeyin”, deb so‘rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o‘zi tamom. “Innaykeyin” degan savolga hech hojat yo‘q. Ana shunaqa o‘rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o‘ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo‘rg‘onchasi, butun dov-dast-gohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog‘i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo‘jayingga ma‘qul tushib qolib, darrov o‘sha yerdan bitta do‘ndiqqina qirg‘iz xotinni olib, bir borgancha o‘n-o‘n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo‘lib qoldi. Olmalar pishib, to‘kilib ketayotibdi, xo‘jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo‘q. Xizmatkorlar och, lekin bouning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan “innaykeyin” savolidan hamma qo‘rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o‘tirib qanday qilib boyni o‘z joyiga chaqirib kelish to‘g‘risida maslahatlashdik ham kim borishini o‘ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki “innaykeyin” dardidan keyin bouning o‘zini tinkasi quriy-digan bo‘lsin. Chek menga chiqди.

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo‘l soldim. Yo‘l-yo‘lakay ming xil xayollarga botib o‘ylayman. Qanday qilib “innaykeyin”iga javob topish kerak?

Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyonda kalla go‘shti bilan nonushta qilib o‘tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygakka tushib o‘tirdim.

— Xo‘sh?!

— Shunday o‘zim, sizni sog‘inib, bir ko‘rib kelay deb kelgan edim.

— Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo‘sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi. “Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasdan”, dedim-da, gap boshladim:

— Anavi, haligi, dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga "innaykeyin" savoli yog'ila boshladi.

— Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro'zgorda mening pichog'imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

— Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

— Iyya?! — dedi boy. — Tozining terisini mening dandon sopli pichog'imda shilasanlarmi, o'zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

— Shoshib qoldik-da, o'lib qolgandan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

— Nima qilib o'ldi?

— Harom o'lган otning go'shtidan ko'p yeb qo'ygan ekan, bo'kib o'ldi.

— Harom o'lган ot go'shti qayyoqda ekan?

— Ha, o'zimizning to'riq qashqaning go'shtini yeb o'ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

— Hay-hay, bola, og'zingga qarab gapir, to'riq qashqa o'ldi dedingmi? Xo'sh, to'riq qashqa nima qilib o'ldi?

— Xomlik qilib o'ldi.

— Nimaga xomlik qiladi?

— Hech aravaga qo'shilmagan ekan, biz uni aravaga qo'shib, suv tashigan edik, zo'riqib o'ldi.

— Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo'ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padarla'natilar?

— Ha, o't tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o'tiradimi, duch kelganini qo'shib, ishqilib, bir chelak bo'lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og'zidan olib qo'ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

— O'zing jinni-pinni bo'ldingmi? O't tushdi deganining nima deganining, qayerga o't tushdi, nimaga tushadi?

- Sog'man, xo'jayin, o't avvalo og'ilxonaga tushdi. Ot sho'rliklarning hammasi nobud bo'lib ketdi-da, xo'jayin.
- Iyya, og'ilxonada o't nima qiladi?
- Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o't ombordan o'tgan bo'lsa kerak.
- Axir omborda o't chiqadigan narsa yo'q-ku? Bug'doy bor edi, to'g'ri, guruch bor edi, to'g'ri, yog' bor edi, gazmol bor edi, to'g'ri, shulardan o't chiqadimi?
- Berdisini aytguncha shoshmang, xo'jayin, omborga qo'r-g'ondan o'tibdi. Og'ilxonaga ombordan o'tgan bo'lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.
- Iyya, hali qo'rg'on ham yondi, degin!
- Qo'rg'on ham yondi, omor ham yondi, og'ilxona ham yondi, otlar ham o'ldi, itingiz ham o'ldi, pichog'ingiz ham sindi.
- Qo'rg'onga qayerdan o't ketibdi?
- Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.
- Hoy, o'zing jinni bo'lib qolibsan, o'g'lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchı fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo'lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo'ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!
- Xo'jayin, — deyman, — o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o'likning arvohiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvoh nimaning shu'lasi bilan o'ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo'yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu'lasi bilan o'ynashadi.
- Mening entak-tentak so'zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go'yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin, qo'rqa-pisa so'radi:
- Kim o'ldi?
- Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg'ular chiqarib, ho'ngrab yig'lab yubordim.
- Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta "dada", dedi-yu, "g'iyq..." etib jon berdi.

Boy gaplarimning keyingi jumlalarini eshitdimi, eshitmadimi — bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi. Men ham qo'shilishib yig'lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig'lagandan keyin men to'xtadim, boy ham to'xtadi. Boyning juda ham o'pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o'zimdan bir gap to'qimoqchi edim.

— Xo'jayin, — dedim, — Xudo berardan qismasin, xafa bo'l mang, bordi-yu, o'g'lingiz o'lib, uyingizga o't tushgan bo'lsa, otlar o'lgan bo'lsa, it nobud bo'lgan bo'lsa, pichoq singan bo'lsa, hammasining o'rnnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelgaman.

Boy g'iqlab turib so'radi:

— Xushxabering qursin, padarla'nat, qanaqa xushxabar?

— O'rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o'g'ilcha tug'dilar.

— Iyya! — dedi boy ko'zlarining shox soqqasi chiqquday, — Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

— Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo'jayin. Xudo bera-man desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani aytung-a, bolani, nabiraginangizni aytung-a, xo'jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo'yganday o'shaning o'zginasi.

Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o'rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo'nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan, alpang-talpang, bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig'lab boy kelib qoldi.

"Yana biror falokat yuz berib qolmasin", deb o'zimni chet-ga oldim. Boyning yig'lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham "bir balo bo'lipti shekilli", deb uydan yig'lab chiqqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig'i tamom bo'lidan keyin, bir-birlarini anglashib, surishtira boshladilar. Keyin ma'lum bo'lishiga qaraganda, na ot, na it o'lgan, na qo'rg'onchaga o't tushgan, na pichoq singan. Bo'riboyvachcha bo'lsa so'lakayini oqizib o'zi chiqib qoldi.

O'sha kuni men ko'rinnmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib olib keldi. Avval qurtakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:

— Hoy itdan tug'gan, bu qiligiding nimasi?!

— Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiRAMAN, deb.

— Bu o'sha yolg'oningmi?

— Lekin hammasi emas edi.

— Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la'nat seni, qorming oshga to'ymasin, juvonmarg bo'l! Haydang bu kazzobni!

Haydab chiqarmoqchi bo'ldilar. Ketish oldida boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy o'n to'qqiz kun ishlagan ekanman. Haligacha bergen yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi. Men shunga ham shukr qilib, namozshom yo'lga tushdim.

Yana o'sha darbadarlik, yana o'sha makonsizlik balosi. Qo'n doqdan ajragan kakku bolasiday, qo'narga shox-butoqsiz. Kalasdan yuqoriroq tomon o'rlab ketar edim.

Qirga chiqqandan keyin uzoqda bir o'tov ko'rindi. Shunga qarab bordim. O'tovning eshigini qoqib, "Xudoyi qo'noq", dedim. Bu kecha tunab ketishga ijozat so'radim. Avval menga bir sidra shubha bilan qarab chiqqanlardan keyin, qabul qildilar. Orqamdag'i yukni ko'rib, o'g'ri deb xayol qilgan bo'lsalar kerak. Qopning og'zini ochib, bolalariga ikkita-ikkitadan olma olib berdim. Boshlari ko'kka yetib ketdi. Ular meni tuyu suti — qimron bilan mehmon qildilar. Qozonga yopilgan nondan yarimtasini oldimga ushatib qo'yidilar. Qorin to'ygandan keyin, qopni boshga qo'yib uyquga ketdim.

Tong azonda turib, o'tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib, "Sariog'och qaydasan?" deb yo'lga tushdim. O'sha kezlarda mening toleim juda ham sho'r edi. Qaysi qishloqqa borsam, bozoring ustidan chiqar edim. Aksiga yurib bugun Sariog'ochning bozor kuni edi. Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko'p edi.

— Kep qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non yemaydi, shinavandaga sotaman, — deb javrab,

maqtab, peshinda arang sotib tugatdim. G'alladonni hisoblab ko'rsam, olti tanga bir miri bo'pti. Keyingi bir necha oy mobaynida belboqqa tugilgan naqdina shundan iborat edi.

Pul ko'p, qayg'u yo'q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga xaridor bo'lib ko'raman. Hamma narsaning narxini bilgim keladi. Bir kishining tunuka vannasiga xaridor bo'lib, kam so'raganim uchun undan yaxshigina so'kish ham eshigib oldim. Kiyim bozorga kirib qunduz yoqalik bobrik paltolarga xaridor bo'lib ko'raman.

Qo'y bozoriga kirib, shoxlari mullavachchalarning sallasiday buralib-buralib ketgan do'ng peshonalik, katta bir qo'chqorga xaridor bo'lib turganimda ko'zim tanish bir basharaga uchradi. U qo'shoqlangan bir qo'ra qo'y ustada kuzatib turar edi. Bu kim, qayerda ko'rgan ekanman?

Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar menga juda tanish.

Yo'Ining gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko'zimga issiq-issiq ko'rindi. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag'darilgan telpak, qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko'zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turardi.

Birdan qichqirib yubordim:

— Omon!!

Bir-birovimizning quchog'imizga otildik, yalab-yulqashdik, hol-ahvol so'rashdik. O'z boshimdan kechirganlarimni bir chetdan hikoya qilib berdim. Sarguzashtimning oxiri yonimdag'i tanga-chaqa aralash olti tanga bir miri pulni jaraqlatib qo'yish bilan tamom bo'ldi. U ham boshidan o'tganlarini so'zlab ketdi:

O'lik yuvdirgan ko'chmanchilarining qo'lidan arang qochib qutulibdi. "Ulardan bitta-yarimtasiga uchrab qolib, tag'in bir baloga yo'liqmay", degan xayol bilan qishloqma-qishloq gadoylik qilib yurib, adashib-uloqib o'n yetti kun deganda Chimkentga yetib boribdi. Chimkentga bir amakisini qora tortib borgan ekan. Lekin bu bechoraning toleyiga amakisi ham allaqachonlar o'lib ketgan ekan. Shu bilan dard qolib, chor-nochor toshkentlik qo'ychi boylardan bittasiga bir yilga ikki to'qli-yu, bir echkiga cho'ponlikka yollanibdi. "Xudo berib, har qaysisi ikkitadan egiz tug'ib

bersa, zora xo'jayinimdek katta qo'ychi boy bo'lib ketsam", deb mo'ljal qilibdi. Hozir shu boyning qo'ylarini haydashib Toshkent bozoriga keltirmoqda ekanlar. Bugun Sariog'ochning bozorida, "narxi kelsa sotamiz", degan umid bilan qo'ylarni bozorga solib turgan ekanlar.

Omonning bu topgan xizmati menga juda ma'qul tushdi. Omonning toleyiga kunlasha boshladim.

— Jon o'rtoq, xo'jayiningga aytib, meni ham bir amallab, qo'ychivonlikka oldirsang-chi, astoydil xolis xizmat qilib berar edim, — deb Omonga yalindim. U ham ma'qul ko'rib:

— Ko'kterakka borganda xo'jayinimga aytib ko'raman, — dedi.

Kechgacha Omonning qo'ylarini qaytarishib yurdim. Sarriog'ochda bu bozor echkining so'rovi chaqqon ekan. Hamma echkilar sotilib ketdi-yu, lekin qo'ylardan ko'pi — yetmish uchta qo'y bozordan qaytdi. Kechga yaqin xo'jayin o'zining yo'rg'asiga mindi-da:

— O'rtog'ing yaxshi bola ko'rindi, unchalik ko'p ham qo'y qolgani yo'q. Omon uka, o'rtog'ing bilan ikkoving kechalab qo'ylarni haydashib, ertalab Ko'kterakning bozoriga yetkazib bora qollaring. Men oldinroq borib turay, — deb otiga qamchi berib jo'nab ketdi.

Biz qo'ylarni bir saroyga qamab, ovqatlangan bo'ldik. Bir oz yonboshlab dam oldik. Yarim kechada oy ko'tarilgandan keyin, oldinma-ketin hushtak chalishib, "qurey-qo'rey" lashib, Ko'kterakka qarab keta boshladik.

Qo'y degan harom o'lgor juda ahmoq, asov hayvon bo'lar ekan. Uni echki eplab yurar edi. Echki bo'limgandan keyin boshi oqqan yoqqa sanqib keta berar ekan. Echki bo'limgani-da, eshakka minib, oldinga tushib ma'rab borish kerak bo'ladi. Bizda na echki bor, na eshak bor. Men yangi, havaskor cho'pon bo'lginim uchun ma'rashni uncha o'rirlata olmas edim.

Ketib boramiz. Oydin kecha, salqin havoli qir.

Ahyon-ahyon qo'ylar ma'rab qo'yadi. Bir yonboshimizda temiryo'l yoqasidagi telegraf simlari g'uvullab turadi. Juda gashtli umr, avjini baland qilib, ashulani qo'yib yubordim.

— Ayt, uka, — dedi Omon. — Ancha vaqtidan buyon shunaqa bir rohat, tanish ovoz eshitganim yo'q, — dedi.

Unga sari men zavqlanib ketganman, avjiga avj qo'shib boram, osmonning chetlarini titratib yuborgim keladi. Temiryo'lni yoqalagan uzun yo'lda qo'ylar juda tixirlik bilan ilgarilamoqda. Echkining qadri g'oyat o'tmoqda.

Qandaydir kichkina qishloqqa ham yaqinlashib qoldik. Uning pastak-pastak paxsa devorlari ko'rinish qoldi. Temiryo'lga tutashib ketgan qishloq ko'chasida qo'ylarni g'uj qilib haydab ketmoqdamiz. Omon temir yo'lni ko'rsatib:

— Poyezdda yurgan odamlar xo'pam mazza qiladi-da, — deb qo'yadi. — Poyezdga tushib uzoq joylarga ketsang, — deydi.

— Shuni ayt-a, og'ayni, — deyman. — Qani endi odoq bo'lmas puling bo'lsa-yu, yuraversang. Qovunchiga borsang, Turkistonga borsang, Chinozga borsang, Maskopga borsang, hech kim churq etmasa, keta bersang, yana keta bersang, mazza... — deyman.

Poyezdni ta'rif-tavsiflab kelamiz.

— Rost, qani endi, — deydi Omon.

Shu payt uzoqda ikki olov ko'zları yonib, poyezd ko'rinish qoldi. Har ikkovimiz ham quvonishib ketdik. "Maza qilib tomosha qiladigan bo'ldik", deb o'yladik. Poyezd yaqinlashib kelar edi. Omon mumkin qadar qo'ylarni temiryo'lga yaqinlashtirmaslikka urinar va ko'chaning devor tomoniga siqishtirib olib borar edi. Shunda poyezd yetib kelib qoldi. Uzundan-uzoq qizil vagonlarni tirkagan, bir emas, ikkita katta parovoz yuk sostavi ekan. Parovozlar nimagadir ishorat qilgandek, jonining boricha navbatma-navbat uch martadan olti marta qichqirib yubordi. Shu paytda borayotgan qo'ylarimiz xuddi bo'ri tekkanday hurkib, tumtaraqay bo'lib ketdi. Men ham qo'ylar qatori bu bahaybat ovozdan yuragim yorilguday bo'lib qo'rqib ketgan edim. Poyezd dahshat bilan ilgarilar edi. Ana, eng keyingi vagon ham o'tdi. Uning orqasida bir toqa shayton ko'zday qizil chirog'i ham ko'rinish qoldi. Qo'ylarning bu yoppa harakatidan qishloq ko'chasingchangi xumdon tutuniday osmonga ko'tarilib ketgan edi. Changdan hech nima ilg'ab bo'lmas edi. Chang orasida bitta-yarimta ko'ksov qo'ylarning yo'talgani eshitilar edi. Chang orasidan Omonning yig'lamsirab:

— Qur-ey, ey harom o'lgurlar, qur-yeys, — degan mungli ovozini eshitdim.

— Omon, qaeyr dasan? — dedim.

Omon menga javob bermasdan o'zining "qureyi..." bilan ovora edi. Oradan o'n-o'n besh minut o'tgandan keyin, chang bosilib, bitta-yarimta narsaning qorasi ko'rinaradigan bo'ldi.

— Qo'ylar qani? — dedi Omon.

— Qo'ylar qani? — deb so'radim men.

Bir burchakda paxsa yoniga qisilib "hayt" desa rezinka kop tokdek sapchib ketishga hozirlanib turgan besh-oltita cho'loq bo'g'oz qo'ylardan boshqa salomat qolgan qo'ylardan nom-nishon yo'q edi. Poyezd ovozidan hurkkan, harom o'lgur asov qo'ylar jon talvasasida past-baland paxsa devorlardan takaday sakrab tarqalib ketgan edi. Omon belidan qo'shoq arqonini yechdi. Qolgan qo'ylarni qo'shoqtadik-da, navbatma-navbat paxsa oshib qo'y qidira boshladik. Bu ishimiz xuddi qorong'i kechada qora palos ustidan qora chumolining qora ko'zini qidirishday qiyin ko'chgan edi. Uch soatga yaqin qo'y qidirdik. Beshtasini u qo'rg'ondan, uchtasini bu choldevordan, ekin oralaridan topib, it azobida sudrab kelib qo'shoqqa tirkardik.

Oxiri kuchdan qoldik. To'plagan qo'ylarni bir chekkadan sanaq chiqqidik. Asl dastmoyaga hali yettita yetmas edi. Omon menga qaradi, men unga qaradim. Uning ko'zları changdan paxsa devor ga munchoq qadaganday yiltirar edi.

— Endi nima qilamiz? — dedi Omon.

Men yig'lab yubordim.

— Yettita qo'yga ikkalamiz ikki yil xizmat qilsak ham qutula olmaymiz-ku!

— Yur, tag'in qidiramiz.

Yana qidirish ketdi...

Kun yorishib qolgan edi. Temiryo'lning bir chekkasidan onda-sonda sochilib qolgan qo'y qumalog'ini ko'rib, shu orqali is qidirib yura boshladik. Temiryo'l etagidagi soydan yana ikki qo'yni topdik. Uni ham olib kelib qo'shoqqa tirkadik. Qolgan besh qo'yni qidirish quduqqa tushgan nozik munchoqni qidirish bilan baravar edi. Umidimiz uzildi. Salomat topilgan qo'ylarni juda

ehtiyyotlik bilan haydab yo'lga tushdik. Nima uchundur bir qo'y to'dadan orqaga sultanib qolib, kalta-kalta yo'tal aralash ma'rabb, ko'zlarini javdiratar edi. To'daga yetkazish uchun qilingan harakat uning qulog'iga kirmas edi. Chatanog'ini kerib yerga o'tirmoqchiday bo'lar edi. Ro'paradan bir otliq qozoq chiqib qoldi.

— Hoy, jiggitar, o'si sovluq tuvatun ko'rinati, ko'p qistab aydamanglar! — deb o'tib ketdi.

Darhaqiqat, sinchiklab qarasak, boy a poyezd dahshatidan qo'y bechora bevaqt qochgan haromzoda bolasini chala tashlash uchun kuchanar edi. Qo'ylarni chetga burib, Omon ikkovimiz doyalik qilib ketdik. Qo'y bechoraning ko'zları aylanib, ingrab, o'qin-o'qin kuchanardi. Qo'yning azoblanishiga rahmi kelgan Omon ham qo'y bilan qo'shilishib kuchanar edi.

Birmuncha katta-kichik to'lg'oqlardan keyin qo'y bechorani ko'zi yordi. Ona qo'y, bola muhabbat bilan, bizdan qizg'an-qizg'ana qo'zichoqni boshdan-oyoq yalab chiqdi.

Tezroq bozorga borish kerak bo'lganligidan bundan ortiq oila muhabbatiga ijozat yo'q edi. Belbog'imni yechib, qo'zichoqni yo'rgaklab, ko'tarib oldim. Tuqqan qo'y yangi bo'shanganligiga qaramasdan bola ishtiyoyqida mening orqamdan juda epchillik bilan ergashar edi. Ba'zan qo'zichoqdan ko'zi olinib yanglishib qolsa, qo'zi o'rniga o'zim ma'rabb qo'yar edim. Chala tug'ilgan qo'zichoq hali ma'rashni bilmas edi.

Qo'y tuqqandan keyin, bizga qadrini o'tkazib kelayotgan echkinining ham keragi bo'lmay qoldi. Qo'y bir-birining ketidan ergashadigan jonivor. Tuqqan qo'yning ketidan boshqa qo'ylar ham bizni qiynamasdan ergasha boshladi. Kechadan beri Omon "echkisiz qanday o'tamiz", deb tashvish tortib kelayotgan Kalas suviga ham kelib yetdik. Omon-eson suvdan o'tib olsak, narigi yog'i hech gap emas. Ko'kterakka sal qoladi-ku!

— Xo'sh, qanday qilib o'tamiz?

Birinchi o'tishga kallasini kessa ham hech qaysi qo'y ko'nmaydi. Ona muhabbatidan foydalanishga to'g'ri keldi. Omon qo'limdan qo'zichoqni oldi-da, yalang'och bo'lib suvgaga tushdi. Bosh tarafini qo'ylar turgan tomonga ko'rsatib, ma'rabb, sekin-sekin kechib o'ta boshladi. Ona qo'y bir nafas suv qirg'og'ida olazarak

bo'lib, qo'rqib turgan bo'lsa ham, lekin bola muhabbatি qo'yamadi. O'zini suvga irg'itdi. Omon ko'targan qo'zichoqqa ergashib, suzib o'ta boshladi. Buni ko'rgan boshqa qo'ylar ham birin-ketin o'zlarini suvga tashlay boshladilar, men yuragi dov bermagan qo'rroq qo'ylarning orqasidan itarib suvga tushirar edim. Qo'ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko'tarib suzar edilar. Suv oqimi bilan ba'zan ularni anchagina pastga qarab oqizib borar edi. Qanchalik qo'rqish va tashvish bo'lishiga qaramasdan, bu gal bizaga tole kulib qaradi-yu, omon-eson suvdan o'tib oldik.

Kun tig' urib qolgan edi. O'rtalik allaqachon yorishgan. Bir tomondan Ko'kterakning qorasi ko'rinar edi. Qo'ylar charchagan, ochiqib, qorni ich-ichiga qapishib ketgan, biz ham undan ziyoda azoblangan edik. Shu ahvolda qo'ylarni bozorga kirgizib bo'lmas edi. Ozgina bo'lsa ham yoyib, sal qornini chiqarib, xaridorgir qilib bozorga yetkazish kerak edi. Har ikkovimiz maslahatlashib, qo'ylarni o'sha yerdagi chimzorlikka yoydik. O'zimiz ham andak-andak takiya qilib olmoqchi bo'ldik. To'nlnarni yonboshga solib, maza qilib o'tlayotgan qo'ylarni kuzatib yotdik. Lekin har ikkovimiz, "yo'qolgan qo'ylar uchun nima javob beramiz", degan xayolni surib yotar edik. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmayman, juda qattiq haqarat ovozidan uyg'onib ketdim. Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, burni xuddi paxtali to'nga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq bir kishi qamchi o'ynatab siyosat qilar edi. Paydar pay Omon bechoraning yelkasiga besh-olti qamchi kelib tushdi. Ko'zimizni ochib qarasak, allaqachon qo'ylar ochilib turgan paxtalarni oralab ketgan ekan. Bizni haqarat qilib savalayotgan kishi shu yerlarning egasi — mashhur Azim puchuq degan boy ekan. U ot bilan paxtalarni ko'rib yurib, shu falokatning ustidan chiqib qolibdi. Omon ikkovimiz qo'ylarni qaytarishga yugurdik. Qo'ylar anchagina joyning paxtasini payhonlagan ekan. Qaytarib olib chiqdik. Shu paytda boy korandalarini chaqirib, qo'ylami qo'rg'onga haydashga buyurdi. Biz uzangi-ga yopishib, yalinib-yolvora boshladik:

— Davlatingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, boy ota, bizlar bir g'arib-yetim bolalarmiz, sizning davlatingizda, duoyi joningizni qilib, non topib yuraylik!

Boy bizning yalinib-yolvoishlarimizga qaramay, hech aymasdan haqorat qilar edi. Omonning qo'lting'ida qo'zichoq, biz ham qo'ylarning ketidan ergashib boramiz. Qo'rg'onga yaqinlashganda Omon yetib borib:

— Axir, boy ota, bugun bozor kuni, bizni bozordan qo'ymang, xo'jayinimiz o'zingizga tanish bo'lsa kerak, bozorga yetib bormasak, xuddi bizning terimizga somon tiqadi, — deb yalina boshladi.

— Xo'jayining kim? — dedi boy.

— Xo'jayinimiz — beshyog'ochlik Qoraxo'jaboy bo'ladi-lar, — dedi Omon. Boy bir oz bo'shashganday bo'ldi.

— Unday bo'lsa, yaxshi, men xo'jayinlaring bilan gapirishaman, senlar hali birovning qo'yiga shunday beparvo qaraysanlarmi? Sen ablahlarni yaxshilab adablarining berish kerak. Bir mo'minning ne-ne mashaqqatlar bilan topgan moli senday badbxatlarning qo'lida shunday talon-toroj bo'lib yuribdimi, o'zim ham bugun bozor tushaman, salomat bo'lsam Qoraxo'jani ko'rib, senlarni yaxshilab tanbehangni berdirib qo'yaman. Hayda, qo'ylaringni tezroq bozorga yetkaz! Kun choshka bo'lib ketdi-yu, qo'ylarni bozordan qoldirib, senlar salqinda uqlab yotibsan, itdan tuqqanlar!

Xudoga ming qatla shukrlar qilib, sekingga qo'ylarni haydab bozorga ketdik. Biz bozorga yaqinlashganimizda xo'jin chiqib qarshi oldi. Kechga qolganimiz uchun yaxshigina so'kish eshitdik. Qo'yni qistov bilan haydab bozorga yetkazdik. Boy qo'shoqlashga buyurdi. Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog'iday qaltirab turibdi. To'rtinch o'nni qo'shoqlaganimizda qo'ylarning atrofini xaridorlar o'rabi qoldi. Bugun Ko'kterak bozorida qo'yning bozori chaqqon ekan. Qolgan qo'ylarni qo'shoqlasak, sanog'i ma'lum bo'lib qolar edi. Nima qilish kerak? Qo'yni qo'shoqlab turib Omonning biqiniga bir turtib qo'ydim:

— Nima qilamiz, Omon?

— Damingni chiqarma, boyning ko'zini shamg'alat qilib qo-chamiz.

Xo'jin xaridorlar bilan qo'l siltashib qo'y sotish bilan ovora edi. Chetga qoqgan bir qo'yni tutib kelish bahonasi bilan Omon o'zini to'daga urdi. Men ham boyning ko'zini chetga qoqib,

Omonning ketidan yugurib qoldim. Bozor-o'char degan joyda o'zingni to'daga urding, qutulding ketding-da! Kisavurlar ham to'daga urib, qutulib ketadi-ku!

Omon bozorning bir chekkasiga chiqib, telpak bilan chakmonni yechib qo'lтиqqa urdi. Birpasda bozorning chekkasiga chiqib it quvlagan soqovday nafasimiz og'zimizga tiqilgan, orqamizga qarab-qarab keta boshladik. "Hayt-huyt" deguncha o'zimizni shaharga ketadigan katta yo'l ustida ko'rdik. Katta yo'ldan ketish bizlar uchun bir oz xavfli bo'lganidan tor bog' ko'chalar, so'qmoq yo'llar bilan devor osha qochar edik. Endi o'zimizni xo'jayin ta'qibidan qutqazdik, degan mo'ljalga kelib bir buzuq qo'rg'onchada dam olib yotdik. Qorin och edi. Yaqin o'rtadagi bog' guzarlariga chiqib non-pon olib kelishga har ikkimizda ham yurak yo'q edi.

Bilmadim, bir soat yotdikmi, ko'proq yotdikmi, hikoya boshida aytganday, "bo'sh qop tik turmas", sarkash ishtaha, bedavo qorin o'z hukmini yurgizar edi. O'rindan turib qutloyamut qidirishga majbur edik. O'rnimizdan turdik. Bir-ikki marta kerishib ham oldik. Beshta qo'yni yo'qotganimiz, xo'jayindan qochoq bo'lishimizga qaramasdan, Omonni-ku, bilmayman, mening juda ruhim yengil edi. O'zimni har qanday band-bo'g'ovdan ozoddai his qilar edim.

Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'inining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi. Gap orasida meni jerkib tashlar edi.

— Sening kasringga qolib shunaqa bo'ldi. Bo'lmasa tuppa-tuzuk ishim yurishib ketgan edi. Bu zamonda birovga bitta buzojni kim beradi. Ikki to'qli bir echkidan ajradim. Sen o'zing nahs bosgan yigit ekansan, — deyar edi.

Men ham xunob bo'lar edim:

— Sening sovuq diydoringni ko'rishga uncha ham zor emas edim. Men bo'lmasam, qo'yingning yarmi yo'qolar edi. Qo'rg'ona-ma-qo'rg'on, devorma-devor oshib, qidirishib bergen, qo'yingni tug'dirishga doyalik qilgan kim, xizmatga tuhmat ekan-da, og'ayni, — der edim.

Xayr, bu achchiq-tiziqlar ham uzoqqa cho'zilmadi. Yana yurib ketdik. Lekin Omonning ba'zi harakatlaridan uning menga jiddiy kek saqlaganligi sezilib turar edi. Kun og'ib, peshin bo'ldi. Uvat yoqalab yo'lga chiqib olishni mo'ljallar ekanmiz, bir paykaldala uch-to'rtta odam uymalashib yurgan ekan.

— Hormanglar-ov!

Yonlariga bordik. Yo'l so'ramoqchi bo'ldik. Bu kishilar sabzi kavlab, qoplamoqda edilar. Ulardan Qorasaroyning yo'lini so'radik. Ular bizning ust-bosh, g'arib vaziyatimizni ko'rdilar. Oralaridan bir mo'ysafid kishi:

— Bolalarim, bozor-o'charing bo'limgandan keyin shaharda pishirib qo'yibdimi, bizga ko'maklashinglar, sabzi kavlastinglar, bir-ikki kun ishlab biror qop sabzi qilib ketsalaring choychaqa bo'ladi, — dedi.

Bizning ko'zimizga chol xuddi karomati borday ko'rindi. "Yopiray, bu chol bizning sanqib yurgan darbadarligimizni qayerdan bildiykin?" deb o'yladik. Omon:

— Shaharda ham uncha ishimiz yo'q. Shunchaki ish-pish qidirib kelayotibmiz-da, — dedi.

— Ey bolalarim-ey, ishni qidirib yurmaydilar, ish deganning o'zi oyoqning tagidan o'rmalab chiqadi. Bu yerdagi cho'pni bu yerga olib qo'ysang ham ish-da, kelinglar, sabzi kavlastinglar, inshoollo, sizlarga ham bo'ladi, bizga ham bo'ladi, — dedi chol.

Bu gap ikkovimizga ham ma'qul tushdi. To'n-telpakni pushta-ga qo'yib, sabzi kavlashga tushib ketdik. Sabzisi qurg'ur juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroqtoshday. Bir oz kavlagandan keyin bitta-ikkitadan sabzini etakka artib, tozalab, karsillatib, maza qilib yeb oldik. Qorin ochligidanmi, bilmadim, juda mazali tatib ketdi. Besh-olti ketmon urib, bir sabzini cho'tal qilib turar edik. Shu xilda qilib sabzi kavlab, dehqonning qoplaridan bir nechtasini tikladik. Shu qatorda o'zimizning "qop"larimiz ham xiyla tiklandi.

Kechga yaqin otga minib xo'jayin kelib qoldi. Xo'jayinning qorasini ko'rgandan keyin biz yana g'ayratga minib ketdik. Xo'jayin kelib "horma, bor bo'l" qilishgandan keyin, ishboshi choldan bizning kim ekanligimizni so'radi. Chol bizni ta'rif-tavsiflab ketdi:

— Bu baraka topgurlarni bizga xudo yetkazdi. Yo'l ketib turgan, juda ham qobil yigitlar ekan. Bir og'iz gapimni siylab, ikkovi ham peshindan buyon talay sabzi kavlab tashladi.

Boy bizga mehribonchilik bilan qaradi:

— Unday bo'lsa, bu yigtlarni qo'rg'onga olib boringlar, ovqat qilishsin. Bunday halol yigtlarga har kim ham non beraveradi, — dedi. Boy ketgandan keyin yana bir nafas ishладик. Sabzilarni aravaga yuklab, qo'rg'onga ketdik. Omonning rangi sal bo'zaribroq turibdi, ora-chora qornini silab qo'yari edi.

Kechki ovqatga xo'jayinnikida moshxo'rda qilingan ekan. Boyning himmati tutib ketib, moshxo'rdani beo'lchov tog'orada olib chiqib o'rtaga qo'ydi. Omon bilan mening qo'limga uzun dastali, barakaligina, no'g'oy qoshiqqa qaraganda ikki baravar "yuk" ko'taradigan, qo'l bola yog'och qoshiq to'g'ri kelib qolibdi. Moshxo'rda biz uchun juda ham tansiq edi. Boshqalarga gal bermasdan hash-pash deguncha tog'orani bo'shatdik. Biz bilan sabzi kavlaganlar hasharchi qo'ni-qo'shnilar ekan. Ular ovqatdan keyin fotiha o'qishib, o'z uylariga tarqalishib ketdilar. Biz boynikida qo'nadigan bo'ldik. Og'ilxonaga kiradigan yo'lak yonidagi g'ulom gardishdan yotishga joy ko'rsatdi. Biz yotadigan joyda bitta eski arqon karavot turar edi. Ko'p vaqtdan beri karavotda yotishni orzu qilib yurgan Omon tagiga bir po'stak solib, chakmonini ustiga yopib, karavotga cho'zildi. Mening yoshim undan kichikroq bo'lgani uchun yerda yotdim. Lekin Omonning karavot g'ijirlatishi menga uyqu bermas edi. Dam o'tmay o'rnidan turib, ingrab, tashqariga chopib chiqib kelar edi. Chamasi, ovqatlar ichida "xushhazm" bo'lgan mushak sabzi hunarini ko'rsatmoqda edi. Men bo'lsam, eshik sanab yurib, har xil xashaki ovqatlarga o'rganib qolganim uchun moshxo'rda mening qornimda o'z uyida yotganday tinch, rohatda edi. Omon tong otguncha shu xilda yugur-yugur bilan g'ingshib chiqdi.

Erta bilan vaqtli, hovuzdan yuz-qo'limizni yuvib, xo'jayinning xizmatiga hozir bo'lib turdik. Lekin Omon bechoraning ancha rangi olingan edi. Xo'jayin bir qumg'onda jiyda po'stloq solingan choy damlab, ikkita non bilan olib chiqdi. Choy o'rtasida xo'jayin bizni gapga soldi:

— Xo'sh, yigitlar, endi nima qilmoqchi bo'lasizlar? Mana shu qo'rg'onchada sizlardan boshqa yana bir-ikkita xizmatkorlarim bor, ular kecha qirga somonga ketishgan edi. Agar qolaman, desalaring, oldi qish, ovqat-oziqlaring bemalol, qishda unchalik ish ham bo'lmaydi, mol-holga qarab, mana shu yerda gulxan yo-qib, maza qilib yotasizlar, kiyim-boshlaringni chaqmoqday qilib qo'yaman. Boringki, haftada choychaqangizni ham berib turay, illo boshqa pul vajidan uzr...

— Xo'p, xo'jayin, o'ylashib ko'ramiz, — dedi Omon. Xo'jayin ichkariga kirib ketgandan keyin Omon ikkovimiz maslahatlashdik. Darvoqe, xo'jayinning aytgani to'g'ri, oldi qish, bora-digan, yotadigan makonimiz yo'q. Bundan ko'ra durust joyning topilishi ham gumon. Mendagi olti tanga bir miri bilan qish chiqarish qiyin. Shu yerda qolishga rozi bo'ldik.

— Bo'lmasa, — dedi xo'jayin, — cho'zilib choy ichishib o'tirmanglar, ukalar. Bittang bu yerda qol, bittang, otameros, boshing toshdan bo'lqur sigirim bor, shuni olib chiqib, ekindan bo'shagan yerning uvatlarida yetaklab yurib boqib kelasan, bu yerda qolganing bitta-yarimta mehmon-izlom kelsa, choy-poyga qarab turasan, — dedi.

Omon uyda qolishni yoqtirib qoldi. Chunki samovarning jag'illaganiga qulq solib, mehmonlarning gapini tinglab o'tirishni yaxshi ko'rар edi. Undan tashqari, bugun kechasi bechora besh-olti marta "qatnaganidan" dalaga chiqib, sigir o'tlatib yurish unga xiyla jabr bo'lar edi. Shunday qilib, sigirni men boqadigan bo'ldim. U uyda qoladigan bo'ldi. Xo'jayin og'ilxonadagi ola sigirni ko'rsatib, olib chiqishni buyurdi. Sigir jonivor og'ilxonadan olib chiqishda juda yuvosh ko'rindi. Yetaklab olib ketdim. Sigir orqamdan ergashib kelardi. Bir oz yo'l yurib, to'qayga yaqinlashganda sigirning qadami sustlashib qoldi. Orqaga tortildi. Jonivor charchab qoldi shekilli, deb o'ylab, orqasiga qo'limdag'i xipchin bilan bir urarmanmi, sigir o'zini yerga ko'tarib urdi. Ko'zlari olayib ketgan, og'zidan ko'pik chiqarib dag'-dag' titrab, oyoqlarini silkitar edi. Juda ham kayfim uchib ketgan, nima qilishimni bilmasdan sigirning atrofida parvona bo'lib aylanar edim. Yordamga chaqiray desam, hech kim yo'q...

Shu ahvolda tipirchilab yotgan, tering sangopda chirigur sigir birdan irg'ib o'rnidan turib, dumini xoda qilib bir qochib berdi. Qani endi bu harom o'Igor o'ziga yetkazsa. Xo'jayinning otamerros, qadrdon sigiri bo'Igani uchun ko'zdan yo'qolmasin deb, men ham oyoq-poyqlarimga tikan-cho'kirtak kirganiga qaramasdan, ionimning boricha uni quvlar edim. Go'shting olaqarg'aga xomtash lash bo'Igor, men yetib borgunimcha o't chimdib turadi, yetib borganimdan keyin, menga bir qarab qo'yadi-da, xuddi sag'risiga bo'ka tushgandak yana o'ynoqlab qochadi. Kechgacha shu zaylda sigir quvlab umrim o'tdi. Kun bo'yi uning boshbog'ini qo'Iga kirgiza olmadim. It quvlagan tulkiday holdan toygan edim. Kun botishga oqqanda butun kuchimni oyog'imga to'plab, astoydil chopib boshbog'ini qo'Iga kirgizdim. Ming siltashiga qaramasdan mahkam ushlab sudray boshladim. Ming mashaqqatlar bilan qo'r-g'onga yetkazib og'ilxonaga bog'ladim.

Rangim o'chib ketgan bir holatda Omonning yoniga keldim, Omon o'zining muhabbat qo'ygan arqon karavotida yonboshlab yotar edi. Hol-ahvol so'radim:

- Ha, ishing qalay, Omon og'ayni?
- E, so'rama, o'rtoq, — dedi, — bo'kib qoldim.
- Iye, nimaga bo'kasan?
- Sen ketganingdan keyin xo'jayinning bir-ikki qur oshnalar mehmon bo'lib kelishdi, uyda desang, yangalarim tushmagur juda ham pazanda ekan, ming turli noz-ne'matlarni pishirib chiqarib turibdi, hali manti, hali tandir kabob, hali lag'mon, hali holvaytar deysanmi, ishqilib noz-ne'matlarning ichiga ko'milib ketdim. Bitta-bitta cho'qilab, qornim yorilgunday bo'lib ketdi. Kechagi sabzixo'rlikning bugun hissasi chiqdi. Undan keyin mehmonlar tarqalishdi. Xo'jayinning uch-to'rtta qo'shni dehqonlardan olasi bor ekan, menga cho'tni qo'litiqlatib oldilar, orqalaridan ergashib yurdim. U qarzdor dehqonnikiga boramiz, bu qarzdor dehqonnikiga boramiz. Hammasi ham: "Qani, bu yoqqa, bu yoqqa", deb taklif qilishadi. Cho't ko'targanimni ko'rib, "boyning mirzas", deb bechoralar meni ham siylashadi. Palov deysanmi, sho'rva deysanmi, qo'y-chi, og'ayni, meni gapga solma, juda og'ir bir ahvolda bo'lib, bo'kib yotibman, ovqat bosdi, ovqat!

Bu noz-ne' matlarning ko'pini men faqat otinigina eshitgan edim. Juda ham Omonning baxtidan kunlashar edim. Endi qanday bo'lsa ham Omonni laqillatish kerak edi. Chunki, ertaga egang o'lgor, tutqaloqlik sigirni u o'tlatgani olib borsa, cho't qo'ltiqlab mehmondorchilikda yursam, degan fikr boshimdan ketmas edi.

— Xo'sh, sening ishing qanday? — deb so'radi Omon.

— E, meniki ham, qo'yaver, tozayam maza qildim-da, bu jonivor sigir shunday yovvosh, shunday bir baraka topgur ekanki, yetaklab olib yurib, bir uvatga qo'yaman, xuddi qoziqqa bog'lab qo'yganday o'sha yerdan bir qarich qimirlamasdan o'tlaydi, o'tlab turgan joyida o't sob bo'lib qolsa, "naryoqqa o'tsam mumkinmi", deganday qilib menga sekin qiya qarab qo'yadi. "Ha, jonivorgina", deb yetaklab nariroqqa jildirib qo'yaman. Shunday qilib, qarasam, sigir emas, jonning rohati ekan, keyin bir sero'troq uvatga yetaklab olib borib qo'ydim-da, ariq bo'yidagi tolning salqinida maza qilib uyquni urdim. Ikki-uch kundan buyon bo'lgan hamma hordiqlarim chiqib ketdi. Yaxshi ham bu yerda qolmaganim, mehmonlarga xizmat qilaverib, toza ham charchagan bo'lar ekanman.

Omon ham mening gapimga "puk" uchgan bo'lsa kerak, ikki gapning birida "haha-haha" deb qo'yar edi. Kechqurungi ovqatga xo'jayinnikidan ayron-atala chiqdi. Ovqatning sal "xashaki" roqligidan taajjublanib Omonga qaradim, Omon fahmladi shekilli:

— Bu ovqat, lekin menga to'g'ri keladi, — dedi. — Bu kungi yegan ovqatlarimning hammasi ham zo'r, issiq mijoz ovqatlar edi, endi shuni ichib olsam, bas, shu bilan ichimda qalashib qolgan haligi ovqatlarni hazm qilib yuboraman, — deb icha boshladi.

Men ham:

— Xayr, bizning nasibamiz ham shu ekan, kuni bo'yi uxlagandan keyin zo'r ovqatni ham ko'tarmaydi, — dedim-da, ichaverdim.

Erta bilan uyqudan turib xizmatga qoim turganimizda, xo'jayin yana kechagiday ikki non, bir choydish jiyda po'stloq choy ko'tarib chiqdi.

— Xo'sh, yigitlar, — dedi u, — bugun nima qilamiz? Kim nima ish qiladi?

— Xo'jayin, bir maslahati bo'lar, — dedi Omon.

Xo'jayin ichkariga kirib ketgandan keyin Omon:

— Insof ham kerak, — dedi, — bugun sen ziyofatda qol. Men sigir boqishga bora qolay, lekin senga ayтиб qо'yadigan bir nasi-hatim bor, uka. Xo'jayin hali mehmondorchilikka borish oldidan yarimta nonga suzma surtib chiqarib beradi. Sen uni yema. Buning ma'nosi shuki: "Agar mehmonga olib borishda to'ydirib olib bor-masam, suqlik qilib, meni uyaltirib qо'yadi, ne qilsa tagipast, bad-nafs ochko'z-da", degani bo'ladi. Sen xo'jayinga rahmat degin-u suzma nonni yemagin, — dedi.

Men ham unga sigir boqish to'grisida ba'zi maslahatlarni berdim.

— Omon, — dedim, — mening fikrimcha, arqon karavoting-ni ola ket. Kecha zaxda yotaverib, mening belim og'rib qopti. Hozir kuz tushib qolgan vaqt, ayniqsa, to'qay yer, zaxkash, sigirni o'tlatib qо'yasan-da, o'zing karavotni bir salqin joyga qо'yib, maza qilib uxlayverasan. Mening maslahatimga Omon, Omonning maslahatiga men unadim.

Omon borib og'ilxonadan sigirni yechdi. G'ulom gardishdan arqon karavotni orqalab olib chiqib ketdi. Bir nafasdan keyin ich-karidan xo'jayin chiqdi.

— Omonboy qani?

— Xo'jayin, bugun sigirni u boqqani olib ketdi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi xo'jayin, — choyni maza qilib ichib oldingizmi, qani bo'lmasa turing!

O'mimdan turdim, qо'limga ketmon bilan bolta-teshani berdi. Qо'rg'онning orqasiga olib chiqib, tepasi yer baravar kesilgan ik-kita terak to'nkasini ko'rsatib:

— Qani, bir g'ayrat qilib, mana shu to'nkalarmi kavlab chiqarib bering, qishda o'zlarigiz maza qilib gulxan qilasizlar. Kecha Omonboy baraka topkur ham toza g'ayrat ko'rsatdi-da, bundan ham katta ikki to'nkani kavlab chiqardi. Halol yigit ekansizlar, baraka topkurlar, — dedi.

Men dilimda: "Mehmonlar kelguncha bittasini kavlar ekan-man-da", deb o'yladim. Tamom g'ayrat bilan ishga tushib ketdim. Kun qiyomdan oqqanda qо'lida yarimta nonning yuziga suzma surtib xo'jayin chiqib qoldi.

— Ha, barakalla, azamat, barakalla! Qani, mana buni bir maza qilib yeb oling.

“Bugun xo‘jayinnikiga mehmonlar kelishmaydiganga o‘xshaydi. Endi cho‘t qo‘ltiqlab qarz qistagani borar ekanmiz-da”, deb o‘yladim.

— Yo‘q, xo‘jayin, qorin to‘q. Hech nima yegim kelmay turibdi, — deb suzma surtilgan nonni olmadim.

Xo‘jayin ko‘p qistab ham o‘tirmadi:

— Mayling bo‘lmasa, sizlar hali yosh, ichlaringizda moy qaynaydigan yigitlarsiz, — deb nonni qaytarib qo‘rg‘onga olib kirib ketdi.

“Yo qarz qistashga boramiz, yo mehmondorchilikka boramiz”, deb umidvor edim. Hali kutaman-hali kutaman, hech gapning daragi yo‘q. Mehmondorchilikka borishning shirin xayolida ochligimga ham qaramasdan birinchi to‘nkani kavlab chiqarib, ikkinchisining ham bir tarafini ochib qo‘ydim.

To‘nkalar juda ham chatoq, serildiz ekan. “Endi bo‘ldi”, deganizingizda tagidan yana bitta yo‘g‘on ildiz chiqib qoladi.

Kun botishga yaqin ikkinchi to‘nkani ham qulatdim. Juda tinkadan tolgan edim: “Uh”, deb borib, o‘rnimga cho‘zildim. Shu paytda Omon ham kelib qoldi. Yelkasida karavot, rangi bo‘zday oqarib ketgan, sigirni mahkam ushlagan, “horma-bor bo‘l” ham qilmasdan karavotni yerga qo‘yib, sigirni olib borib og‘ilxonaga bog‘ladi. Har ikkovimiz bir-birimizni aldaganimiz uchun andisha qilar edik. Omon meni eski keki yuzasidan aldagani ekan, men uni shunchalik qiziqchilik qilib aldagani edim. Chamasi, devona sigir kechagi menga qilgan “hunari”ni ikki baravar oshirib Omonga ham ko‘rsatibdi. Karavotni qo‘yib sigirga qaray desa, birov o‘g‘irlab ketishi mumkin, sigirni qo‘yib karavotga qaray desa, sigir bir zumda ko‘zdan yo‘qoladi. Xullas, bechora Omon karavotni orqalab olib, kun bo‘yi sigir quvlabdi. Yelkalari shilinib ketibdi. Oyoqlariga tikanlar qadalib to‘libdi.

U menga gapirmas edi. Men biyronlik qilib, uni yupatdim:

— Shukr qil, og‘ayni, yaxshi ham karavoting temir karavot emas ekan.

Bir nafas tersayishib o‘tirdik.

— Ko'zdak og'aynimiz, Omon! — dedim. — Bunday bir-birimizni aldab yurishimiz yaxshi emas. Kel, hali ham kekn tashlaylik. “Maslahatli to'n tor kelmas”, deganlar. Bir ish bo'lsa maslahat bilan qilaylik. Men ham bugun “ziyofat” yeyaverib, juda ham sassiq kekirdak bo'lib ketdim. Rostini aystsam, xo'jayinga “mirza”lik qilishdan ham bo'larim bo'ldi.

— Durust, — dedi Omon. — Kel, uka, shaharga tushib ketaylik, axir ochdan o'lmasmiz. Bu xo'jayining juda Xudo urgan odam ko'rindi... Bugun kechasi bir amallab qocharimiz.

— Quruqdan-qurug'-a!

— Ha, bo'lmasa nima qilar eding, tom teshib, tim urarmidik.

— Muzdini chiqarib ketsak bo'lar edi.

Boyagi, men domlanikida, eshonnikida yuraverib xiyla qo'li egrilikka o'rganib qolganman. Egasi yo'q mol afandiniki, degan ma'qul gapga ko'nikib ketganman. Omonni yo'lidan chiqarib, boyning birorta molini o'lja qilib ketish payida edim.

Uzoq tortishuvlardan keyin Omon ham ko'ndi. Bizni ikki kundan buyon sargardon qilgan tentak sigirni so'yib, uning go'shtini ko'targanimizcha olib, shuni sotib tirikchilik qilmoqchi bo'ldik.

Kechki ovqatga xo'jayin shirqovoq qildirgan ekan, olib chiqib oldimizga qo'ydi va qovoqning mo'jiza ekanini maqtab-maqtab, buni ichgan kishi do'zax betini ko'rmasligi to'g'risida gapirib ketdi. Ovqatdan keyin xo'jayin darvozani qulflab ichkariga kirib ketdi. Biz yana joyimizda yotib uyquga ketdik...

Yarim kechadan o'tganda Omon uyg'otdi. Ikkovlashib oyoq uchi bilan og'ilxonaga kirdik. Men ne qilsa ham eshak so'yib ko-rafta bo'lib qolgan salloh. Jinni sigirni yiqitib oyog'ini boyladik. Omon yonidan pichoqni olib berdi. Pichoqni bir-ikki yonimga qayradim-da, “Bismillo Ollohu akbar”, deb sigirning bo'g'ziga pichoq tortib yubordim.

Naridan-beri ichak-chovog'ini ag'darib tashlab, terisini shilib, eng yaxshi joylaridan, suyaksiz qilib, uch pudcha go'shtni og'ilxonadagi kunjara solib qo'yilgan qopni bo'shatib, o'sha qopga to'l-dirdik. Men to'nka bo'lib turdim. Omon tomga chiqdi. Avval qopdag'i go'shtni, undan keyin arqon bilan meni tortib olmoqchi bo'ldi.

Oy botib, kecha qorong'ilashib qolgan. Juda avaylab, tusmol bilan harakat qilamiz. Omon tomda. Lekin mening ko'nglimga sal shubha kelib qoldi. "Balki bu gal rostakam qilib mendan o'chini olar, o'zi ketib qolar-da, men bu yerda xumchaga tushgan sichqonday qamalib qolarman", deb o'yladim-da, darrov qopdag'i go'shtni bo'shatib ichiga o'zim tushib oldim. Qopning labiga bitta kesak o'rav, arqonni mahkam qilib bog'lab, "tort", dedim. Omon zo'r bilan tortib oldi. Men o'sha paytlarda uch puddan ortiq kelmas edim. Omon meni go'sht deb o'yladi. Darhaqiqat, mening fikrim to'g'ri chiqdi. Qopni tortib olgandan keyin pastga qarab:

— Qo'lga tushding-ku, qani endi xo'jayinga javob berib ko'r, ha, nomard! — dedi-da, inqillab-sinqillab, sekin, avaylab, qopni arqon bilan ko'chaga tushirdi. O'zi tomning pastroq joyini mo'ljallab sakrab tushdi-da, qopni ko'tara jo'nab qoldi.

Shunday qilib, bir butun sigir go'shtidan bir chaynam ham bizga nasib bo'Imadi. Shuncha ovoragarchilik boshimizga yuk bo'pdi. Omonning orqasida juda sekinlik bilan nafas olib borar edim. Yo'lda "uh" deb qopni yerga qo'yib, bir-ikki joyda dam ham oldi. Bilmayman, qaysi qishloqqadir kirib borar edik. Men qopning ichida bo'lsam ham kun yorishayotganligini sezар edim. Yo'ldan bir it chiqib qoldi. Omonni taladi, qishloqning har tomonidan vovillashib boshqa itlar yetib keldi. Omonni o'rav olib atrofida turar edilar. Itlardan biri kelib qopni tishladi. Itning tishi qop, kiyim-bosh aralash bo'ksamga xanjar urganday botgan edi.

Chidab turolmadim:

— Voydod, Omon, yuqoriroq ko'tarib ol! — deb qichqirib yuborganimni o'zim ham sezmay qoldim. Omon sigir go'shti tilga kirganligidan qo'rqiб ketib, qopni tashlab yubordi. Ana shunda bir qop go'shtday yerga shilqillab tushdim.

— Bu senmisan, go'shtmisan? Go'sht bo'lsang, o'zing qani, o'zing bo'lsang go'sht qani? Omon dovdirab, nima deyayotganini ham bilmas edi. Qopdan chiqdim. Ikki kishi bo'lib qolganimizni ko'rgan itlar asta-sekin chekina boshladilar.

— Qani yuraver, berdisini keyin aytaman.

Omon xomush edi. Bir-birimizga qaramay, tong azonda qishloq yo'lida ketib borar edik.

Omon shunchalik darg'azab ediki, jon og'ritgani jondor qidirar edi. Ko'cha chetida o'sib yotgan olchaldardan qamchi dastasiday bittasini shartta sindirib, dadasi yasab bergen pichoqcha bilan novdaning uchini, tagini kesib, tayoqcha yasab oldi. "Tag'in shu tayoqcha bilan meni savalab qolmasin", degan xavotirda men ham o'zimga unikidan yo'g'onroq tayoq tayyorlamoqchi bo'ldim. Bitta o'rik ko'chatini sindirib:

— Og'ayni, pichoqchangni berib tur, shuni tekislab olay, — dedim.

— Pichoqni harom qilasan, nas bosgan, — dedi Omon.

— Men nas bosgan bo'ldimmi? Sen bilan shuncha yurdim, biror marta cho'milganiningni ko'rganim yo'q! Yuz-qo'lingni ham o'lguncha erinchoqlik bilan giyovandlardek seskanib arang yuvasan. Qo'llitig'ingga qo'l ursang, bir kaft bit chiqadi. Mana men o'tgan hafta Kalasda yarim soatcha cho'mildim. Ko'ylak-ishtonlarimni ham otquloq o'tdan sovun qilib tozalab yuvdim. Sen nas bo'lmay, men nasm'i?

— Bo'pti, — dedi Omon. — Nas bo'lmasang pesdirsan, orqa etagingda namoz o'qisa ham bo'laveradigan peslardan.

— Senchalik shumqadam bolani umrimda ko'rmanman.

Oramizdag'i janjal kuchayib borar edi. Omon mendan gina qilgancha bor edi. Chunki u go'shtni sotib, do'ppi tiktirmoqchi, chaqmoqi telpak olmoqchi ekan.

— Quruqdan quruq sho'ppayib shaharga tushib ketaveramizmi, ko'rgan-bilgan ne deydi, shuncha vaqt sanqib yurib, ikki barmog'imni burnimga tiqib boramanmi, o'zing o'lguncha nas bosgan pes deganimcha bor bola ekansan, sen bilan birlashganimdan buyon ishim o'ng'alganini bilmayman. Sen yo'liqmaganingda hov anov pulga to'qli olgan bo'lardim, haligacha to'qlim — qo'y, qo'yim — biya, biyam — tuya bo'lardi, — deb meni koyirdi.

— Buning maslahati hali ham oson, — dedim. — Dorbozga shogird tushsang, duxobadan shim qilib beradi. Hammomga o't qalovchi — go'loxlikni o'rgansang, erta kech o't oldidan jilmaysan, do'ppi bilan chaqmoqi telpakning ham keragi bo'lmaydi.

Qo'y, biya, tuya, bu gaplar endi ortiqcha ziynat, bekorchi tashvish, yem-xashakni qayerdan topasan? Uning ustiga hovling kichik. Bu hayvonlar uchun katta saroy qurishing kerak. Hali ham bu mashmashalarni xayolingdan chiqar-da, har shanba kuni bilan chorshanba mol bozorga bor. Himmatingni baland tut. Bozorni o'z og'ilxonang deb o'yla, butun shu hayvonlar o'zimniki deb dilingdan o'tkaz. Bularga ham qanoat qilmay, ko'ngling fil istab qolguday bo'lsa, Yupiterning ot o'yinxonasi qochib ketgani yo'q. Bilet olib ko'rishga, albatta, senda naqd aqcha bo'lmaydi. O'zingni ehtiyot qilib tashqaridan, taxta tirqishidan yoki o'sha atrofdagi biron ta daraxtga chiqib ko'rishing mumkin. Ammo hali aytganday, qorovulning ilon qamchisidan ehtiyot bo'l. Qani, yur, uzun gapga fursat yo'q, shaharga tushib seni kutib yotgan buncha dov-dastgoh, izzat-davlatlarni tomosha qil, — dedim.

Omon otasi ham qilishi mumkin bo'limgan bu ma'qul va jo'yali maslahatni palag'da tuxum yutganday o'qchib, ijirg'anib tingladi. Eng oxirida zardasi qaynab ketdi:

— Senday og'aynidan menga harom o'lgan sigirning yelini yaxshi edi, nima qilsa hamsovungar pul to'lab olar edi-ku. Xayr. Sovuq diydoringni qiyomatda ham ko'rmay, — dedi-da, kelgan yo'liga qarab qaytib keta boshladi.

Qayerga ham borar edi? Yo'l qaytsa, sigiri so'yilgan boyning odamlari uni tutib olib, mirshabga topshiradi, umri Sibirda o'tib ketadi. Baribir, tentirab, halakaning itiday sanqib shaharga qaytadi. Bu jihatdan ko'nglim tinch, qornim to'q edi. Orqasidan qichqirdim:

— Mulla Omonboy, shahardagi qo'shchi-kulonchi, sayis, miroxo'r, boy-u boyonlar, oshna-og'aynilaringizga xat-patingiz yo'qmi, Orifxo'ja eshon, Maqsudxon duma, G'ulomxon qozilarga¹ nomingizdan salom aytib qo'yaymi?

Omon churq etmay borar edi. Oramizdag'i janjal puch yong'oqqa arzimaydigan bo'lsa ham har ikkalamizdag'i o'jarlik o'zimizga yetarli edi: qaytib kelishga u or qilar edi, men bo'lsam, otdan tushsam ham egardan tushmas edim. Men kimman, axir. Omon qo'sqiga bo'ysunib ketaveramanmi!

¹ XX asr boshlaridagi Toshkentning ko'zga ko'ringan boylari.

Xo'sh, endi o'zimizga navbat, o'zginamiz, ya'ni men nima qilaman, qayerga boraman?

Bu viloyatlardan umidim uzilgan, kimsan, Ko'kterak, Eshon bozor, Qoplonbek, Sharobxona kabi shahri azimlarda (ko'p voqealarni ushbu sarguzashtda yozganim yo'q) qilmagan ishim qolmagan, yetti iqlimda nomim yomonlikka yoyilgan, mazkur mamlakat va viloyatlarga qaytishim mumkin emas. Oilamizga — onamning oldiga boray desam, ust-boshim yupun, oyog'im yalang, hammom tushgan bo'taloqday shir yalang'ochman. Onam sho'rlikning beva-kambag'al ro'zg'origa jodiday jag' bilan borishim o'zimga ham o'ng'aysiz, ularning ham menga ko'zlar uchib turmagan bo'lsa kerak. Ammo, baribir, mening oldimda bitta yo'l bor edi, xolos, u ham bo'lsa shahar. Undan tashqari, hali bayon qilganimday, sayohat qilingan yerlardan hadigim zo'r.

Omon bilan totuvchilik vaqtarda menga bir ish o'rgatgan edi. U ham bo'lsa, "to'daga ur" falsafasi. Qishloqdan-ku badarg'aman, chumchuqdek jonim bilan shaharga tushib ketsam, "qora po'stakdan burga qidirish qiyin", deganday, shahardan meni kim ham topib ola qoladi?

Shahar.

Shahar. Savdogarlar, mirshablar, gadoylar shahri. Seldan so'ng loyqalanib oqqan daryo. Shu daryoning murdor to'lqinlari ichida men sho'rlik nima, bitta xas-cho'pdek yutilib ketishim mumkin. Ammo men o'zim esa shaharni astoydil yomon ko'raman. Ko'knorining isiriq solgan dekchasiday badbo'y shaharda men dimiqib ketaman. Yana o'sha mustahab qilmagan, yog' bosgan basharalar, uzun-uzun rastalarning do'konchalarida gazcho'p ushlab, xaridor kutgan yalqov boyvachchalar, charvi yegan mushuk-dek ko'zi yaltiroq hannotlar, oqsoq laylakning soyasiday arang-arang sudraluvchi bir to'da tilanchilar, ular-bular, xullasi, men shaharni yomon ko'raman.

Attorlikni aylanib chiqqandan keyin bir qozoqning bolasi:

— Dada, bu do'kondorlar nima ish qiladilar? — deb dadasidan so'ragan ekan:

— Ey, o'g'lim, bular bozor kuni xalqni aldaydilar, begin kuni bir-birlarini aldaydilar, — deb javob bergan ekan dadasi. Bir oz

kamsitib aytibdi. Bular har kuni, har soat xalqni aldaydilar. Nima qilaman, osmon uzoq, yer qattiq. Qilichini ko'tarib qish kelayotir. Men axir ko'chib ketgan qishloqning tandiri emasman-ku, qishin-yozin og'zimni ochib, esnab o'tirsam. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak. Yoz kunlari jazillatib tovondan uzadigan qizg'in yo'llarga kech kuzakning salqin ivishig'i tushgan. Tuproq og'irlashgan, chang ko'tarilmaydi, suvlari tip-tiniq. Ba'zi sovuqroq tonglarda shabnam ham tushadi, ariqlarning cheti ko'kka tekkan sigirning qaymog'iday yupqa shirava bog'laydi. Beva onamni, yetimcha singillarimni ko'p o'layman, ichim achishadi.

Nega men bunday noshud bola bo'ldim, kimga bo'lsa ham shogirdmi, yugurdakmi bo'lish kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerak-ku, deyman. O'kinaman, o'zimni o'zim koyiyman, ba'zan-ba'zan yig'lab qo'yaman. Ammo shu holda uyga qaytish qiyin.

Omonning o'chib ketgan qorasini orqasidan termilib, o'zimning yuqorida go'dak falsafalarimni mulohaza qilar edim. Yer sovuq, oyog'imni objuvozning poyko'piday birisini olib, birisini qo'ymoqdamman. Kechasi bilan Omon bechora ikkovimiz o'z tashvishimiz bilan ovora bo'lib ketib, sovuqni uncha sezmagani ekanmiz. Uzoqdan karvon qo'ng'iroq'ining ovozi eshitildi. Qo'ng'iroq jarangi, kimsasiz qorong'ilikda mehribon ohang bilan dilga dalda berib, ufqda erib ketar edi.

*Nili sahrolardan karvon o'tgan chog'
Unga peshvoz chiqar hattoki sahar.
"Gul tong", deb,
"Gul tong" deb urgan qo'ng'iroq
Baxtli kelajakdan beradi xabar.*

Karvon yaqinlashib yetib keldi. O'n besh chog'lik tuyasi, ularni beshta-beshta tirkab, yetaklab eshak mingan chol, bir yosh yigit kelardi. Tuyalarga ortilgan xashaklar, tuyalarning tumshug'i, chollarning soqol-mo'ylovleri g'ira-shira qirov bog'lagan. Men birdaniga karvonga yaqinlashib:

— Yo'l bo'lsin, akalar? — dedim. To'satdan, tomdan tarasha tushganday bu so'rashish karvonni cho'chitib yubordi.

“Alay bo‘lsin!” deb berilishi lozim bo‘lgan odatdagi javob o‘miga oldinda eshak mingan chol yetaklagan it menga tashlandi. Yaxshi ham chol shaharga o‘rganmagan itni adashib ketishidan qo‘rqib, eshakning qanjig‘asiga bog‘lab olgan ekan, bo‘lmasa pok titig‘imni chiqarar ekan. Ma’lumki, itdan yurak oldirib qo‘yganman. Yarim soatgina ilgari qop ichida turib itlar bilan uchrashgan edim. Sag‘rimdagи tishning alami hali tarqalgani yo‘q.

— Nima qilib bu yerda turibsan, chirog‘im, yaxshilikka bo‘lsin edi, — dedi chol.

— Shaharga tushmoqchi edim, yanglishib qishloqdan barvaqt chiqib qolibman, yo‘ldosh kutib turgan edim, baxtimga sizlar kelib qoldingiz, — dedim.

— Hov anavi qirning ustida ham biroving ketayotibdi, o‘zlarin necha kishi, aytaqo‘y, chirog‘im, itni yeshaymi, yo‘qmi? — dedi chol.

— Qiziq odam ekansiz, men itni yoqtirmayman. Qirda keta-yotgan kishini bo‘lsa tanimayman. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan Xudoning bandasiman. Yo‘ldosh bo‘lishdan hazar qilsangiz, nima ham qillardim. Zorim bor, zo‘rim yo‘q, o‘zim orqangizdan sizni qora tortib ketaveraman, — dedim.

— Voy-voy, — dedi chol, — chakaklikkina mol ko‘rinasan, qirdagi kishi nega seni so‘kib ketayotibdi bo‘lmasa?

— So‘ksa so‘kaversin, men eshitmagandan keyin og‘ziga kel-ganini o‘tласин.

— Tanimayman, degin?

Ichimdan zil ketdim. Nima deyishimni bilmay qoldim. Indamasdan ergasha berdim. Keyindagi tuyu yetaklaganlar ham menga shubha bilan qaray boshladilar. O‘rtaga tushgan bu sovuq-chilikni ustimdan ko‘tarish uchun gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo‘lib, cholga gap otdim:

— Mana shu yorug‘ yulduzning oti nima, otaxon?

— Hi, hi, quv bola ko‘rinasan, yulduz otini bilib yadachilik¹ qilarmiding? — dedi-da, boshini osmonga ko‘tarib sharq tomon-dan yarqirab chiqqan yulduzga qaradi:

¹ Go‘yo yulduzga qarab yomg‘ir yog‘dira oladigan sehrgar kishi.

— Mana bumi? Bu yulduzni “Zuhro” deydilar, asli bir kambag’al kishining qizi ekan. Ota-onasi o’lgandan so’ng, podsho bunga sovchi qo’ydiribdi. Zuhro qiz: “O’zimning sevganim bor, shunga tegaman”, debdi. Podshoh qizning sevganini toptirib dorga osibdi. Dorning yog’ochi uzun, juda-juda baland ekan. Qiz kechassi kelib sevgan yigit osilgan dor yog’ochiga tirmashib chiqaveribdi, chiqaveribdi, boshiga yetibdi, undan u yog’i osmonga bir qadam yo’l ekan. “Bir kunmas-bir kun, yerda zo’ravon podsholar yo’qolsa qaytib tusharman”, debdi-yu, ko’kka chiqib ketibdi. Ana o’shandan buyon har kuni tongotarda ko’kdan yerga mo’ralab qo’yarkan. Bu yulduz tong qidirganlarning manglayiga chiqadi, uxlab yotganlar buni ko’rolmaydilar...

Chol qo’li bilan osmonda turli shakllar chiza boshladi:

— Huv anov, shimoldagisi, Oltinqoziq yulduzi. U yulduz osmonning o’qi bo’ladi. Shunga qarab yurgan kishi yo’ldan adashmaydi. Mana bu to’kilgan tutday cho’zilib ketgan yorug’lik Somonchining yo’li. Mana shu yo’Ining ostida ota-bobolarimiz ming-ming yildan beri qatnab kelgan. Mana men ham shu yo’ldan qatnayverib qartaydim. Tushundingmi, yadachi bola?

Gplashib ketsang yo’l qisqaradi, deganday, shaharning Chig’atoy darvozasiga kelganimizni sezmay qolibmiz. Oldindagi nor-tuya bo’yniga osilgan qo’ng’iroq dang’ir-dung’ir chalinib borar edi. Shaharning tor ko’chalarida yangragan qo’ng’iroq ovozi devorlarga urilib maydalanar, yerga to’kilar edi.

To’xtajonboyning masjidiga yaqinlashganda, quduqning qolipi singari mezanadan yarim belini chiqarib kuchanayotgan manqa so’fining:

— Hayna xananxola... Hayna xananxola... — degan ovozi eshitildi. Besh kunlik bevafo umrida bunday xushqiroat ovozni hatto o’z jinslari o’rtasida ham eshitmagan cholning iti cho’chib ketdi, so’figa jo’rovoz bo’lib uvlamoqqa boshladi. Chol qo’lidagi tayoq bilan itni bir turtib to’xtatdi.

— Buning nima deb baqirayotibdi, o’g’lim?

— Sho’rlikka Xudo ikki dardni birdan bergen ekan, ham manqa, ham so’fi, hozir mezanadan tusholmay baqirib yotibdi, — deb hazillashdim.

Oyoq kiyimlar sotiladigan vofurushlik rastasiga kelganda chol bilan xushlashib ajrashdik. Cholning iti ham menga o'xshash rastadan qo'rqrar ekan. U dumini chotiga qisib, eshakning pinjiga su-qilib, olazarak bo'lib ketar edi. Juda rahmim keldi. Bu rasta ichida har qadamda esnab, kerishib, nos chekib turgan qorovullarning "kimsan?" deyaverishidan zerikib, qassoblikka burildim. Qassob bozorida bir katta qora ko'ppak bir qancha itlarni ergashtirib izg'ib yurar edi. Meni ko'rishi bilan irillay boshladi. Uzr aytib, sovungarchilikka burildim. Bu yerning itlariда ham xuddi shunday muomala — chopsam quvlaydi, to'xtasam — tevarakka davra quradi. Qadamni ildamroq tashlab eski Xotin hammomning yonidan Kulollik orqali Kapponga qarab yo'l soldim. Qayerga ketayotibman — o'zim ham bilmayman, meni ko'r taqdir yetaklar edi.

Bu yil it yili ekanmi, bilmayman. Kulollikda ham meni itlar tinchitmadи.

Durst, qassob bozorining itlari-ku, meni bez tergani kelgan, deb qizg'anishi mumkin edi. Sovun bozoridagilar qirindilardan iborat rizqlariga sherik bo'ladi, deb o'ylagandirlar. Xo'sh, Kulollikning itlari nimani qizg'anadi? Men quruq, bo'sh xumni, oshsiz sopol tovoqni yoki suv tegmagan quvurni yeb qo'yamanmi?

Ensam qotib yo'limdan ketib boraverdim. Mahkama bozoring boshiba, Xasti Ukkosha degan machit ro'parasiga chiqdim. Ukkosha degani bir odamning ismi ekan. Bu odam arablar bizning O'rta Osiyoni bosib olganlarida lashkarboshi bo'lib kelib, shu yerda ota-bobolarimizning o'qiga uchib o'lgan ekan. Keyin arab hokimlari uning qabri ustiga machit ko'tarib, nishonlagan ekanlar. "Otangni o'ldirganga onangni ber", degan murosasoz maqol yuzasidan shaharlarimizni vayron qilgan, ota-bobolarimizni o'ldirgan, xalqimizni yoppasiga qul qiluvchilardan biri bo'lgan Ukkoshaning mozori bu zamonga kelib ziyoratgoh bo'lib qolgan edi. Mozor tagidan chiqadigan sizot suvlardan paydo bo'lgan bir buloq ham bor edi.

Bu mozorga va buloqqa xalqning ixlosi juda baland edi. "Bu mozorga sig'ingan, bu buloq suvidan ichgan yoki cho'milgan kishi pes bo'lsa tuzaladi, shol bo'lsa yuradi. Ko'r bo'lsa ko'zi ochiladi", deb ishonar edilar.

Xasti Ukkoshadan kunbotar tomonga ketaversangiz, chala novvoylikka chiqar edingiz.

“Og’zi qaro alomat, ichi qizil qiyomat — uni topping dilbarim”, bu hamma biladigan oddiy topishmoq, ya’ni tandir.

Katta-katta tandirlarda alangalanib o’t yonmoqda edi. Ko’ksi ochiq bo’z yaktak kiygan, chakkasini bog’lagan kishilar, tez-tez laxcha cho’g’li tandirlarning ichiga kirib-chiqib, issiq non uzmoqda edilar. Go’yo quyosh korxonasida to’lin oy yasalmoqda edi. Qizil mag’iz, lolrang bo’lib pishgan nonlarning yuzi oftobdan ham issiq edi.

Qani endi jildirab oqayotgan shu ariqning labiga o’tirib ol-sang-u, shu nondan bir savatini oldingga qo'yib qo'ysalar, hech qanday takalluf bo'limasa, suvga botirib yeyaversang, yeyaversang. Savatdan non uzilmasa, ariqdan suv. To'ydin deganimda, o'rningdan turib bir kerishib qo'ysang, hech kim sendan pul so'ramasa. Keyin novvoyga: “Rahmat, aka!” desang-da, yo'lingga ketaversang.

Ammo bunday paytlarda bizday kamsuqumlarni nonning saxovatli hidigina to'ydira olardi. Isinish bahonasi bilan novvoxonaning eshigi oldida nonning hidini hidlab turar edim.

Yelkasiga ro'mol tashlab, sag’ri kavushini charvi yog’i surib yaltiratgan, oltmishlardan oshgan, lekin bir oz bukchaygan chol kelib bir ro’mol non oldi. Uostonadan chiqa turib, mening ust-boshimga bir qur sinchiklab qaradi-da: “Him-m. Otang aylan-sin, bolam, mana shu nonni ko’tarib eltib bermaysanmi?” — dedi.

“Xo’p”, deb qo’lidan tugunni oldim. Orqaladim. U oldin, men ketin keta boshladik. Chol oyoq ostida uchragan qog’ozlarnimi, lattalarnimi hassasining uchi bilan avval bir titkilab tekshirib, keyin yerdan olib devor kovaklariga tiqib ketar edi. Orqamda issiq nonlar. “Menga ulardan bir burda tegadimi yo yo’qmi, yoki kitob ortilgan eshakday bebahra qolaveramanmi?” deb o’ylayman. Choli tushmagur shuncha nonni nima qiladi, yo to’yi bormikin, to’yga bo’lsa — bu non kam, ro’zg’orga desa — ko’p. Bu odam kallayi saharlab, tovuq qo’noqdan tushmasdan qayoqqa yetaklab ketayotibdi? Nariroqqa borib, jarlikka burildik, suv yoqalab borar edik. Chol mayin ovozli, juda ham xushgap chiqib qoldi:

— Nima qilib tong azonda tentirab yuribsan, bolam? Nima yo'qotgan eding?

— Daladan tushdim, ota.

— Ha, shunday bo'ladi, bolam. Toshkentning tarig'ini yegan chumchuq Makkatullodan qaytib uchib keladi. Ota-onang bormi?

Gapni cho'zib o'tirmaslik uchun "o'lib ketganlar", deb qo'ya goldim.

— Shunaqa bo'ladi. Ota-onha degan mo'rt keladi. Hay, zararsiz. "Yaxshi buzoq ikki onani emibdi", degandek, o'zing epchil bo'lsang, ota topib olasan. Otaki topiladi, ona degan o'z oyog'i bilan keladi. Ishqilib, katta Chorsudan omon-eson o'tib olibsan. Marra seniki. Yomonlar ko'payib ketgan. Ha, shunaqa. Oyoq yalang ekansan, bolam. Unday desa, Mallaxonning tuyasi ham oyoq yalangligicha so'yilib, shulon oshiga tushib ketgan, yugurik oyoqqa kavush topilib qolar. Avval oyoq omon bo'lsin-chi. Ha, shunaqa!

Mana, urush boshlanganiga ham bir yildan oshdi, shundan buyon hamma narsaning narxi oshib ketdi, shundan buyon poyabzalning ham narxi ko'tarilib qoldi, shunaqa, bolam. Poshsholar tinch yashasa, xotini taloq bo'ladiganday, oq poshshomizni ay-taman-da, tinchgina yurt so'rab, morjnini yeb, yomonlarni dorga osib, marjalar bilan aysh-ishrat qilib yotavermaydimi? Nimasi yetishmaydi, fuqarosi bo'lsa xom go'shtday itoatli, mirshab-u poleskalar qilichday. "G'us", desa, tap-tayyor, har besh vaqt namozda eshon ulamolar haqiga duo qilishib turibdi, pulga zoriqmaydi. Jumlayi boy-u boyonlar madadda. Tag'in nima kerak? Urush qilib, xaloyiqni qirib, kesakka hokim bo'ladimi? — chol o'z-o'zicha javrab, sannab borar edi.

Men indamadim. Oradan bir oz jimmlik o'tdi. O'n-o'n besh qa'damdan keyin chol g'ing'illab ashula ayta boshladi:

— *Otasi o'Imagan kim bor,*

Onasi o'Imagan kim bor.

Birovning yurtiga borib,

Musofir bo'Imagan kim bor?

Hay, mashoyixlarning sadag'alari ketay. Otam rahmatli ikki haj qilgan edilar. Meni ham o'zlar bilan keyingi gal olib bordilar.

Biz ham ey musofirchiliklarni boshdan o'tkazganmiz, bolam. Kishi musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaydi, degan ekanlar azizlar. Ha, shunaqa bo'ladi. O'zing qaysi qishloqdan bo'lasan?

— Uchqo'rg'onidan, — dedim ensam qotib.

— Shunaqa degin, bolam, men uchramaganimda onangni Uchqo'rg'onidan ko'rар ekansan. Domla-pommlaga borganmisan?

— "So'fi Olloyor"¹ ning¹ yarmisida qochganman.

— Ha, shunaqa. Bay-bay, gapning ayni qizg'in joyida qochgan ekansan. "Jahannam"dan qochgan ekansan-da, a, bolam?

— Ha, shunaqa.

Chol "So'fi Olloyor" kitobining "Jahannam qasidasi"ni kuylay boshladi:

*Jahannam uzra bir ko'prik erur, oh,
O'shal ko'prik Sirot otliq guzargoh.
Qilichdan tez erur, qildin ingichka,
Pushaymonlar o'shal kun tushgay ichga.*

Cholning qo'lidan bir amallab qutulish payidan bo'lib:

— Ota, — dedim, — noningizni bir oz ushlab turing, suv ichib olay, chanqab ketdim.

Chol seskanib, cho'chib ketdi:

— A? — dedi. — Suv ichaman? Ichingda moy qaynayotibdimi yo qazi-qarta yedingmi? Yuraver, bachchag'ar, hozir choy ichasan, e, tavba-yey, etim jimirlashib ketdi-ya. Saratonda qo'l yuvishga erinasan kishi-yu, kech kuzakda, tag'in azonlab, nahorga, muzdek qavs suvini ichar emish-a. E, tavba-yey, ota-onang g'ozmidi, haromi? Shunaqayam bo'ladimi?

Chol meni koyib javrab ketmoqda edi. Jar yoqasida xaroba bir uyning eshigiga kelib burildi. Men hadiksirab eshik oldida to'xtadim. Chol orqasiga qaradi.

— Ha, nega qorakashlik qilayotirsan, shunaqa bo'ladi, bolam, kiraver.

Yana shubhalandim.

¹ Eski maktabda savod chiqqandan so'ng o'qitiladigan kitob. Kattaqo'rg'onlik So'fi Olloyor degan shoir asari (XVII asr).

— Iya! — dedi chol. — Nega buzoqdek baqrayasan? Bu yer kushxona emas. Madrasa, madrasa. Shunaqa bo'ladi. Chala qolgan savoding shu yerda chiqadi.

Qo'rqa-pisa tavakkal qilib tutundan qorayib ketgan pastak eshidan engashib ichkari kirdim. Hammayoq achimsiq, ko'zni achit-adigan hidga to'lgan edi. Yuqorida miyona ro'zg'orning samovari, o'rtacha bir kir samovar qaynab turar edi. Yerdan ikki qarichcha ko'tarilgan so'richada olti kishi davra qurib o'tiribdi. O'rtada manqaldonda olov-olv atrofida siniq-mertik choynaklardan uch-to'rttasi terilgan. Ko'chada allaqachon quyosh chiqqan bo'lishiga qaramay, bu yerdagi shishasi qoraygan yettinchi chiroq pilpillab yonmoqda. Ko'cha tomonga ochilgan tuynuklarga yopishtirilgan yog'lik qog'ozlardan sarg'ish nur g'ira-shira kirmoqda. Taralma-gan sariq soqoli yuzini bosgan, qo'sh ko'zoynakli, o'rtta yoshli bir kishi chiroq yonida qalin bir kitobni olib o'tiribdi. Qolganlari har xil shaklda o'tirib uni qurshab tinglamoqdalar. Biz kirib borishimiz bilan manqaldondagi cho'g'ni otashkurak bilan titib o'tirgan, hoji do'ppilik puchuq bir kishi quvonib ketdi.

— Ana, Hoji bobomning o'zları ham kelib qoldilar. O'zlaridan so'rab qo'ya qolamiz.

Kitob o'qiyotgan boshini ko'tardi:

— Hoji bobo, kitobdag'i bir masalaga shubha qilib qoldik. Abu Muslimiy sohibqiron bilan Nasiri Sayyori Beor dashti Xurosonda jang qilganda ul janobning boshlariga-ku Nasiri Sayyor to'qson olti ming botmonlik gurzigaron bilan urgan edi. Shunda ul janob tizzagacha yerga botgan edilarmi yoki belgachami? Bulturgi o'qigan nusxamizda tizzagacha deyilgan edi. Bu yilgisida belgacha, deb yozilgan.

— Tizzagacha degani to'g'ri, — dedi Hoji bobo, — chunki qoida-i pahlavonlik uch zarb bo'ladi. Birinchi zarbda tizzagacha, ikkinchi zarbda belgacha, uchinchi zarbda yelkagacha. Nauzanbil-loh, bir zarbda ul sakbachcha janobni bellarigacha yerga botirgan bo'lsa, ikkinchi zarbda qulqlarigacha botirib, zo'ravonlik Yaziyd bilan Marvoniharda¹ qolar edi. Ha, shunaqa.

¹ Sharq adabiyotida afsonaviy ristsarlar.

— Fikri sohibi xona, albatta, ma'qul ast,¹ — dedi davra-dagilardan qotmacha kelgan qora bir kishi.

Bular "Jangnomayi Abu Muslimi sohibqiron"ni o'qimoq-da ekanlar. Hoji bobo nonni mendan olib, samovar tagidagi bir sandiqqa taxladi. Sakkizta nonni bir patnisga qo'yib, har qaysi nonning ustiga bir kaftdan mayiz, jiyda soldi. Ko'tarib kelib, har qaysi odamning oldiga to'ylarda to'qqiz-to'qqiz tortilganday bit-tadan qo'yib keldi, o'zi ham davraga kirdi. Men hali ham serray-ganimcha ustunga suyanib turar edim.

— Hey, — dedi Hoji bobo, — devorga suyab qo'ygan kurak-dek nega serrayib turibsan, amakilaringga salom berib, bu yoqqa chiq, bolam, ha, shunday bo'ladi.

— Assalomu alaykum! — deb tortinibroq yuqori chiqdim. Hoji bobo yonidan joy berdi. Haligi nonlardan bittasini mening oldim-ga qo'ydi. Choy quyib berdi.

— Nonni ushat, choyni ich, qo'maqaylik qilmay yaxshi chay-nab yejaber, bolam. Hammasi o'zingniki, ha, shunaqa.

Bu yerdagilar hech qanday takallufni bilmas edilar. Har kim o'z choynagidan choy ichar, o'z noni bilan mayizini yeyar, bir-biroviga "oling-oling" yo'q edi. Haligi fors tilida gapirgan, ko'k sallali qotma, qora kishi Hoji bobodan so'radi:

— Sohib, in bacha kist?

— Novvoyliqdan topib oldim, shahrimizzagi yetim-yesirlarni kam sanab, o'zini ham shularga qo'shmoqchi bo'lgan bir bepadar. Oyoq-qo'li epchil, tili burro, jag'i butun ko'rindi, xizmatlaringni qilib yurar, — dedi.

— Juda ma'qul, balli-ballı, Hoji bobo.

Hamma Hoji boboni olqishladi.

Bu yer ko'knorixona — takya edi. Demak, men bu yerda giyo-hvndlarning choy tashuvchisi, chilim soluvchisi, Hoji boboning yugurdagi, farroshi bo'lib qolar ekanman. Joy issiq, ermak to'lib yotibdi. Axir, bu sho'rlik odamlarning qay birisi ermakdan qolishadi. Non-u choy o'z qo'limda, sal fursatda bir-ikki tanga pul jamg'arsam bo'ladi.

¹ "Uy egasining fikri to'g'ri".

Demak, Toshkentning qattiq qishi mening uchun chanada shuvganday tez o'tib ketadi. Undan tashqari, men shu ahvolda onamning oldiga borolmas edim. Qo'lim bir oz pul-mul ko'rsin, biror nima orttirib uyg'a kirib boray, dedim.

Choy hali tugalmagan ham edi, qotma, qora kishi o'rnidan turmoqchi bo'ldi.

— Imro'z bozor, sohib, do'kona barvaqt kushodan lozim ast, ba man ijozat.¹

— Xo'p-xo'p, boring, kechki obiyovg'onga kelarsiz, albatta?

— Albatta.

Men boy'a diqqat qilmagan ekanman, u tumshug'i osmonga qaragan kavushini kiyayotganda yuziga qaradim. Ikki qoshining o'rtasida buxor tangaday qizili bor edi. U chiqib ketdi. Men Hoji bobodan so'radim:

— Bobo, bu kishi kim, o'zi qayerlik?

— Hi, — dedi Hoji bobo, — eng avval, hi, men bobogina emasman, balki Hoji boboman, haromi. Haromi? Ikkinchidan, sen palisamistr emassanki, bu yerga keluvchilarning kim, ota-onasining oti nima, kasbi qanday, o'zi qayerlik, hisob berib o'tirsam. Bu musulmon hindi bo'ladi, bolam. Pishavur shahridan, o'zi hindining sarrofi. Uncha-muncha sudxo'rlik ham qilib turadi. Shunaqa. Har qachonki hindining puli bir lakdan oshsa, tillani qizdirib manglayiga bosadi-yu, qizil nishon qiladi. Buning puli lak-lak, shahri Toshkentning qanchaki savdogari bor, hammasi qo'rqadi, buni ko'rganda dagillaydi, hammasi bundan qarzdor, bolam, shunaqa. Tur. Chilim sol. Kechgacha yaxshi xizmat qilib meni tinchlatsang, kavush toptirib beraman.

Bu yer menga juda ham forom kelib qoldi. Xizmatni ayamadim. Hoji bobo har gapga bir maqol o'qiydigan ezmaroq tabiatli kishi bo'lsa ham qo'li anchagina ochiq, baxilligi yo'q, xususan, hisobga no'noqroq odam edi. Chunonchi, u oltiga narsani ketma-ket sanamoqchi bo'lsa, to'rtdan keyin yanglishib ketar, darrov meni chaqirar, bu jihatni menga, xususan, yoqar edi. Sarrof hindi mening sevganlarimdan bittasi edi. U kelganda, ayniqlasa, mening oyog'im olti, qo'lim sakkizta bo'lib xizmat qilar edim. Bunga sa-

¹ Bugun bozor kuni, tezroq borib do'konni ochishim kerak.

bab ikki narsa edi: birinchidan, u Hindistonning ajoyib-g'aroyibotlaridan hikoya qilar edi. Chunonchi, marvarid ko'chalarda sochilib yotadi. Hind bolalari ko'ngalagiga marvarid, yoqt solib yotadi, non daraxtda pishadi, odamlari besh yuz yoshga kirganda mo'ylovi chiqadi. Hammasidan shunisi qiziqki, er-u xotin yalang'och yuradi. Qish bo'lmaydi, qo'y tekin, ona-bolali fil to'rt tanga va hokazo, va hokazo.

Bu gaplarning bir qismini men chalakam-chatti bolalardan eshitganim bor edi. Ich-ichimdan Hindistonga bora olish havasi buлоqday qaynab toshar, "oh, go'zal Hindiston", deb qo'yar edim.

Ikkinchidan, sarrof hindi juda saxiy edi. U Toshkentning yirik, dona-dona nosini emas, faqat Buxoroning xokinosisini chekar edi. Men qayerdan bo'lmasin o'sha nosni topib, unga keltirib qo'yar edim. U:

— Barakalla, barakalla, — deb qo'limga nos pulidan tashqari, uch miri, bir tanga choychaqa berar edi. Bozor kunlari kechqurun takyaga bir xalta tilla tangalarni ko'tarib kelar, eng avval menga bitta achchiq choy buyurar, so'ngra bir burchakka o'tirib pul sanar edi. Ko'pincha sanoqning yarmiga borganda mudrab qolar, cho'chib-cho'chib uyg'onib, chilim so'rар, pag'a-pag'a tutun tarqatib, yana sanoqqa tushar edi. Shunday paytlarda men tepasida turib, uning davlatini yomon ko'zdan saqlar edim, uyqusitinib yana sanoqqa tushganda, bilmadim, mo'ljaldan kam kelgani uchunmi:

"Moshoollo!" deb qo'yar edi.

Xullas kalom, men hindi sarrofnı yoqtirar edim.

Hoji bobo bilan sarrof hindidan tashqari, bu yerga keluv-chilarning hammasi ham uncha qo'rs emas, afyundan so'nggi pinakni hisoblamaganda, hammalari ham xushgap, xushmuomala odamlar edi. Dunyoda bo'lib turgan va bo'ladigan hangamalardan suhbatlar bo'lar edi. Kitob o'qilardi: uning namunasi yuqorida ko'rsatib o'tildi. Men bu yerga kelganimning uchinchi haftasi urush boshlanganiga ham bir yil ikki oyga yaqinlashib qolgan edi. Urushning sovuq ta'siri ko'knorixona — takyaga ham kirib kelgan edi. Giyohvandlar ham siyosatdan gapirishadi-gan bo'lib qolgan edilar.

— Nikola-yu farang bir tomon, Germon degan bir tomon, toza urushayotgan emish. Germon degani oltita tomonidan ko'zi bor, qanotli bir toifa emish. Oq poshshoning bir talay shaharlarini yer bilan yakson qilgan emish. Ayniqsa, o'rmalovchi bir to'p chiqargan emish, bu to'pi ajdar naslidan emish. Germonga faqat Abu Muslim, Qahramoni qotil, Xalifayi Rumday sohibqironlar bas kelmasa, boshqasi bas kelolmas emish. Oq poshshoning askarlari o'rtasidan ola chiqib: "Urushmaymiz, urushsa poshsho bilan vazirlar urushaversin", deb turgan emish. Shu bebosh askarlarning boshida Masterovoy degan bir polvon turgan emish...

Urushning qizib borayotgani to'g'risida sayohat qilib yurgan qishloqlarimda ham qulog'imga chalingan edi, shaharga tushganimdan buyon bu gap aniq ekanini bildim.

Shunday qilib, siyosat to'g'risida borayotgan gap nima sabab-dandir to'satdan parrandabozlikka aylanib ketar, kim qanday qilib to'tini "ahmoq" deyishga o'rgatganini, kim zag'chani chakidaxo'r qilganini, kim tovuqqa qichqirishni mashq bergenini, olato'g'anoq og'zidan tuxum qilishini so'zlay boshlaydilar. Bir nafasda bu gap ham o'zgarib, "yer nega qimirlaydi" bahsi boshlanar edi. Xullas, men uchun bu yer shikoyat qilarli darajada zeriktiruvchi joy emas edi.

Xizmatlarim Hoji boboga ma'qul tushdi. U ham va'dasining ustidan chiqdi. O'sha paytlarda Toshkentda kalishlar, kavushlarning narxi oshib ketgan edi. Och-yalang'och kosib, kambag'allarning topgani oporka bo'lib, hamma oporkaga o'zini urgan edi. Oporka degani urushda o'Igan soldatlarning etigining sog'i emas, past bosh qismi bo'lib, qaysidir pulga o'ch, jonkuyar harbiy idora bularni yig'ar ekan. Bu gapni Toshkengandan turib eshitgan allaqaysi boy: "Kiroy fuqaroparvarlik bunday bo'ladi", deb skoriy poyezdga tushib, urushning orqasiga borgan ekan. Bir emas, sakkiz vagonni naqd pulga xarid qilib Toshkentga keltiribdi. Ana shuni endi mayda-maydalab, o'n juft, yigirma juftdan yakka qo'l yamoqchilarga sotar ekan. Yamoqchilar uni seplab, fuqaroni qimatbaho kalish, kavush tashvishidan qutultirar ekanlar. Hoji bobom shu oporkadan muzboltadayining bittasini menga olib berdi.

Payshanba, juma kunlari, ayniqsa, takya gavjum bo'lar edi. Takaning doimiy yigirma-yigirma besh takjoy mijozlaridan tash-

qari, jo'ra-jo'ra bo'lib solma osh qilib yeydiganlar, "ishtaha ochish uchun", "dilxushlik uchun" bir-ikki chilim, nasha ham chekadigan yosh-yalanglar kelar edilar. Bulardan ko'p qismi mayda hunarmand, kosib yigitlar bo'lib, ahyon-ahyon boyvachcha bolalar ham ko'rinish qolar edi.

Odat bo'yicha, har chorshanba kuni ertalabdan namozgargacha Hoji bobo menga dam berar edi. Shu kuni Hoji boboning ba'zi bozor-o'char ishlariga yordam berib, qolgan vaqtlar o'z ixtiyorim bilan bozor aylanar edim.

Har hafta chorshanba kuni kechgacha mening "hordiq" kumin — juma hisoblanar edi. Erta bilan Hoji bobo qo'limga yarim tanga uch miri juma puli berib:

— Ma, bolam, o'ynab kel, barvaqt qayt. Boqqolning maymundeck kim ko'ringanga ajuva bo'lib yurma, pochtachining otidek har bir do'konning oldida to'xtab, ag'rayma, qassoblikka kirib qolgan begona itdek ko'ringan bilan yoqalashma. Hayitda qandolat bozoriga tushgan qishloqidek badnafs bo'lma, ko'ringan narsani olib yeysa berma. Ha, shunday bo'lsin, bolam, shunday bo'lsin.

Darvoqe, ma, mana bu bir miriga Xo'ja ro'shnoyidagi usta Tolib sovungardan bir qadoq sham ola kel, hidlab ol, sassiq bo'lmasin. Erta juma-shanbi, arvohlarga yoqamiz. Sassiq bo'lsa arvochlarni ranjiydi. Boraver, bolam, boraver.

Ha, to'xta-chi, tamaki saroyga ham tush, mana bu to'qqiz pulni ol, o'sha yerda buxorolik do'kondor bor, bu pulga buxoro tolqoni nosidan ola kel hindi amakingga, — dedi.

— Pulni qo'ya bering, nosga o'zimda pul bor.

— Hm, — dedi Hoji bobo, — "har kujo pul ast onjo dil kusho". Hindi sarrof bilan o'talarining qil o'tmasligini bilaman. Hindiga deganda pulni ham keragi yo'q. "Oladig'an qo'lim beradig'an", deganlar. Shunday bo'ladi. Hu, javdiramay ko'zing qursin. Bora qol. Irg'ay qamchinga o'xshaysan-a, ozodsan. Ozodlikka ne yetsin.

Hoji bobo tag'in orqamdan allanimalar deb javrab qoldi. Men shataloq otgancha ko'chaga ketdim.

Bugun chorshanba — bozor kun. To'g'ri Majjomining orqasidagi yalanglikka, qovun bozoriga yugurdim. Kech kuz bo'lgani

uchun qovun-tarvuz demaganingiz tog'-tog' bo'lib uyulib yotar edi. Meshkoblar hammayoqqa suv sepib, salqin qilib qo'ygan edi. Uch-to'rt joyiga g'aram-g'aram ho'l bedalar uyib tashlangan. Chetan-chetan qovun olib kelgan dehqonlar aravadan otni chiqarib arava shotsining soyasiga gaz bo'yi oqurug' qovunlarni, xumchadek keladigan sarg'ish, qizg'ish qirqmalarni, dumiga pichoq qo'yish bilan tarsillab necha bo'lakka ajralib ketadigan qizil urug' shakarpalaklarni uyib tashlaganlar. Quvadan, Marg'ilondan, Farg'onadan, Oltiariqdan chetan-chetan anor olib kelgan dehqonlar ham aravani laylak qilib, har bittasi handalakdek kattakon anorlarni uyib qo'yibdi.

O'zim tengi bitta sayoqni topib: "Hoy, bola, oting nima?" — dedim.

- Nima ishing bor edi: otim Otaboy, — dedi.
- Bitta qovun olsam, sherik bo'lasanmi?
- Sherik bo'iardim-u pulim yo'q.
- Puling bo'lmasa, bozorda nima qilib yuribsan?
- Qovun tushiradiganlarga yordamlashaman, sapcha, tuynak berishadi.
- Yo'lingdan qolma, sen menga to'g'ri kelmas ekansan.

Kichkina bitta qizilurug'ni bir paqirga sotib olib, yorib yeya boshladim. O'z boshingcha o'z pulingga olib, o'zing yorib yegan qovunga ne yetsin. O'zim erkaklarning orasida yashasam ham, takya degan joyga ho'l meva kirmas edi. Afyun, taryak yeguvchi, ko'knor ichuvchi kishilar ho'l mevadan mushuk suvdan hazar qilganday hazar qilar edilar. Kunlardan bir kun Hoji boboga qo'yarda-qo'ymay bitta shaftoli artib berganimda, ozgina tatib ko'rib:

- Hu, haromi, buning nima, shaftoli-shaftoli deganing shumi? Shaftoli degan narsa dumaloq suv bo'lar ekan-ku! Junjib ketdim-a! — deb qo'limga qaytib bergen edi.

Shunaqa, giyohbonlar takyalarga ho'l meva, sovuq suv, olicha, olxirot, ko'ksulton, anor, sut, qatiqni sira yo'latishmasdi. Bu mevalarning o'zi u yoqda tursin, otini eshitganda seskanib ketishardi.

Qovunni maza qilib yeb oldim. Endi ikki donagina anor ham olay, deb mo'ysafid bir farg'onalik dehqonga bir miri pul uzatdim. Chol bo'yi bastimga sinchiklab qarab:

— Anor yeging keldimi, bolam, pulingni cho'ntagingga solib qo'ya ber, hali bay ochganim yo'q, bay ochishdan ilgari chakana savdo qilmayman, — dedi-da, ikkita katta anormi olib menga uzatdi. — Birini o'zing ye, birini ukalaringga olib bor, duo qilsalaring bo'ldi. Mozor bosib kelgan anor.

Cholga juda hurmatim oshib ketdi. Ancha yaxshi gaplar gapirmoqchi edim-u, bu gaplarimni bittagina ma'yuslik bilan aytgan, "rahmat, ota", degan so'z bilan tamomlab qo'ya qoldim. Belbog'imni ustimdan bog'lab, anorni qo'ynimga solib oldim.

Qovun bozordan chiqib eski kappon oldidan o'tib ketayotib butun Eski shahar bozoridagi qorovullarning boshlig'i Rahmatullo sarkorga ko'zim tushib qoldi.

— Iye, uka, — dedi u, — katta yigit bo'lib qolibsan-ku! Mirza akam omon-eson yuribdilarmi?

— U kishi o'lib ketganlar.

— Ey, attang, ha, mayli, Xudo rahmat qilsin. Onang omonmlar? Nechta bola qoldilaring?

— Onam sog'-salomatlar, men, yana uchta singlim bor.

— Bay-bay, yosh qolibsanlar-u.

U qo'ynini kavlab bitta oriq bedana olib berdi.

— Ma, buni to'rga solib boq, o'tkir sayroqi chiqadi.

"Rahmat", deb uni ham qo'ynimga solib qo'ydim.

— Olazarak bo'lib turibman, uka, yigitchilik qursin, basma-bas o'ynab, Qoraboy tojikning beli chiqib ketdi, aravaga solib moshfurush tabibnikiga olib ketishgan edi. Kelmay turibdi. Shunga xavotir olib turibman.

— Nima qilib beli chiqdi?

— Attorliqdagi boyvachchalar bilan katta qanor to'la yigirma puddan ortiq ko'zmunchoqni aravadan yolg'iz o'zi ko'tarib saroyga olib kiraman, deb belini chiqarib qo'yibdi. Boyvachchalar bilan bas o'ynab bo'ladimi? Nima qilsa hamki, kambag'alni mayib qilish payidan. Eski shahardagi qorovullarning aksariyati tojiklardan bo'lar edi. Bular rastalarni poylar edilar, ko'chalariga suv separ edilar va savdogarlarning, hannotlarning, do'konrlarning arava-arava keladigan yuklarini ortib-tushirib berar edilar.

Rahmatullo sarkor el-yurt o'rtasida obro'ga ega. Degani-degan, sulh-salohlik kishilarning biri edi.

— Bo'sh bo'lganingda hovliga kel, ukalaring bilan o'ynab ketasan, — dedi Rahmatullo sarkor.

Xayrlashib mahkama tomon yo'l oldim. Ko'mir saroyiga qarab ketayotganimda qulog'imga karnay-surnay ovozi eshitilib qoldi. Yosh-yalang bolalar o'sha tomonga yugurib borar edi. Chorsuning o'rtasida ikkita taxta aravada Yupiterning sirkchilari to'xtab jar solar edilar. Bir aravaning ustida ikkita surnaychi, bitta karnaychi, bitta do'mbirachi. Har xil qalpoqlar kiygan, betlarini bo'yah, uzun-uzun qizil burun qo'ygan, sariq-sariq patila sochli, oy, yulduz nusxa olabayroq to'nli masxarabozlar, bir qarich keladigan qizil lablarini tirjaytirib, har xil masxarabozlik ko'rsatmoqdalar.

Bittasi tuxumni og'zidan yutib qulog'idan oladi, bittasi burnining katagidan lenta sug'uryapti.

Ikkinchisi aravada bir rus xotin to'rt-beshta laycha kuchuklarga kichkina kiyim-boshlar kiygizib:

*"Lyubl-yu, lyubl-yu, Mamajon,
Lyubl-yu, Mamajon.
Akushkadan qaragan,
Lyubl-yu Mamajon.
Istakonda choy ichgan,
Lyubl-yu, Mamajon",
Ashulasiga o'ynatyapti.*

Uchinchi aravaning ustida bitta chala yalang'och xotin pochalariiga piston qadalgan ishtonini ko'z-ko'z qilib, turli maqomlarda qo'l-oyoqlarini o'ynatyapti. Bitta polvon ikki pudlik qadoq toshlardan to'rtasini birin-ketin osmonga irg'itib ilib olib o'ynayapti. Bir kishi davraning o'rtasida gijinglagan otni oldingi oyog'ini ko'tartirib salom berdiryapti.

Hammaga tanish bo'lgan Rafiq masxaraboz:

— Hoy, bilganlar bilsin, bilmaganlar boshqalarga aytsin. Sarbiya xalqining eski tanishi Yupiterboy va u kishining qizlari Mayramxon ko'mir saroyiga ot o'yini qurdilar. Biletlar bir miridan bittangagacha. Kep qoling, armonda qolasiz! — deb qichqirar edi.

Surnaychi-karnaychilarning oldida birinchi qatorda tomosha qilib turar edim. Shu tobda anor yegim keb qoldi. Quynimdag'i anordan bittasini olib, yorig'idan ikkiga ajratib ikki qo'lim bilan siqib, tom ishtaha bilan yeishga tushdim. Sersuv qayanorning sharbatlari engagimdan tirqirab oqib ketmoqda. Nima uchunadir karnay-surnayning ovozi avvalgidek shahdam emas, viqillab chiqar edi. Puflay berib lunji pufakdek shishib ketgan keksa ko'sa surnaychi "g'iyq" etib surnayni to'xtatdi-da, yelkasidagi ro'molni olib og'zini, lunjini artdi.

— Hoy, qiztaloq bola! — dedi.

Kimni chaqirayotgan ekan, deb alanglab qaradim.

— Senga aytyapman, — dedi u meni ko'rsatib, — davradan chiq, anoringni boshqa yoqqa borib ye!

Men bilmas ekanman, karnaychi bilan surnaychining oldida anor, ko'ksulton, olxo'ri, tog'olcha, suzma-qurt kabi nordon narsalarni yeb bo'lmas ekan. Buni ko'rghan karnaychi-surnaychilarning og'zidan so'lakayi oqib, puflay olmay qolar ekanlar.

Bitta masxaraboz kelib, meni turtib davradan chiqarib yubordi.

O'yin ham tugab qolgan edi. Jo'nab qoldim.

Sochim o'sib, yelkamga tushib ketgani uchun oldirmoqchi edim. Mahkama machitining tagida ko'chaga eski bir kir qizil lungi osib qo'ygan sartaroshxonaning eshidiga borib to'xtadim. (Sartaroshxonalar ma'lum bo'lsin uchun ko'chaga viveska o'miga lungi osib qo'yilardi.) Sartaroshxonada uch-to'rt kishi bor edi. Bittasining ikki chakkasiga ikkitadan to'rtta zuluk solib qo'yilgan edi. Bir kishining ikki chakkasida qortiq. Qortiq degani ho'kiz yoki sigirning shoxidan ichini o'yib tashlab ikki tomoni teshik qilingan bir asbob. Bu bilan sartarosh bosh og'rig'i kishilarning chakkalarini tilib, ustiga qortiq qo'yib qon olar edi. Ikki chakkasiga qortiq qo'yilgan kishi baayni ho'kizga o'xshardi. Bu ikkov pastakkina eshakka — skameykaga o'tirib boshlarini quyi solgan holda ihrar edilar. Mo'ysafid sartaroshning o'zi bir kishining jag'tishini sug'urish bilan ovora edi. Cholning ko'zi menga tushib qoldi.

— Ha, bola, soch oldirmoqchimisan? Bir paqir turadi. Puling bormi?

— Ha, bor.

— Bo'limasa, qarab turma, mahkamaning hovuzida yaxshilab ishqalab sochingni ivitib kel.

Sartaroshlar hamma ish qo'lidan keladigan "dono" kishilar edi. Ular soch-soqolni qirib qo'yishdan, soqol-mo'ylov bo'yash-dan tashqari, tabiblik ham qilar edilar. Xafaqon — bosh og'riq bo'lganlarning tomiridan qon olish, zuluk solish, qortiq qo'yish, tish sug'urish, surgu dari berish ham bularning vazifasiga kirar edi. Ayniqsa, bolalarni xatna qilish serdaromad ishlardan hisoblanar edi.

Bizga o'xshagan yosh-yalanglar sochimizni oldirmoqchi bo'lganimizda, boshimizni ho'llab ishqalab o'tirishga hafsalalari kelmay, sochimizni ivitib kelishni o'zimizga buyurar edilar. Mahkama hovuziga kirib boshimni ho'llab, qirtishlab ishqalay boshladim. Obdan me'yoriga yetti deganda, sartaroshxonaga bordim. Usta tish og'rig'ining tishini sug'urib bo'lgan edi. U bechora bir chekkada voy-voylab o'tirar edi.

Usta yana band. Bir mo'ysafid kishining mo'ylovini qaychilab qo'ymoqda edi. Ko'zi bilan menga "o'tirib tur" degandek, bir kur-sichani ko'rsatdi.

— Boshingni ishqalab tur, soching qurib qolmasin?

Navbat menga keldi. Usta bir kir qizil lungini bo'ynimga soldi. Boshimga qo'l tegizib: "Yaxshi ivitmabsan-ku, bachchang'ar!" — dedi-da, sopol obdastadan qo'liga suv solib uzukli qo'llari bilan boshimni ishqalay ketdi. Xuddi terimni shilib olguday bo'ldi. Ayniqsa, sartaroshxonaning qashqa pashshasini aytинг. Shiling pocha-oyoqlarimni shunaqa uzib chaqadiki, dod, deb yuborasan kishi.

Keyin usta shapaloqday pakki ustara bilan chakkamdan ish boshladi. Ustarani har bir tortganda boshimdan arra yurgizayot-ganday, o'mimdan irg'ib-irg'ib tushar edim. Usta: "Qanday besabr bolasan, jim o'tir!" — deb koyib qo'yar edi. Boshimdan bir-ikki joyini qirqib ham oldi shekilli, paxta yopishtirib borar edi.

Soch oldirish qiyomiga yetganda sarrochlik — egar-jabduq rastasi tomonidan qiyg'os to'polon ovoz ko'tarilib qoldi. Butun olomon o'sha tomonga yugurib keta boshladi. Men ham lungini irg'itib o'rnimdan qo'zg'aldim. Usta barimdan ushlab:

— Pulimni berib ket, bu yer Salmon pokning dastgohlari, u kishini aldab bo'lmaydi, bolam, kal bo'lish, boshga moyxo'rak toshish, temiro'tki — hammasi Salmon pokning haqlarini yegan-liqdan bo'ladi, — dedi.

— Ustara, qayroq, lungining iflosligidan emasmi? — dedim.

— Til tekkizma, shum bola!

Sartaroshning haqi — bir paqirni berib, shosha-pisha olomon ketidan sarrochlik tomonga yugurdim. Bir tomoni sarrochlik, bir tomoni sahhob — kitob bozor, bir tomoni vofurushlik — oyoq kiyim bozori, bir tomoni nog'ora bozor, bir tomoni pichoqchilik, namat bozor, jiqqamusht olomon bilan to'lgan edi. Odamlarning biqini tagidan, oraliqlardan o'tib, yakka chorbozorning o'rtasidagi yalanglikka sirg'alib borar edim. Bozor o'rtasidan o'tadigan jang-goh suvining ko'prigi ustiga kelganimda:

“Olib chiqishdi, olib chiqishdi, ana badbaxt Hoji, qo'shmachi Hoji!” — deb baqirgan ovozlar eshitila boshladi. Ko'zim nog'ora bozorining dahanasiga tushdi. U yerda qo'sh tavaqali, ko'k moyga bo'yalgan bag'dodiy eshikdan bir necha norg'ul yigitlar xipchadan kelgan xushsurat fo'rum, qora soqol-mo'ylovli, Xitoy jujunidan beshmat kamzul kiygan, beliga pushtirang shoyidan belbog' bog'lagan, soatining tilla zanjiri ko'kragining o'ngidan chapga qarab salqa osilgan, amirkon mahsi-kavushli, chamandagul do'ppili qirq yoshlardagi bir kishini sudrab chiqar edi.

Hovli o'z zamonasining mashhur yallachilaridan bo'lgan Oysha yallachining hovlisi bo'lib, bu fo'rum kishi uning eri — Rahmat hoji edi. Xalq uni “qo'shmachilikda” ayblab olomon qilib o'ldirmoqchi edi. Sudrab chiqqan yigitlardan to'rttasi uni chalpak qilib ko'tardilar. Keyin siltab-siltab tortib, nog'ora bozorining oqovadan botqoqlangan ko'chasiga bir qop dondek irg'itib ot-dilar. Hoji yerga juda zarb bilan tushgan bo'lishiga qaramasdan, o'rnidan qo'zg'alib tura oldi. Olomonga o'ng qo'lini ko'tarib:

— Hoy, musulmonlar, hoy, xaloyiq! — deya oldi, xolos.

O'ttiz yoshlar chamasidagi qora to'ridan kelgan yag'rindor bir qassob yigit kela bir kalla urib, orqasiga charxpalak qilib yiqitdi. “Ur, nomard qo'shmachini!” degan ovoz hammayoqdan ko'tarildi.

Olomon Hojining oyog'ini sudrab chorrahaning o'ttasidagi maydonga olib tushdi. G'azabga kelgan xaloyiqni hech qanday qudrat to'xtata olmas edi. Hojiiga qo'li yeta olgan yoki yeta olmagan har bir musulmon ishqilib biror musht urishnimi, biror marta tepishnimi, savob deb bilar edi. Arining iniga cho'p suqqanday chuvvos to'polon ichida hech kim hech kimni tanimas edi. Hammaning diqqati o'ttada yotgan Hojining o'laksasida edi.

Hojining butun kiyim-boshlari loyga, qon-qushga belanib ketgan, poshnali etiklarning zarbidan o'yilgan ko'zlar, ezilib ketgan jag'lari tanib bo'lmas holga kelgan, badanida sog' joyi qolmagan, jonini allaqachon haqqa topshirib, bir xalta go'shtga aylangan edi. Shunday bo'lsa ham olomonning g'azabi hali taskin topmagan, urish davom qilar edi.

Mochalovning yayov, otliq mirshablari atrof-atrofdan kelib xalqni tarqatmoqchi, hushtaklar chalib tartibga chaqirmoqchi, os-monga o'q uzib xaloyiqni cho'chitmoqchi bo'lsa ham befoyda edi.

Yarim soatdan mo'lroq vaqt o'tgandan keyin xaloyiq o'z-o'zidan tarqala boshladi. Unda-bunda qolgan to'p-to'p odamlar bir-birlaridan o'smoqchilab, hech gapdan xabarları yo'qday:

— O'zi nima gap, kimni olomon qilishdi? — deb surishtirgan bo'lar edilar.

Vaholanki, tekshirib ko'rganda, birinchi mushtni urgan kishi shularning o'zi bo'lib chiqar edi. Asli voqeа bunday bo'lgan ekan: Rahmat hoji shu yil yozda Farg'onaga sayohatga boribdi. Hammaga u o'zini boy kishi deb tanishtiribdi, uylanmoqchi bo'lganligini arz qilibdi. Shunda uni marg'ilonlik bir kosibning Latifaxon degan, eri o'lgan qiziga uylantirib qo'yishibdi. Bir necha kun Marg'ilonda turgandan keyin xotinini ko'ch-ko'roni bilan Toshkentga olib kelibdi. Latifaxonni o'z uyiga olib bormasdan ilgari katta xotini Oysha yallachiga yalinib-yolborib:

— Jon xotin, yigitchilik, bir ahmoqlik qilib shu ishni qilarga qilib qo'ydim, besh-olti kun orzuyim qonguncha turganimdan keyin yaxshilik bilan yurtiga jo'natib yuboraman.

Ungacha sen mening "singlim" bo'lib tur, meni sharmanda qilma, undan keyin to o'Igunimcha bir iting bo'lib xizmatingni qilishga tayyorman. Mayli, ulgurjiroq pul topsang, ikkinchi borishda

seni ham hajga olib boraman. Dunyolarni tomosha qilib, gunohlarimizdan pok bo'lib qaytamiz. Jon xotin, sharmanda qilma, oyoq yuvgan suvingga choy qaynatib bersang ham ichaman, — deb iltijo qilibdi. Oysha yallachi bu so'zlarga po'k uchib, "xo'p", deb qo'ya qolibdi. Keyin Rahmat hoji marg'ilonlik xotinini uyiga yetaklab olib kelibdi. Bu yerda ham kichkina bir ma'lum osh qilib beribdi. Oradan kunlar o'tibdi, oylar o'tibdi. "Yangi yorni ko'rganda, eskidan kechmoq kerak", deganlaridek, Oysha yallachiga qиyo qaramay qo'yibdi. Hatto Latifaxonning oldida uni kamsitib, har xil iflos xizmatlarni ham buyuradigan bo'lib qolibdi.

Bu muomalalar, albatta, sekin-sekin Oysha yallachining sabr-kosasini to'ldira boribdi. Kunlardan bir kun eri Rahmat hoji uyda yo'g'ida u Latifaxonni oldiga chaqirib:

— Menga bir oz quloq bering, Oyimposhsha, siz o'zingiz shunday soddamisiz yoki marg'ilonliklarning hammasi shunday sodda bo'ladimi? Kelganingizga uch oydan oshdi, hali ham hech baloni sezganingiz yo'qmi? Hoji akangiz mening akam emas, mening erim bo'ladi, siz menga kelinoyi emas, kundosh bo'lasiz. Bu uyning butun ro'zg'or xarajati mening yelkamda, eringizni boyvachcha qilib quturtirib qo'yan ham men bo'laman. Men Toshkanning dong'i chiqqan yallachisiman. To'ylarda, hashamlarda shogirdlarim Savri yallachi, Fotma yallachi, Risol yallachilar bilan birga borib tong azongacha o'ynab, yalla aytib, muqom qilib, xushomadgo'ylarga o'ziga yarashuv javob berib, boyvachchaga boyvachcha qiliq, kosibbachaga kosibcha qiliq ko'rsatib, yuzimizni yerga surib tilanganday bo'lib besh so'm-o'n so'm orttirib kelaman. Ana shu yallachilikning pulidan erginamiz Rahmat hoji bunchalik errayim bo'lib yuribdi. Nahotki shuni sezmagan bo'lsangiz.

"Sheriklik oshni it ichmas", deganlar, aylanay, poshshaxon. Men-ku ersirab ketayotganim yo'q. Agar istasam, qadamimda yuztasi topiladi. Ne-ne dang'illama mehmonxonalar Oyshaxonga muntazir. Peshonam-u ikki betim, engakim yopishtiriladirgan o'n so'mlik tillolarga to'lib ketadi¹.

¹ To'y-bazmlarda yallachilarning beti, yuziga boylar oltin tanga yopish-tirib, "mukofot"lar edilar.

Bitga qiyg'ir bo'yin qilish bilan osmondag'i qushni ovlayman. Mening uchun gap pulda ham emas. Erda ham emas. Siz yosh ekansiz, sizga rahmim kelyapti. Gapingizga qaraganda hamiyatl, himoyatli, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan musulmon bir kosibning qizi ekansiz. Hoji sizni harom qilmoqchi. Hoji sizni Toshkanning katta puldor boyvachchalariga qo'shamoqchi. Bir kechalingiz uchun u ellik so'm oladimi, yuz so'm oladimi — uning ishi. O'zingiz marg'ilonliksiz, Farg'onadagi soy bo'yini bilsangiz kerak. Sizni ham Hoji akangiz "soy bo'yi" qizlariga aylantirib qo'ymoqchi. Hushyor bo'ling, Latifaxon, oppoqqinam. Yana ixtiyor o'zingizda, — debdi.

Oysha yallachining bu so'zlarini Latifaxon hang-mang bo'lib tinglabdi. Yuzlari bo'zday oqarib, yupqa lablari titrab ketibdi.

So'z tamom bo'lishi bilan u kar qilingan bedanaday dovdirab, o'rnidan turibdi. O'z uyiga kirib yarim soatlardan keyin boshida paranji, qo'lting'ida bo'xcha bilan chiqib kelibdi:

— Rahmat, Oysha opa, aqlimni kirgizdingiz, ko'r ekanman, man endi Marg'ilonga ketaman. Nimaiki qilgan bo'lsam, bilib o'tgan, bilmay o'tgan gunohlarim uchun kechiring. Men yurtim — Marg'ilonga ketdim.

Ikkalalari o'pishib, quchoqlashib, ko'z yoshi qilib xayrlashishibdi. Oradan besh-olti minut o'tar-o'tmas Rahmat hoji uyga qaytib keladi. Latifani topolmay, Oyshadan so'raydi.

— Latifa qani?

— Latifa seni tashlab Marg'ilonga ketdi. O'sha yerdan turib sendan taloq xati so'rар ekan. Men kundosh bilan turolmayman, — debdi Oysha yallachi.

— Sen ayтиб qo'yanmiding?

— Men-ku, aytganim yo'q. Ammo el og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Mingta odam kirib chiqadigan eshigimiz bor, bittasi emas-bittasi aytgandir.

— Ish rasvo bo'libdi. Ketganiga qancha bo'ldi?

— Besh minut ham bo'lgani yo'q. Hali ham ildam yursang, orqasidan yetib olasan. Marg'ilon paranjilik, qo'lting'ida bo'xchilik xotin o'tdimi, deb so'rasang, hamma ayтиб beradi.

Hoji hech qayoqqa qaramasdan alpong-talpong ko'chaga chiqib ketibdi. U surishtira-surishtira qassob bozorning etagida Latifaxonning orqasidan yetibdi.

- To'xta, Latifa!
- To'xtamayman, qo'shmachi!
- Nima deyapsan, manjalaqi?
- Qo'shmachi deyapman. Ming la'nat Hoji degan ismingga, sho'rlik peshonam qursin. Dod! Musulmonlar!!

Bular san-manga borib qolishibdi. O'tkinchilar, qassoblar bularni o'rab olishibdi. Ishning chatoqligini payqagan Hoji uyg'a qarab qochibdi. O'rtada qolgan Latifaxon voqeani to'plangan kishilarga oqizmay-tomizmay hikoya qilib beribdi.

Bir yildan oshiq oxiri ko'rinnagan urushning kundalik va himasidan asabiylashib qolgan xaloyiqqa bahona topilgan edi. Olomonga olomon qo'shildi. Rasta-yu bozor odamlarga liq to'ldi. Oysha yallachining uyidan Rahmat hojini olib chiqib olomon qilingani yuqorida bayon qilib o'tildi. Mirshablar Hojinining o'ligini mayiz saroyga olib kirib, ustiga bo'yra tashlab qo'ydilar. Politsiya boshlig'i Mochalov va uning yugurdaklari qancha izg'isalar ham Rahmat hojining aniq qotilini, biror guvohini topolmadilar.

Latifaxon qayerga ketdi, uni ham bilmas edilar.

* * *

Kun namozgarga yaqinlashib qolgani uchun bozor-rastalarda odam siyraklashib qolgan. Men ham Hoji boboning buyrug'ini bajarib bir qadoq emas, bir qadog'-u chorak yaxshi sham, bir miriga hindi sarrofga atab tolqon nos oldim. Yana o'sha yerdagi g'arib-g'urabolarga mendan bozorlik bo'lzin uchun uch paqirga yarim qadoq pashmak holva olib, takyaga qarab keta boshladim.

Xuddi tandir bozorning og'zi, Badalmat dumaning hammomi-ga kelganda ro'paramdan Rasulmat g'o'zafurushniig o'g'li, o'z mahallam, qadrdon do'stim Turobboy chiqib qoldi.

— Ha-ha-ha, — deb quchoqlashib ketdi. — Voy-bo'y, tirikmisan, xumpar, Toshkentga qachon kelding? Onang bechora sani o'ldi deb aza ochmoqchi bo'lib turuvdi. Shunaqa mehring qattiq bolamisan?

— Gaplaring to'ppa-to'g'ri, o'rtoq, lekin ust-boshimni ko'rib turibsan. Shu ahvolda qanday qilib uyga kirib boraman. Kelganimga bir haftacha bo'ldi (yolg'onni Xudoning o'zi kechirsin). Xo'jayinim qo'li ochiq, saxiy odam ko'rindi. Yana biror haftalarning ichida ust-boshlarimni tuzatib ololsam, uch-to'rt tanga pul orttisam, ukalarimga uni-buni olib borsam, deyman. Lekin sendan bitta iltimosim shuki, meni ko'rib qolganining hech kimga aytib yurmia. Kelgusi haftaga, albatta, o'zim boraman, jon o'rtoq. Onam, ukalarimning ahvoli qalay? Mahallada nima yangiliklar bor?

— Onang, ukalaring yaxshi, — dedi Turobbox, — tog'ang qarashib turibdi. Mahallada nima ham yangi gap bo'lar edi. Salimboy so'fi otaning erkak echkisi tug'di. Husnibiy laxtakfurushlikdan sindi. Machitdag'i olacha joynamozni o'g'irlashib ketishdi. Ko'p odamlar: "Ismat devonaning choponi shundan", deb o'ylashyapti. Ziyod ota ko'r bo'lib qoldi. Laparining yoniga yana lapar qo'shildi.

*Xom terini iylasang ulton bo'lur,
Nafsiyi tiygan kishi sulton bo'lur.*

Shunga o'xshagan bo'lar-bo'lmas gaplar-da, og'ayni. Damning ishlari yaxshi. G'o'zaning narxi oshib ketgan. Bir kalla kunjara ikki tangaga chiqdi. Qolgan gaplarni mahallaga borganda eshitasan. Bir hafta kutaman, mayli. Kelar shu bugun mahallaga bormasang, ko'rganimni hammaga aytib yuboraman. Eng avval oyingga, undan keyin o'rtoqlarga aytib sharmandangni chiqaraman. Darvoqe, xo'jayining kim, nima ish qiladi?

- Uni hozir aytmayman.
- Bachcha tushdingmi?
- Tur-ey, otangning go'riga... O'zing bachcha bo'la qol, qoshko'zing kelishgan. Dorbozga shogird tushdim.
- Dorbozga shogird tushgan bo'lsang, duxoba shiming yo'q-ku.
- Ikkalamiz xaxolashib kulishdik.
- Aytgandek, Omon qayoqda? — deb so'radim.
- Ikki oycha burun bir ahvolda bo'lib qaytib kelgan edi. U kelib sening to'g'ringda toza ham bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirdi. Baribir, hech kim ishongani yo'q, "Xudo ursin, kalomullo ursin",

deb qasam ichsa ham ishonmadik. Hozir uning ishi yirik. Abdulla qoraqoshga shogird tushgan, uyiga suv tashib, ot boqib yuribdi. Oyog'ida Abdulla akam bergen eski xrom etik, belida salloti kamar. Piyonbozorga, xo'jayinining oldiga osh ham olib borib turadi. O'rischa so'kishlarni o'rganib olgan. Dadasi Tursunboy akaning do'konni bosib qolgan edi, yigit-yalanglar hashar qilishib, tuzatishib berdik.

— Yaxshi, yaxshi. Qolganini o'zim borganimda bilib olarman. Hozir shoshib turibman, — dedim.

Qo'ltig'imdag'i bedanani olib Turobboyga uzatdim.

— Ma, o'rtoq, mana buni to'r qovoqqa tashlab qo'y, juda o'tkir sayroqi chiqadi. Tumshug'ini qara, parini qara, marjonini qara.

Turobboy bedanani qo'liga olib qulog'iga guvillagan bo'ldi. Yana bir marta tekshirib ko'rib:

— Iye, buning makiyon-ku! — dedi.

— Shuncha dalada yurib makiyon bilan tullakni men ajratmay, sen ajrataсанми, ablah! — dedim, lekin qo'nglimda shubha bor edi.

O'tkinchi bir yigitni to'xtatib:

— Mulla aka, shuni ko'rib bering, shundan sayroqi chiqadimi, yo'qmi? — dedik.

U yigit bedanani qo'liga olib ko'rdi:

— Ha, buning bolalaridan sayroqi chiqsa chiqar, lekin o'zidan chiqmaydi, — dedi.

Demak, makiyon ekan. Sirni boy bermay, Turobboyga:

— Bo'pti, olib ketaver, oshga bosarsan, — dedim.

Turobboy makiyonni qo'yniga soldi. Xayrlashib ajralishdik.

Hoji bobo, unga iqtido qilib turgan giyohvandlar namoz asr o'qib turganlarida takyaga kirib bordim. Darrov shamni, holvani, nosvoyni, anorni bir chekkaga qo'yib, chilimning suvini yangilab, sarxonasini tozaladim. Samovar, choynaklarni artib, kurakcha bilan kullarini olib chelakka soldim, yelkamda sochiq, qo'limda supurgi, hech nima ko'rmaganday, xizmatda qoim turganimda namoz tamom bo'ldi. Hoji bobo:

— Ha, yetim toylog'im, qaysi go'rlarda besar-u somon yo'-qolib ketding. Yetimning otasi ko'p, deganlar. Ha, shunaqa. Bitta-

yarimta ota topilib qoldimi? Hu, muloyim shupurgi bo'lmay, germonning o'qiga uchib ket!

- Zovol vaqtida qarg'amang! — dedi giyohvandlardan bittasi.
- O'zboshimcha-da, o'zboshimcha! — dedi Hoji bobo.
- Xo'sh, bozorda nima alomat-qiyomatlarni ko'rding?
- Oysha yallachining eri Rahmat hojini xaloyiq olomon qilib o'ldirib yubordi, Hoji bobo, — dedim.

— Iye! — dedi Hoji bobo. — O'zi ham ko'zga yaqin, xushro'y besoqollardan edi. Hay, mayli, Xudo rahmat qilsin. Xalq olomon qilgan bo'lsa, "shahidi a'lo" qatorida ketadi. Bundaylarga do'zax o'ti harom, hm... shunaqa.

— Qani, batafsilroq gapirib ber-chi? Iye, sochingni ham oldiribsan. Eron podshosi Ahmadali kal podshoga o'xshab qolibsan. Suratini ko'rghanman. Xo'sh, gapir!

Men bittaga o'nta qo'shib, tamom vahima aralash olomon voqeasini so'zlab berdim. Mening gapimda yarim poshsho Eski shaharga ikki lak askar tushirdi. Yetmish bir marta xaloyiqqa qarab o'q otildi, degan gaplar ham bor edi. To'qqizta xotin bolasini chala tashladi. Ko'kaldosh madrasasining bitta mezanasini qiy-shayib qoldi, sarrochlikni Mochalovning mirshablari taladi. Xotin hammomda cho'milayotgan xotinlar hammasi dodlab ko'chaga yalang'och chiqdi, degan gaplar ham bor edi. Bir soatdan mo'iroq gapirdim.

Shu hikoya sabab bo'ldi-yu, Hoji bobo mening gunohimni unutib yubordi. Hikoya vaqtida sekin-sekin kechki kayf uchun yig'ilgan taryokiylar o'n-o'n ikki kishiga borgan edi. Hindi sarrof namoz asrdan sal o'tar-o'tmas saroydan qaytgan edi. Bugun uning chehrasi ochiq. Mening hikoyalarimni tushunsa-tushunmasa, "moshoollo-moshoollo", deb eshitib o'tirar edi. Bir necha taryokiylar mening hikoyalarimdan o'zlaridan ketay deb qoldilar, ba'zilari hozirgina yegan afyunlari eslarida yo'q, yana ustama afyun yeb oldilar. Keluvchilarning ba'zilari olomon voqeasidan xabardor ham edilar. Ular ham mening gapimni tasdiqlab, yoniga qo'shimcha qilar edilar.

Ko'knorilar jamoatchiligi aybni goh yallachiga, goh Rahmat hojining o'ziga, goh marg'ilonlik xotin Latifaxonga, goh betizgin,

bebosh olomonga, goh Mochalov va mirshablarning beparvoligiga qo'yar edilar.

— To'g'ri, — dedi qo'sh ko'zoynakli mulla usta Mirsalim, — ba'zan anglashilmovchiliklar ham bo'lib turadi. Chunki, o'tgan yili Zangi ota sayilida shunday bir voqeа bo'ldi: sumbulaning o'rtalari, juma kuni edi. Hazrati pirim Zangi otaning sayilgohiga Maymana-yu Maysaradan, Iroq-u Badaxshondan, Eron-u Turondan, Hindi-yu Rum, Chinimochindan, ya'ni jumlayi jahondan ziyoratchilar yig'ilgan, Toshkantimizning esa beshikdagи bolasigacha ko'chib chiqqan. Odam bolasi mo'rmalaxdek yer-ko'kni bosib ketgan.

Namoz jumaga azon aytilib qoldi. Odamlar katta xonaqohning sahnini va unga qo'shilgan atrof maydonlarni shamaloqdek egal-lab, namozga tayyorlanib turibdilar.

Hamma imomga iqtido qilib "ollohu akbar" deyilishi bilan namozdan kechikibroq qolgan bir banda oldingi safga o'tib keta turib o'rtaq safdagи bir tanishining kissasidan yarmidan ko'pi chiqib, tushib ketay deb turgan bo'z hamyoniga ko'zi tushib qoladi. Shu hamyonni mehribonchilik bilan kissasiga ichkariroq solib qo'ymoq uchun qo'l uradi. Buni qatorda turgan yana bir musulmon ko'rib qolib namozini buzib: "Dod, musulmonlar, xonaqohga kisavur oraladi", — deb baqiradi va haligi sho'rlikning yoqasiga yopishib muştlay boshlaydi. Machitdagи imom boshliq hamma musulmonlar ham namozlarini buzib, haligi parrixtani do'pposlай ketadilar.

"Hoy, hoy, to'xtang, o'zi nima gap", deganga qulq soladigan odam yo'q. Hash-pash deguncha o'laksa qilib, machitning sahniga olib chiqadilar, bu yerda ham ko'ziga qon to'lgan olomon sho'rlikni ura ketadi, o'ldirib xotirjam bo'lgandan keyin:

— O'zi nima gap, nima qildi, kim boshlab urdi, kim ushladi, kimning hamyon, — degan gaplar chiqaboshlaydi.

Keyin hamyon egasi o'rtaga chiqib:

— Birodarlar, bu mening do'stim edi, o'g'ri odam emas edi. Umenga mehribonlik qilmoqchi, osilib qolgan hamyonimni kissamga solib qo'ymoqchi bo'lgan edi, bechorada gunoh yo'q edi, — degani bilan bo'lar ish bo'lgan, endi foydasiz edi.

— Mana bu tikka jannatga boradi, — dedi Hoji bobo, — ha, shunaqa, beso'roq, beistoq jannatga tushib ketaveradi.

— Shariatimizdan aylanay, musulmonchiligidan aylanay, himoyatimizdan, hamiyatimizdan aylanay, olomondan aylanay. Ana shunday musulmon hamiyatlik olomon bo'lganda, hammamiz ham eshigimizni baralla ochib uxlay bersak bo'ladi. Birorta o'g'ri yoki qo'li egrining haddi bormikin, bir musulmonning mulkiga, nomusiga taaddi qilsa. Olomondan o'rgilay, — dedi giyohvandlardan bittasi, — yomonlar jazosini tortsin.

Eng oxiri hukm — zamonaning buzuqligidan, podshohlarning notinchligidan, fuqaroning buzilib, behayo bo'lib ketganligidan, or-nomus barbod bo'lib, xotinlar, yosh bolalar qo'ldan qo'lga mol bo'lib sotilayotganidan, xullas kalom, shariati Mustafoning oyoq-osti bo'lib, nazardan qolayotganligidan, oxirzamon yaqinlashib qolganligidan, hazrati Iso ko'kdan tushish vaqt kelasi haftaga qolganligidan, Xalifayi Rum tomonda Dobatul arz chiqqanligidan, Xitoy tomonda yakkako'zlik ya'juj-ma'jujlar xurujga kelganligidan, Eronning yarmini yer yutganligidan, o'zimizning Toshkentda, Tuproqqa'rg'ondan "bachajish" chiqqan ekanligiga kelib to'xtadi.

So'zni kelgan yerida to'xtatib, Hoji bobo imom bo'lgan holda namozshom o'qishga qo'zg'aldilar. Men ungacha choynaklarga achchiq qilib choyni damlab, manqaldonga terib qo'ydim. Chilimga tamaki bosdim, o'rtadagi chiroqni yoqdim. Katta patnisga har kimning o'z nasibasi bo'lgan bittadan obinon, ikki chaqmoqdan qand, bir kapdan qora mayiz qo'yib chiqdim. Namozshomdan keyin mijozlar o'z yerlariga tartib bilan o'tirdilar. Men har qaysilarining oldiga bir choynakdan choy, bittadan piyola, non, qand, mayizlarni qo'yib chiqdim. Hoji bobo har kishining o'z moyasiga yarasha qog'ozga o'ralgan "dori"sini qo'llariga berib chiqdi.

To'rtta ko'knorining oldiga bitta tog'orachada ustiga chit ro'mol yopilgan ezilgan ko'knorini olib kelib qo'ydi. Ularga bir patnisa non, mayiz, choy qo'yildi. Ulfatchilik boshlanib ketdi.

Bay-bay-bay, bularning giyohdan so'nggi xushchaqchaq suhbatlariga qulq solsangiz. Giyohdan ilgari bir-birovlariga to'ng'iz qarash qilib o'tirgan, Xudo urgan ziqna, bitta mayizning yarmini birovga ravo ko'rmaydigan, o'lganining kunidan erinib namoz o'qigan bu maxluqlar endi tamom ochilib ketganlar.

Bittasi xayolidagi bog'i bo'stonini maqtaydi, bittasi davlatini sanab hisobiga yetolmaydi, bir-birini uyiga taklif qilyapti: "Oyog' ingizning tagiga qo'y so'yaman", deydi. Bir-birlariga choy uzatishgan, non surib qo'yishgan, qora doridan pashsha qanotidayini uzib, bir-birlariga uzatishgan. Shunchalar mehribon, shunchalar xushmuomala, shunchalar muloyim bo'lib ketishganki, asti qo'yaversiz. Men poyi-piyoda xizmat qilib turibman. Tiq etgan choynak bejavob qolmaydi. O'sha zamoniyoq manqaldondan burunning qonidek quyuq Kuznetsov choylar yetkazilib turibdi. Menden, ayniqsa, hindi pochcham xursand.

— Moshoollo, bacham, moshoollo. Bisyor mammunam. Imro'z bozor bud, koram dushvor, hisobam notamom, ha maylash, pardo, yak qalyon (Bugun bozor edi, ishim qiyin bo'ldi, hisob qilolganim yo'q, ertaga qilarman, chilim keltir).

Sarxonaga uchta cho'g' qo'yib yaxshilab pishitdim. Bozordan keltirganim qog'ozga o'rog'liq nosni ham oldim.

— Mana, sohib, qalyon ham tayyor, se lahchayi guli nor.

— Borakallo, borakallo, bacham.

U chilimni "xurr-xurr" qilib chuqur-chuqur ikki-uch tortdi, o'zi ham zo'r, Qarshining tamakisi edi. Elitdi shekilli, rangi o'chib, ko'zini olaytirib, zo'rg'a:

— Ob biyor, ob biyor, — dedi.

Bir piyola muzdek suv olib kelib berdim. Qo'llari qaltirab bir-ikki qultum ichgan bo'ldi. Birpas tepasida turdim, o'ziga keldi. Qog'ozga o'rog'liq nosvoyni berdim:

— Ba shumo nosi Buxoriy ham biyovarda budam.

— Borakallo, bacham, borakallo!

U sarrof xaltasini kavlab, bitta yarim so'mlik so'lkavoy chiqarib berdi.

— In mukofot, az Hoji bobo pinhon kun.

— Xo'p.

Chilimni boshqalarga navbat bilan tutib chiqdim.

Ikki xo'roz qichqirungunga suhbat davom qildi. Hoji bobo do'konning izmini menga topshirib, ichkariga kirib ketdi. Giyohvanddar tarqaldi. Sarrof hindi bilan qo'sh ko'zoynakli mulla usta Mirsalim odati bo'yicha takyada yotib qolishdi. Men ham chiroqni

“puf” etib o‘chirib, o‘z joyimga cho‘zildim. Ertasi payshanba edi. Bugun juma oqshomi, keluvchilar ko‘p bo‘ladi. Barvaqt turib, katta samovarga olov tashlab yuborganman. Hammayoq supurilgan, sidirliglan — ozoda. Mulla usta Mirsalim bir burchakda yakka o‘zi bomdod namozini o‘qib oldi. Uzoq vaqt o‘tgan-ketganlarning, ota-onasining, endi o‘ladiganlarning arvohiga, shular orasida o‘zining ham arvohiga fotiha o‘qib bo‘lgandan keyin:

- Choying qurg‘ur qaynадими? — deb so‘radi.
- Jag‘illab qoldi.

Yangi obinon olib kelishga chiqish kerak edi. Hoji bobo dastgohni tashlab chiqib ketishga ijozat bermaydi. Usta Mirsalimni yuborishga andisha qilaman. Haytovur, Hoji boboning o‘zi chiqib qoldi.

- Nonga borganing yo‘qdir?
- Pul tashlab ketmabsiz-ku.
- Ha, shunaqa.

U yonchig‘ini kavlab, ikki tanga pul olib berdi.

— Orqa-o‘ngini qarab ol, kuygan, xomsiz bo‘lmasin. Ozgina ushatib yeb ham ko‘r, xamiri achigan bo‘lmasin. Nimani qo‘lingga tutqazsalar, ko‘zga urgandek ko‘tarib kelaverma. Salmoqlab ko‘r, cho‘g‘i og‘irrog‘idan ol. Urush bo‘lgani bilan, narx-navo oshgani bilan novvoyxonalarни yer yutib ketgani yo‘q.

Ro‘molchani yelkaga solib, novvoylikka qarab yugurdim. Tong azon bo‘lishiga qaramasdan, bir to‘da och ola-qura itlarni ergashtirib, eski Kappon tomonidan Mallajinni javrab kelar edi.

— Tuya bittangga — qani bittangga, tuya ming tanga — mana ming tanga.

U bitta laycha kuchukni “Poshshoxon” deb chaqirib:

— Hamma podsholardan o‘zing durustsan, hech kim bilan urushmaysan, urushgan bilan ishing yo‘q... — deb gapira ketdi.

Menga ko‘zi tushib qoldi.

— Hoy, bola, beri kel, “Poshshoxon”ning dumidan o‘p!

Malla devonaning qiliqlarini tomosha qilaman, deb ancha yo‘ldan qoldim.

Men non olib takyaga qaytib kelganimda Hoji bobo allaqachon qaynagan samovarning tagida uymalashib yurar, meni g‘ijinib kutar edi.

— Ha, haromi, non uchun To‘ytepaga borib kelyapsanmi, muncha hayallamasang? Obke!

Takyada xo‘randalar yetti-sakkiz kishiga yetib qolgan edi. Hammasing moyasiga yarasha yegulik-ichguligini ulashib chiqdik. Hamma kayfini qilib, choy ichishga ovora bo‘Igan vaqtida men sekin choy, qand turadigan qutichani olib, undan kecha olib kelgan pashmak holvani oldim, uchgaga bo‘ldim. Katta bir bo‘lagini Hoji boboning oldiga, bir bo‘lagini hindi sarrofning oldiga, bir bo‘lagini usta Mirsalimning oldiga qo‘ydim. Hoji boboning ko‘zi yarqirab ketdi.

— Buni qayerdan olding, bachchag‘ar? — dedi.

— O‘zingiz bergen juma pullarni yig‘ib yurgan edim, kecha olib keldim.

— Barakalla, odam bo‘lasan, bolam. Har bir narsani tejash, bu-guningni ertaga zaxira qilib qo‘yish yaxshi fazilat. Shunday qilgan odam tez boy bo‘lib ketadi. Ha, shunaqa, bor, biring o’n bo‘lsin.

Sarrof bilan usta Mirsalim ham g‘oyat mamnun bo‘ldilar.

Kunduzi odatdagicha o‘tdi. Ammo peshindan keyin namoz as-riga yaqin birin-ketin ko‘p tanish, notanish mijoz xo‘randalar yig‘i-lishdi. Ichlarida takyaga yangi kelgan kosibbachchalar ham bor edi. Bular solma osh qilib, bir chilim, yarim chilim takbas qilib ketuvchi yosh-yalanglar edi. Bular kelganda mening bozorim juda chaqqon bo‘lib ketar edi. Bular bir tiyin, ikki tiyin, besh tiyinning yuziga qaramay, choyga, nonga, o‘tinga, tuz, qalampirga ortiqcha pul to‘lab ketar edilar. Albatta, men ularmi o‘z cho‘ntagimga qayi-rib olar edim. Bundan tashqari, oshdan, sho‘rvadan qolgan ovqat-lardan “choyxonachi bolaga”, ya‘ni menga nasiba atar edilar.

Odmi kunlar bunday yog‘liq osh, yog‘liq sho‘rvalar menga qa-yerda edi? Shunday juma oqshomi va juma kunlari takyaning ha-qidan tashqari o‘z cho‘ntagimga bir so‘m, olti tangagacha ishlagan vaqtlarim bo‘lgan. Yigirmatalab qozon qaynagandan keyin, “bir kapdan bersa to‘yg‘izadi, bir mushtdan bersa o‘ldiradi”, degandek, to‘planib qolar ekan-da.

Bugun takyada yaxshi savdo bo‘lgan edi. Hoji boboning qo‘li-ga yigirma bir so‘m qirq tiyin naqd pul topshirdim. Hoji boboning og‘zi qulog‘ida. Xufton namozini o‘qib bo‘lganlardan keyin ham

takyada yetti-sakkiz chog'li odam qolgan edi. Hoji bobo juda ye-chilib ketdi. Kecha men olib kelgan shamlardan to'rttasini to'rt burchakka yoqib, har qaysisining tagida bir kalimadan Qur'on o'qilgan. Bir chekkada mulla usta Mirsalim qo'sh ko'zoynagini burnining ustiga qo'ndirib, kir, burama bolish ustiga "Langnomayi Abu Muslimi sohibqiron" degan mo'tabar bir kitobi jo'yib ol-gan. Gumburlatib o'qib turibdi. Qolgan giyohvanddar uni davra olib Abu Muslimning qahramonliklari to'g'risidagi vahimalarni tinglamoqdalar. Tasannolar, ofarinlar aytmoqdalar. O'qish davom etardi:

"Alqissa, andin keyin Maymana tomondan, Ko'hi daman etokidan gard paydo bo'ldi. Gard arosidan yetmish ikki parokolayı alam, nishonayi yetmish ikki ming bayroqdoi jarrojar, hammalari haft jo'sh po'sh erdi va Maysara tomondan hazrati sohibqironi Abu Muslimi Xurosoniyning pahlavoni gardan koshonlari misoli saddi Iskandardek saf bog'lab turar erdilar. Hazrati sohibqironning oltin chopqon Zumrad taxtlari uzra livoiy Muhammadiy — bayroq Xurosoniy parvarafshon bo'lib turar erdi.

Niqobdor yog'iylar safidan bir haft jo'sh kiygan pahlavon arg'umoqqa mahmiz berib maydonga javlon urib kirdi. Otining tuyag'i chachag'igacha yerga botar erdi. Yetmish ikki botmonlik gurziyi-garmonini boshidan charx urib aylantirib niqobni yuzidan darbar aylab aytdikim:

— Ey Abu Muslimi go'solaparast, ey biyoboni Xurosoniy, bilsang bilgil, bilmasang mendurman Nasri Sayyori beorkim, bugun bu ma'rakayi jangda dimog'ingdan dimor chiqargaymen.

Va hazrati Abu Muslim ham g'ayratlariga chiday olmay, Ko'h-tog' ismli bo'z otlariga suvora bo'lib, ul mal'unning saddi rohini to'sdilar. G'azablaridan har bitta mo'ylari kiyimlaridan nishtari obdorday teshib chiqib ketgan erdi.

Kela Nasri Sayyorning kamar bandidan "Yo Ali" deb azot ko'tarib, muborak boshlaridan yetti marotaba aylantirib-aylantirib osmonga otdilar. Ul noplakning vujudi bir osh pishgunga qadar ko'zdan g'oyib bo'lib ketdi. Ba'daz muborak qo'llarini ko'kka qilib tutib oldilar. Yerga omon qo'ydilar va dedilarkim: "Ey Nasri Sayyor, minba'd Xurosoniylar sha'niga bunday beodoblik

qilmagaysan". Nasri Sayyor u janobning rikoblarini o'pib, tavba-tazarrular qildi va imon keltirdi".

Xullasi, bu jangnoma shu xildagi vahima gaplar bilan to'la edi. Ammo eshituvchilar bu vahimalarni g'oyat hayajon bilan tinglar edilar. Hikoyat ushbu yerda to'xtaganda Tikonlimozor mahallalik Ahmadali so'fi ko'z yoshlarini artib:

— Kiroyi mardonalik bu bo'libdur. "Mard maydonda" degani bu bo'lur. Hozirgi zamonning urushlari maxzi nomardlik. Bexos-dan turgan kishini miltiq bilan otmoq, tinch aholining xonadoniga to'p qo'ymoq, osmonga xayripilon chiqarmoq — bularning bari nomardlik — bu kofirming ishi, — dedi.

Bu gaplarni hamma "balli-ballı", deb tasdiqladi. Hindi sarrof ham "moshoollo, moshoollo", deb ma'qulladi.

Nima desangiz deng, bu yerda yana oylab turib qolish meni zeriktirar edi. Ufq ko'k gumbazi bilan o'pishgan yam-yashil qirlarda bo'kalakli buzoqdek shataloq otib yurgan bir bola kelib-ke-lib xumga qamalgan yumronday bo'lib qolsa, albatta, zerikadi-da. Bundan tashqari, bironta tengquring bo'lmasa, sirdoshing bo'lmasa, eshitadigan gaplar sarrof hindining abosi — kiyimiday bo'yi boshingdan bir gaz oshiq gaplar.

Zerikar edim, ermaklar qidirar edim. Hoji boboning kuzakda saqlagan tullaklari kech kuzak "chuchut" chiqarib qoldi.

Hoji do'ppili Sulton puchuq takyada boqib yurgan kaklik g'id-g'idlay boshladи, biroq bu jonivorlar ham menga o'xshash birisi oq Taytay tog'ning baland yonbag'ridan, ikkinchisi Qo'ng'iroq tepaning quyuq pichanzorlaridan ajralgan tutqunlar bo'lib, ermaklikka uzoq chidash berolmas edilar. Menga esa hech kutilmaganda to'satdan bo'ladigan hodisalar, chunonchi: mo'rchaning qozoni yorilib, bir-ikki kishi o'lqanday olam hodis voqealar, ajoyibxonaning yo'lbarsi bo'shab ketib, attorliqdagi Vali hoji akaga chovut solganday sarguzashtlar, hech bo'lmasa Hindiston changalzorlaridagi sayohatlar, arslon bilan olishuv, qirq ko'zli ilonlarning bo'ynini chopib tashlash, o'rgatilgan yovvoyi odam, karkidon-timsohlarni minib yurish — mana shunaqangi favqulodda voqealar yoqar edi. Bu yerda nima bor: tong azondan ikki tovuq o'tguncha pinakka borgan, musichadan ham xarob

giyohvandlar, ularning o'zaro ming'ir-sing'ir, poyma-poy, tasavvurdan uzoq hikoyalari. Tag'in ham o'z toqatimga o'zim hayron qolaman. Nima qilib yuribman? Bu yerdan tezroq siljishga mo'ljal qilib qoldim. Ammo ikki narsa ko'nglimda "hali vaqt erta" deganday bo'lar edi. Birinchidan, Hindiston sayohatiga yetguday pul jamg'arganim yo'q. Haligacha hindi sarrofning saxovatidan, Hoji boboning qo'li ochiqligidan, oshxo'r kosib boyvachchalarining muruvvatidan, uncha-muncha yanglish hisob bilan urib qolganlarimdan yiqqanim uchta besh so'mlik, bitta o'n so'mlik tilla, ikkita so'lkavoy, qolganlari tanga, chaqalardan iborat. Men pulim bir me'yorga yetib, tillaga alishsa bo'ladigan darajaga yetganda hindi sarrofga topshirib yiriklashtirib olar edim. Bu siri u bilar edi, men bilar edim, Xudo bilar edi. Jamuljami yigirma yetti so'm ikki tanga pul edi. Oltinlarimni yaktak ko'ylagimning yoqa bahyasining orasiga tiqib yashirganman. Qolganlarini Hoji boboning sopol tupdonaiga solib, takyadan ellik qadamcha nari — ariq labidagi qari tol tagiga ko'mganman. Hammasi ham peshona teri.

Ikkinchidan, Hoji bobodan javob so'rasam, jo'nlikcha bo'shatib yubormaydi, chunki xizmatlarim unga yoqib qolgan, qo'lini sovuq suvga urdirmay qo'yganman. Binobarin, birorta qilgilik qilib haydalishim kerak. Men haligacha cho'l qurbaqaday yuvosh. Hoji boboning ijozatisiz o'z kavagimdan boshimni chiqarganim yo'q.

Bu haftani miyam pishmagan rejalar bilan band bo'lgani uchunmi yoki ma'yuslik, yetimlik, uyimni, oshna-og'aynilarimni sog'inganim uchunmi juda yuvosh, mute va farmonbardor o'tkazdim. Har galgidek sho'x-shatir "shum bola" bu yerda yo'q edi. Bu holatimdan Hoji bobo anchagina tashvishga ham tushdi shekilli, hindi bo'lsa, undan beshbattar.

Seshanba kuni Hoji bobo meni mehribonchilik bilan chaqirib:

— Bolam, bu gap-ku ikkovimizning o'rtamizda qolsin, tag'in xudo urib anavi "qora"si qurg'urdan totinib-potinib yurganining yo'qmi? — dedi.

— Qorasini masi?

— Biz yeydigan "qoraxon" bor-ku, o'shani aytyapman.

— O'zim giyohvndlarning ahvolini ko'rib yuribman, Hoji bobo, men bu zaharni og'zimga olmayman, tepamda Xudo bor.

- Barakalla, bolam, ha, shunaqa bo'lsin.
Hoji bobo yelkasidagi ro'mol bilan ko'zini artib, yonchig'ini kavlab shapaloqday bitta bir so'mlikni qo'limga tutqazdi.
- Bu ertaga bozorli puling, juda xursand qilding, bolam, tashvishda edim, tag'in birovning to'tidek bolasini nobud qilib qo'ydimmi, deb qo'rqqan edim.
- Pulni yonchiqqa yashira turib:
- Bu tomondan xavotir olmang, — deb qo'ydim.
- O'ynab-kulib, taralangni tortib yuraver. Senga "churq" eta-diganning boshi o'nta.
- Kechagi kayf-suhbatlardan keyin sarrof hindi ham Hoji bobo singari mehribonchilik bilan yoniga chaqirdi:
- Injo biyo, bacham, chi tavr hasti, bemor nesti? (Beri kel, bolam, ahvoling qalay, kasal emasmisan?)
- Shukr, sog'man.
- Ba chi parishon menamoyi? (Nega parishon ko'rinasan?)
- Bo taraddudi sayohati Hindiston parishonam (Hindistonga sayohat qilish taraddudi bilan parishonman), — deb hazil-lashdim.
- Har ikkalamiz kulishdik.
- Moshoollo, safari Hindiston dori? (Hindistonga safar qil-moqchimisan?)
- Ha, shunday.
- Safar bo mashaqqat. Hindiston dur ast (Hindiston uzoq yo'l, qiyin).
- Himmattim baland.
- Ofarin, moshoollo.
- Hindining ham himmati tutib ketib, sarrof xaltadan bitta besh so'mlik tilla olib berdi.
- Gir, gir, bacham. Men oila va bacha nadoramki, davlati maro sarf kunand, haq taolo sadaqaro do'st dorad (Mana buni ol, bolam, mening oila, bola-chaqam yo'qli, shunchalik davlatimni xarajat qilishsa, Xudo sadaqani yaxshi ko'radi).
- Bugun o'ng yonboshim bilan turgan ekanman, olti so'mlik bo'lib qoldim. Yuvoshlikning, ma'yuslikning foydasi shunchalik katta ekanligini bilganimda boshdan shunaqa qilar edim. Yarim

oqshomgacha o'zimdan-o'zim ishshayib, ichimda davlatlarimni sanab, quvonib xizmat qildim.

Chorshanba kuni erta bilan Hoji bobo qo'limga ikki tanga berib:

— Bolam, g'ir etib borib, non olib kelib ber, xumlarga suv to'l-dirib qo'y, bedanalarning donidan, suvidan xabar ol. Keyin senga javob, bozorni tomosha qilib, o'ynab, ta'bing xohlaganda qaytib kel. Lekin kechga qolma, bolam. Yomon ko'p, zamon yomon.

Pulni olib, yugurib borib non olib kelib berdim. Xizmatlariни bajo keltirdim. Hoji bobo qistab qo'ymadi, birga o'tirib choy ichishdik. Keyin bozorga qarab ravona bo'ldim.

Xasti Ukkoshaning tagida qaymoq bozor bo'Iguvchi edi. Biror tovoq qaymoq olib, bitta obinon bilan yeb olish havas bo'lib qoldi. Qaymoq bozorga kirib u kosadan yalab ko'rib "achchiq" deb, bu kosadan yalab ko'rib "suyuq" deb yursam, bir burchakda ikki xurma qatig'ini yerga qo'yib mahalladagi og'aynilarimdan tegirmonchi Abdulla vavag'ning ukasi, Ibrohim polvonning o'g'li Ubay o'tiribdi. Tura quchoqlashib ko'rishib ketdik. O'tgan chorshanba Turroboy bilan bo'lgan suhbatdan, ming xil so'roq-istiklardan keyin, yolg'on-yashiq gaplar bilan qutuldim. Endigi masalaga o'tdik.

Men qaymoqni yeb bo'Iguncha u qatiqni sotadigan bo'ldi. Keyin ko'mir saroyga tushib tomosha qiladigan bo'ldik. Morojniy yeymiz, baliq yeymiz. Yupatovning ot o'ziniga kiramiz. Kajavaga tushamiz. Durbin surat ko'ramiz. Yalla qilib o'ynaydigan bo'ldik.

Ubay qatiqning pulidan ishlatmaydigan bo'ldi. O'zida uch miri bor ekan. Qatiqni arzon-garovga sotib, tag'in pulni ishlatib qo'ysa, kelinoyisidan baloga qolar ekan. Yetmaganini men qo'shadigan bo'ldim. Besh tiyinga yarim qaymoqdon qaymoq, ikki tiyinga bitta obinon olib, bir chekkada cho'nqayib qaymoq yeya boshladim. Ubay ham qatiqlarning ikki xurmasini bittangaga sotib yubordi. Katta pul. Yonimga kelib, qolgan qaymoqni u ham yeishidi.

Chorsuning og'ziga chiqib Ubayning xurmalarini Qoraboy qassobning do'koniga qo'yidik. O'zimiz tushovi yechilgan toychoqlarday ozod edik. Bugun bozor kuni. Vaqt choshgohga ya-qinlashib qolgan. Ko'chalar g'oyatda gavjum edi. Ko'mir saroyga kiraverishda somon, saksovul, ko'mir ortilgan tuyalar qator bo'lib,

bo'yinlarida jarang-jurung qo'ng'iroqlari bilan yo'lni to'sib turar edi. Tuyalarning buti orasidan o'tib, ba'zilarini cho'chitib, mahkama ariqning ko'prigi ustiga keldik. Bir tomonda olam-jahonni tutatib, bir iflos oshxonada baliq qovurar edilar. Kir stol ustida Sirdaryoning beldan yo'g'on laqqa balig'i cho'zilib yetibdi. Suzma xaltaday ochiq ko'zlarini pashsha talab yetibdi. Bir tomonda saxtiyonfurushlar.

Biz bular orasidan o'tib bordik. Ko'mir saroy maydonining o'rtasida ko'ku oq brezentlardan qurilgan Yupatov ot o'yininning kattakon bahaybat gumbazi turar edi. Uning oldidagi taxtadan yasalgan baland so'rida karmaychi, sumaychi, do'mbirachi, bir necha masxarabozlar. Bularning orasida Rafiq masxaraboz ham bor. Ular turli o'yinlarni ko'rsatib, olomonni ot o'yiniga chaqirar edi.

— Attaginang, ko'ksultonning vaqtি emas-da, Ubay.
— Ko'ksulton nimaga kerak bo'lib qoldi?
— Surnaychilarning oldiga borib karsillatib yesang, og'zi kala-va-kalava suv ochib, surnayini chalolmay qolar ekan. O'tgan hafta ro'parasiga kelib anor yegan edim, xuddi shunday bo'ldi.

Ikkalamiz kulishdik.
— Ot o'yinga kiramizmi?
— Yo'q, kirmaymiz, — dedi Ubay.
— Nega?
— Birinchidan, qimmat, ikkinchidan, Mayramxon degan yalang'och chiqarmish, men yalang'och xotinlardan qo'rqaman. Otning o'ynashiga qiziqmayman. Uyimizda ot bor, dadam chavandoz. Har qancha ot o'ynatganda bizning uloqchilardek o'ynatolmaydi. O'zim ming marta ko'rgan tomoshaga bittangadan to'lashga ahmoq pul yo'q.

— Men ham bir marta ko'rganman, bo'ladi, — dedim.
Rafiq masxaraboz yog'och so'rida og'ziga arra qipiqlik to'Idirib gugurt chaqib "otash xo'r-ey, otash xo'r", deb olov purkab tursa ham kirmayman. Chunki ichkarida ham shuni ko'rsatadi-da.

Morojniy yegani bordik. Men qizil morojniy oldim. Ubay sarig'idan. To'qqiz pulliqdan oldik. Tarelkaga solib berdi, yog'och qoshiqcha bilan maza qilib yeyayotganimda tamom bo'lib qoldi. Ko'mir saroyidagi pochtaning yoniga dor qurilgan ekan. Dor

hali boshlanmagan. Lekin atrofda davra qurib o'tirgan odamlar ko'p edi. Bu yerda ham karnaychi-surnaychi, do'mbirachi. Ikkita qiziqchi yog'och oyoqda almoysi-aljoyi o'yinlar qilib, aylanib yuribdi. Shulardan bittasini kokilliq do'ppisidan taniyman. Aka Buxor.

Ubay bilan mahallaga borgandan keyin bittadan yog'och oyoq qilib olishga ahd qilishdik. Yog'och oyoqda yurish uncha qiyin emas ekan. Undan keyin boshing hammadan baland, devor-tom-dan qarab qo'ni-qo'shnilarining xohlagan qizi, kelin-kevatlarini ko'rib ketaverasan.

Ubay:

— Qornimizni to'yg'azib olmaymizmi, no'xatsho'rak yemaymizmi? — dedi.

— Qo'ysang-chi, hozirgina qaymoq non yedik-ku. Buning o'rniga durbin surat ko'ramiz, — dedim.

Ilhom samovarchining ukasi kal Ibroy durbin surat ko'rsatar edi. Ikkita surat ko'rish bir tiyindan. Bizni tanidi. Qo'shni mahalla bo'lqanimiz uchun har beshtasini bir paqirdan ko'rsatishga rozi bo'ldi. Ikkalamiz ikkita durbinni olib ko'ra ketdik. Kal Ibroy tepamizda maqtab, tushuntirib turibdi:

— Mana bu Farang podshosi Qaysari Rum, xotini bilan ko'cha aylanib yurgani, mana bu xalifayi Rum Sulton Abdulhamid soniy. Ana Sofiya masjidiga namoz juma o'qigani kelganlari. Izvoshning oldida gadoylar sadaqa so'rab o'rab olib turibdi. Mana bu Afg'on amiri Sulton Abdurahmon. Mana bu Hindiston malikasi, Farang podshosining qizi, fil sayohatida changali Mozandaronni aylanib yuribdi. Mana bu Makatulloda hojilarning Arofatga chiqishi. Mana bu oq poshsho hazratlarining enagalari — Valentina Fyodorovna. Bu kishi yaqinda ichburug'idan vafot qilganlar. Ey, sartopo, sartopo, tomosha qilavering!

Ikki paqirdan sakkiz tiyin to'lab, o'ntadan yigirmata surat ko'rdik, dunyoning u chekkasidan-bu chekkasiga borib kelgandek maza qildik.

Ko'mir saroyidan ham hafsala pir bo'lib, mum bozorga chiq-qanimizda, maxkama tomondan qalandarxonada tuproq yalab yotgan Mittixon to'ramning qalandarlarini bezanjir ayiqlarday, mast tuyalarday talqin o'qib, rastani boshlariga ko'tarib kelar edilar. Biz

ham ergashib ketaverdik. Qalandarlar Majjomiga qarab ko'taril-dilar. Majjomining orqasida g'o'za bozorga tutash yerda katta bir yalanglik bor edi. Bugun shu yalangliqda Toshkentning, Toshkent-ninggina emas, butun O'rta Osiyo muzofotining voizi Ko'sa maddohi va'z so'zlashi kerak ekan. Qalandarlar Ko'sa maddohning jarchilari ekan. Qalandarlar anchagina yig'ilib qolgan xaloyiqning oldida saf boyladilar. Birortasi ham o'tirgani yo'q. Hammalari uzun-qisqa hassalariga suyanib, "huv-huv-huv", deb tebranib turar edilar. Qayerdandir o'rtaliqqa bir kursi olib kelib, uning ustiga bir po'stak tashlandi. Kursi yoniga taburetka keltirildi. Unga bir choy-nak choy, piyola, non, qand qo'yildi.

Bir nafasdan keyin davra o'rtasiga malla to'nli, boshida katta oq salsa, jiyak yoqa ko'ylakli, past bo'yli, semiz, qo'lida hassa tut-gan, oq yuzli, soqol-mo'ylovsiz yuzlari burishgan sakson yoshlari chamasidagi bir chol kelib chiqdi. U qibлага qarab kursiga qalandarlarga ro'parama-ro'para o'tirdi.

Qalandarlarning oldida yana yelkasiga oq rido tashlagan, yengilgina yaktak kiygan, shiling pocha kavush kiygan girdak oq sallali ikkita mullabachcha taqlid: birisi qora cho'qqi soqolli, birisi yoshroq, ikki kishi kelib kirdi. Ular Ko'sa maddohning "do'st tortuvchi" shogirdlari edi.

Ko'sa maddoh bir piyola choy quyib tomog'ini ho'llab olgan-dan keyin o'rnidan turib, hassasini beliga qo'yib asta-sekin sin-chiklab davrani aylanib chiqdi.

Biz shu paytda odamlarni yirib-yorib oldinga o'tib olgan edik. Ko'sa maddoh qaytib o'z o'rniga bordi. Qo'lini yuqori ko'tardi. Xirilloq ovoz bilan davra atrofidagilarga murojaat qildi:

— Xaloyiq, ibridoiy avval tikka turmav joy-joylaringizga o'ltiringlar. Tik turmoqlik, nauzanbillo butparastlarning toshdan qilingan Xudolariga xos xislatdir!

Hamma guv etib o'tirdi. Biz ham yalpayib savatdek joyni egal-ladik. Haligi ikkita mullabachcha taqlid "do'st tortuvchi" shogird-lar xipcha ovoz bilan maddohning so'zini:

— Baleee... — deb ma'qulladilar.

Ularning ovozini Shayxontohurdan ham eshitsa bo'lar edi. Ko'sa maddoh so'zida davom qildi:

— Boyad ma'lum bo'lgayki, bu yerda jam bo'lgan izdihom o'tasida musofir-mujobirlar, Samarqand-u Buxoro, Kattaqo'r-g'on-u O'ratepa, Farg'ona-yu Xo'jand muzofotlaridan qadam ranjida aylab Toshkenti firdavs monandimizga kelgan musulmon birodarlarimiz bisyordurlar. Boyadki, kaminani tanib qo'ygaylor. Aslim Buxoroning Ko'zagaron mahallasidurman. Ismim Hoji Najmuddin ibn Salohiddin, padari buzrukvorimiz ham amiri Muzaffar zamonasining zabardast voizlaridan erdilar. O'n yetti nasab bilan Mavlono Husayn voiz Samarqandiya vobasta bo'lurmiz. Padar buzrukvorimiz oliy Temuriylardan Husayn Boyqaro zamonasida nash'u namo topib, umrguzaronlik qilibdurlar. Zih zamonayi shar'iy. Zih zamonayi sha'riy. (Ajoyib amnu omon va shariat barq urgan zamonlar edi u zamonlar.)

Kitobi "Axloqi muhsinin" u janobning tasniflaridir. Kamina ul hazratga o'n yettingchi nabira bo'lurman. Har kim bunga shak keltirsia, yuzi qozonday qora bo'lib, dili tandurday otashlarga kuygay, omin!

Shogirdlar:

— Omin, kuygay!!! — deyishdi.

— Endi masalaga guzar qilaylik. Xudo o'z kalomida uch zotga itoat qilmoqlikn bandalariga farz qilibdur.

Birlamchi, haq taolo va taborakning o'z zotidurkim, kulli mavjudot uning qudrati bilan paydo bo'libdur va uning amri bilan jahonda barqarordir. Biz haq subhonahu va taologa har zamon, har soat, har dam va har daqiqa itoat qilmoqqa o'z imonimiz bilan majburmiz.

Do'st tortuvchilar:

— Ha, do'st, majburmiz, baleee... — deb qichqirdilar.

Qalandarlar bularning so'zi orqasidan "haq, ho, huv", deb tal-qin o'qidilar.

Ko'sa maddoh ularni bir ishora bilan to'xtatib, so'zida davom qildi:

— Ikkilamchi, payg'ambarimiz Muhammad Mustafa sallallohu alayhi vasallam rasuli barhaq, payg'ambari oxir zamondurlarkim, biz u janobning har bir sunnatlariga va hadislariga beshak-shubha amal qilmog'imiz kerak. U kishining ruhi poklariga salavotlar bo'lsin. Do'st tortuvchilar:

— Hay-hay, salavotlar bo'lsin, omin! — deyishdi.

Qalandarlar takbir tushirib ketdilar:

— Salli alo sayidino Muhammad.

— Salavotino Muhammad.

Ko'sa maddoh yana qo'l ko'tarib qalandarlarni to'xtatib, xiril-lagan tovush bilan va'zni davom qildirib ketdi:

— Uchlamchi, boshimizda turgan imperatori a'zamimiz janobi oq poshsho Nikolay Soniy Romanov hazratlaridirkim, Xudo o'z kalomida "Assulton zillolohi fil arz", ya'ni podsholar Xudoning yerdagi soyasi, debdurlar. Nikolay hazratlari Xudoyi taolonning yerdagi ko'lankasidurlar. Boshimizdan shafqatlar arimasin.

Do'st tortuvchilar:

— Ko'lankasidurlar, omin, ko'lankasidurlar, omin...

Qalandarlar:

Sulton bidonad holi man, Sultan ba man shafqat kunad. Hu... hu... — derdilar.

Ko'sa maddoh yana ularni to'xtatib, so'zida davom qildi:

— Yana u podshohi a'zamimiz Nikolayning xonadoni oliylari, vazir-vuzarolari, arshga qo'yilgan kursiday baland taxtlari sihat-salomatlidiqda ming yillar barqaror bo'lsin, omin!..

Do'st tortuvchilar:

— Omin, omin...

— Aknun ushbu zamonaga mag'ribi zamin tomonidan olmon degan bir badbaxt dushman podsho chiqib, janobi imperator hazratlarining taxti sultanatlariiga, varost zaminlariga lak-lak haft jo'sh lashkar, to'p-u zambarak, osmon-u vafur (samolyot) yuborib, ko'p yerlarni g'abs etib, xaloyiqni besaranjom qilib, kulfatlar solib turmoqda erukim, ayniqsa, ushbu zamonada har bir musulmonga o'z podshohi a'zamiga itoat qilmoq, har bir amr-farmoniga bo'yin egmoq farzi ayndir. Xudo o'z kalomida ulul amr-u minho'm, ya'ni podshohlaringiz qaysi dinda bo'lsa ham unga mut'e bo'linglar, debdur. Alhamdulilloh rabbil olaminki, bizning oq podshohimiz va butun vazir-vuzaro, amiri lashkarlarimiz kitobiy dinda hazrati Masih dinidadirlar. Bizga Qur'on nozil bo'lganday, hazrati Isoga ham "Injil" nozil bo'libdir. "Injil" ham kalomullodir. Bas, ma'lum-

dirkim, hazrati podshohimiz va xonadoni oliylari kofir emas, ahli kitobdandirlar.

Ma'lum bo'lurkim, hazrati podshohimizga o'z fuqarolari musulmonlar az on jumla bizning Turkiston sartiyalari ham farmonbardor bo'lib, xususan, ana shu qattol jang kunlarida yordam bermoqlari farzdur. Va yana bu yerda mavjud izdihomga ogohlik uchun ayturmankim, o'z ichimizda bo'lgan "xufiya"lar, voqye-navislari, masterovoylar degan bixirad layga laallaklarning, oyoqyalang xona bardo'shlarning ig'vo-fasodlariga uchmasinlar. Har qayerdakim, shunday buzuq fitnajo'lar fuqarolarni podshohimizningadolat yo'lidan ig'vo yo'liga sudramoqchi bo'lganlarni shahar boshliqlarimizga, janob politsamistrimizga va ularning sadoqatli amaldorlariga tutib bersinlar, omin...

Xudoyi taolo va taborak dushmanimizni yer bilan yakson qilsin, ig'vogarlarning, fitna-fasodchilarning og'ziga tosh!

Do'st tortuvchilar:

— Omin, og'ziga tosh, omin, og'ziga tosh... — deb qichqirar edilar.

Shundan keyin Ko'sa maddoh amri ma'ruf, nahimunkarga (shariat masalalariga) o'tdi:

Mustahab qilishda orqa tomonni necha marta yuvsavob, necha marta yuvsagunoh?

Erta bilan turib kavushni o'ng oyoqdan kiyish kerakmi, chap oyoqdan kiyish kerakmi?

Haloga qaysi niyat bilan kirish kerak?

Ot mingan kishi eshak minganga salom berishi mumkinmi, yo'qmi?

Oqib turgan suvgaxlat tushsa, necha marta yuvsahol bo'ladi?

O'g'ri Xudoning bandasimi, yo'qmi?

Mashinachilar bilan sartaroshlar ham jannatga kiradimi, yo'qmi?

Kartoshka halolmi, harommi?

O'rusingning yassi qozonida pishirilgan ovqatni yesa bo'ladimi, yo'qmi?

— Maddohning gaplaridan muzlagan tarrakcha maza topolganim yo'q. Ketamiz, — dedim Ubayga.

U ham meni turtib:

— Men ham hech narsa tushunmayapman. Nuql oq poshshoni maqtaydi, pora-mora yeganmi o'zi, — dedi Ubay. — Maddohlar-ning hammadan pul so'rashi qiziq bo'lar edi. Pul so'raydigan joyiga yetib qoldimi?

— Yo'q. Bu gapda pul so'ramaydi. Pulni cho'pchak aytganda so'raydi. Men pul so'rashini juda yaxshi bilaman. Chunonchi, u bir qiziq eshitilmagan cho'pchakni boshlaydi-da, bir kutilmagan yerga olib kelib to'xtatadi, odamlar hayajonlanib hikoyaning bundan bu yog'ida qanday voqealar yuz berar ekan, deb, tipirchilab kutib turganda, to'satdan pul so'rab qoladi.

Hozir ham Ko'sa maddoh shunday qildi. Eshitilmagan bir qiziq, afsonaviy hikoyani boshlab, qiziq bir joyiga kelganda to'xtatib qo'ydi. (Bu cho'pchakni batafsil aytib o'tirish ko'p vaqt-ni oladi, shuning uchun uni gapirib o'tirishning hojati yo'q.)

— Hoy, musulmonlar, — dedi Ko'sa maddoh, — biz ham ayalmand musulmonlardanmiz. Bir necha jo'javurdek jonlarning kafilini Xudo bizning yelkamizga yuklab qo'yibdir. Shu yerda hozir va nozir o'tirganlar hikoyamizning davomini tinglamoqchi bo'lgan birodari shar'iylarimizdan farzand talabdur, davlat talabdur, xotin talabdur, qarzdordur, har maqsadiki ko'nglida bo'lsa, Xudoyi taolo tez fursatda shu maqsadiga noil qilgay, deb yetmish azamatdan Xudo yo'liga yetmishta ot so'radim. Hay-hay, abas gapirdim, abas gapirdim. Mendek bir bechora yetmish otni na qilurman. Mening hojatim uchun bir saman ot bo'lsa kifoya. Bir azamatdan bir ot so'radim. Qolgan oltmish to'qqiz saxiyidan yarim tillordan oltmish to'qqizta yarim tillolik so'radim.

Hoy, abas so'radim, abas so'radim. Shunday g'ulg'ula, sarosima zamonda hamma muttasil o'z oila tashvishi bilan band bo'lganda yarim tillo so'ramoq abasdur. Qolgan oltmish to'qqiz ahli sunnati valjamoadan bir so'lakovoydan oltmish to'qqiz so'lakovoy so'radim. Hazrati Muhammad Mustafao sallalohu alayhi vasallam o'z muborak hadislaridan birida "Hayril umur avsatuhu", ya'ni har bir ishning o'rta holdagisi yaxshidur. Bir so'm so'ramoq, demak, o'rta miqdordur, ashaddiy musulmonga bir tanga sadaqa qilmoqdan ozor yetmagay.

Qani, muntazir bo'lmaylik, hikoya davom qilsin, deganlar yonchiq kavlasinlar.

"Do'st tortuvchi" ikki mullabachcha ikkita kepchik ko'tarib davrani aylanib ketdi. Qandaydir bir boyvachcha o'rtachagina bir otni davraga yetaklab kirib, Ko'sa maddoxga yuganini tutqazdi.

— Taqsir, befarzandman, duo qiling.

Ko'sa maddoh xuddi payg'ambarlarga o'xshagan ko'zining g'o'lagini oqartirib ko'kka qarab qo'l ochdi.

— Omin, hoy, musulmonlar, sizlar ham menga qo'shilib omin denglar, yana bir marta omin...

Hammayoqdan bo'g'os-qisir chuvvos "omin" ovozlari ko'tarildi.

— Xudoyo shu ukamning ko'ngillarida o'ylagan hamma niyatlar janobi kibriyoning dargohida qabul bo'lsin. Hazrati sheri yazdon, yigitlar piri hazrati Ali kamarbandini bog'lasinlar, Xudoyi taolo va taborak to'qqiz Hasan-Husan o'g'il, to'qqiz Fotima-Zuhro qizga ota qilsin, boshlari to'ydan chiqmasin, omin.

Ovozlar ichida "do'st tortuvchi"larning chinqirgan "omin" ovozları mis barkashni pichoqning uchi bilan qirganday chiyillab ajralib turar edi. Boyvachcha-ku, Ko'sa maddohga ot sadaqa qildi, ammo bu otni Ko'sa maddoh avvallar ham minib yurganini bir necha marta ko'rganlarini shivir-shivir aytguvchilar ham bor edi. Biz birovning ustidan gap tarqatishni yomon ko'ramiz, gunohi aytuvchilarning bo'yniga.

Kepchik ko'tarib pul yig'uvchilar davra aylanib, tuzukroq kiyangan odamlarning oldida uzoqroq to'xtab sadaqa yig'ar edilar. Qancha tushganligini bilmayman. Men Ko'sa-maddohga hisobchi bo'lqanimcha yo'q. Men Ko'sa maddohning pul yig'ish to'g'risidagi nayranglarini Ubayga tushuntirib bermoqda edim. Birdan Ko'sa maddohning ko'zi biz tomonga tushib qoldi shekilli:

— Hoy, qalandarlar, hoy, birodaroni oliy, ana shu ikki beodob bachchalarini ma'rakadan olib chiqing, halol oshga tushgan pashsha bo'lmay o'lsinlar, — deb qoldi.

To'rtta yo'g'on qalandar kelib ikkitasi mening qo'limdan, ikkitasi Ubayning qo'ltig'idan azot ko'tarib, ma'rakadan chiqarib, boshimizga bittadan mushtlab, qassob bozorning dahanasiga uloqtirdilar.

— Jo'na-ye, itdan tuqqanlar!

Tag'in nima balolar deb gapirib so'kishdi.

Men Ubayga:

— Aytmabmidim. Ko'sa maddoh va'ziga xalaqit berganlarni juda beobro' qiladi, deb.

— Be! — dedi Ubay.— Sen bilan menda obro' nima qiladi. Yur.

Keta turib o'ylab qoldim. Bir-ikki so'm xarajat qilib, bechora onam, ukalarimga besh-o'n qadoq guruch, mosh, bir-ikki qadoq yog', bir oz go'sht, mayda-chuyda qilib Ubaydan berib yuborsammikin, qanaqa bo'larkin? Tag'in onam bechora Ubaydan meni qayerda ko'rding, qani, yur, olib bor, deb tiqilinch qilib qolsa, qanday bo'lar ekan?..

Xullasi, ming xil xayollarga bordim. Eng oxiri: "Ha, endi besh-olti oydan buyon-ku, dom-daraksiz, sanqib yuribman. Nima, mahalladagilar tirik yurganimni bilishadi. Ular ham, men ham qirqla chidagan, qirq biriga ham chidab qolarmiz. Baribir, kel-gusi haftagacha Hoji boboning tarbiyasida qolmoqchi emasman, o'shanda bira to'la topgan-tutganimni xarajat qilib, ortib-tortib bora qolarmen", deb o'zimga tasalli berdim.

Keyin bitta oq tangani Ubayning qo'liga tutqazib:

— Ma, o'rtoq, choychaqa qil, lekin meni ko'rganiningni hozircha hech kimga aytma, o'zim borib qolaman, — dedim.

Ubay bilan xayrashib ajrashdik.

Vaqt oxir peshin bo'lib qolgan edi. Qormim ochgan. "O'ladigan dunyoda bir gasht surib qolay", deb Ilhom samovarchining samovariga kirdim. Kal Asra avval meni haydar yubormoqchi ham bo'ldi:

— Bor-bor, ishingni qil, o't. Bu yerda bir choy, bir non, nimchorak qand — to'rt yarim paqir, sendaylar bu yerda choy icholmaydi. O't, o't, ko'rpachaga biting to'kiladi.

— Qo'ya qoling, jon Asra aka, to'rt yarim paqir tugul bir so'mim ham bor, kirgizavering, mana, ishonmasangiz, — bitta so'lkavoyni ko'rsatib qo'ydim.

— Voy, bachchag'ar-ey, tim urdingmi, buni qayoqdan olding? Ha, mayli, kira qol, — dedi kal Asra.

Ichkariga kirib so'rining dahanasiga o'tirdim. Bir choynak choy, bir obinon, nimchorak qand olib kelib qo'ysi. To'tining almoysi-aljoyi gaplariga qulq solib, grammofondan Hamroqul qorining "Yo hayotannabiyy" sini eshitib, maza qilib choy icha boshladim.

Bozor qilgani daladan tushgan bir o'zbekning grammofonni birinchi ko'rishi ekan, hayratda qoldi. Ichida odam bormi, desa kichkinagina quticha, shayton desa, Xudo olloning, Muhammadning otini aytib turibdi. Hang-mang bo'lib allavaqtgacha turib qoldi. Grammafonning sirini unga tushuntirishga undan ko'ra ilmsiz-roq edim. Namozgar bo'lib qoldi. Tezroq takyaga borishim kerak. Sham oldim, buxor nosi oldim, pashmak oldim. Hoji bobo bilan hindi sarrofga munosib bozorliklarni qilib, qiyshayib kirib bordim. Ammo rostini aytish kerak, takyadan juda zerikkan edim. U yerdagilarning diydorini ko'rishga toqatim qolmagan edi.

Kechasi birinchi shirava qor yog'ib chiqdi.

Judasov qotib javrab chiqdim. Azonlab turib, yettinchi lampanning yorug'ida Hoji bobodan telpak bilan guppi so'rab, "Kuznetsov" choydan bo'shagan, Hoji bobo xufiya taryokilarga afyun o'rab beradigan qog'ozning orqasiga ushbu qorxatni yozdim:

*"Qorxat bu turur
Qorni yog'dirgan Xudoyimning o'zi,
Xat borib tegsin, kiyim-boshning so'zi.
Hoji bobo, bilasiz, egnimda yo'q,
O'z pulimga olgali qo'ynimda yo'q.
Guppisizlik, qo'l-oyog'im bo'ldi lang,
Piltasiz do'ppi kiyibman, bosh yalang.
Xizmatingizdan mudom ayrilmadim,
Buyrug'ingizdan qiyo qayrilmadim.
Tong sahardan kechgacha izg'iymen,
Xuddi cho'ltoq bir shipirg'i — to'zg'iymen.
Jon bobo, rahm aylangiz ahvolima,
Qolmangiz o'lsam qotib, uvolima.
Bir ilojini qiling, Hoji bobo,
Yetti marta haj ato qilsin xudo, —*

deb yozdim, yetim shogirdingiz".

Hoji bobo uyidan takyaga chiqqanda xatni unga berdim.

— Buning nimasi, bolam?

— Bilmadim, bir kishi berib ketdi. Namangandan xat emish.

— Ha, shunaqa, Mamatrizodandir. U bu yil ko'knori ekmoqchi edi, — dedi. Xatni mudrab o'tirgan sariq soqolli qo'sh ko'zoynakli kishiga berdi.

— Buni o'qib bering-chi, mulla usta Mirsalim, do'stimdan ekan. Tong azonda ko'zim o'tavermaydi.

Mulla usta Mirsalim xatni olib o'qiy boshladi:

“Qorxat bu turur”

— Hi, shunaqa, — dedi Hoji bobo ko'zi qinidan chiqib ketgunday bo'lib, — hoy, haromi, buni senga kim berdi, shartta ush-lamaysanmi, eshakka teskari mindirib, yuziga qora surtib Chorsu aylantirmaymizmi? Iya, muni qarang-a, keksaygan holimda menga hazilkashlik qilib ziyofat yutguvchi kim bo'lди ekan? Hu baqqolning mushugiga o'xshab sipoh bo'lmay o'l. Qani, o'qiyvering endi, mulla usta Mirsalim, bo'lar ish bo'pti. — Usta Mirsalim, tur-tinib-turtinib, “Xo'sh-xo'sh”, deb o'qib chiqdi. Hoji bobo xatning yuqorilarini “ha, shunaqa, ha, shunday bo'ladi”, deb tinglab borgan bo'lisa, “yetti marta haj ato qilsin Xudo”ni eshitganda ko'ziga yosh oldi. “Yetim shogirdingiz” degan imzoga kelganda iyib ketdi.

— Buni sen yozdingmi, bachchag'ar, tab'i nazming ham bor ekan-ku, to'xta, ey, jigarimni ezib yubording, — belbog'ga qistir-gan ro'molchasini olib ko'zini artgan holda o'rnidan turdi, uyga kirib ketdi. U chiqquncha mulla usta Mirsalim nazm ishining qiyinchilagini, piri kuch ekanligini aytib meni maqtadi. Hoji bobo chiqdi, qo'lida kechasi kiyadigan, paxta solingan, nimdoshgina, binafsha duxoba qalpoq bor edi.

— Mana buni kiyib ol, bolam, qani, qo'lingni och, Xudoyo xudovando sen ham menday qarib-qartay! Karrukning bolasi tu-xumdan chiqa ko'rmasin, chiqdi degani qanot-quyruq bitdi degani, jonig sog' bo'lisa guppi ham bo'lib qolar.

Haytovur, Hoji boboning duosi bekor ketmay, uch kundan so'ng, hindi sarrof o'zining eski, keng, yengsiz hindcha to'nini sovg'a qildi. Menga chorakam bir gazcha uzun kelgani uchun etagidan qirqib tashladim. Oyog'imda oporka, boshimda “namoz-

lik" qalpoq, egnimda ustidan qayish bilan bog'langan keng hindcha to'n — abo, oshqovoq polizning go'ngqarg'a tegishidan qo'rqib o'tkazilgan qo'riqchisi kabi ahli takya xizmatini astoydil qila boshladim... Bugun to'qson tushadi, degan kun birinchi ishni ko'rsatdim: erta bilan ahli takya yig'ilmasdan burun manqaldonning ostiga qalin kul solib, ustiga o't yoqdim. O't tayyor bo'Igach, nosdan bo'shagan bitta shishaga sovuq suv solib, og'zini mahkam yopdimda, manqaldondagi kulga ko'mdim, olib borib davraga qo'ydim. Birin-ketin mijozlar yig'ilib, manqal atrofida nonushta boshlandi. Qo'sh ko'zoynakli mulla usta Mirsalimdan tortib Sulton puchuq, sarrof hindi, Hoji bobogacha davrada edilar. Suhbat yana qizib borayotgan urush to'g'risida ketar edi.

— Germon degani baloyi azim ekan, — dedi usta Mirsalim.

— Barakallo, — dedi sarrof.

"Shishadagi suvgi issiq o'tib qolgandir", deb o'yladim men.

— Osmonda uchib yurgan emish, — dedi Sulton puchuq.

— Moshoollo! — dedi hindi.

"Suv qaynayotgandir", deb o'yladim men.

— Farangning shahariga osmondan to'p tashlabdi, — dedi usta Mirsalim. Shu choq shishadagi suv mo'rchaning qozoni yorilganday dahshat bilan manqaldonda portladi.

Takyaxonani o't uchqunlari bilan kul to'zoni qopladi. To'zon pasayganda Hoji bobo bilan Sulton puchuq arang to'rt oyoqlab qo'zg'alib o'rinalidan turmoqda edilar. Sarrof bilan usta Mirsalim behush yotar edilar. Men epchillik bilan behushlarning yuzlariga suv sepdim. Hindi uyg'ondi. Hangu mang bo'Igan Hoji bobo g'uldirab, Germanni ham, Nikolayni ham qarg'ar edi. Usta Mirsalim ham o'ziga keldi, arang o'rnidan turib:

— Nima gap? — dedi.

— O'ling! — dedi Hoji bobo, — hamma ish sizdan bo'ldi, hukumatning ishiga aralashmang, demaganmidim.

Sulton puchuq allaqachon takyadan chiqib ketgan edi. Hammalari ham bu hodisaning nimadan ekanini jo'yolmas, manqaldondon ikki-uch quloch nariga borib, burchak-burchakka tiqilib, ro'molcha bilan yuzlaridagi kulni artmoqda edilar. Hamma xomush edi, eng oxir Hoji bobo menga qarab:

— Hu tustovuqqa o'xshab tumshaymay o'l, nimaga qarab turibsan, bor, manqaldonni chiqarib tashla! — dedi.

Men manqaldonni olib namatni supurayotganimda ikkita mirshabni yetaklab Sulton puchuq kirib keldi, qo'lini bigiz qilib ko'r-satib:

— To'p shu yerda otildi, — dedi, tag'in usta Mirsalimni ko'r-satib, — mana shu otdi, — deb ham qo'shdi.

Tekshiruv boshlandi. Takyaning hammayog'ini axtardilar. Hoji bobo bilan usta Mirsalimning chillashir bilan o'Igan ammasini ham qoldirmay surishtirib chiqdilar. Pasport ko'rdilar. Ikki qadoq nasha, chorak qadoq afyundan boshqa hech narsa topolmadilar. Keksaroq mirshab nashadan mushtumdayini ushatib shimi cho'n-tagiga solganini ko'rsam ham indamadim. Eng oxiri kichik, xushmo'ylov mirshab:

— Yaxshi, — dedi, — bu yerda to'p otilgani qonunan ko'rindi. Birorta bola mushak-pushak ko'mgandir.

Hamma menga yalt etib qaradi. Hoji bobo soqolini silab yanib qo'ydi. Mirshab davom qildi:

— Ammo, Hoji bobo, siz biz bilan birga borib, mana bu afyun bilan nasha to'g'risida politsmeyster janoblariga qonunan tushuntirib kelasiz.

— Olloh rozi bo'lsin, ulug'lar, ulug'lar, — dedi Hoji bobo, — keksaygan chog'imda mahkamaga sudramanglar, birovning omonati edi... Mulla usta Mirsalim, sarrof, men o'rtaga tushdim.

— Qo'ying, ulug' xizmatingiz gardanimizga, Olloh rozi bo'lsin! Oq poshshomizning umrlari uzoq bo'lsin, — deyishdik. Hoji bobo yonchig'ini kavlab qoldi, bir hovuch tangachaqa olib katta mirshabga uzatdi:

— O'rgulaylar, oz bo'lsa ham ko'pday ko'rasizlar, choychaqa.

Har ikki mirshab bir-biri bilan ko'z urishtirdi.

— Yaxshi, — deyishdilar. — Bundan buyon bu ish bo'lmasin, bu galcha siyladik. Keksa odam ekansiz...

— Qulluq-qulluq, — deb ta'zim qildi Hoji bobo, mirshablar "mol"ni topshirib ketdilar.

Hoji bobo charchagan kishilarday uh tortib, supa dahanasiga o'tirdi:

- Uh, bir falokatdan qutuldim, hay, shaytonbachcha, kecha bergen puling qancha edi?
- Yetti so'm tanga miri.
- Xayriyat, arzon qutulibman! Qani, menga javob bergil, bu hunar sendan chiqdimi?
- O'lib ketay!..
- Bola-mola takyaga kirganmidi?
- Payqaganim yo'q!..
- Hi, shunaqa, — dedi Hoji bobo, — usting bitib, qorning to'yib Eshonxon nayrangbozning takasiday o'yin chiqarib qoldingmi, payqaganim yo'q emish-a, haromi!

O'rnidan turib samovar yonidagi otashkurakni ko'tarib yag'rinimga bir-ikkini tushirdi. Odamlar ajratib qo'ydilar. Men bir burchakda yig'lar edim. Shu bilan tinchlik o'rashdi. Sarrof bozorga ketdi. Usta Mirsalim, allaqaysi boyning o'g'il to'yisiga tortiq qilish uchun rango-rang qog'ozlardan gul qilishga o'tirdi. Hoji bobo uyga kirib ketdi. Sulton puchuq shu-shu takyaga qadam bosmaydigan bo'lidi.

To'g'ri, hamma ish o'rniga tushgan, biroq mening ustimidagi shubha ko'tarilmagan edi. Men esa yana zerikar edim. Bir kun ahli takya oftob shuvoqqa chorpoya qo'yib, so'zlashib o'tirganda ikkita movmushuk urishib, bo'g'otdan ag'anab, ularning oldiga tushdi. Xuddi ajoyibxonadan yo'lbars bo'shab chovut qilganday ularning o'takasi yorildi. Muni qarangki, shu ishni ham mendan ko'rdilar. Gunohing bo'lmay turib shubha ostida yashashdan ortiq azob yo'q. Ketmoqchi, albatta, ketmoqchi bo'ldim. Biroq: "Hindiston yo'l xarji" hali mo'ljalga yetimagan edi.

Har galgiday bu payshanbani ham tantanali o'tkazish uchun Hoji boboning o'zi yaxshi tayyorgarlik ko'rib qo'ygan edi. Nasha, choy-poylar turadigan, Hoji boboning faqat o'zi ocha-digan tepe piromondagi kichkina irvit qutichaga yarim qadoq "Kuznetsov"ning a'lo nav oqpar choyi, bir qadoq pashmak holva, bir qadoqcha Urgutning sariq oftobi mayizi va boshqa noz-ne'matlarni yashirib, qulflab, kalitini Hoji bobo belbog'idagi hujraning kaliti, darvozaning kaliti, uyning kaliti, tuyasandiqning kaliti va boshqa kalitlarga qo'shib qo'ydi.

Chehrasida mammunlik bor edi. U ich-ichidan xursand bo'lgan-da hislarini ming'illab ashula aytib ifodalar edi. U juda erib, "Antal hodi antal, haq, laysal hodi ilol hu" degan, men tushunmaydigan qo'shiqni xirgoyi qilar edi.

Bu gap, endi chorshanba kuni kechqurun bo'lgan edi. Odadagicha xuftondan keyin qo'sh ko'zoyakli usta mulla Mirsalim aravakash otning to'qimidek katta kitobi "Saddi Bottol G'oziy" dan kitobxonlik qilib berdi. Yana o'sha hindining "moshoollo"si. Navbatdagi so'lpi umrni o'tkazib, qoida bo'yicha yota ketdik.

Bu tongda Hoji bobo navro'zdan buyon ixlos qo'yib parvarish qilib yurgan, ammo sayramagan, O'ratepadan sovg'aga kelgan tul-lak kaklik birdan "g'id-g'idak" chiqarib qoldi. Cho'chib uyg'onib ketdim. Bir nafas kaklik tovushini zavq bilan eshitib yotdim. Keyin dik etib o'rnimdan turib tashqariga chiqdim, bet-qo'limni yuvib katta samovarni qo'yib yubordim. Mulla usta Mirsalim bilan sarrof ham uyg'ondilar. Qumg'onchada iliq suv qilib berdim. Yuvinib keldilar. Choynaklarni artib-surtib samovar tagiga tizib qo'ydim. Hammayoqni supurib-sidirib, yog' tushsa yalaguday qilib, Hoji boboning chiqishiga muntazir bo'lib turdik.

Hoji bobo uzoq kuttirmay ichkaridan "Antal hodi"larini ming'illab, yo'talib-so'talib chiqib qoldi.

— Assalomu alaykum, borakallo.

— Samovar qaynadi, Hoji bobo, choy bersangiz damlar edim.

Hoji bobo kalitlar orasidan irvit qutining kalitini ajratib piro-monga qaradi. Piromonda quticha yo'q edi.

— Iya, — dedi Hoji bobo, — qutini boshingga qo'yib yotganmiding? "O'zingni ehtiyot tut, qo'shningni o'g'ri tutma", deganlar. Borakallo, o'g'lim, borakallo.

— Yo'q, Hoji bobo, men boshimga qo'yib yotganim yo'q. Joyida turgan edi.

— Nima, nima? — dedi Hoji bobo. — Usta Mirsalim, siz ko'rganmidingiz?

— Avval oqshom ko'rgan edim, shu piromonda turgan edi.

— Yo'q-ku? — dedi yig'lamsirab Hoji bobo, menga qarab: — Hoy, haromi ko'cha, yaxshi o'ylab ko'r, u yoq-bu yoqqa olib qo'yandirsan? — deb so'radi.

— Hoji bobojon, men sizning narsangizga tegmayman. Joyida turgan edi.

— Qush emaski, qanot bog'lab, uchib ketgan bo'lsa, qurbaqa emaski, biror telik-teshikka kirib yo'qolgan bo'lsa. Top, padarla'nat. O'zidan katta odam bilan hazillashish uyat bo'ladi.

— Men sizga biror mahal hazil qilib yurganmidim, Hoji bobo?

— Menden keyin bu yerga birov kirgani yo'qmi?

— Zog' ham uchgani yo'q.

Mojaro boshlandi. Hoji bobo takyaning eshigini yopib kelib hammayoqni titkilab chikdi. Ko'r pachaning tagi ham qolmadi, samovarning o'txonasi ham qolmadi. Keyin, Hoji bobo devorga suyanib turgan otashkurakni olib, yag'rinimga ikkini tushirdi. Bu ishga usta Mirsalim ham aralashib, savalashdi.

Men nimaga iqror bo'lishga hayron edim, yig'lar edim. Eng oxiri hammalari charchadilar. Hoji bobo o'z o'rniga o'tirib menga qaradi:

— Hoy, padarla'nat, muloyim shupurgi. "Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'g'lon asrasang, og'zi-burning qon etar", deganlar. Sen haromi kelgandan buyon do'kon-dastgohimdan baraka ko'tarilib, takyada biror kun tinchim qolmadi. Agar shu qutichani biror yerga yashirgan bo'lsang, hali ham yaxshilikcha o'rniga qaytar, bilib-bilmaslikka solib keta qolaylik. Illo, bola, bo'rkingda bilib qo'y, qoziga chaqirtirib, teringga somon tiqtiraman.

Yig'lab turib javob berdim:

— Yo'q, Hoji bobo, ilgariroq men sizni qoziga chaqirtiraman. Salkam to'rt oy xizmatingizni qilib, topganim bitta oporka bilan eski qalpoq bo'ldi. Buning ustiga yetim deb siylab o'tirmay, ikkovlashib toza savaladingiz. Haq bermadingiz. Bu qaysi shariatga kiradi-yu, qaysi zakonda bor. Oq podshohimizning dargohlarini bedarvoza deb bilasizmi? Yo'q, men sizni qoziga chaqirtiraman!

Bu gaplarimdan ko'zi qinidan chiqib ketay degan Hoji bobo o'rnidan yarim turib:

— Hali shunaqami? — dedi. — Tuzim ko'r qilgur. Hali shu gaplarni ham bilaman degin. Jo'na, jo'na. Hoziroq jo'na! Haqing qolgan bo'lsa, qiyomatda olasan. Xudoga soldim.

Janjalning ulg'ayib ketishidan qo'rqqan mulla usta Mirsalim:

— Qo'ying endi, Hoji bobo, bituvchilik qilaylik, — dedi. Keyin menga qarab: — Bola, sen ham tilingni tiy. Undan ko'ra gumoningni ayt. Qutichani kechasi kelib kim olgan bo'lishi mumkin?

Musofir sarrof bo'lsa bir chekkaga siqilib, mening ahvolimga achinib, soqolini silab yig'lar edi.

— Ey, bachchayi bechora. Badbaxt yatim. Hoji bobo, hama kam budiya man tavon deham. Chand pul meboshad? (Ey, bola bechora. Baxti qaro yetim. Hamma yo'qolgan narsalarning tovoni men beraman. Necha pul bo'ladi?)

— Bas qil-ey, shu meshavat-peshavatingni! — dedi Hoji bobo hindini jerkib, so'ngra menga yuzlanib, dedi: — Ayt, gumoning kimda?

— Birovga tuhmat qilish qiyin. Gumonim tunov kun mirshab yetaklab kelgan puchuqda. U siz bilan usta Mirsalimga o'chakishib qolgan.

— Hm, shunaqami, — dedi Hoji bobo, — zimdan tekshirib ko'ramiz, qochib qutulolmaydi.

Oxiri janjal bituvchilik bilan tindi. Men bugun kechqurun haydaladigan bo'ldim. Usta Mirsalim men yana biror shikast yetkazmasligim uchun shu yerda ko'z-qulqoq bo'lib turadigan bo'ldi. Hoji bobo xizmat haqlarim uchun oyiga bir so'mdan to'rt so'm pul, uning ustiga quyuq duo qiladigan bo'ldi. Quticha va uning ichidagi mollar topilsa topilgani, topilmasa Xudo yetkazadigan bo'ldi.

Kechgacha odatdagicha ixlos bilan xizmat qildim.

Kechqurun ketishga tayyorlana boshladim. Shomdan keyin odatdag'i o'zim yotib-turadigan yerda ko'rpa cham, yostig'im taglarini — xazinamni tozalab, yengsiz to'n yoqasiga tika boshladim. Ikkita o'n so'mlik, uchta besh so'mlik tilla. Hoji bobo bergan bitta uch so'mlik qog'oz pul, qolganlari bir so'mlik, yarim so'mlik so'lkavoy, tanga-chaqa aralash edi. Tanga-chaqalarni tikkanim yo'q. Jamuljam qirq ikki so'm oltmisik ikki tiyin bo'lgan edi. Katta davlat. Urush bo'Imaganda o'nta qo'y olsa bo'lar edi. Ha, mayli.

"Semizlikni qo'y ko'taradi", degandek shuncha katta davlatdan o'zim ham qo'rqrar edim. Pulni yoqa baxyasiga tikib bitkazay deganimda, usta Mirsalim tepamga kelib qoldi.

- Nima qilib ivirsiyapsan, bolam?
- Haydalishga-ku haydaldim, endi ko'chaga shu yirtiq-yamoq bilan chiqamanmi? Hech bo'lmasa, u yer-bu yerimni chatib olay.
- Parrextagina bola, — dedi usta Mirsalim, — ishqilib, shu ko'zi tor sarrof ustingdan to'ningni tortib olmasa bo'lgani edi. Ko'p ziqna odam-da. Bo'lmasa, shuncha pul-a? Bitta sariq chaqanni "mang, usta, choy iching", deb oldimga tashlaganini bilmayman. Ertaga sen sho'rlikka varrak qilib bermoqchi bo'lib dilimga tugib qo'ygan edim, Xitoy qog'oz bilan qamish ham savil qoladigan bo'ldi. Ha, mayli, peshonang ekan.

Yuragim "shuv" etib ketdi.


- O'zi bergen to'n-ku, qaytib so'rarmikan?
- So'raydi u to'ng ko'z. So'ramaganda ham Hoji bobo bergen ish haqingni qo'lingdan qoqib oladi. (Sarrofning menga nisbatan jo'mardligini usta Mirsalim bilmasdi. Sarrof to'nini hech qachon so'ramas, qaytanga haydalganimni bilib yashirinchcha ikki so'lakovoy baxshish bergen edi.) — Usta Mirsalim so'zida davom etdi: — Hozir oydin kecha, shomdan endigina o'tdi, hali ham gapso'zni chuvalashtirib o'tirmay, xayr-ma'zurni nasiya qilib ketaver. Ketaverishing Hoji boboga ham ma'qul tushadi. U kamchiqim odamlarni yoqtiradi.

Bu gap menga sariyog'dek yoqqan edi.

Usta Mirsalimning bu gapining tagida piyozi bor. Men bilar edimki, Ilhom samovarchi samovarga odamni ko'proq chaqirish uchun to'ti saqlaganday, Hoji bobo usta Mirsalimni to'ti qilib boqar edi. Usta Mirsalimning menga qilgan "mehribon"ligi mening uchun emas. Hoji bobodan yana boshqa da'vo qilib o'tirmasin, tezgina ko'zdan yo'qola qolsin, demoqchi edi. Shuning uchun men unga:

- Sizga shu maslahat ma'qul bo'lsa, mayli, ketaman, — dedim.

Samovardan qumg'onga suv quyib chapishtirdim, tashqariga chiqib, shu yerdan ozod bo'lish sharafiga bet-ko'limni, oyoqlarimni yaxshilab yuvdim. Qora-qurum bosgan sassiq takyaxonadan tashqariga chiqib, ko'kragimni to'ldirib nafas oldim. Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko'nglim tongday tiniq. To'rt tomonim qibla. Lekin qayoqqa qarab yo'l olsam ekan?



HIKOYALAR



YIGIT

Men uni birinchi marta kino kassasi oldida ocheredda ko'rdim. Yaxshi bilar edimki, shunday suluv qizlar bizda juda siyrak bo'la-di. Uning ko'zлari menga juda muloyim termilar, goho mendan arazlaganday ishva bilan suzilib ketar edi. U ocheredi mendan orqaroqda bo'lganidan, go'yo uning tolma nozik vujudi shu ma-shaqqatdan ranjiganday ko'rinar edi. Gavdalarining og'irligini goh chap, goh o'ng oyoqlariga solib bir qo'li bilan tolgan belini ushlab, azob chekib turishiga juda achindim. Shu qizginani o'zim-ga rom qilib ochered balosidan qutqazishni jazm qildim. Mendan oldin turgan bir o'spirinchaning yelkasiga sekin turtdim:

— O'rtoq, afv etasiz, men sizning orqangizda, o'rnimga ehtiyyot bo'ling, men hozir kelaman, — deb sekin qatordan sirg'ilib chiqdim. Qizning ro'parasida zalga qo'yilgan tuvakdag'i gulning barglarini o'ynab qizga tikila boshladim. Qizning daydi boqish-lari menga tushgan ediki, men ham odamlarga shipshitmay turib, chap ko'zimni hazilkashlik bilan qisib qo'ydim. Qiz menga bir xo'mrayib qaradi-da, yuzini chirtta teskariga burdi. Men bu choq uning xolini ta'qib qilar edim.

Men sekin boshqa yoqqa qarab, ko'z qirlarimni qizga tiksam, qiz yana menga qaradi. Men tag'in bir martaba unga qarab o'ng ko'zimni qisib qo'ydim. Qiz bu gal achchiqlandi. Menga nafrat bilan qaray boshladidi. Mazmuni kino ko'rishdan ham bezor bo'ldi shekilli, qatordan chiqib eshikka qarab yo'l soldi. Men epchillik qilib undan ilgariroq eshikka chiqdim. Katta elektr chirog'i tagida qizni kuta boshladim.

Qiz chiqar-chiqmas yana menga ko'zi tushdi. Men bu gal ham zerikmay ko'z qisishda davom qildim. Qiz endi g'azablanib tikka oldimga keldi:

— Siz qanday sharmsiz kishisiz, men hozir militsiya chaqiramani. Siz meni kim deb o'yladingiz?! — deb do'q ura boshladi.

Parvo qilmadim. Qizning betiga juda ma'noli va ulug'vorlik bilan tikildim.

— Afv etasiz, sizga nima yomonlik qildim? Mendan sizga qanday hurmatsizlik va shakkoklik o'tdi, jonim? — dedim.

Qiz o'jarlik bilan javob berdi.

— Bilamiz, siz yigitlar juda "pok" bo'lasiz. Sizning adabingizni rayon militsiyasigina bera oladi. Kim ko'rganga ko'z qisib yurasiz-da, tag'in "gunohim nima emish"...

Men beixtiyor qahqaha solib kulib yubordim. Qiz unga sari g'iijinar edi. Atrofdagi odamlar ham bizning mojaroga alanglay boshlagan edilar.

— Afv etasiz, do'ndiq qiz, — dedim, — agar mendan ko'z qisganim uchun xafa bo'lgan bo'lsangiz, bekorga xafa bo'libsiz. Ayting-chi, shu ko'zlar menikimi, siznikimi?

Qiz juda jahl bilan:

— Sizni, albatta, bu betamiz, behayo ko'zlar meniki bo'la olmaydi, — dedi.

— Balli, modomiki, shu ko'zlar meniki ekan, ochib yumish ham mening ixtiyorimda. Istasham chapini, istasham o'ngini ochib yuma olaman. Balki shu qiliq menga tug'ma odat bo'lib qolgandir. O'zim ham egalik qila olmagan bir ishga siz qanday qilib buyruq bera olasiz! — dedim va shu bahona bilan ko'zlarimni pir-pir ochib yundim.

Qiz xunob bo'ldi, chidamadi, axiri:

— Ajoyib kishi, — dedi-da, kulib yubordi.

Uning bu karashmali tabassumlari meni maftun qildi. Qizga yaqinroq bordim.

— Jonim, — dedim, — agar mumkin bo'lar ekan, zardani qo'ysangiz. Bilaman, siz ham kinoga kirmoqchisiz. Qiz bolalarga ocheredda turish noqulay ham nomunosib. Agar ijozat bersangiz, har ikkovimiz uchun bilet olsam.

Qiz o'ylab qoldi. Men g'olib kelganlarday mag'rur termilib, atrofida gирgitton bo'lar edim. Qiz rozi bo'ldi. Po'rim hamyonchasini kovlab, uch-to'rt tangani sanay boshladi:

— Sabr qiling, bari bir men sizga o'z yonimdan bilet olib bera olmayman. Lekin bitta uch chervonlik aqcham bor, menga shuni

maydalash kerak. Siz menga hali berarsiz, — deb cassaga yugurdim. Ochered ham kelib qolgan ekan, darrov biletni olib qizning yoniga keldim. Vaqtni kutib zalda aylana boshladik. Men unga biror stakan choy, yoxud limonad ichishni taklif qildim. Avvaliga unamadi. Qistoqlab arang unatdim. Limonad ichdik, olma yedik. Shu orada qo'ng'iyoq urildi, ichkariga kirdik.

Kino muhabbatdan bahs qiladigan bo'lganidan juda durust, ayniqsa menga forom edi. Oldingi to'rt pardada oshiq bechora ko'p azob-uqubatlar tortar edi. Parda o'rtalarida kinoda ko'rganlarimizdan muzokara qilishar edik. U menga ko'proq fojialar ko'rishni yoqtirganini aytdi. Men unga kulgini yoqtirganimni ayt-dim. So'z orasida:

— Kino ibrat. Mumkin bo'lar ekan, kinoda ko'rgan voqealar-ning foydali tomonlarini turmushga ko'chirish kerak, — dedim. Qiz bu fikrimni ma'qulladi. Oxirgi oltinchi pardada oshiq o'z ma'shuqasiga yetishib o'pishmoqda edilar. Bu paytda mening qo'lim qo'shni stuldag'i qizning beliga o'tib, uni o'zimga tortar edim. Qiz mening yot qo'limni turtib tashlab, bunday yerda shu qiliqning yaramasligini aytib koyidi. Men "Kino — ibrat" degan nimda, "ma'qul" degan edingiz-ku, — dedim. Uyoqdan-buyoqdan gapirib uni yupatdim. Uzr aytdim, yarashdik.

Kino tamom bo'lganda soat o'n ikkilardan oshib qolgan edi. Qizni kuzatib qo'yishni iltimos qildim. Ko'ndi, yo'l-yo'lakay so'zlashib ketdik.

U hozir doyalik kursida o'qir ekan. Akasi Gosstraxda xizmatda, otasi — chol, onasi o'lgan ekan. Hozir o'n sakkizdan o'n to'qqizga qadam qo'yar ekan. Oti Adolat ekan. Men juda sho'x yigit emishman. Menday zukko yigitni umrida birinchi marta ko'rayotgan emish. Men hiylakor emishman. Uning o'zi ham sho'x odamlarni yoqtirar emish...

Xullas, men unga juda yoqar emishman.

Qiz shu gaplarni so'zlaganda menga qaymoqday yoqar edi. Ba'zi gaplarini ichimda "nafilamr" deb tinglar edim. Adi-badi aytishib, qizning uyiga yetib borganimizni ham bilmay qolibmiz.

Shu voqyeadan keyin men u bilan kinolarga boradigan bo'lib qoldim. Bir kun akasi bilan tanishtirdi. Bir haftadan mo'l ko'rish-

masak sog‘inishadigan, ora-chora xat ham yozishadigan bo‘ldik. To‘g‘risi, gapdan gap urinib, bir-birovimiz bilan turmush qurishga so‘z berishdik. Bir-birimizdan ranjimay, to‘y kunlarini sabrsizlik bilan kuta boshladik...

* * *

Men bugun idorada kechagi majlis qarorini xunob bo‘lib ko‘chirib o‘tirar edim. Soat uchga yaqinlashib, xizmat vaqt ham tugallab qolgan edi. Eshikdan yoshgina, so‘limgina bir qiz kelib, jurnalistday: “Umarov shu yerdamilar?” — deb so‘radi. Bildimki, meni izlab yuribdi. O‘zimga ulug‘vorlik berib, go‘yo ishga sho‘ng‘ib ketganlarday. Sipolik bilan o‘tiraverdim.

Qiz oldimga keldi:

- Afv etasiz, Boqijon Umarov siz bo‘lasizmi? — deb so‘radi.
- Keling, xizmat, — dedim. Qiz menga jilmayib qaradi-da:
- Agar mumkin bo‘lsa, menga ijtimoiy ahvolimning dehqonligi, kambag‘al bir kishining qizi ekanligim to‘g‘risida bir spravka yozdirib bersangiz, — dedi.

Men mot bo‘lib, dilimda “Bu yer-ku soliq idorasи, men shu yerda ishlayman, soliq idorasidan yot bir kishining ijtimoiy ahvoli to‘g‘risida unga spravka berish mumkinmi?” — deb o‘ylar edim.

Avvaliga ikkilandim, keyin shunday bir dilbarning so‘zini ikki qilmaslik uchun:

- Bugun ish vaqtı tugadi, mumkin bo‘lsa ertaga kelsangiz, dedim.

Qiz ham mo‘mingina ekan, unadi. Burilib chiqib ketayotgan edi, men ishlarimni yig‘ishtirib, papkamni qo‘ltiqlab, orqasidan yetib oldim.

Unga uyoq-buyoqdan, spravkaning nimaga kerak bo‘lib qolganidan so‘roqlar berib, javoblarini tinglab bordim. Oradan besh minutcha o‘tar-o‘tmas, menga uning istarasi issiq ko‘rinib, unga tomon ko‘nglim anchagina suv ichib qoldi. Boshqa dunyolardan gapga soldim. Hammasiga ham jo‘yalik javoblar berar edi. Uning bu qadar burroligi menga juda ma’qil bo‘ldi.

- Ertaga keling, ishingizni to‘g‘rilab beraman, — deb yana ta’kidladim.

Ertasiga keldi. Yo'q narsalarni bahona qilib bugun ham spravka bermadim. Lekin bu qiz mening unashganday bo'lib qolgan qizimdan anchagina yaxshiroq ko'rinar edi. Adolatga so'z berib qo'yganidan ko'p o'kinar edim.

Bir haftagacha aldab, bir kuni kinoga taklif qildim, unadi. Adolat bilan bo'lган muomalalarining ko'pini unga ham ishlatdim. Kinodan so'ng uyiga eltib qo'ydim. Oradan bir necha kunlar o'tdi. Adolat esdan chiqa boshladi. Bir kun gapdan gap chiqib, u menga butun sirlarini aytib soldi.

U bizning idoraga o'zicha kelmay, Adolat tomonidan, mening xulqim, odatim, boshqa xotin-qizlarga qanday qarashim to'g'risida sinamoq uchun kelgan ekan...

Boshimdan qaynoq suv quyilganday gangrib qoldim.

Sharmanda bo'ldim.

Sinaldim.

Sinadilar axir...

1928

MENING O'G'RIGINA BOLAM

Vaqeyi hikoya

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil — o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetib bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam — onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab "qora buvi" deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq avvonda uvin-to'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'rateganining kir ip sholchasi ustida uxbaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlarning bir-birimizning pinjimizga ti-qilib, bir-birimizni isitiib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi sakson-

dan oshib ketgan, noskash kampir edilar. Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rt burchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimal tomonda amakivachchalarimiz turi-shardi. Lekin ular yozda bog'ga ko'chib ketadilar. Hozir ular to-mon bo'sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda. Ertaga o'rtoqla-rimga toza maqtanadigan bo'ldim-da. "Biznikiga o'g'ri keldi". G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikin?

O'g'ri o'sha amakivachchalaryning tomidan sekin yura keLIB, buvimning to'g'rilariiga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar. Buvim puf deb nosni tuflab, tomga qarab:

— O'g'rigina bolam, hoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, — debdilar.

O'g'ri tomdan turib:

— Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib ux-lasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligidizning yo'lini to'save-rasizmi? — debdi.

Men gap shu yerkunda kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam ke-rak. Mana, olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tirib mizg'iganday qushuyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

— Nimalarni xayol surasiz, buvijon? — Bu gapdan keyin us-tidagi to'nini turmuchtlab bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

— Nimalarning xayolini surardim. Shu to'rtta yetimning er-tasini o'layman-da. Zamонни о'zing ko'rib turibsan, tiriklik tosh-dan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'. Hali bularning qo'lidan ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut bo'li-

shi qiyin. Ro'zg'orga bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. "Turib yeganga turumtog' chidamas", deganlar. Eh-a, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi. Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittaginasи o'g'il, uchtasi qiz. Endi o'n to'rtdan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chir-mab oladigan joy chiqmasa bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi, deysan. Zamon qattiq, o'g'rigma bolam, zamon qattiq!

— To'g'ri aytasiz, buvijon, — dedi o'g'ri, — mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga, cho'g'ga, Alining tig'iga uraman. Bo'lmasa ishlay desam bilagimda quvvat bor, aql-u hu-shim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'irlilik kasbi yoqadi deysizmi. Tappa-tuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinnmaydi, hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarmiki.

— Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam, — dedi kampir.

— Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbi kavushdo'zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig'ining o'zi, bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab sabzi-sholg'om oladigan badavlatlarning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolip-u, shon-u, so'zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga movaza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o'zbek, qozoq, qirg'iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to'ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib "amaki non bering" deydi. Nona-a, o'zimnikiga topolmayman-u. Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo'zchilar ham, ko'nchilar ham boringki,

maktab domlalari ham, mullavachchalarining ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg'onga zor. Sanqib yuribdi.

— Huv, Xudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat-qoyim degani shudirda-a, o'g'rigina bolam. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir. Xo'sh, endi o'zingdan so'ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo'lga qadam bosibsan, o'ziga to'qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo'lmaydimi? Mana, shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor. Odilxo'jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko'nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo'lmaydimi?

— Ey, buvim tushmagur, soddasiz-sodda, — dedi o'g'ri. — Boylarning uyiga tushib bo'ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo'rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo'jaboyning g'ulomgardishi (yo'lak)da-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham Sibir qilib yuboradi.

— Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo, lekin ehtiyyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, — dedi bizning kampir.

— Gapingiz to'g'ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to'rtta tovuq, bitta xo'roz o'margan edim.

— Tovuq-xo'roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg'ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

— Hamma ishning ham o'z maromi bo'lar ekan buvi, tovuq olgani borganda cho'ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo'ndoqning tagiga borib, og'zimni suvga to'ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday axmoq jonivor olamda yo'q. Yomg'ir yog'yapti shekilli deb o'ylab, boshini ichiga tiqib, xap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog'idan tutib xaltaga solaman.

— Shunaqa degin, voy tovba-yey. Hamma hunarning ham o'zining murti gardoni bo'lar ekan-da.

— Shunday qilib desangiz, buvixon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo'q, ellikboshimiz Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergen edim, ishni bosti-bosti qilib yubordi. Rahmonxo'ja

men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib sakson uch so'm pul jamg'arib "topganimiz shu, ellikboshi ota" deb pora bergen edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

— Ha, ishqilib, bola-chaqasining egilagini ko'rsin. Endi bu yoqqa qara, o'g'ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana yorug' yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg'ilib pastga tush. O'tinimiz yo'q, oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg'on qo'yaman. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yanman, birgalashib choy ichamiz.

— Yo'g'-e, buvi, — dedi o'g'ri, — to'nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman.

— Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket. To'xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqi, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g'ashiga tegdik, shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to'rttagina yetim qolib turibdi. Eh-a, bular qachon katta qozonni qaytanar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rígina bolam.

— Yo'q, yo'g'-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo'la-di. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O'sha yetimlarning o'ziga buyursin. To'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi buvi, men ketaman, tog' tomon ham yorishib qoldi.

— Xayr, o'g'rígina bolam, kelib tur.

— Xo'p, ona, xo'p...

* * *

Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

MUNDARIJA

O'zbekning o'z shoiri. (*Abdulla Oripov*) 3

She'rlar

Go'zallik nimada	12
Rasm egasiga	12
Turksib yo'llarida	13
Kichik bir mushoira	17
Toshkent	18
Bog'	19
O'rdak va Turg'un	20
Bog'da	22
Sadriddin Ayniyga	23
Ko'klam shamoli	23
Bari seniki	24
Nortojining kurak tishi	25
Madrid qo'shiqlari	27
Chaman	29
San'atim	31
Tursunali nega varrakdan aynidi?	31
Yasha, deyman, o'g'lim!	33
Sarhisob	34
Qasidayi shamsiya	34
Ahmad yomon bola emas-ku, ammo	36
"Miltillar ko'r qolipday ..."	43
"Hasan ko'li-ku juda kichik ko'l edi ..."	44
"Assalom, e shahri Sim ..."	44
"O'zbekiston shabcharog'i ..."	45
Mushoira	45
"Bo'lsin muborak senga ..."	46
"Oshiqi mast hushga kelmas ..."	46
"Mayiz-u turshakkina ..."	47
Cho'pon	48
"Bu kun men ..."	48
"O'n bir, o'n uch hijoli ..."	49
"Avval bahor edi ..."	49

O'pay.....	50
Kuzatish.....	50
Sen yetim emassan.....	53
Qish.....	58
Mard yigitlar qanoti.....	60
Talon-taroj qilingan yerda.....	62
Sog'inish.....	64
Xotin.....	66
Biz yengamiz.....	69
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.....	71
Yangi yil qo'shiqlari.....	73
Kuz keldi.....	76
Vaqt.....	79
Avval o'qi.....	81
Chin arafa.....	83
Yigitlarga.....	84
Hukm.....	85
Oltin medal.....	87
Qor.....	89
Yangi yil qo'shig'i.....	91
Sizning hadyangiz.....	92
Bizning bog'ga kelinglar.....	93
Yetti yuz o'ttiz kun.....	93
"O'qilgan, yozilgan ..."	95
Sizga.....	96
Gilam.....	97
Siyohdon.....	98
O'zbekning tomini.....	99
Tush yo'yish.....	100
Bahor taronalari.....	101
Sochlari.....	103
Gul.....	104
Alisher.....	105
Yoz.....	108
Qizlarga.....	110
Qizimga.....	111
Sharaf qo'lyozmasi.....	111
Farg'ona uchun.....	114
Pol Robsonga.....	116
Imtihon.....	117
Bizning keksalar.....	118

Ona.....	120
Eng zarur burchimiz.....	122
Gurungda andijonlik.....	124
Muxammasi Badr Shoshiy bar g'azali Furqat.....	125
Tabriklaymiz.....	126
"Hisorning kanali ..."	127
Bir g'uncha ochilguncha.....	127
Charog'larim — qarog'larim.....	129
Syuy Yuan.....	130
Baxt sizlarga buyursin.....	132
Chiroy.....	133
"Asrlar yil o'rtasi ..."	134
Chitti gul.....	135
Namangan uchun.....	135
Buyuk olamga salom.....	137
Bizning uyg'a qo'nib o'ting, do'stlarim.....	138
Yonma-yon ketaylik.....	140
Muharram.....	141
Buni toping, qizlarim.....	142
Sevsam sevibman-da.....	143
Bahor ohanglari.....	144
Gulxona.....	145
Endi urush bo'lmaydi.....	146
Quyoshming yorug'ligi barcha xalqqa barobar.....	148
"Tishlarining tushibdi ..."	150
Qish lavhalari.....	152
Ikki she'r.....	152
Mohgul.....	154
Alisher Navoiy qabri ustida.....	155
Hamma yerdan sen go'zal.....	156
Olma otdi.....	158
Zulfiyabegimga.....	158
Tun bila tong.....	159

Qissalar

Yodgor.....	162
Shum bola.....	210

Hikoyalar

Yigit.....	348
Mening o'g'rigina bolam.....	352

G' 29 G'afur G'ulom [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi
Rustam Musurmon. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 360 b.
ISBN 978-9943-8723-1-8

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(50')-44



G'AFUR G'ULOM

14-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islam Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/₁₆.
Ofset qog'oz'i. "PT Astra Serif" gämiturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 22,5. Nashriyot-hisob tabog'i 19,11.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnomma № 82-1/22. Buyurtma raqami № 22-296

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

G'AFUR
G'ULOM